

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

ORIENTAL UNIVERSITETI



RUSTAMBOYEV ISLOMJON DONIYOR O‘G‘LI

JAHON TARIXI

(Osiyo mamlakatlari rivojlangan o‘rta asrlar tarixi)
Uslubiy qo‘llanma

TOSHKENT-2026

UO‘K 94 (100)

KBK 63.3 (0)

R 95

Rustamboyev I.D.

JAHON TARIXI (Osiyo mamlakatlari rivojlangan o‘rta asrlar tarixi) Uslubiy qo‘llanma/ I.D.Rustamboyev. – Toshkent: «ZUXRO BARAKA BIZNES» nashriyoti, 2026.

Mas’ul muharrir:

Farxodjon Ismatullayev

Tarix fanlari doktori (DSc)

Taqrizchilar:

Islombek Bobojonov

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Jahongir Kamolov

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur uslubiy qo‘llanmada Osiyo mamlakatlarining o‘rta asrlar tarixi davrida rivojlanishining asosiy tendensiyalari, tarixiy taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini namoyon bo‘lishi, shu bilan birga har bir mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari o‘z ifodasini topgan.

Mazkur uslubiy qo‘llanmada Osiyo qit’asidagi Arab xalifaligi, Usmonli turk sultonligi, Xitoy, Hindiston, Mo‘g‘ullar davlati, Yaponiya, Koreya mamlakatlarining o‘rta asrlar tarixi, shuningdek mavzularni o‘qitishning o‘quv ishlanmalari joy olgan.

Uslubiy qo‘llanma Oriental universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2025-yil 19-dekabrda 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Rustamboyev Islomjon Doniyor o‘g‘li, 2026.

© Oriental universiteti, 2026.

“Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir”.

Shavkat MIRZIYOYEV

KIRISH

Mamlakatimizning mustaqillik yo‘lidagi ilk qadamlaridanoq buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirish maqsadida ta’lim sohasida tub islohotlarning o‘tkazilishi davlat oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va keyingi yillarda bu yo‘nalishdagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator huquqiy xujjatlar qabul qilindi va ular hayotga izchil tadbiiq etib kelinmoqda.

Ushbu dastur xujjatlarida ko‘zlangan maqsadga erishish yo‘lida ta’lim tizimida yangi avlod o‘quv adabiyotlari yaratish vazifasi ilgari surildi. Shunga binoan bugungi kunda tarix fanini tarixiylik, xolislik va zamonaviy metodologik yondoshishlarga asoslangan holda o‘qitish talab etilmoqda. Bu o‘z navbatida yangi avlod darsliklari va ularga monand Uslubiy qo‘llanmalari, shuningdek o‘quv qo‘llanmalar yaratilishini taqazo etmoqda.

Mazkur uslubiy qo‘llanma jahon tarixining o‘rta asrlar davriga oid bo‘lib, Osiyo mamlakatlarining rivojlangan o‘rta asrlar, ya’ni IX-XV asrlardagi tarixiga va uni o‘qitishning o‘quvasiga bag‘ishlangan. Osiyo qit’asidagi Arab xalifaligi, Usmonli turk sultonligi, Xitoy, Hindiston, Mo‘g‘ullar davlati, Yaponiya, Koreyaning o‘rta asrlardagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy tarixiga oid materiallar o‘rin olgan. Mazkur mamlakatlarning ushbu davr tarixini o‘rganar ekanlar, talabalar yuqoridagi mamlakatlar xalqlarining kundalik hayoti, xo‘jalik faoliyatlari, iqtisodiy, siyosiy, shuningdek madaniy tarixini kuzatib boradilar va bizga qadar saqlanib kelayotgan mashhur me’morchilik obidalari, saroylar, madrasalar, masjidlar, ibodatxonalar, qimmatli yozma yodgorliklar haqida bilimlarga ega bo‘ladilar.

1-§. ARAB XALIFALIGI

Darsning maqsadi: Rivojlangan oʻrta asrlarda Arab xalifaligi rivojlanishining asosiy tendensiyalari, tarixiy taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari haqida talabalarga maʼlumot berish.

REJA:

- 1. Abbosiylar davrida arab xalifaligi;**
- 2. Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, shaharlarning ijtimoiy tuzumi;**
- 3. Xalifalikning siyosiy tuzumi;**
- 4. Abbosiylar xalifaligi davrida xalq harakatlari**

Umaviylar sulolasi 750-yili agʻdarilganidan soʻng hokimiyatga Abbosiylar urugʻidan boʻlgan xalifalar keldilar va ular xalifalikni 1258-yilga qadar boshqardilar. Abbosiylar oʻz tarkibiga Shimoliy Afrika, Arabiston, Old Osiyo, Iroq, Eron, Kavkazorti va Markaziy Osiyoning anchagina qismi kirgan ulkan davlatni meros qilib oldilar. Biroq ular Umaviy 756-yili mustaqil amirlik tuzgan Ispaniyani qoʻldan boy berdilar, bu amirlik X asrda xalifalikka aylantirildi. 762-yil asos solingan Bagʻdod shahri koʻp oʻtmay Abbosiylar xalifaligining poytaxti boʻldi.

Sulola boshqaruvining birinchi yuz yilligi (VIII asrning ikkinchi yarmi IX asrning birinchi yarmi) Abbosiylar xalifaligining siyosiy qudrati eng yuqori choʻqqiga chiqqan davri boʻldi. Keyinchalik asoratga solingan Xalqlarning kurashi, koʻp sonli dehqon harakatlari, shahar koʻzgʻalonlari Bagʻdod xalifaligi harbiy va siyosiy qudratini zaiflashtiradi. Yirik yer egaligi munosabatlarining rivojlanishi va mustahkamlanishi alohida zamindor hukmdorlarning separatizmini, ularning katta iqtisodiy va siyosiy mustaqillikka intilishlarini kuchaytirar edi. Xalq harakatlari bilan band boʻlgan markaziy hukumat noiblar faoliyatini nazorat qila olmas edi. Noiblik lavozimi alohida urugʻlarga koʻpincha biriktirib qoʻyilar va merosdan merosga oʻtar edi. Oʻrta Osiyo, Eron, Suriya, Falastin, Misr, Shimoliy Afrika va Arabistonda shu asnoda asta-sekin mahalliy sulolalar vujudga keldilar

va X asrga kelib abbosiylar hokimiyati amalda faqat Iroqqa nisbatan yoyilgan edi.

Xalifalar siyosiy hokimiyatini zaiflashuvida yollanma qo'shin, ayniqsa o'z davrida markaziy hokimiyatning tayanchi bo'lgan xalifa gvardiyasi katta rol o'ynagan. Xalifalarga to'liq qaram bo'lib, g'aznadan maosh olganlari holda gvardiyachilar avvaliga o'z vazifalarini oqlaganlar, lekin tez orada besaramjon va favqulodda xavfli unsurga aylanadilar. X asrda gvardiyaning ta'siri shu qadar kuchayadiki, eng muhim davlat ishlarini endilikda xalifalar emas, balki gvardiya harbiy boshliqlari hal hiladigan bo'ldilar. Ular o'zlariga ma'qul bo'lmagan xalifalarni taxtdan ag'darib tashlashar, uning o'rniga boshqasini o'tqizar edilar.

Abbosiylar xalifalar siyosiy hokimiyatni uzil-kesil Bag'dod Eron urug'i Buidlar vakillari tomonidan 945-yilda yo'qotdilar. Xalifalarda faqatgina diniy hokimiyatgina qoldiriladi, biroq ular o'zlarida saroy ayonlarini saylash huquqiga ega bo'lishgan, nomlari ilgarigidak juma nomozlarida xutbada o'qib aytilgan, nomlari aks etgan tangalar chiqarilgan. Xalifalarni saqlab turilishiga o'sha davr uchun ulkan mablag'-5000 oltin dinor ajratilgan. Shu tariqa xalifalar sharqning go'yo oliy rahnamolariga aylanganlar. U yoki bu feodal hukmdorning hokimiyatini konuniy deb e'lon kilinishi uchun xalifa investiturasini olish uchun harakat qilganlar. Chunonchi, 1055-yili turk-saljuqiylar Bag'dodni egallaganlarida saljuqiylar yetakchisi To'g'rulbek xalifa tomonidan toj kiydirilganidan so'nggina qonuniy hukmdor deb e'tirof etiladi tan olingan va undan sulton unvonini oladi. Bag'dod xalifaligi uzil-kesil Bag'dodni 1258-yili mo'g'ullar egallaganidan so'nggina barham topadi.

Garchi IX-XIV asrlarda arab hududlari yagona davlat tarkibiga kirmagan bo'lsa-da, ammo yer egaligi munosabatlarining tobora rivojlanishi va mustahkamlanishi, kishloq xo'jaligi va hunarmandchilikda ishlab chiqarish kuchlarining yuqori darajasi, shaharlar rolining kuchayishi va madaniyatning o'sishi butun arab dunyosi uchun umumiy jihatlar edi.

Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, shaharlarninig ijtimoiy tuzumi. VIII asr o'rtalaridan boshlab Abbosiylar hokimiyati mustahkamlangandan so'ng xalifalikda nisbatan uzoq vaqtgacha ichki va tashqi osoyishtalik o'rnatilganki, bu qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdoning rivojlanishiga imkoniyat yaratgan. Batqoqliklarni quritib, yangi sug'orish kanallarining qurilishi va sun'iy sug'orish eski tizimini qo'llab-quvvatlash bo'yicha yirik ko'lamdagi ishlar amalga oshirilgan. Bu davrda qishloq xo'jaligining nafaqat ilgarigi tarmoqlari rivojlanibgina qolmay, balki yangilari ham paydo bo'ldi. Chunonchi, xalifalikda birinchi bor Xindistondan keltirilgan sitrus daraxtlari ekila boshlagan. Don xo'jaligi yaxshi rivojlandi, texnika ekinlari, turli xushbo'y o'simliklar ekish kengayib bordi. Alohida rayonlar va viloyatlar turli qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishga ixtisoslashganlar. Misr oziq-ovqat doni, guruch, zig'ir va paxta, Shimoliy Afrika muzofotlari zaytun moyi yetishtirib bergan. Suriya va Falastin o'z uzumzorlari, shakarqamish plantatsiyalari, mevali bog'lari bilan shuhrat qozongan. O'rta asr geografi al-Muqaddasi Falastinda 36 xil turli qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirilganligini, ulardan yettitasi faqat shu mamlakatda tarqalganligini, keyingi yetti xili bunaqa mamlakatlarda kam uchrashini, qolgan yigirma ikkitasining barchasi birgalikda faqat shu yerda o'sishi" ni yozadi. Arabiston xurmo, Irok-bug'doy va arpa yetkazib berardi. Eron va Ozarbayjonda g'o'za ekish keng tarqalgan. Har yoqda, ayniqsa Eron va Ozarbayjonda poliz ekinlari maydonlari kengayib borgan. Arabiston, Shimoliy Afrika, Eronning sharqiy viloyatlarida, shuningdek chorvachilik keng rivojlangan. Arab otlari butun dunyoda shuhrat qozongan va katta miqdorda xalifalikdan tashqariga chiqarilgan.

Ishlab chiqarishning umumiy o'sishi shahar xayotiga ham ta'sir ko'rsatgan. Eski shaharlar bilan bir qatorda endi arablarning o'zi tamonidan asos solingan yangilari o'sib borgan. Shaharlar madaniyat, hunarmandchilik, savdo markazlari bo'lib borganlar.

Bag'dod xalifalikning eng yirik shahri va xalifalarning karorgohi edi. Shaxar me'morchiligi, uning tashqi ko'rinishi, alohida qismlarining joylashuvi o'sha davr sharq feodal shahri uchun tipik bo'lgan

xususiyatlarga ega edi. Markazda qasr va bosh masjid qurilgan, undan keyin bir-biridan devor va darvozalar bilan ajratilgan aholi yashaydigan mavzelar joylashgan. Xar bir mavzeda gornizon joylashtirilgan. Bozorlar shahar darvozasidan tashqariga, rabod qismiga chiqarilgan. Odatda bozorlar nafaqat savdo, balki hunarmandchilikning ham mujassami bo‘lib, bu yerda hunarmandlarning ustaxonalari ham joylashgan. Bozordagi har bir qator bir kasb egalari bo‘lgan hunarmandlar va bir hil mahsulot sotadigan savdo ahli bilan band bo‘lgan.

Yagona boshqaruv, soliq va bojxona tariflari tizimidagi ulkan markazlashgan davlatning tuzilishi savdo aloqalarining tobora rivojlanishiga imkon berdi. Endilikda Sharq bilan G‘arbni bir-biri bilan bog‘lovchi barcha asosiy dandiz va quruqlikdagi savdo yo‘llari yagona davlat qo‘lida bo‘lgan, ularning xavfsizligi ta‘minlangan bir sharoitda maxsulotlar xalifalikning eng chekka hududlaridan markazga yoki markaziy hududlardan eng chekka hududlargacha to‘sqinliklarsiz tashilishi mumkin edi. Bag‘dodga butun dunyodan maxsulotlar keltirilardi, xususan turli-tuman shirinliklar, badiiy buyumlar uchun qora daraxt, aloe va sandal, kemasozlik uchun yog‘och, taxta, qimmatbaho toshlar, metallar va minerallar Xindistondan, Malay arxipelagidan ipak, chinni va mushk-Xitoydan, fil suyagi, qullar Afrikadan keltirilar edi.

Xalifalikning boshqa shaharlari ham-Damashq, Qohira, Buxoro, Samarqand yirik savdo markazlari bo‘lib qoldilar. Basra yirik bandargoh bo‘lib, bu yerga uzoq mamlakatlardan tovarlar kelib tushar va bu yerdan esa mahalliy maxsulotlar olib chiqilardi. Qizil dengiz bo‘yidagi uncha katta bo‘lmagan Ayla qishlog‘i gavjum shahar, Falastin uchun bandargox, Xijoz uchun omborxonasi sifatidagi joyga aylanadi. Boshqa viloyatlarda ham yangi shaharlar o‘sa boradi. Davlatning siyosiy markazini Iroqqa ko‘chirilishi Suriyaning iqtisodiy rivojini pasaytirmadi. Suriya shaharlari xalifalikning hunarmandchilik ishlab chiqarishida va savdosida ilgarigiday katta rol o‘ynardilar. O‘rta yer dengizi bo‘yida qulay geografik joylashuv, bu yerdan jahon savdo yo‘llarini o‘tishi va ishlab chiqarishning va ayriboshlashning umumiy

o'sishi Suriya shaharlari axamiyatini nafaqat saqlanib qolishiga, balki yanada o'sishiga imkon berardi.

Hunarmandchilik va savdoning rivojlanganligi hakida o'rta asr geografi al-Muqaddasi tomonidan keltirilgan Suriya va Falastindan olib kelingan mahsulotlar ro'yxati ham dalolat beradi: "Suriyada savdo daromadli sohadir, Falastindan zaytun moyi, quritilgan anjir, mayiz, yarim ipak matodan kiyim-kechak, sovun va ho'l mevalar olib chiqilardi. Quddusdan-pishloq, paxta, qo-yilmaqom duriy uzum, olmalar, qiyosi yo'q piniya (igna bargli daraxt) doni, ko'zgu, moychiroq, Arixdan ajoyib indigo (nil bo'yog'i) Sugara va Beysandan-indigo va xurmolar, Ammandan don, mis, Tabariyadan gilam matolar, kog'oz, ip gazlamalar, Kadesdan turli gazlamalar, arqonlar, Surdan shakar, marjon, o'yma naqsh berilgan oyna va nafis buyumlar, Meabdan-bodom, Damashqdan-don, zaytun moyi, gazlamalar, mis idishlar, kog'oz, yong'oq, quritilgan anjir, uzumlar olib chiqilgan.

Misr shaharlari ham rivojlanib bordilar. Fustat shahri VII asrda arab qo'shinlari bosh qo'mondonining harbiy lageri sifatida o'zini namoyon qilgan bo'lsa, Abbosiylar davrida u sezilarli darajada o'sadi. X asrda uning yaqinida Qohira shahri qurilgan edi.

Tinnis (yoki Tuneys) 50 ming aholiga ega bo'lgan, ko'zga ko'ringan shahar bo'lib, kunning xar-xil vaqtida turlicha tovlanadigan "buqalamun" gazlamalari bilan shuhrat qozongan edi. Misrdan rangli va oq chit, jun, zig'ir tolali gazlamalar turli mamlakatlarga olib chiqilgan, ularga chetda talab katta bo'lgan.

Marvda kiyim-kechaklar, gazlamalar yuqori sifatli qilib tay.y.orlangan, Samarqandda boshqa hunarlar bilan bir qatorda yozuv kog'ozi ishlab chiqarish yuqori darajaga yetgan, Anisda (Armaniston) XIII asr boshlariga kelib hunarmandchilikning 38 xil turli-tuman sohalari bo'lgan, Tbilisidan egar, turli-tuman harbiy aslahalar, oyna va xrustal buyumlari va hokazolar olib chiqilgan.

Ip yigiruv, to'quvchilik, gilam ishlab chiqarish asta-sekin yo-yila boradi, bunda xalifalikni alohida markazlari gazlamalar va gilamlarning muay.y.an turlari bilan dovrug' qozonganlar.

Qirg'ok bo'yi shaharlarida ichki va tashqi savdoning rivojlanishi munosabati bilan kemasozlik o'sib boradi. Terining turli-tuman turlarini oshlash qadimiy san'ati tobora rivojlanadi. Yuqori sifatli pergament, rangli sof'yan, kitoblar uchun teri muqovalarga nafaqat ichki bozorlarda, balki G'arbiy Yevropada ham talab katta edi. Saroylar, masjidlar, turli inshootlarni qurilishi quruvchilik san'ati va u bilan bog'lik yog'ochga, toshga, marmarga ishlov berish hunarlarini takomillashtirishni talab etardi.

Zamindorlarning zebi-ziynat buyumlariga bo'lgan o'sib borayotgan talabi oltin va kumush qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar qazib olishni zargarlarning ishlab chiqarishini o'sishiga olib borar edi. Arabistonda marvarid, Yamanda agata, Eronda kumush, Sudan va Nubiyada oltin qazib olish ko'payadi. Xalifalikda va chet ellarda sovuq qurollar, shu jumladan mashxur Damashq po'latidan yasalgan qilichlarga talab katta bo'lgan.

Xalifalik Sharq va G'arbning barcha mamlakatlari bilan savdo aloqalariga ega bo'lgan. Arab savdogarlari Hindiston, Indoneziya, Xitoylarga suzib borganlar, u yerlarda musulmon savdogarlarining ko'zga ko'rinarli faktoriyalari yuzaga kelgan. Shimol mamlakatlari bilan ham savdo aloqalari yo'lga qo'yilgan, arab savdogarlari o'z mahsulotlarini Volga daryosi, Boltiq dengizi bo'yiga olib borganlar. Arxeologlarning Boltiq bo'yi va Buyuk Novgoroddan arab tangalaridan iborat ko'plab xazinalarni topganligi bundan dalolat beradi.

Xalifalikdagi shaharlarni feodal aristokratiyasi vakillari ichidan markaziy hokimiyat tomonidan tayinlanadigan hokimlar idora etganlar. Hokimga shaharning va shahar okrugining barcha amaldorlari bo'ysunishgan. Ayni vaqtda bu amaldorlar markaziy boshqaruvning tashkiliy idoralariga ham bo'ysunganlar. Shahar boshlig'i rais hokimdan so'ng ikkinchi shaxs bo'lgan. Raislar hokimlar tomonidan, mahalliy feodal aristokratiyasi (ko'pincha musulmon ruhoniylari) ichidan tayinlanganlar. Shaharlarda Qur'oni Karimni yaxshi biluvchi musulmon ruhoniylari katta ta'sirga ega bo'lganlar. Shahar hayotida muxtasib idorasi katta o'ringa ega bo'lgan, u bozordagi yagona o'lchov va tarozu, hunarmandchilik mahsulotlari sifati, barcha mahsulotlarga qo'yiladigan

narx-navolarni nazorat qilib turgan. Shaharlarda moliya idorasi amaldorlari ham ish ko'rganlar, ular soliq solish va soliq yig'ish, boj undirish ishlariga rahbarlik qilganlar. Bundan tashqari har bir shaharning o'z qozisi bo'lgan, u barcha sudlov ishlarini musulmon qonunchiligi meyorlariga muvofiq ko'rib borgan. Hunarmandchilik va savdoning yaxshi rivojlanganligiga qaramay, shaharliklar qisman qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishgan. Ular shahar tashqarisida o'zlarining dalalariga va tomorqalariga ega bo'lishgan.

Xalifalikning bironta ham shahari o'zini-o'zi boshqaruv tizimiga ega bo'lmagan. Ko'pchilik hunarmandlar dunyoviy yoki diniy zamindorlarga qaram bo'lishgan, biroq XI asrga kelib hunarmandlarning shahsiy qaramligini susayishi kuzatiladi, sexlar iqtisodiy taraqqiyotda tobora katta rol o'ynay boshlaydilar.

IX-XIII asrlarda goh u yer, goh bu yerda shaharliklarning ko'zg'alonlari bo'lib turgan. Yirik savdogarlar, boy shaharliklar ko'zg'alon ishtirokchilariga g'animlik ko'zi bilan qarashgan va zamindorlarga qo'shilishgan. Qo'zg'alonchilar shahar aholisining demokratik qatlamlariga mansub bo'lishgan. Qo'zg'alonchilarning shaharlarda hokimiyatni qo'lga olgan vaqtlari ham bo'lgan, rais qilib o'z vakillarini ham qo'yganlar, biroq bundan shahar hayotida ko'p narsa o'zgarmagan, binobarin qo'zg'alon bostirilishi zahoti g'oliblar xalifalik hokimiyati vaqtidagi tartiblarni, boshqaruv tizimini deyarli to'liq qayta tiklaganlar.

Xalifalikning siyosiy tuzumi. Abbosiylar tashqi istilolarni davom ettirmadilar. Xalifalarning asosiy maqsadi markaziy hokimiyatni mustahkamlash bo'lib, ularning asosiy islohotlari iloji boricha markaziy boshqaruvni kuchaytirish, sulolaning siyosiy va iqtisodiy tayanchini kengaytirishga yo'naltirilgan edi.

Agar umaviy xalifalar asosan arab zamindorlariga tayangan bo'lsalar, Abbosiylar esa Umaviylarga qarshi kurashda nafaqat Xalq harakati kuchlaridagina emas, arab bo'lmagan asosan forsiy zamindorlarning madadidan ham foydalandilar. Shuning uchun ham Abbosiylar g'alabasidan so'ng kelib chikishi eronlik feodallar davlat boshqaruviga, yuqori davlat lavozimlariga qo'yilganlar.

Davlatda oliy hukmdor avvalgidek ham dunyoviy, ham diniy hokimiyatni o‘z qo‘lida mujassam etgan xalifa edi, biroq 755-yildan ulug‘ vazir lavozimi joriy etilgan, u xalifadan so‘ng ikkinchi shaxs bo‘lib, fuqoro ishlarida uning o‘rinbosari hisoblanardi. Yarim yuz -yillik davomida bu lavozimni, shuningdek boshqa muhim lavozimlarni eroniy urug‘ vakillari Barmoqiylar egallab kelishgan.

Ulug‘ vazir lavozimini joriy qilinishi avvaliga markaziy hokimiyatni kuchayishiga imkon berdi, biroq pirovardida vazirlar shunchalik kuchayib ketadilarki, xalifalar emas, davlatni amalda ular boshqarar edilar. Barmoqiylarning mavqei favqulodda oshib ketadi: vazirlarga bevosita matbuot idorasi ya’ni barcha davlat xujjatlari chiqib keladigan xalifa devoni; turli davlatlar bilan diplomatik munosabatlar va diplomatik yozishmalar idorasi; davlat daromadlari (xiroj idorasi); xarajatlar idorasi; xalifa gvardiyasi; harbiy idora va boshqa idoralar bo‘ysungan. Bu ro‘yxat vazirning vakolatlari naqadar yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi. U ko‘plab davlat ishlarini, xususan oliy davlat amaldorlarini, qo‘shinlar qo‘mondonlarini lavozimiga tayinlash masalalarini mustaqil hal etishi mumkin edi. Unga shuningdek pochta va mirshablik xizmatlari boshliqlari ham bo‘ysunganlar. Ulug‘ vazir hokimiyati faqat xalifa Xorun ar-Rashid (786-809) tomonidagina anchagina cheklangan, u 802-yili Barmoqiylarni davlat lavozimlaridan chetlashtirib, ular mulklarini musodara etgan va butun urug‘ini qirib tashlagan.

Xalifaning diniy ishlaridagi yordamchisi bosh qozi bo‘lib, u sud va maorif ishlarini boshqargan. Islomning davlat dini ekanligi va Abbosiylarning diniy siyosati munosabati bilan (Umaviylardan farqli o‘laroq, Abbosiylar teokratik davlat boshqaruvi g‘oyasini qo‘llab-quvvatlaganlar) bosh qozi tobora katta mavqe kasb etib, o‘z ta’siri bo‘yicha ulug‘ vazirga yaqinlashgan. Bosh qoziga shaharlar, viloyatlar va alohida hududlar qozilari bo‘ysungan.

Alohida viloyatlar tepasida avvalgidek odatda yuqori zamindor aristokratiyadan chiqqan amirlar-noiblar turgan. Amir lavozimi shunchalik daromadli bo‘lganki, zodagonlarning ko‘plab vakillari uni egallash uchun ulkan miqdorda mablag‘ sarflashgan. Garchi Bag‘dod

xalifaligi butun tarixi davomida markaziy hokimiyat yirik yer egalarining separatistik tendensiyalariga qarshi kurash olib borgan bo'lsa-da, viloyat hukmdorlari o'zlarini kuchli podshoh deb xis etar, o'zboshimchalik bilan solik va to'lovlarni oshirishar, ba'zida esa ularni butunlay o'zlashtirib olardilar. IX asrdan boshlab noiblarning boshqaruvidagi hududlari ustidan merosiy hokimiyatlari amalda mustahkamlangan, hukmdorlarning bir qator sulolalari, masalan, Misrda Tuluniylar, Eron va Markaziy Osiyoda Toxiriylar, Safforiylar, Somoniylar sulolalari vujudga keldilar. Amirlar va alohida hukmdorlarning hokimiyatini mustahkamlanishiga xalifalarning daxshatli va uzoq davom etgan Xalq harakatlariga qarshi kurashda mahalliy zamindorlarga katta mustaqillik berishlari ham imkon bergan.

Amirlarga amaldorlarning ko'pdan-ko'p shtatlari bo'ysungan bo'lib, ular orasida soliq yig'uvchilar alohida o'rin tutganlar. Abbosiylar tomonidan o'tkazilgan qo'zga ko'ringan islohot sifatida moliya idorasini qayta tashkil etish bo'yicha o'tkazilgan islohotni ko'rsatish mumkin. Davlatning moliyasini boshqarishni takomillashtirish, xarajatlar va daromadlar ustidan nazoratni kuchaytirish uchun davlatning soliq tushumlari va xarajatlar hisobini oluvchi Oliy hisob idorasi tashkil etilgan. Idorada maxsus operatsiyalar bilan shug'ullanuvchi turli-tuman bo'limlar bo'lgan.

Abbosiylar davrida pochta xizmati alohida ahamiyat kasb etgan. Umaviylar davrida mavjud bo'lgan barcha pochta stansiyalari tiklangan va yangilari tashkil etilgan. Pochta idorasi orqali ulug' vazirlar davlat apparati ustidan nazoratni amalga oshirishgan, razvedka xizmatiga rahbarlik qilishgan. Pochtaning rasman asosiy funksiyasi albatta, boshkaruvning markaziy apparati bilan mahalliy hokimiyat aloqalarini ta'minlash bo'lsa-da, uning faoliyatida joylardagi amaldorlarning ishini kuzatib borish juda muhim o'rin tutgan. Pochta idoralari turli lavozimdagi shaxslar, mahalliy aholi kayfiyatlari, sug'orish inshootlari axvoli, zarb etilgan tanga- pullar miqdori, sarroflik faoliyati va boshqalar hakida ma'lumotlarni yetkazib turishlari lozim bo'lgan kuzatuvchilar va ma'lumot yetkazib turuvchilarning keng tarmoqli apparatiga ega bo'lganlar. Pochta markaziy idorasi boshlig'i maxalliy pochta

amaldorlari tomonidan berilgan ma'lumotlar asosida barcha narsalar hakida ulug' vazirga axborot bergan, Xorun ar-Rashid boshqaruvi davridan boshlab esa u bevosita xalifaga bo'ysunadigan bo'lgan.

Abbosiylar xalifaligida armiya katta rol o'ynagan. Abbosiylarning qo'shini 160 ming kishiga yetgan bo'lib, yollangan xurosonliklar, barbarlar, turklardan tarkib topgan. U xalifa g'aznasidan juda katta xarajatni talab qilardi, shuning uchun yollanma otryadlar bilan bir qatorda qullar-zinjalarning polklari ham shakllantirib borilgan. Bunday qo'shin qudrati Xalq harakatlariga qarshi tura olishni, xalifaning o'zini isyonkor zamindorlardan himoyasini taminlay olmasdi. Shuning uchun Xorun ar-Rashid vorislaridan biri Mutasim (833-842) qo'shinlarining yangi turini -g'ulomlardan tarkib topgan saroy gvardiyasini tuzadi. G'ulomlar -ko'prok qullar-harbiy asirlar bo'lib, yoshligidan alohida sharoitlarda tarbiyalanishgan, ularni mahalliy aholi bilan aloqada bo'lishlariga mutlaqo yo'l qo'yilmagan, ular xalifa qo'lida go'yo keskir qilich bo'lib xizmat qilishlari lozim bo'lgan.

Xalifalikning barcha joylaridan Makka va Madinaga ziyoratga har -yili boradigan ulkan miqdordagi musulmonlar ommasini Bag'dod ma'murlari nazorati ostida ushlab uchun ziyoratchilar yuradigan yo'llarda davlat karvonsaroylari qurilgan, eng muhim yo'llarda tayanch punktlari va qoravullik postlari tashkil etilgan.

Abbosiylar davrida islomning sunniylik yo'nalishi davlat dini deb tan olingan. Xalifa Oллоhning yerdagi soyasi hisoblangan, uning butun musulmon olamida obro'-e'tibori ayniqsa X asrning ikkinchi yarmida oshib ketgan.

Agrar munosabatlar. Abbosiylar xalifaligida yer yegaligi munosabatlari tobora rivojlana boradi. Davlat ilgarigidek barcha yerlarga oliy mulkdorlikni saqlab qoladi. Ilgarigi bosqichlarda yuzaga kelgan yirik yer egaligining barcha ko'rinishlari, xususan xususiy yerlar (mulk), in'om yerlar (ikto), jamoa mulklari, kabilalar mulklari va boshqalar ham mavjud bo'lgan, biroq ko'rilayotgan boskichda o'zgarishlar ham ro'y bergan, mulkchilikning yangi shakllari vujudga kelgan.

Agar ilgari ikto yerlariga egalikning asosiy sharti dalalarga ishlov berish va soliq to'lash bo'lgan bo'lsa, Abbosiylar davrida egalik shartlari kuchaytirilgan; ikto IX asrdan boshlab harbiy len ahamiyatga ega bo'lgan. Asta-sekin ikto olish sharti harbiy yoki fuqaro xizmatini o'tashdan iborat bo'lib qolgan.

Zamindorlar yer olar ekanlar, dehqonlar mehnatini o'zlashtirish huquqiga ega bo'lganlar. Bu tizimning rivojlanishi yirik yer egalarini kuchayishiga va davlatning oliy hokimiyatini zaiflashuviga olib kelgan. Iqtoning manbai sifatida ilgarigidek davlatga tegishli yerlar qolayotgan bo'lsa-da, biroq zamindorlar o'zlarining mulklari yaqinidagi va dehqon jamoalariga tegishli bo'lgan yerlarni ko'p hollarda egallab olganlar. Abbosiylar davriga oid tarixiy va yuridik xujjatlarda ikto egalari tomonidan yerlarni noqonuniy tarzda egallab olinishiga doir ko'plab shikoyatlar keltirilgan. Ba'zi hollarda iqto egalari o'z yerlarini xonavayron qilgan, ularni davlatga qaytarganlar, uning o'rniga yangilarini talab qilganlar.

IX asrda yirik yer egaligining yangi shakli-vaqf (yoki vaquf) yerlari paydo bo'lgan. Vaqf yerlari hukmdorlar tomonidan musulmon muassasalari, masjidlar, madrasa, maktablar, ruhoniyat vakillariga in'om etilgan yerlar hisoblangan. Davlat vaqflardan hech qanday solik olmagan, undan keladigan barcha daromadlar qaysi muassasa yoki shaxsga in'om etilgan bo'lsa, o'sha muassasa yoki shaxsning faoliyati uchun sarflangan. Nafaqat yerlar, balki har qanday ko'chmas mulk do'konlar, karvonsaroylar, xammomlar va boshqa mulklar vaqf bo'lishi mumkin edi. Har bir musulmon o'z mulkini vaqf deb e'lon qilishi va uni diniy muassasalarga muay.y.an shartlar bilan berish huquqiga ega bo'lgan.

Vaqfning tashkil etilishi xalifalikda musulmon ruhoniyati pozitsiyasini sezilarli darajada kuchaytirgan. Bundan tashqari ko'pincha dunyoviy feodallar o'z iqtolarini soxtalik asosda vaqfga bera boshlaganlar. Bu tadbir ham dunyoviy, ham diniy zamindorlarga foydali bo'lgan, iqto egasi o'z yerini vaqf deb e'lon qilar ekan, davlatga xizmat qilish va soliq to'lashdan qutulgan bo'lsa, diniy feodallar esa amalda ularga tegishli bo'lmagan yerlardan olinadigan daromadning bir qismini

o'zlashtirganlar. Soxta vaqflar amaliyoti davlat hokimiyatini zaiflashtirgan, davlat g'aznasiga tushadigan daromadni kamaytirgan.

Abbosiyalar xalifaligida alohida zamindorlar qo'lida yer mulklarini to'planib borishi davom etgan, xalifalar va ularning qarindoshlari eng katta yer egalariga aylanganlar. Umaviylarni bitta qo'yamay qirg'in qilinishi va ular mulklarini musodara qilinishi davlat yerlari fondini ko'paytirgan, biroq ularning katta qismi abbosiy xalifalarga o'tgan. Shu bilan birga xalifalar ulkan mablag'larni tasarruf qilgan ekanlar, yangi yerlarni o'zlashtirishni tashkil etganlar. Xalifa Al-Mansur (754-775) davrida Axvazdagi bir o'zlashtirilmagan uchastkaga 300 ming dirxam xarajat qilingan. O'z pomestiyalarini kengaytirish uchun xalifalar barcha imkoniyatlardan foydalanganlar. Egasiz va tashlab ketilgan yerlar xalifa mulki deb e'lon qilingan. Xorun ar-Rashid hukmronligining boshlarida Falastinda o'lat tarqalgan, undan nobud bo'lganlarning yerlari ekilmay qolgan. Xalifa u hududga vakolatli kishilarini yuborib, bu yerlarga ishlov berilishini ta'minlash choralarini ko'rgan. Bu yerlar xalifa mulki bo'lib qolgan. Xalifalar tashlandiq yerlarni o'zlashtirish davomida soliq yukini dastlabki davr uchun pasaytirish va ijara shartlarini yengillashtirish yo'lini tutishgan.

Abbosiy xalifalarning yer mulklari shu qadar katta bo'lganki, maxsus idora "mulk devoni" ta'sis etish zaruriyati tug'ilgan. Joylarda pomestiyalarni boshkaruvchisi lavozimi joriy qilingan.

Xalifadan so'ng Abbosiylar xonadonining eng yaqin qarindoshlari, arab va arab bo'lmagan yuqori zodagonlar vakillari eng katta mulklarga ega bo'lganlar. Ba'zi vazirlarning yerlari nihoyatda katta bo'lgan. Ma'lumki, Xorun ar-Rashidning vaziri Yahyo Barmoqiy o'z yaqinlariga butun-butun qishloklarni in'om qilib yuborgan.

Muzofot va viloyatlarning noiblari vazirdan qolishmagan. Ular xalifaning ijozatisiz yerlarni egallab olganlar. Qo'zg'alonlarni bostirish chog'ida musodara etilgan pomestiyalar yoki dehqonlar tashlab ketgan yerlar qonunga ko'ra garchi g'azna ro'yxatiga, tasarrufiga kiritilishi lozim bo'lsa-da, odatda amirlar tomonidan o'zlashtirib olingan. Zamindorlar qo'lida yerlarni to'planib borishi dehqonlarni tobora asoratga solinishi va qashshoklashuviga olib kelgan.

Bu davrda dehqonlar jamoasi yanada buzilish jarayonini boshidan kechirayotgan edi, u davlatning turli hududlarida bir xil kechmagan. Iroqning shimoliy qismi, Eron, Xuroson, O'rta Osiyoning ba'zi viloyatlari va shuningdek Shimoliy Afrikada uzoq vaqt ko'prok yoki kamroq darajada erkin jamoa saqlanib qolgan, biroq Misr, Suriya, Falastin, Janubiy Iroqda jamoa dehqonlarining nomigagina birlashmasi soliq olishning birligiga aylangan. VIII-IX asrlarga kelib Janubiy Iroq jamoalarida yaylovlarning umumiyliigi barham topgan. Xatto to'qaylarning bir qismi hususiy mulkka aylantirilgan, ular sotib olinishi, sotilishi yoki merosdan-merosga o'tishi mumkin edi. Jamoa ichida keskin tabaqalanish sodir bo'lgan, jamoalarning yuqori tabaqasi ajralib turgan.

Qishloq jamoasining buzilishi tashqi bosim, soliq zulmi, yirik yer egalari tomonidan jamoa yerlarini to'g'ridan-to'g'ri egalab olinishi bilan tezlashgan. Abbosiylarning mahalliy zodagonlar va jamoa yuqori tabaqalari bilan yaqinlashuvi ularning hokimiyatini kuchaytirgan va dehqon jamoachilarni asoratga solinishiga imkon yaratgan.

Xalifalikning ba'zi rayonlarida mayda dehqonlar davlat og'ir soliqlarini to'lashdan qutulish uchun o'z yerlarini diniy muassasaga vaqfga yoki xatto yer egalariga muayyan muddatga berishgan. Bu muddat o'tgandan so'ng vaqf ta'sischi yoki uning avlodlari yerga bo'lgan huquqdan maxrum bo'lganlar va oddiy ijarachilarga aylanganlar.

Xalifalikning asosiy boyligini olinadigan soliqlar tashkil etgan. VIII-IX asr bo'sag'asida davlatning umumiy daromadi 530 mln. dirxam miqdorida bo'lgan, bundan tashqari g'aznaga turli-tuman natural soliqlar kelib tushgan. Abbosiylar davrida Umaviylar davridagi soliqlar saqlanib qolgan. Alohida shaxslar zodagon va amaldorlarga xirojni to'g'ri tushumini ta'minlash topshirilgan. Agar avvaliga bu chora soliqlarni tizimlashtirish, uni yig'ib olishni tartibga solinishiga imkon bergan bo'lsa, asta-sekin u soliq to'lovchilarni chinakam talash tizimiga aylangan.

Garchi amirlar soliqlarni oldindan davlatga to'lab, keyin yig'ib oluvchilar (otkupshik) faoliyatini kuzatib borishlari lozim bo'lgan,

ba'zida esa ularga qarshi uncha katta bo'lmagan harbiy otryadlar yuborsalar-da, suiste'molliklardan xoli bo'lishning mutlaqo iloji bo'lmagan.

Dehqonlarga nisbatan shafqatsiz zulm qilinishi, ularni tobora asoratga solinib borishi, butun-butun muzofotlarni qamrab olgan ulkan xalq harakatlarini keltirib chiqargan.

Abbosiyalar xalifaligi davrida xalq harakatlari. Abbosiylar umaviy xalifalarini ag'darib tashlagan g'olibona xalq harakatidan foydalanib hokimiyatga kelganlar. Xalq kurashi davom etavergan. Qo'zg'alon ko'targan omma yangi yetakchilar, yangi rahbarlar atrofida birlashgan.

751-yili Buxoroda kelib chiqishi arab bo'lgan Sharik boshchiligidagi yirik qo'zg'alon sodir bo'lgan. At-Tabarining xabar berishicha, bu xalq harakatiga 30 mingdan ortik odam qo'shilgan, unda nafaqat arablar, balki so'g'diylar ham qatnashganlar.

Sharik qo'zg'aloni zamindorlar zulmiga qarshi, xalifalikka qarshi qaratilgan edi. Umaviylarni ag'dargan xalq qo'zg'aloning sobiq rahbari Abu-Muslim Abbosiylar tarafida bo'lgan. U o'z qo'shini bilan Sharikka qarshi kurashga otlangan. Qo'zg'alonchilar 37 kun davomida hukumat qo'shinlariga qarshilik ko'rsatganlar, biroq pirovardida ularning kuchlari sindirilgan. Buxoro o't ichida qolgan, Qo'zg'alon qatnashchilari qatag'onlar va kuvg'inlarga uchragan.

Sharikning chiqishlari bilan bir vaqtda Iroqda va Arabistonda xorijiyalar shiorlari ostida yirik qo'zg'alonlar sodir bo'lgan. Xalifa qo'shinlari ularni ikki -yil davomida tinchlantirgan.

Garchi Abu-Muslim yuqori martabali ayon va sharqiy muzofotlarning amalda hukmdori bo'lib olgan bo'lsa-da, xalq orasida yetakchi sifatidagi obro'-e'tibori 755 -yili xalifa buyrug'i bilan unga nisbatan suiqasd uyushtirilishiga olib kelganda ushbu qotillik yangi chiqishlarga signal sifatida qabul qilishgan. 755 -yiliyok boshlangan harakatning markazlari Nishopur va Ray bo'lgan. Harakatga hunarmandlardan chiqqan Sumbat degan odam boshchilik qilgan. Uning tarafdorlarini ijtimoiy tarkibi turli-tuman bo'lgan. Unga dehqonlar, hunarmandlar, mayda savdo ahli, arablar, sug'diylar, turli boshqa etnik

guruhlarning vakillari, turli diniy e'tiqoddagi shialar, zardushtiylar, xurramiylar qo'shilishgan, qo'zg'aloning asosiy shiori mulklarni tenglashtirishga chaqiriq bo'lgan.

Qo'zg'alon 70 kun davom etgan. Qo'zg'alonchilar xalifalik qo'shinlarini tor-mor qilishgan, hukumat qo'shinlarini bir necha qo'mondonlari o'ldirilgan. Nihoyat, qo'zg'alonchilarning kuchlari muttasil kurashlar bilan zaiflashgan. Ularga qarshi Xuziston, Fors va Isfahonning birlashgan kuchlari jo'natilgan. Rayda qo'zg'alon ko'targanlar uch kun hukumat qo'shinlarining siquviga dosh berganlar, to'rtinchi kuni shahar egallangan. Sumbat o'ldirilgan. G'oliblar mag'lublardan shafqatsiz o'ch olishgan, deyarli 10 ming kishi o'ldirilgan, shahar talon-taroj qilingan, ayollar va bolalar asirga olingan. Omon qolgan qo'zg'alon ishtirokchilari mamlakatni turli viloyatlari va muzofotlariga tarqalib ketganlar.

Keyingi yirik qo'zg'alon 776-783-yillarda sodir bo'lgan. Unga Muqanna laqabli Xoshim ibn Hakim boshchilik qilgan. Muqanna faoliyatining boshlanishi 60-yillarga to'g'ri keladi, u bu davrda Abbosiylarga qarshi qo'zg'alon ko'tarish chaqirig'i bilan chiqqan. Uni xibsga olishgan, u uzoq vaqt Bag'dod qamoxonasida bo'lgan, ammo u yerdan qochishga muvaffaq bo'lgan va Markaziy Osiyoga qaytib kelgan.

Muqanna Marvga kelib, o'z atrofiga norozi kishilarni to'plab borgan, uning tarafdorlari ko'paygan Marvdan u Markaziy Osiyoning turli rayonlariga o'z targ'ibotchilarini yuborgan, u yerda ular ancha samaraga erishganlar. Ko'p o'tmay, Muqannaning o'zi Amudaryo orqali yo'l olgan. Narshaxiy shunday yozadi "Sug'ddagi ko'pchilik kishloklar Muqanna e'tiqodi tomoniga o'tgan va ochiqchasiga shakkoklikni namoyon etgan ... Raiyat islomdan qaytib, olomonlarcha Muqanna ta'limotini qabul qilganlar" Muqanna ilohiylik unda mujassam bo'lganligini va u xudo nomidan gapirishini va barcha unga quloq solishini va bo'ysunishini e'lon qilgan. U o'zining tarafdorlariga jannatni va'da qilib, dushmanlarini esa do'zax bilan qo'rkutgan.

Qo'zg'alonchilar birin-ketin Buxoro viloyatining bir qancha rayonlarini qo'lga qiritishgan. Qo'zg'alon ko'taruvchilarning asosiy markazi Buxoro yaqinida joylashgan Narshax qishlog'i bo'lib qolgan.

Qishloqni egasi Muqanna tomoniga o'tgan. 776-yili bu yerda xalifa qo'shinlari bilan birinchi jang bo'lgan, u 700 kishini qurbon bergan qo'zg'alonchilarning mag'lubiyati bilan tugagan. Xalifa qo'shinlari qo'mondoni qo'zg'alon yetakchilari bilan kurashni to'xtatish to'g'risida kelishishga uringan, biroq shu -yilning o'zidayok Narshaxda qo'zg'alon yangidan ko'tarilgan. Narshax qishlog'i to'rt oy qamal qilingan. Qo'zg'alonchilarning ixtiyoriy ravishda qo'ldan qurolni qo'ymasliklariga ishonchi komil bo'lgan qamal qiluvchilar asosiy kal'a minoralaridan birining tagidan maxfiy laxm qaziy boshlagan. Qo'zg'alon ko'taruvchilar nihoyat dushmanning siquviga dosh bera olmay qolishgan. Xalifa qo'shinlari xalq kurashining bu o'chog'ini yo'q qilishgan, qo'zg'alon sardorlari va Narshaxning egasi o'ldirilgan, qishlok talangan. Tirik qolganlar Muqannaning oldiga qochib borganlar, u Sug'd bilan birga qo'zg'alonning asosiy markazlaridan biri bo'lgan Qashkadaryo vodiysida mustahkam o'rtnashib olgan.

Agar qo'zg'alonning boshida mahalliy zamindor zodagonlarning ayrim vakillari qo'zg'alonchilarni qo'llab-quvvatlagan bo'lsalar, Narshax ostonalaridagi mag'lubiyatdan so'ng ular hukumat qo'shinlari tomoniga o'tganlar. Amir katta qo'shin tuzgan, bu qo'shinning yarmini Buxoro va boshqa dehqonlarning xalq lashkarlari tashqil etgan. Qo'zg'alonga qurol-yarog', toshotar qurollar va boshqa aslahalar tay.y.orlovchi 3 ming nafar hunarmand xizmat ko'rsatgan. Bu barcha qo'shinlar birinchi navbatda sug'd rayonlariga qarshi tashlangan.

Garchi qo'zg'alonchilar lagerida ham puxta tay.y.orgarlik ko'rilgan bo'lsa-da, 778-yil Samarqand taslim bo'ladi. Shundan so'ng qo'zg'alon markazi Som qal'asiga ko'chirilgan. Xalifa qo'shinlari to'rt -yil davomida bu shaharni qamal qilganlar. Tashqi dunyodan ajratib qo'yilgan qamaldagilar jon-jahdlari bilan qarshilik ko'rsatishgan, biroq ularning kuchlari tugab borgan va 783-yili qal'a egallangan. Muqanna halok bo'lgan. Qo'zg'alon mag'lubiyat bilan yakun topgan, biroq ko'p -yillar Muqanna ta'limoti tarafdorlari Abbosiylar hukmronligiga qarshi kurashga chorlaganlar.

Muqanna qo'zg'aloni bilan bir vaqtda, xalifalikning boshqa bir rayonida, Jurjonda (Kaspiy dengizining janubi-sharqiy kirg'og'i

bo'yida) "Qizil bayroqlilar" (Surx alam) dehqonlar qo'zg'aloni ko'tarilgan.

VIII asr oxiri IX asr boshlari xalifalikda yirik yer egalariga qarshi kurashning tobora kuchayib borishi bilan tavsiflanadi. Qo'zg'alonlar Misrda, Iroqda, Shimoliy Afrikada sodir bo'lgan. Ozarbayjonda kurash keng quloch yoygan, bu yerda antifeodal harakatlar va xalifalikka qarshi urush favqulodda katta ko'lam kasb etgan.

Xorun ar-Rashid boshqaruvining so'nggi davrida Isfaxon, Xomadon, Rayni qamrab olgan qo'zg'alon boshlanadi. Xalifa 20 ming kishilik qo'shinni jo'natgan, u qo'zg'alonchilar lashkarini tor-mor keltirgan. Manbalarning xabar berishicha "son-sanoqsiz ko'p xalq" qirg'in qilingan.

Toj-taxt uchun Xorun ar-Rashidning o'g'illari o'rtasida o'zaro urush va Vizantiya bilan xalifalikning davom etayotgan urushi yangi qo'zg'alonning boshlanishi uchun qulay vaziyatni yaratgan. 815-yil boshlangan qo'zg'alonga yosh hunarmand Bobek boshchilik qiladi. Ozarbayjon qo'zg'aloni qo'shni viloyatlarga tarqala boradi. Bobek tomon hamma tomondan hurramiylar oqimi tarafdorlari yo'l oladilar. Birgina Ozarbayjonda qo'zg'alon ishtirokchilari 300 ming kishiga yetgan.

Yangi xalifa Ma'munga (813-833) boshqaruvning birinchi kunlaridanok qo'zg'alonchilarning ko'p sonli armiyasiga qarshi kurashishga to'g'ri kelgan. U qo'zg'alonga qarshi yuborilgan harbiy qo'mondonlari va noiblariga butun-butun viloyatlarni berib yuborishgacha yo'l tutishga majbur bo'lgan. Xalifalik qo'shinlari mag'lubiyat ketidan mag'lubiyatga uchrayvergan. Nizomul-Mulk bu hakida shunday yozadi "Ma'mun Muhammadga Qazvin va Ozarbayjonni bergan. U bilan Bobek o'rtasida olti marta katta jang bo'lgan. Nihoyat Muhammad ibn Xamid o'ldirilgan. Bobekni omadi yurishgan. Xurramiylar Isfaxonga qaytishgan. Ma'mun Muhammadning o'limidan juda qayg'urgan. U zudlik bilan Muhammadning o'rniga Abdulloh ibn Tohirni tayinlagan. Uning tasarrufiga Ko'xiston va Ozarbayjonni bergan. Abdulloh katta qo'shinni Ozarbayjonga olib kelganda Bobek unga qarshilik ko'rsata olmagan, anchagina

mustaxkamlangan kal'aga qochgan. Uning qo'shini esa tarqalib ketgan. 833 -yilga kelib Isfaxon, Fors, Ozarbayjon va butun Ko'xistonning xurramiylari yana qo'zg'alon ko'targanlar.

Qaytadan ko'tarilgan qo'zg'alon o'zining yuqori cho'qqisiga chiqqanki, xalifalikning barcha urinishlari zoye ketgan. Deyarli 15-yildirki, qo'zg'alonchilar muttasil xalifa qo'shinlari ustidan g'alaba qozona borganlar. Hukumatning beshta yirik armiyasi tor-mor keltirilgan.

Navbatdagi xalifa Mutasim (833-842) harbiy islohot o'tkazgan, yollanma muntazam qo'shin, g'ulomlar gvardiyasini tuzgan, xalifalikning barcha resurslarini safarbar etgan. 835-yili Bobekka qarshi yo'naltirilgan barcha xalifalik qo'shinlari qo'mondoni etib, yirik sarkarda Afshin Xaydar ibn Qavus ta-yillangan, unga katta miqdordagi pul mablag'laridan tashqari Ozarbayjon va Armaniston noibligi berilgan. Afshin o'zining qo'zg'alonchilarga qarshi yurishiga puxta tay.y.orlangan. U bunda Bobekning sobiq ittifokchilari zamindorlardan ham foydalangan.

Ustunlikka ega bo'lgan kuchlar bosimi ostida qo'zg'olonchilar chekinishga majbur bo'lishgan. Tog'larga siqib chiqarilgan Bobek qo'shinlarining qoldiklari xurramiylarning mustahkamlangan markazi Bazzaga o'tib ketadilar. Qal'a qamal qilingan va 837-yili qulagan. Bobek qaladan qochishga ulgurgan, biroq Qoratog' zamindorlaridan birining sotqinligi tufayli Afshinning qo'liga tushgan. Uni xalifalikning paytaxti Bag'dodga olib kelishgan va 838-yili qatl etishgan”.

Abbosiyalar davlatida qulchilik xo'jalik shakli sifatida uzoq saqlangan. Qullardan armiyada mustahkamlovchi inshootlar qurilishida yordamchi kuch sifatida foydalanishgan. Qullar mehnati uy xo'jaligida ham, og'ir ishlarda, kanallarni tozalashda, botqoqliklarni quritish, turli qazilma boyliklarni qazib chiqarishda qo'llanilgan. Qullarni Afrikadan Zanzibar oroli orqali keltirishgan va bu orolning arabcha nomidan (az-Zindjibar) barcha qora tanlilarni zindji deb atashgan.

Ko'plab qullar Janubiy Iroqda, ayniqsa sug'orish tizimini qo'llab-quvvatlash bo'yicha muttasil ish olib borilgan ikki daryo oralig'ida

mujassam bo'lgan. Xuzistonda qullardan paxta va shakarqamish plantatsiyalarida foydalanilgan.

869-yili zindjilar qo'zg'alon ko'tarishgan va 14-yil davomida Ikki daryo oralig'i va Xuzistonning ba'zi rayonlarini o'z qo'llarida ushlab turganlar. Qo'zg'alon ko'targan qullarga dehqonlar va ayrim Sharqiy Arabistonning badaviy qabilalari qo'shilgan, qo'zg'alonga mayda arab zamindori Burkan (Choyshab yopingan) laqabli Ali Ibn Muhammad boshchilik qilgan.

Qo'zg'alon ko'taruachilar qullardan o'zlarining qurolli otryadlarini, badaviylar lashkarlarini tuzadilar va qisqa vaqt ichida Obola, Axvoz, Obodon shaharlarini egalab olganlar. Zindjilar 870-yili badaviy yetakchilaridan birining rahbarligi ostida xalifa qo'shinlariga katta zarba berganlar. So'ng qo'zg'alonchilar hukumat qo'shinlarining uchta ketma-ket xujumlarini kaytarganlar.

871-yili zindjilar yirik bandargoh va savdo-sotik shahri bo'lgan Barsani egallaydilar. Qo'lga olingan hududlarda barcha qullar ozod qilingan. Qo'zg'alonchilarga shahar va qishloqlarning eng kambag'al qatlamlari qo'shilishgan. Zindjilar bilan kurashda xalifalar barcha kuchlarini ishga solishgan, biroq zindjilar egallagan hududlarning strategik ustunliklaridan yaxshi foydalanishgan. Ular orolchalarda mustahkamlangan markazlar tashkil etishgan va xalifalik qo'shinlarining xujumlarini muvaffaqiyatli qaytarib turganlar. Xalifaning o'zi qo'shinlari ustidan qo'mondonlikni qo'lga olgan, ammo bir necha mag'lubiyatlardan so'ng chekinishga majbur bo'lgan.

Xalifalikning ahvoli alohida sharqiy va boshqa muzofotlardagi hukmdorlarning isyonlari bilan ham murakkablashgan. Safforiylarning sharqdan, Tuluniylarning Misr va Suriyadagi xujumlari aynan shu vaqtga to'g'ri keladi. Zindjilar yetakchilari Safforiylar bilan birgalikda yurish haqida kelishishga urinishgan, biroq Yoqub Saffor bu takliflarni rad etgan va sharqqa chekingan. Zindjilar xar xolda uning sarkardalaridan birini o'z tomonlariga og'dira olishgan. Garchi bu ittifok mustahkam bo'lmasa-da, biroq bu zindjilarga muayyan ustunlikni bergan.

878-879-yillarda turk qabilalaridan yig'ilgan yollanma xalifalik qo'shinlarining zindjilar tomoniga o'tgan xollari ham bo'lgan. Zindjilar muhim tayanch punkti Vasit shahrini egallaganlar va bevosita Bag'dod yaqinida bo'lib qoladilar. 879-yili zindjilar yetakchisi Ali ibn Muhammad o'zini xalifa deb e'lon qiladi, o'z nomidan tangalar zarb ettiradi. Uning nomi masjidlarda juma nomozlarida xutbaga qo'shib o'qiladi. Davlat boshlig'ining qarorgohi va poytaxti etib, zindjilarning o'zlari tomonidan qurilgan Muxtara shahri e'lon kilingan.

Shunday qilib, qullarning g'olibona qo'zg'aloni natijasida o'zlarining davlatlari vujudga kelgan. Biroq u Abbosiylar xalifaligi namunasi bo'yicha yuzaga keladi. O'rta asrlar sharoitida boshqacha bo'lishi ham mumkin emasdi, buning ustiga qo'zg'alonga zindjilardan chiqqan kishilar rahbarlik qilishgan. Zindjilar orasidan ilgari surilgan qo'mondonlar va yetakchilar ham tez orada zamindor hukmdorlarga aylanganlar.

Bu xolatlar qo'zg'alon kuchlarini sezilarli darajada zaiflashtirgan. Zulm va majburiyatlardan qutilishga umid qilgan dehqonlar va badaviylarning ko'p o'tmay xafsalalari pir bo'lib, qo'zg'olondan chetlasha borganlar. Zindjilarning o'zining orasida ham norozilik kelib chiqqan.

Bularning barchasidan ma'murlar foydalanib, zindjilarga qarshi yangi qo'shinlar va flotni yuborganlar. Xalifa kemalari kanallar bo'ylab suzib kelgan. Qo'shinlar qo'zg'alonchilarni mustahkamlangan bazalaridan surib chiqqan. Zindjilar Vasitni tark etishga majbur bo'lganlar, 880-yilda esa xalifa qo'shinlari yana ikkita shaharni shturm bilan olganlar. Ali ibn Muhammad barcha kuchlarni xujum qilib kelayotgan dushmanga qarshi yo'naltirishga muvaffaq bo'lmagan. Muxtara uch yil davomida qarshilik ko'rsatgan va 883-yil qulagan. Ali ibn Muhammad so'nggi shturm vaqtida halok bo'lgan.

IX asr oxirlarida Baxraynda arab dehqonlari va hunarmandlarining tarixda karmatiylar qo'zg'oloni nomi bilan ma'lum bo'lgan qo'zg'aloni boshlangan. Qo'zg'alonchilar ijtimoiy va mulkiy tenglik o'rnatishni talab qilganlar. Jamiyatdagi asosiy shaxs-erkin jamoachi dehqondir degan Karmatiylarning targ'iboti Iroq, Suriya,

Misr, Eron, Xurosondagi qo'zg'alon ko'targan dehqonlar va hunarmandlar tomonidan ommaviy qo'llab-quvvatlangan. Karmatlar boy savdogarlarning karvonlarini talaganlar va qo'lga kiritgan mulklarini kambag'allar o'rtasida bo'lib berganlar. Tez orada ko'zg'alon butun Arabistonni qamrab olgan. Karmatlar markazlari boshqa hududlarda ham tuzilgan. Karmatlar bilan bo'lgan birinchi yirik jang 802-yili Kufa yaqinida bo'lib o'tgan va xalifa qo'shinlari mag'lubiyati bilan tugagan. Shundan so'ng karmatlar Suriyaga kirib borib, Suriya noibi qo'shinlarini tor-mor keltirganlar. Damashq, Xoms, Xama, Marri, Baalbek, Salamiya va boshqa Suriya shaharlari egallangan va talon-taroj qilingan.

X asr boshlarida Baxrayn karmatlari poytaxti Laxsa bo'lgan o'z davlatlarini tuzganlar va u yerda uzok vaqt hukm surganlar. Xalifalikning ko'p viloyatlari ularga soliq to'lagan. Masalan, ular Suriyadan xar -yili 300 ming dinor olib turganlar.

Karmatiylar davlati tepasida olti hukmdor va olti vazirdan iborat o'ziga xos kollegiya turgan. Davlat aholi uchun ibodat va ziyorat amallari majburiy emas deb e'lon qilgan. Avvaliga dehqonlar va hunarmandlar soliqlardan ozod etilganlar, muxtoj kishilar davlat g'aznasidan zaymlar olganlar.

Baxrayn karmatlari xalifalik bilan muttasil urush olib borganlar. 928 -yil xalifalikning yirik harbiy kuchlari Kufada yana tor-mor keltirilgan va karmatlar Bag'dodga yetib borishgan, biroq ular poytaxtni qo'lga olishga muvaffaq bo'lmaganlar.

930-yili karmatlar Makkaga xujum uyushtirganlar, shaharni talon-taroj etib, Kaabadagi qora toshni o'zlari bilan olib ketganlar. Shuningdek ko'plab oltin, kumush va boshqa boyliklarni olib ketishgan. Qora tosh fakatgina 951-yili o'z joyiga qaytarilgan.

Biroq dehqonlar qo'zg'aloni davomida vujudga kelgan karmatlar davlati zindjiylar davlati singari asta-sekin oddiy feodal davlatga aylanib borgan. Xalifalikda kelib chiqqan barcha xalq harakatlarining harakatlantiruvchi kuchini dehqon aholisi (zindjiylar qo'zg'aloni bundan mustasno) tashkil etgan. Ular ijtimoiy harakatlar bo'lib, xalifalik hokimiyatiga, feodal zulmga qarshi ko'tarilgan edi. Qo'zg'alonlar

o'zining etnik tarkibiga ko'ra turli-tuman bo'lib, ularda asoratga solingan halqlar bilan birga arablar ham qatnashganlar. Diniy ishlar va diniy mafkurasiga qaramay, qo'zg'olonlar turli e'tiqod va oqimdagi kishilarni: musulmonlar, zardushtiylar, xurramiylarni birlashtirgan edi.

Barcha harakatlarga odatda mayda va o'rta zamindorlar ko'shilishgan, ular ko'p xollarda qo'zg'alonga boshchilik ham qilganlar, ammo eng hal qiluvchi vaqtda Muqanna va Bobek qo'zg'alonlari davrida bo'lganidek o'z ittifokchilariga xiyonat qilganlar. Agarda qo'zg'alon ko'targanlar g'alaba qilsalar, ular o'z davlatlarida o'zlari kechagina qarshi kurashgan ijtimoiy tuzumni qayta tiklaganlar. Mulknii jamoaga qaytarish yoki teng taqsimlashdek hech qanday shiorlar xatto bu shiorlarni hayotga tadbik qilinishi ham g'alaba qozongan qo'zg'alonchilarning tabag'alanishini va yirik yer egaligi munosabatlarini tiklanishining oldini ololmas edi.

Bunday holatlarga qaramay, xalq harakatlari xalifalik tarixida katta rol o'ynagan. Ular Abbosiylar xalifaligi ustunlarini qo'porib, asosiy ishlab chiqaruvchilar ommasini yer egalari tomonidan ekspluatatsiya qilinishini vaqtinchalik cheklab turgan edi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Arab xalifaligi tashkil topishining sabablari, shart-sharoitlari haqida fikr yuriting.
2. Arablar bosib olingan mamlakatlardagi xalq qo'zg'alonlarining asosiy sabablari, umumiy va o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
3. Xalifalikning inqiroziga sabab bo'lgan omillarni sanab bering.
4. Arab-islom madaniyatining yuksalishiga katta hissa qo'shgan O'rta Osiyolik allomalar haqida fikr yuriting, ularning bu qadar dunyoga mashhur bo'lishining sabablari nimada?
5. Xalifalik mamlakatlari madaniyatining Yevropa va umuman jahon sivilizatsiyasiga ta'siri nimalardan iborat bo'ldi deb o'ylaysiz?

2-§. TURKIYA XI-XV ASRLARDA

Darsning maqsadi: XI-XV Turkiya rivojlanishining asosiy tendensiyalari, tarixiy taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari haqida talabalarga ma’lumot berish.

REJA:

- 1. Saljuqiylar davri (XI-XIII asrlar) asosiy xususiyatlari;**
- 2. Kichik Osiyo XIII asr ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida;**
- 3. Bolqon yarim orolidagi istilolar;**
- 4. Turkiya XV asr birinchi yarmida;**
- 5. Mehmed II ning agrar sohadagi tadbirlari.**

Saljuqiylar davri (XI-XIII asrlar) asosiy xususiyatlari.

Turkiya so‘zi ilk bor salibchilar bir yilnomasining muallifi tomonidan 1190-yili Kichik Osiyodagi turk qabilalari egallab olingan yerlarga nisbatan qo‘llangan.

Vizantiya imperiyasining Kichik Osiyo muzofotlarida alohida turk tilli ko‘chmanchi qabilalarning paydo bo‘lishi eramizning IV asrlaridanoq qayd etiladi, biroq salmoqli ko‘lamlarda turk kolonizatsiyasi Old Osiyoda XI asrda saljuqiylar urug‘idan bo‘lgan yo‘lboshchilar boshchiligida o‘g‘uz-turkman qabilalarining paydo bo‘lishi bilan boshlangan. Qisqa vaqt ichida Vizantiya bilan qo‘shni bo‘lgan, butun Eron, Iroq, Ozarbayjon va Armanistonning sharqiy qismini o‘z ichiga olgan “Buyuk Saljuqiy”larning ulkan davlati vujudga kelgan. XI asr o‘rtalaridan Kichik Osiyoga o‘g‘uz va turkmanlarning keng ko‘lamdagi xujumlari boshlangan. Ichki kurashlar bilan zaiflashib qolgan Vizantiya tarixchilarning hisob kitoblariga ko‘ra umumiy soni 500 mingdan 1 mln. kishigacha bo‘lgan ko‘chmanchilarning katta ommasi istilosiga aytarli qarshilik ko‘rsata olmagan.

Vizantiya imperatori Roman Diogenning o‘z davlatini butunligini tiklashga bo‘lgan urinishi muvaffaqiyatsiz chiqqan. Turli qabilalardan bo‘lgan yollanganlardan iborat u tomonidan to‘plangan ulkan armiya 1071-yil 19 avgustda saljuqiy sulton Alp Arslon (1063-1072) qo‘shinlari

tomonidan Mansikert qal'asi (Van ko'li shimolrog'ida)dagi jangda uzil-kesil tor-mor qilingan. Shu jangdan so'ng vizantiyaliklarning qarshiligi sindirilgan va turk ko'chmanchilari katta oqim bo'lib Kichik Osiyoga yopirilib borganlar.

Istilochilarning o'zlari urug'chilik tuzumining buzulishi va yirik yer egaligi munosabatlari tug'ilishi davrini boshidan kechirmoqda edilar. O'z qabiladoshlari ustidan o'zlarining iqtisodiy mavqelari va siyosiy hokimiyatlarini mustahkamlash uchun feodallashgan yuqori tabaqa yangi hududlarni istilo qilish va boshqa xalqlarni talashdan iborat bir yo'lni ko'rganlar.

XI asr oxiriga kelib o'g'uz-turkman qabilalari deyarli butun Kichik Osiyoni istilo etganlar, bosib olingan bu hududda ko'plab amirliklarni tuzganlar. Ulardan biri G'arbiy Anatoliyada Saljuqiylar sulolasining yondosh shohi vakillari tomonidan tashkil qilingan. Nikeya (hozirgi Iznik) 1077-yildan boshlab uning markazi bo'lib qolgan. Ayni vaqtdan Markaziy Anatoliyada Donishmandiylar davlati paydo bo'lgan. Mustaqil turk hukmdorlari Smirna (Izmir), Erzurum, Erzinjon, Diyor bakirda qaror topganlar. Biroq Kichik Osiyoning bir qator rayonlari turk istilochilari hokimiyati doirasidan tashqarida qolishgan. Chunonchi, Anatoliyaning janubi-sharqida bu vaqtda Kilikiya Arman podsholigi yuzaga kelgan. Yunon zamindorlari XII asrda yunonlar Trapezund imperiyasining markazi bo'lgan Trapezund (Trabzon)da o'z hokimiyatlarini saqlab qolganlar.

Kichik Osiyodagi turk davlatlarining hukmdorlari ko'ziga "Bag'dodda o'rnashib olgan" Buyuk saljuqiylarga qaramliklarini nomiga tan olsalar-da, lekin amalda mustaqil bo'lishgan. Ularning asosiy e'tiborlari o'z hokimiyatlarini mustahkamlashga va o'z ta'sir doiralarini kengaytirishga qaratilgan edi. O'zaro raqobatchilikka ko'p o'tmay salibchilarga qarshi kurash ham qo'shilgan.

Birinchi salib yurishi (1096-1099) ko'chmanchilarni yarim orolning ancha ichkarisi tomon uloqtirib tashlagan. Salibchilarning asosiy zarbasini Nikeya amirligi boshidan kechirgan, shu bois og'ir talafot ko'rgan va Kichik Osiyodagi turk siyosiy tuzilmalari orasida yetakchilik rolini muayyan vaqtga yo'qotgan. Ikoniylar (Ko'nya) shahri

Markaziy Anatoliyaning faqat tekislik rayonlari ustidagina nazoratini saqlab qolgan bu davlatning yangi poytaxti bo‘lib qolgan.

Kichik Osiyoda ustunlikka ega bo‘lish uchun kurash butun XII asr mobaynida davom etgan. Pirovardida ko‘nyalik saljuqiylar g‘olib chiqqanlar. Avvaliga ular boshqa turk sardorlari (bilan ittifoqda 1147-yilgi ikkinchi salib yurishi ishtirokchilarini mag‘lubiyatga uchratganlar. Undan so‘ng Vizantiya qo‘shinlarini 1176-yili Mirnokefal (Egridir ko‘li shimolrog‘i)da tor-mor keltirib konstantinopollik hukmdorlarining Kichik Osiyo mulklarini o‘zlariga qaytarib olish hayollariga xotima bergan. Nihoyat, o‘zlarining asosiy raqiblari bo‘lgan Donishmandiylarni siyosiy maydondan chetga chiqarib, Ko‘nya sultonligi hukmdorlari Kichik Osiyoning asosiy qismini o‘z hokimiyatlari ostida birlashtirishga, Qora va O‘rta Yer dengizi bo‘yiga chiqishga muvaffaq bo‘lganlar.

XIII asrning birinchi yarmida Kichik Osiyo Saljuqiylari o‘zining gullab-yashnash davrini boshdan kechirayotgan edi. Urug‘-qabilachilik munosabatlari qoldiqlari juda ham kuchli bo‘lgan uncha mustahkam bo‘lmagan harbiy-siyosiy uyushmadan Ko‘nya sultonligi kuchli feodal davlatga aylandi. Uning hukmdorlari “rum” sultonlari degan unvon olishgan. Shunday qilib, Kichik Osiyo Saljuqiylari sharqiy Rim imperatorlarining vorislari roliga da’vo qilganlar.

Bu vaqtga kelganda mamlakat ko‘chmanchilarning XI asrdagi istilolari va XII asrdagi o‘zaro ichki urushlarning salbiy oqibatlarini bartaraf etgan. Xo‘jalik jihatidan ko‘tarilishga shuningdek yana bir holat, ya’ni turk istilochilarining mahalliy aholi xususan, yunonlar va armanlar bilan muntazam muloqotlari ta’siri ostida ko‘chmanchilar anchayin tez o‘troq hayotga o‘tib, ziroatchilar va hunarmandlarga aylanib borganliklari ham imkon bergan. Ular orasida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar jadal sur’atlar bilan rivojlangan. Bu haqda XIII asr bo‘sag‘asida Yaqin va O‘rta Sharq o‘rta asr musulmon davlatlari uchun tipik bo‘lgan agrar munosabatlar tizimini yetarlicha tez yuzaga kelganligi ham guvohlik beradi. Uning ajralib turadigan jihatlari xususiy yer egaligi shakllari ustidan yerga davlat mulkchiligining sezilarli darajada ustunligi va davlat yerlari fondining salmoqli qismini merosiy

bo'lmagan in'om (iqto) sifatida uni qo'lda tutuvchilariga xizmat majburiyatlarini o'tash sharti bilan berilishida edi.

Shartli in'om etish tizimining keng yoyilishi saljuqiy ko'chmanchi zodagonlarning feodallasuviga imkoniyat yaratgan. Shu bilan birga Kichik Osiyoda iqto tizimining qaror topishini asosiy qishloq ommasini yirik yer egaligiga qaram axoliga aylanishi jarayonidagi muhim bosqich sifatida ham ko'rish mumkin. Kichik Osiyo saljuqiylar davlatida ekspluatatsiyaning asosiy shakli soliq olish va majburiyatlarni ado ettirishdan iborat bo'lgan. Hukmron tabaqa asosan Vizantiyaning Anatoliya muzofotlarida mavjud bo'lgan, ilgaridan kelayotgan soliqqa tortish tizimini saqlab qolgan bo'lsa-da, uni islom meyorlari bilan muvofiqlashtirishga harakat qilgan. XIII asr manbalarida hususan, xiroj va juzya kabi yig'imlar tilga olinadi.

Saljuqiylar Kichik Osiyosi XIII asr birinchi yarmidagi hayotining farqli jihati bu-shaharlarning o'sib borayotganligida edi. Ular nafaqat ma'muriy hokimiyat va savdo-hunarmandchilik markazlari bo'libgina qolmay, balki turli ijtimoiy-siyosiy va madaniy an'analarning o'zaro ta'sir markazlari sifatida ham o'zlarini namoyon etishgan.

Ular ichida eng yirik-Ko'nya, Sivas, Kayseri kabi shaharlarda bir necha o'ng minglab odamlar yashagan. Tashqi qiyofasini asta-sekin o'zgartirib borishiga qaramay, Kichik Osiyo shaharlari Vizantiya davrining ko'p jihatlarini saqlab qolganlar va Vizantiyaning boy moddiy va madaniy merosini Anatoliyaning turk aholisi tomonidan o'zlashtirilishida muhim rol o'ynaganlar. Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridan savdo ahli, hunarmandlar, olimlar, musulmon ruhoniya vakillarining uzluksiz ravishda oqimi Kichik Osiyo Saljuqiylari davlati shaharlarini o'rta asr arab-fors madaniyatini yoyish o'choqlariga aylantirilgan. Fors tili sulton devonxonasi xujjatlari tili bo'lib qolgan. Musulmon o'rta asrlar davri eng buyuk shoir va mutafakkirlaridan biri vatandoshimiz Jaloliddin Rumi (1207-1273) hayotining katta qismi Ko'nya shahri bilan bog'liqdir.

Turk ko'chmanchilarining o'troq hayotga o'ta borishi va ularni asta-sekin mahalliy aholiga yaqinlashib borgani sari yangi etnik birlik-turklarni yuzaga kela boshlashiga asos solgan istilochilar va istilo

etiluvchilarning o‘zaro assimlyatsiya jarayoni rivojlana borgan. XIII asrga qadar bu elatning shakllanishi juda ham sekin kechgan, shuning uchun ko‘p tadqiqotchilar Kichik Osiyo Saljuqiylar davlatini turk davlati deb atash mumkin deb hisoblamaydilar. Biroq XIII asrning 20-30-yillaridan mazkur jarayon Anatoliyaga turkiy qabilalar migratsiyasining ikkinchi to‘lqinini boshlanishi munosabati bilan keskin kuchayib ketgan. Bu safar ommaviy ko‘chib kelishlar mo‘g‘ullarning O‘rta Osiyoga yurishlarini boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Istilochilar hokimiyati asoratiga tushib qolishni xohlamagan ko‘pgina mahalliy turk qabilalari g‘arbga, Kichik Osiyo chegaralari tomon intilganlar va o‘z ortlaridan o‘troq aholi (dehqon va shaharliklardan iborat)ning kattagina qismini ergashtirib kelganlar.

Turkiy ko‘chib keluvchilardan iborat katta ommaning paydo bo‘lishi Saljuqiylar mulklarida o‘rnatilgan tartiblarga jiddiy xavf tug‘dirgan. Shuning uchun Ko‘nya sultonlari yangi kelgan ko‘chmanchilarning asosiy qismini ularning jangariliklari uchun xristian qo‘shinlari-vizantiyaliklarga, Klikya Armanistoni aholisiga va Trapezund imperiyasiga qaratilishi mumkin bo‘lgan davlat chegaralari rayonlariga yo‘naltirishga intilganlar.

Shunga qaramay, yangi fuqarolarning saljuqiylar hokimiyati bilan munosabatlari haddan tashqari keskinligicha qolavergan. Anatoliyaga ko‘chib kelgan turk ko‘chmanchilari oddiy soliq to‘lovchi aholiga aylanishni istamaganlar va sulton noiblarining ko‘rsatmalariga bo‘ysunmaganlar. Ularning ozodlikni saqlab qolishga bo‘lgan intilishlari ziroatchilarga aylanib, zamindorlarning zulmi ostiga tushib bo‘lgan turkiy aholi noroziligi bilan yaqindan qo‘shilib ketgan. Mazkur ijtimoiy ziddiyat Kichik Osiyo aholisining, tarixda Bobo Ishoq qo‘zg‘aloni sifatida ma‘lum bo‘lgan zamindorlarga qarshi chiqishlarida o‘zining aksini topgan.

Bobo Ishoq o‘sha yillarda halq orasida mashhur bo‘lgan shayx Bobo Ilyos Xurosonining muridi (shogirdi, izdoshi) bo‘lgan. Bobo Ilyos o‘zini “Ollohning elchisi” deb e‘lon qilib, aslida islomning sunniylik qoidalariga rioya etuvchi Ko‘nya sultonligi hukmdorlariga qarshi chiqqan. Uning nomidan harakatlana borib, Bobo Ishoq sulton

hokimiyatiga qarshi Markaziy va Janubi-sharqiy Anatoliyadagi ko'p sonli ko'chmanchilar va dehqonlarni oshkora chiqishga ko'targan. Qo'zg'alon bostirilgan. U turk aholisini o'zining kamsitilgan va mazlum holatidan keng noroziligini, ko'chmanchi qabilalarning feodallashish jarayoniga qarshilik ko'rsatishini namoyon etgan. Shu bilan birga bu chiqish saljuqiylar davlatining mo'g'ullarni mamlakatga istilosi arafasida ichki zaiflashib qolganligining guvohi sifatida ham muhimdir.

Kichik Osiyoga bostirib kirgan mo'g'ullar 1243-yili Ko'sa Dog'dagi jangda Saljuqiylar qo'shinlarini qattiq mag'lubiyatga uchratgan. Bu zarbadan sultonlik endi o'ziga kelolmas edi. XIV asr boshlarida Kichik Osiyodagi Saljuqiylar davlati uzil-kesil parchalanib ketdi.

Kichik Osiyo XIII asr ikkinchi yarmi va XIV asr boshlarida. Anatoliya beklklarining vujudga kelishi. Mo'g'ul istilosi mamlakatni ikki qismga bo'linib ketishiga olib keldi. Anatoliya pirovarida Xulaguiylar (ilxonlar) davlatiga bevosita qo'shib olindi. Bu yerda istilochilar tomonidan keltirilgan tartiblar qaror topdi. Ilxonlar davlati parchalangandan so'ng bu hudud yana bir asrdan ko'proq Eronda hokimiyat uchun kurashgan turli turkman yo'l boshchilari nazorati ostida qolavergan.

Rum saljuqiylari mo'g'ul xonlariga o'zlarining vassal qaramliklarini tan olsalar-da, rasman G'arbiy va Markaziy Anatoliyaning katta qismi ustidan hokimiyatni o'zlarida saqlab qolganlar. Biroq ularning mulklari amalda mo'g'ullarga ham, Ko'nya hukmdorlariga ham qaram bo'lmagan bir qator uncha katta bo'lmagan beklklarga tez orada parchalanib ketgan. Yangi siyosiy uyushmalarning yuzaga kelishining bu jarayoni avvalo Kichik Osiyoga ko'chib kelganlariga uncha ko'p bo'lmagan ko'chmanchi va yerli ko'chmanchi qabilalarning asosiy ommasi jam bo'lgan chegara viloyatlari-udjalarda namoyon bo'ladi.

Chegara hududlarda yashagan qabilalardan o'ziga xos harbiy-ko'chmanchi turmush tarzi yuzaga kelgan: ko'chmanchilarning bir qismi harbiy xizmat o'tasalar, boshqalari xo'jalik bilan mashg'ul bo'lgan. Qabilaning barcha a'zolari qurollangan bo'lib, qo'shnilar bilan

muttasil jiqqa mush bo'lish, talon-taroj va yangi yerlarni bosib olish maqsadidagi xujumlar ular kundalik hayotining ajralmas qismini tashkil etgan.

Chegara hududlardagi aholiga g'ayridinlar bilan urush olib borishga faol davat etuvchi diniy da'vatchilar-shayxlar, jahongashta darveshlar katta ta'sirga ega bo'lganlar.

XIII asr ikkinchi yarmi va XIV asr birinchi yarmida G'arbiy va Markaziy Anatoliya hududida qariyb 20 ta beklklar vujudga kelgan. Ulardan ba'zilar ko'pga bormagan va tezda tarqalib ketgan. Boshqalari turk tarixida sezilarli iz qoldirishgan. Bundaylar qatoriga Kilikiya Arman podsholigidan g'arbdagi Tavr tog'lik rayonlarida XIII asrning 60-yillarida yuzaga kelgan Karaman bekligini kiritish mumkin. Uning hukmdorlari nafaqat arman yerlariga xujumlar uyushtirishda, balki mo'g'ullarga va ularning itoatkor Saljuqiy vassallariga qarshi kurashda katta faollikni namoyon etishgan. O'z davlatlari hududlarini sezilarli darajada kengaytirib, Ko'nyani qo'lga kiritib, XIV asr boshlarida Karamaniylar Saljuqiy sultonlarning vorislari bo'lishga o'z da'volari haqida oshkora bayon etganlar.

Karaman bekligiga asosiy raqib avvaliga poytaxti Kyatasyada bo'lgan Germiyon bekligi edi. Uning hukmdorlarining muvaffaqiyatlariga germiyon harbiy sarkardalarining Vizantiya yerlariga yurishlari muayyan darajada imkon yaratgan. Ular beklk chegaralarini to Anqaragacha kengaytirish uchun qulay sharoit yaratgan.

XIV asrning 20-30-yillarida Germiyon shuhratini Egey dengizi bo'ylarida vujudga kelgan yangi beklklar o'z soyasida qoldira boshlagan. Germiyon amirlari mulklarini "g'ayridinlar" yashaydigan hududlardan kesib qo'yib, ular "muqaddas" urush olib borishdan iborat chegara viloyatlari eng muhim funksiyasini o'z zimmalariga olganlar. Aynan mazkur knyazliklarga shu vaqtdan boshlab "g'ayridin"larni talon-taroj qilingan boyliklarining katta qismi tega borgan, bu yerga "e'tiqod uchun kurashchilar"-g'oziyalar qatoriga qo'shilishni istovchi, Anatoliyaning ichki rayonlaridan kelayotganlarning asosiy oqimi ham intilgan. Tez orada Kichik Osiyoning deyarli barcha g'arbiy qismi turk beklari qo'lga o'tgan. O'rta yer dengizi savdosiga va Bolqon aholisi va

Egey dengizi orollari aholisiga katta zarar yetkazgan qaroqchilik va qul savdosi tez orada dengiz bo‘yi beklilari hayotining eng muhim hususiyatlari bo‘lib qolgan. Yevropa davlatlari tomonidan ko‘rilgan javob choralari natijasida XIV asr o‘rtalariga kelib turk flotining faolligi sezilarli darajada pasaygan, knyazliklarning tashqi savdodan keladigan daromadlari ham kamayib ketgan.

Kichik Osiyoning Shimoli-G‘arbiy qismida joylashgan va bu knyazlikning asoschisi Usmon bey (1258-1326) nomi bilan ma‘lum bo‘lgan yana bir chegara bekliligining taqdiri boshqacharoq kechadi.

Usmon bekligi Eski shahar rayonida joylashgan, uncha katta bo‘lmagan hudud asosida tashkil topgan. Mo‘g‘ul istilosidan so‘ng beklilik hukmdorlarining saljuqiylar hukumatiga qaramligi nomigagina bo‘lib qolgan. Usmon 1299-yildan boshlab Saljuqiylarga bo‘ysunishdan uzil-kesil halos bo‘lgan va o‘z mulklarini kengaytirishga qaratilgan mustaqil siyosat yurita boshlagan.

Usmon bekligi o‘z hududining hajmi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jihatidan boshqa knyazliklarga nisbatan yuqori bo‘lmagan. Uning geografik holati, XIV asr boshlariga kelganda Kichik Osiyoda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat uning tez kengayib borishiga qulay sharoit yaratgan. Bo‘lajak usmoniylar davlatining dastlabki asosi bo‘lib qolgan rayon mo‘g‘ullar hukmronlik qilgan viloyatlardan yetarlicha yiroqda bo‘lgan, shuning uchun ham beylik hukmdorlari o‘zlarini mo‘g‘ul xonlarining vassallari deb e‘tirof etganlari holda, o‘zlarining siyosatlarida amalda hamisha mustaqil bo‘lganlar. Qo‘shni knyazlikla usmoniylarning ilk muvaffaqiyatlariga katta ahamiyat berishmagan. Uning bundan keyingi taraqqiyotiga Vizantiya bilan qo‘shni bo‘lgani qo‘l keladi. Tobora zaiflashib borayotgan imperiyaga qarshi harakatlar beylik hududlarining kengayib Usmon (1299-1326) borishiga imkon yaratdi. Keng istilolar Usmoniylar qo‘shiniga boshqa qabilalardan ham jangchilarning kelib qo‘shilishini ta‘minlaydi. Sulola asoschisi Usmon (1299-1326) davrida bir qator yurishlar uyushtirilib yaxshi mustahkamlangan qal‘a, Bursa shahri atroflaridagi hududlar bosib olinadi. Uning o‘g‘li O‘rxon (1326-1361) tomonidan bu shahar egallanib, knyazlikning yangi poytaxti bo‘lib qoladi. Undan keyin

Vizantiyaning boshqa shaharlari-Nikeya va komediya(Izmit)larqo‘lga kiritilgan. XIV asrning 50-yillari boshlariga kelib turklar Qora dengiz bo‘g‘ozlari sohiliga chiqib borganlar. Biroq bo‘g‘ozlarni qo‘lga kiritish va Vizantiya poytaxtini egallashga O‘rxon armiyasi muvaffaq bo‘la olmagan. Bunday sharoitlarda Bosfor va Dardanell ortidagi yerlar yangi bosqinchilik rejalarining asosiy obyekti bo‘lib qolgan.

Usmon beyligining ichki boshqaruvi dastlab juda ham sodda bo‘lgan xususan, Usmon va O‘rxonlarga bey unvoni qabila boshliqlari yig‘inida berilgan. Beylarning asosiy vazifasi esa turkiy qabilalar harbiy kuchlarining qo‘shni hududlarni istilo qilishini ta‘minlash bo‘lgan. Beyning qarindoshlari-o‘g‘illari, aka-ukalari uning eng yaqin safdoshlari bo‘lib, ularni bey bosib olingan shaharlar va qal‘alarning hukmdori etib tayinlangan.

XIV asrning 30-40-yillarida Kichik Osiyoga tashrif buyurgan arab sayohatchisi ibn-Batuta O‘rxon haqida shunday hikoya qiladi: “Bu sulton turkman hukmdorlaridan eng qudratlisi bo‘lib, xazinalar, shaharlar, askarlarga boydir. Uning qariyb yuzta mustahkamlangan qasrlari borki, ularni u tinimsiz tarzda aylanib chiqadi” Amirlik qudratining o‘shiga yana bir holat ham, ya’ni uning mulklarini Kichik Osiyoni kesib o‘tadigan asosiy savdo yo‘llarida joylashganligi ham imkon bergan. Savdodan olinadigan yig‘imlar usmoniylar g‘aznasiga katta daromadlar keltirgan.

Usmon beyligining kengayib borishi bilan uning boshqaruvi ham murakablashgan. O‘rxon davrida ilk bor vazir lavozimi ta‘sis etilgan, istilo qilingan hududlarning ma‘muriy-hududiy bo‘linishi joriy qilingan, o‘z tangalari-aqcha zarb etila boshlagan. Armiyani tashkil qilishda ham o‘zgarishlar bo‘lgan. O‘rxon harbiy islohat o‘tkazib qo‘shinni piyoda va otliq qismlarga (“musallam”)-alohida harbiy O‘rxon (1326-1361) birliklarga aylantiradi. Yurishlar vaqtida otryadlarga kirgan jangchilar har kuni 1 aqchadan maosh olishgan. Ular tinchlik vaqtlarida ularga shahsiy foydalanish uchun markaziy hokimiyat tomonidan ajratilib berilgan soliqqa tortishdan ozod etilgan yerlarga ishlov berishgan. Garchi, XIV asrning birinchi yarmida tuzilgan armiya zamindorlar va ularga qaram kishilardan emas, asosan erkin jamoachilardan iborat

bo'lsa-da, Usmon beyligidagi harbiy sohadagi o'zgarishlar uning hukmdorlarini uzoqni ko'zlovchi rejalaridan darak beradi. Yangi qo'shin Kichik Osiyoni ular hokimiyati ostida birlashtirishni ta'minlashi lozim edi. Usmoniylarning mazkur harakatlari Karaman boshchiligidagi usmoniylarga qarshi koalitsiyaning tuzilishiga olib keladi.

Kichik Osiyoda yagona davlatni yaratish rejalarini amalga oshirish ko'p o'n -yilliklarga cho'zilib ketgan. Biroq anatoliya beyliklarining bundan keyingi taqdirleri qanday kechmasin, ularning XIV asr arafasida paydo bo'lishining o'zi tarixchilarga turk tarixining yangi bosqichi haqida gapirish imkonini beradi. Uning boshlanishi Anatoliya aholisida ko'chmanchi elementlarning anchagina ko'payishi, xo'jalik hayotining tushkunlikka uchrashi, savdodagi turg'unlik, eski urug'-qabilachilik tartiblariga va patriarxal feodal munosabatlarga qaytishda, boshqacha aytganda mamlakat ijtimoiy hayotida mo'g'ul istilosi bilan bog'liq qisman regress yuz berishida kuzatilgan. Turk migratsiyasining ikkinchi to'lqini Kichik Osiyoda yangi etnolingvistik vaziyatni yuzaga kelishiga ham imkon bergan. Bu haqda xususan, 1276-1277-yillardagi mo'g'ullarga qarshi qo'g'zaloning borishida karaman hukmdori Mehmed bey islohotlari bilan boshlangan, ish yuritishda turk tilidan foydalanishga o'tilganligi guvohlik beradi. Bu vaqtda birinchi adabiy asarlar ham yaratila borgan. Tarixchilar uzoq davom etgan jarayon-turklarning etnogenezi jarayonidagi eng muhim komponenti bo'lgan turk madaniyati asoslarini yuzaga kelish boshlanishini ular bilan bog'laydilar.

Bolqon yarim orolidagi istilolar va XIV asr ikkinchi yarmida Usmoniylar davlatining paydo bo'lishi. Usmoniylar ekspansiyasi boshlanishi arafasida Bolqonda bir qancha mustaqil davlat va knyazliklar mavjud bo'lgan. Ular ichida eng yiriklari Vizantiya, Serbiya, Bolgariyalari edi. Janubiy-Sharqiy Yevropaning feodal hukmdorlari o'zaro muttasil yovlashib turganlar. O'zaro raqobat va ichki ziddiyatlar bolqon davlatlari kuchini zaiflashtirgan, og'ir feodal zulm esa dehqonlar va shahar kambag'allarning keng noroziliklarini uyg'otgan. Davlatlararo va ijtimoiy ziddiyatlar keskinlashgan bir vaziyatda

usmoniy-turklarning istilochilik ekspeditsiyalariga qarshilik ko'rsatish umumxalq xarakteriga ega bo'lolmas edi. Xalq chiqishlaridan qo'rquv bolqonlik hukmdorlarni miqdor jihatidan uncha ko'p bo'lmagan yollanmalarga tayanib ish ko'rishga majbur etgan. Ba'zi hollarda ular anatoliya beyliklaridan bo'lgan otryadlarni ham ularning hukmdorlari bilan ittifoq shartnomalarini tuzganlari holda taklif etardilar.

Usmoniy turklar o'zlarining Bolqondagi ilk bosqinlarini Vizantiya taxtiga turli-da'vogarlarining ittifoqchilari sifatida maydonga chiqqanlari holda 1353-1357-yillarda amalga oshirganlar. Janubiy-Sharqiy Yevropada murakkab siyosiy vaziyatdan ustalik bilan foydalanib, ular keyingi 30-yil davomida yarim orolning salmoqli qismini egallashga muvaffaq bo'lganlar. O'z poytaxtlarini ular Kichik Osiyodan Bolqonga-Adrianopol (Edirne)ga ko'chirganlar. Konstantinopolni front ortida qoldirib, turk qo'shinlari shimolga, Serbiyaga qarshi yo'l olganlar. Hal qiluvchi jang 1389-yili Kosovo maydonida sodir bo'lgan. Serb hukmdori Lazar tomonidan to'plangan serblar va bosniyaliklardan iborat bo'lgan lashkar og'ir mag'lubiyatga uchragan. Bu muvaffaqiyatsizlik Serb davlatining taqdirini hal qilgan, u o'z mustaqilligini yo'qotgan.

1393-yili usmoniy turklar Bolgariya poytaxti Tirnovoni egallaganlar, 1396-yili esa ular Dunay daryosi janubidagi Nikopol ostonalarida vengerlar, valaxlar, bolgarlar va yevropalik ritsar-salibchilarning qariyb 60 ming kishidan iborat birlashgan kuchlari bilan to'qnashganlar va qonli jangda ularni tor-mor etib tashlaganlar.

Bolqondagi usmoniylar ekspansiyasi Bolqon mamlakatlarining iqtisodiy tushkunligiga olib kelgan. Istilochilar madaniyatning mahalliy o'choqlarini vayron qilganlar Bolqonni qo'shni mamlakatlardan sun'iy to'siq bilan ajratib qo'yganlar. Aslida Janubi-Sharqiy Yevropada usmoniylar hukmronligining o'rnatilishi bolqon xalqlari tarixiy rivojlanishida sezilarli darajada orqaga ketishini bildirar edi.

Istilochilarning o'ziga harbiy ekspeditsiyalar boshqacha ta'sir ko'rsatgan. Agar ularning hatti-harakatlari talonchilik xujumlari harakterida bo'lgan bo'lsa, keyinroq esa itoat ettirilgan xalqlardan o'lponlar va boshqa majburiyatlarni undirish maqsadida yerlarni egallab

olish tobora katta ahamiyat kasb eta borgan. Qisqa muddat ichida uncha katta bo'lmagan chegaradagi beylik ulkan davlatga aylangan. Unig tashkiloti ham tez o'zgarib borgan. Ko'chmanchi-g'oziylarning ilgarigi hur jamoasi va bosib olingan viloyatlarni boshqarishning udel shakli o'rnini kuchli markaziy hokimiyat egallagan. O'rxon davridayoq ko'zga tashlana borgan mazkur tendensiya uning vorislari-Murod I (1361-1389) va Boyazid I (1389-1403)lar davrida yaqqol sezilarli bo'lib qolgan. Sulola qudratini ko'rsatishga intilib Murod o'limi oldidan sal oldin sulton unvonini qabul qilgan.

Markazlashgan monarxiyaning mustahkamlanishida usmoniyalar yuqori tabaqasi shartli yer in'om-tumorlar taqsimlab berish amaliyotini qo'llashga o'tishi muhim rol o'ynagan. XIV asrning ikkinchi yarmida qaror topgan tumor tizimida bir tomondan, Yaqin va O'rta Sharq musulmon mamlakatlarida mavjud bo'lgan agrar munosabatlar (xususan iqto tizimi) boshqa tomondan yirik yer egaligining Bolqon, avvalo Vizantiya (proniya)cha shakllari o'z ifodasini topgan. Odatda, birinchi tumorlar bosib olingan yerlarning bir qismidan ularning egalari-sipohlariga muay.y.an, ko'pincha harbiy xizmatni majburiy tarzda o'tash sharti bilan beriladigan merosiy bo'lmagan in'om yerlari bo'lgan. Tumor egalari asosiy majburiyatlari ular tomonidan qurollantirilgan muay.y.an miqdordagi kishilar bilan birga harbiy yurishlarda ishtirok etish bo'lgan. Tumorlar ularning keltiradigan daromadlari miqdori bilan bir-biridan farq qilgan. Tumor deb asli 3 mingdan 20 ming aqchagacha daromad beruvchi mulklar hisoblangan. Uni oluvchi sipohlar tumordorlar deb atalgan. Anchagina yirik yer in'omlari unga egalik qiluvchilar (zaimlar)ga 20 mingdan 100 ming aqchagacha daromad keltirgan. Nihoyat, yirik nadel (xassalar)lar ham bo'lib, ularning daromadlari 100 ming aqchadan ko'p bo'lgan. Xassalar davlatning yuqori lavozimlarini egallab turgan shaxslarga ularning xizmat davriga berilgan.

Tumor tizimi qaror topayotgan zamindorlar tabaqasining eng ko'p sonli qatlam-sipohlar asosiy ommasini yetkazib berishni ta'minlashi lozim bo'lgan. XV-XVI asrlar mualliflari ularni "qilich odamlar" toifasiga kiritganlar, zero sipohlar nafaqat otliq lashkar

saflarida harbiy xizmat o'tashlari lozim bo'libgina qolmay, balki joylarda tartibni saqlash va qaram dehqonlar ommasini tomonidan davlat oldidagi majburiyatlarni to'g'ri bajarilishi uchun javobgar bo'lganlar.

Usmoniylar qudratining kuchayishiga davlat hisobidan ushlab turiladigan muntazam qo'shinning dastlabki qismlarini tuzilishi ham muayyan darajada ta'sir ko'rsatgan. Ular yanichar (yangi qo'shin) nomini olgan. Birinchi bunday piyoda otryad O'rxon davridayoq tashkil etilgan bo'lib, u bor yo'g'i ming kishidan iborat bo'lgan. Yangi yanichar korpusining o'ziga xos jihati uni qullik maqomidagi kishilar-harbiy asirlar, sotib olingan bandilardan shakllantirilishi bilan bog'liq edi. O'z madaniy-diniy muhitidan yulib olingan, qarindoshlik aloqalaridan mahrum etilgan, musulmon diniy tashkiloti (bektoshlarning darvish ordeni) vakillariga o'qitishga berilgan va bektoshlar nizomiga, shu jumladan nikohlanmaslik udumiga rioya qilishga majbur bo'lgan yanicharlar feodal qo'shinning biqiq harbiy korporatsiyasi-usmoniy sultonlar gvardiyasiga aylanishgan. Ular asosan bosqinchilik urushlari olib borishga mo'ljallangan bo'lsalar-da, biroq sultonlar ular yordamidan sipohlarning o'zboshimchaliklarini cheklashda va istilo etilgan mamlakatlar aholisini itoatda saqlashda ham foydalanganlar.

Bolqon yarim orolidagi usmoniylar ekspansiyasi davlat tarkibiga istilochilarning o'zlaridan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot darajasi jihatidan ham, milliy-diniy mansubliklari jihatidan ham keskin farq qiluvchi xalqlarning qo'shilishiga olib kelgan.

Sultonga qaram aholi o'rtasida o'zaro bunday iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarning mavjud emasligi hukmron yuqori tabaqani nafaqat harbiy kuchga, balki ma'naviy birlashtirishning juda ham muhim omili sifatida alohida ahamiyat berishga majbur etgan. Shu bois, islom dinini yangi istilo etilgan Janubi-Sharqiy Yevropa hududlariga aholini majburiy tarzda islomlashtirish hisobidan ham, vaqf mulklari bazasida ko'plab diniy-madaniy markazlarni tuzish yo'li bilan ham islom dinini tarqatishga birinchi darajali ahamiyat berilgan.

Turkiya XV asr birinchi yarmida. Usmoniylar davlatining kuchayishi uning hukmdorlariga Karaman boshchiligidagi Kichik Osiyo beyliklari kaolitsiyasi qarshiligini bartaraf etish imkonini bergan. Sotib

olish, sulolaviy nikohlar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy bosqinlar yordamida ular o‘z hokimiyatlarini Anatoliyaning salmoqli qismiga, to Sivas, Kayseri shaharlarigacha va Yevfrat daryosining yuqori oqimigacha bo‘lgan hududlarga yoyganlar.

Kosovo maydonidagi jangda halok bo‘lgan Murod I ning o‘g‘li, o‘zining Bolqon va Kichik Osiyodagi tezlik bilan erishgan harbiy muvaffaqiyatlari tufayli “-yildirim” (Shiddatli) laqabini olgan Boyazid Usmoniylar davlatini imperiyaga aylantirishga intilgan. U Konstantinopolni istilo qilishni niyat qilgan va bu o‘ta mustahkam qal’ani qamal qilish uchun katta flot qurishga kirishgan. Sultonning Konstantinopolni qamal qilishi Yevropani sarosimaga solgan. Ayni paytda Amir Temurning Boyazidga qarshi Kichik Osiyo yurishi boshlanadi. 1402-yilning yozida Anqara yaqinidagi jangda sohibqiron qo‘shinlari Boyazid lashkarlarini yengadi. Bu tarixiy voqea turklar tomonidan Konstantinopolning olinishiga yo‘l qo‘ymay, Vizantiyaning yana 50-yil yashashiga imkon yaratadi.

Amir Temurning Kichik Osiyoga yurishi natijasida Usmoniylar davlatining kelajagi xavf ostida qolgan, zero sohibqiron Karaman va boshqa beyliklarni tiklagan, keskin qisqarib ketgan Usmoniylarning Anatoliyadagi mulklarini Boyazidning o‘g‘illari o‘rtasida taqsimlab bergan. 1404-yili Amir Temur qo‘shinlari Kichik Osiyodan chiqib ketganlaridan so‘ng Boyazidning o‘g‘illari o‘rtasida ayovsiz kurash boshlanib ketgan, ulardan har biri asirlikda vafot etgan otalari taxtini egallashga intilganlar. Bir necha -yillardan so‘ng aka-ukalardan faqat ikkitasi-Muso va Mehmedlar omon qolganlar, 1413-yilgi hal qiluvchi jangda Muso mag‘lubiyatga uchragan, so‘ng qo‘lga olinib qatl etilgan. Mehmed (1413-1421) usmoniylarning Yevropa va Kichik Osiyodagi mulklarining yagona xo‘jayni bo‘lib qolgan.

O‘z ichki ahvollarini mustahkamlab olgan turk zamindorlari yana istilochilik yurishlarini boshlab yuborganlar. 1421-yili Murod II (1421-1451) ning qo‘shinlari Konstantinopolni muvaffaqiyatsiz qamal qilganlar, keyin esa sulton armiyasi Albaniyaga bostirib kirgan. 1430-yili Salonikni egallashi bilan Makedoniyani istilo etish yakunlangan.

Keyingi yillarda turk qo‘shinlari Yunoniston, Albaniya va Serbiyaga yangi yurishlar uyushtirganlar.

Janubi-Sharqiy Yevropada xujum operatsiyalarining yangidan boshlanishi, Kichik Osiyo beyliklarining usmoniylar hokimiyatiga ikkinchi marta bo‘ysundirilishi bilan tumor tizimini tezlik bilan yoylishi davri boshlangan. Istilo etilgan yerlarni shartli in‘om tarzida taqsimlab berilishi “qilich odamlari” miqdorini sezilarli darajada ko‘payishiga va sulton hokimiyatining ijtimoiy tayanchini mustahkamlanishiga olib kelgan.

Ayni vaqtda yanicharlar va boshqa “davlat qullari”ni soni o‘sgan. Zero, ular tarkibini to‘ldirishning ilgarigi manbalari davlat extiyojlarini qondira olmay qolgan edi, shu bois, Bolqon yarim orolining bo‘ysundirilgan xristian aholisidan, avvalo slavyan va albanlardan, majburiy taqsimlash yoki o‘ziga xos “tirik soliq” (devshirme) tarzida bolalar va o‘smirlarni tizimli terib borish boshlandi.

Muntazam qo‘shinni to‘ldirib borish extiyoji ayniqsa yuqori bo‘lgan, zero usmoniylar yuqori tabaqasi unga kuchli markaziy hokimiyat Boyazid -yildirim (1389-1402) va davlatning birligini mustahkamlashning juda ham muhim vositasi sifatida qaragan. Sulton qaramog‘ida bo‘lgan qismlar bu davrda bir qancha qismlarga bo‘lingan: yanichar piyoda qismlari bilan bir qatorda otliq gvardiya otryadlari va artelleristlar korpusi paydo bo‘lgan. Yangi o‘qotar qurollarning samarali ekanligiga tushunib yetgan usmoniy hukmdorlar XV asr birinchi yarmida o‘z armiyasini zambaraklar va og‘ir miltiqlar bilan faol qurollantira borganlar.

XV asr o‘rtalariga kelib turk armiyasi o‘zining tashkil etilishi va jangovorlik sifatlariga ko‘ra Yevropa lashkarlari va yollanma qo‘shinlaridan kam bo‘lmagan, bundan tashqari turklar boshqa mamlakatlarning armiyalaridan son jihatidan sezilarli ustunlikka ega bo‘lganlar, ko‘pincha ana shu holat jang taqdirini hal etgan.

1416-yildagi Badriddin Simavi rahbarligidagi xalq harakati. XIV asr ikkinchi yarmi XV asrning birinchi yarmi usmoniylar jamiyatida yirik yer egaligi tartiblarining qaror topishi davri bo‘lgan. Bolqon yarim oroli va Kichik Osiyodagi bosqinchilik urushlari

istilochilar orasida tabaqalanishning mustahkamlanishi uchun qulay sharoitlar yaratgan. Qabilalar yuqori tabaqasi bilan bir qatorda anatoliya beyliklari va usmoniy sultonlar xizmatiga o'tgan, bolqon davlatlarining yirik yer-mulk egalari vakillaridan iborat hukmron tabaqa tezlik bilan moddiy boyliklar va siyosiy imtiyozlarni jamg'arib borgan, oddiy odamlarda hukmdorlar va davlat oldida majburiyatlar soni ortib, uning huquqlari esa tobora cheklanib borgan. Bunday o'zgarishlar og'riqsiz o'tib ketishi mumkin emasdi. Ular mamlakatdagi o'tkir ijtimoiy ziddiyatlarning sabablari bo'lib qolganlar.

Uning asosini qaram aholi-raiyatga aylangan ziroatkorlar va chorvadorlarning noroziliklari tashkil etgan. Ularning iqtisodiy ahvollari XV asr boshlaridagi vayronagarchiliklar tufayli keskin yomonlashgan.

Buyuk mutaffakir va musulmon Sharqning ijtimoiy-siyosiy arbobi Badriddin Simavi (1356-1416) xalq harakatining g'oyaviy rahbari bo'lgan. U kishilarni diniy e'tiqodidan qat'iy nazar o'zaro birodarlikka da'vat etgan, ijtimoiy va mulkiy tengsizlikni qoralagan. Zamondoshlarining xabar berishicha Badriddin Simavi o'zining bor mol-mulkini kambag'al, yo'qsil kishilarga taqsimlab bergan ekan, u o'z ixtiyoriy xokisorlik timsoli bo'lgan dag'al jun matodan (xirqa) libos kiygan.

Shayxning da'vatlari va uning turmush tarzi unga qo'zg'olondan ancha oldin katta shuhrat keltirgan. Sulton taxtiga da'vogarlardan biri bo'lgan Muso xalq uni taqvodor odam deb hisoblashini bilib, uni o'zining qoziaskari (harbiy sudya) etib tayinlagan. Musoning mag'lubiyatidan so'ng shayx Iznikka surgun qilingan. Surgunda Badriddin Simavi ijtimoiy-mulkiy tenglik g'oyalarini eng radikal inqilobiy yo'l-xalq qo'zg'oloni orqali amalga oshirish zarurligi haqidagi xulosaga kelgan 1416-yilning boshlarida mamlakatdagi keskinlashgan vaziyatda u harakat qilishga qaror qiladi, bir qancha muridlarini noroziliklari ayniqsa kuchli bo'lgan G'arbiy Anatoliya rayonlariga jo'natgan. O'sha -yilning bahorida uning ikki shogirdi Mustafo Berkmodje va Torlak Kemallar Izmir va Monisa rayonlarida qo'zg'alon ko'targanlar.

Qo'zg'olon ko'targanlarning ijtimoiy dasturi-umumiy tenglik bo'lgan. Berkmodjening dasturi yaqqol antifeodal xarakterga ega edi va sultonga qarshi qurolli kurash boshlagan ko'plab tarafdorlari-dehqonlarni o'ziga jalb etgan. Badriddin Simavi shogirdlari tomonidan targ'ib etilgan dinlarning tengligi g'oyalari ayniqsa musulmon bo'lmagan aholi orasida katta muvaffaqiyat qozongan.

Mustafo Berkmodje va Torlak Kemal boshchiligidagi otryadlar qariyb 10 ming kishidan iborat bo'lgan. O'z g'oyalari yo'lida kurashga qo'zg'alib, ular sulton qo'shinlarini bir necha bor mag'lubiyatga uchratganlar. Biroq qo'zg'olon rayonini kengaytirishi va o'z tomonlariga dehqonlarning yangi ommasini jalb etish o'rniga harakat rahbarlari o'z joylarida qolganlari holda, mudofaa taktikasi yo'lini tutganlar. Shu orada sulton Mexmed I yirik kuchlarni to'plashga muvaffaq bo'lgan va birin-ketin, avvaliga Berkmodje va Mustafo otryadlarini, so'ng esa Torlak Kemal otryadlarini tor-mor keltirgan. Asirga olingan ikki rahbar va ularning barcha tarafdorlari qatl qilinganlar.

Izmir rayonida qo'zg'olon boshlanganligi haqida xabar topgan Badriddin Simavi Valaxiyaga qochadi. Shundan so'ng u Dunay orqali yo'l olib, Deli O'rman o'rmonlarida o'rinish oladi. Bu orada shayx o'z tarafdorlari boshchiligida Edirnaga xujum boshlash maqsadida Zagora shahri tomon siljib boradi. Badriddin shia mazhabi aqidalariga ko'ra odamlarni azob-uqubatlardan xalos etish uchun yerga tushiriladigan Maxdi nomini oladi. Shayxning siyosati uning shogirdlari xatti-harakatlaridan birmuncha farq qilgan. Ular qo'llab-quvvatlashni so'rab faqatgina oddiy xalqqa murojat qilgan bir vaqtda Badriddin Simavi zamindorlar orasida, ularga lenlar va katta lavozimlarni va'da qilgani holda o'ziga tarafdorlar izlagan. Uning yurishi ishtirokchilari orasida ilgari Musoni qo'llab-quvvatlab chiqqan va pirovardida o'z yerlari va unvonlarini yo'qotgan ko'pgina shaxslar bo'lgan.

Chiqishning boshlanishi uchun tanlangan vaqt omadsiz bo'lib chiqqan. Kichik Osiyodagi qo'zg'olon bu vaqtga kelib bostirib bo'lingan edi, shu bois sulton o'z qo'shinlarini bu yerdan Bolqon yarim oroliga olib tashlash imkoniga ega bo'lgan. Ikki o'rtada boshlangan jang davomida Badriddin tarafdorlari mag'lubiyatga uchraganlar. Shayxning

o‘zi Deli O‘rman o‘rmonlariga, yangidan chiqishga tay.y.orgarlikni boshlash uchun qochgan, ammo sotqinlar tomonidan sultonning qo‘liga tutib berilgan va 1416-yilning dekabrda qatl etilgan.

Shayx Badriddin Simavi faoliyatida yirik yer egalariga qarshi norozilikning barcha ko‘rinishlari mujassam bo‘lib, u boshchilik qilgan harakat keng ijtimoiy asosga ega edi. Unga feodallashuvning iqtisodiy qiyinchiliklaridan ham, ijtimoiy oqibatlaridan ham aziyat chekkan dehqonlar, ko‘chmanchilar, usmoniylar harbiylarining quyi qatlami salmoqli ommasi jalb etilgan. Yuqori doiralardagi mojaroning xalq quyi qatlamlarining oshkora noroziliklari bilan bir vaqtda sodir bo‘lishi usmoniylar jamiyati rivojlanishining real kiyinchiliklarini ifodalardi.

Konstantinopolni egallanishi, Bolqon yarim oroli va Kichik Osiyoning istilo etilishini yakunlanishi. Sulton hokimiyati tomonidan tumor tizimini yoyish va boshqaruvning markaziy hokimiyatni mustahkamlash yuzasidan ko‘rgan choralari Usmoniylar davlatiga o‘tkir ijtimoiy-siyosiy inqirozni bartaraf etishga va “muqaddas” urushning asosiy maqsadi-Konstantinopolni qo‘lga kiritish uchun kuchga ega bo‘lish imkonini bergan.

Vizantiya imperiyasining tushkunlikka uchrashi va ichdan buzilishi usmoniy istilochilar yumushini yengillashtirgan. Mamlakat hukmron doiralari ichida italyan davlatlari bilan to katolik cherkovi uniyasi bilan yaqinlashish va rim papasining diniy rahnomoligini tan olishgacha borish tarafdorlari bilan yunon o‘ziga xosligi va pravoslav dinining himoyachilari o‘rtasida ayovsiz kurash borgan.

Bir necha asrlar davomida Konstantinopol juda ham yirik savdo va madaniy markaz bo‘lib kelgan. Ikki materik tutashgan joyda va O‘rta Yer dengizini Qora dengiz bilan bog‘laydigan dengiz yo‘llari va quruqlikdagi yo‘llar chorrahasida joylashgan bu shahar tranzit savdodan olinadigan boj yig‘imlaridan ulkan daromadga ega bo‘lib kelardi. Ammo XV asrda Konstantinopolning savdo ahamiyati, asosiy savdo yo‘llarining o‘zgarishi, xalqaro tranzit savdosining italyan savdogarlari qo‘liga o‘tishi munosabati bilan keskin tushib ketadi. Usmoniy hukmdorlar tomonidan Konstantinopolni doimiy tarzda qamal qilinishi ham Vizantiya poytaxti hayotiga haddan tashqari salbiy ta’sir

ko'rsatgan. Minglab kishilar shahardan qochib ketganlar. Biroq shahar hamon o'sha davr uchun birinchi darajali, quruqlikdan va dengizdan yaxshi himoyalangan qal'a bo'lib qolayotgan edi.

Konstantinopol yurishiga tay.y.orlanar ekanlar, turklar qattiq tay.y.orgarlik ishlarini amalga oshirganlar, og'ir qamal artilleriyasini yaratishga alohida e'tibor berganlar. Ayni vaqtda Vizantiya poytaxtini taqdirini hal qilishi lozim bo'lgan katta flotni tay.y.orlaganlar.

1453-yilning erta bahorida Sulton Mehmed II (1451-1481) Konstantinopolga qarshi o'zining umumiy soni 100 ming kishidan iborat sara qo'shinlarini jamlagan. Shahar himoyachilari esa undan salkam o'n marta kam bo'lishgan. Qamal qilinayotganlar orasida ataylab shaharga yordam berish uchun kelgan 4 ming nafar italiyaliklar bo'lganlar. Yaqqol ustunlikka qaramay, turklar shaharni ellik kun davomida qamal qilishlariga to'g'ri kelgan.

Konstantinopolning qulashi hiyonat tufayli tezlashgan. Poytaxt yaqinidagi Galata shaharchasida yashayotgan vizantiyaliklar va genuyaliklar yordamida qamal qilinayotganlar o'zlarining yengil kemalarini arqon bilan Marmar dengizidan Konstantinopolni Galatadan ajratib turuvchi Oltin Shoh ko'rfaziga sudrab o'tkazishgan. Ko'rfaz tomonidan shahar mudofaa tizimi anchagina omonat bo'lgan va bundan turklar foydalanganlar. Gavanni egallab ular Oltin Shohning yuqori qismi orqali harakatlanuvchi ko'priq qurganlar va bu tomondan ham harakatlanish imkoniga ega bo'lganlar.

1453-yilning 29 mayida Vizantiya poytaxti qulagan. Imperator Konstantin XI (1448-1453) o'ldirilgan. Mehmed II shaharni Istanbul deb qayta nomlagan va o'z qarorgohini shu yerga ko'chirtirgan. Istilochilar omon qolgan shahar aholisining katta qismini tutqun qilganlar. bu juda katta o'lja bo'lib, usmoniy jangchilari ularni qullikka sotib yuborish va tovon puli evaziga qo'yib yuborish huquqiga ega bo'lganlar. Genuyaliklar yashaydigan Galata shaharchasiga Mehmed II (1451-1481) kelsak, u Konstantinopol istilo qilishgandan so'ng ham saqlanib qolgan, uning aholisi Mehmed II dan savdo qilish va shahsiy daxlsizlik huquqini olganlar.

Konstantinopol qulagani haqidagi xabar butun Yevropani qattiq larzaga solgan. Papa Kaliket III turli xristian hukmdorlarga elchiliklar yuborib, ularni “G‘ayridin”larga qarshi salib yurishi uyushtirishga chaqirgan. German imperatoriga yo‘llagan maktubida papa “turklarga qarshi juda ham kuchli flot bilan yurishga chiqish”ni va “bu gazanda-Mehmed II ni” mahv etishga chaqiradi. Bunday chaqiriq xatto xristianlar Efiopiyasiga ham yo‘llangan.

Konstantinopolning olinishi Usmoniylar davlatining qudratini sezilarli darajada oshirgan va hali o‘z mustaqilliklarini yoki muayyan avtonomiyalarini saqlab qolgan Bolqon xalqlarining ahvolini keskin yomonlashtirgan. Avvaliga Vizantiya mulklarining barcha qoldiqlari tugatildi. Undan so‘ng navbat Serbiyaga (1459), Moreya (1460) va Bosniya (1464) ga keldi. Turklar tomonidan XIV asr oxiri XV asr boshlarida bosib olingan serb, Vizantiya, vengr va boshqa viloyatlar ularga o‘lpon to‘lashlari lozim edi, o‘lponni mahalliy hukmdorlar yig‘ishgan, binobarin usmoniy istilochilar soliq to‘lovchi aholi bilan bevosita munosabatga kirishmaganlar. XV asr ikkinchi yarmida bu viloyatlar Usmoniylar davlatiga oddiy muzofotlar sifatida qo‘shib olingan, yer fondining asosiy qismi esa sipohilar o‘rtasida taqsimlangan.

Albaniya aholisi o‘ttiz -yildan ortiq mashhur sarkarda va tashkilotchi Georgiy Kastrioti (turklar uni Skandarbek deb ataganlar) boshchiligida bosqinchilarga qattiq qarshilik ko‘rsatganlar. Faqatgina 70-yillarning oxiriga kelib Skandarbek o‘limidan so‘ng 10-yildan keyin Mehmed II Albaniyani itoat ettirishga muvaffaq bo‘lgan. Moldaviya va Valaxiyaning hukmdorlari Mehmed II ga anchayin yon berishga, xususan o‘z mamlakatlari davlat va hududiy yaxlitligini saqlab qolish uchun katta miqdorda yillik o‘lpon to‘lashga majbur bo‘lganlar. Bu bilan mazkur knyazliklarning usmoniylar hokimiyatiga bo‘ysundirish jarayoni boshlangan.

Bolqonda uzil-kesil mustaxkamlanib olgach, Mehmed II Kichik Osiyoda yangi istilolarga va genuyaliklar, hamda venetsiyaliklarni Qora dengizdan siqib chiqarishga kirishgan.

Turklar avvalo XIII asr boshidan mavjud bo‘lib kelgan Trepezund imperiyasining markazi bo‘lgan Trepezund (Trebzon)ni egallab

olganlar. Trepezund aholisi 28 kun davomida sulton qo‘shinlariga qarshi qattiq qarshilik ko‘rsatgan, biroq pirovardida imperator Devid Komnin boshchiligidagi yunon zodagonlari shaharni xoinona dushmanga topshirgan.

Karaman beyligi hukmdorlari 70-yil davomida o‘z mustaqilliklarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘lishgan. Ammo Trepezund imperiyasi qulagandan so‘ng ularning ahvoli nihoyatda og‘irlashib ketgan. Karaman beyiga uning ittifoqchilari ulkan Oq quyunli davlatining hukmdori-shoh Uzun Hasan yordamga kelgan. XV asrning 50-60-yillarida bu davlat o‘ziga Armaniston, Ozarbayjon, Kurdiston, Iroq, shuningdek Eron va Sharqiy Anatoliyaning bir qator viloyatlarini qo‘shib olgan edi. Uzun Hasanning qo‘shini 50 ming chavondoزدan iborat bo‘lgan, garchi jasur bo‘lsa-da, ammo yomon qurollangan lashkarga yaxshi artilleriya va harbiy tay.y.orgarlikka ega bo‘lgan turk yanicharlariga qarshi jangga kirish qiyin edi. 1473-yili Mehmed II Uzun Hasan va Karaman beyi qo‘shinlarini tor-mor keltirgan. Mazkur g‘alabalar sharofati bilan Kichik Osiyoni istilo etish asosan yakuniga yetgan: Karaman beyligi o‘z mustaqilligini yo‘qotgan, bundan so‘ng ko‘p o‘tmay esa shuningdek Uzun Hasanning Kichik Osiyodagi mulklari Usmoniylar davlati tarkibiga kirganlar.

Bolqon va Kichik Osiyodagi janglar bilan bir vaqtda turklar o‘z hukmronlik holatlarini Qora dengiz havzasi va O‘rta Yer dengizi sharqiy qismida saqlab qolishga intilayotgan Venetsiya va Genuyaga qarshi harbiy harakatlarni avj oldirganlar. 60-70-yillarda quruqlikda va dengizdagi qattiq kurashlardan so‘ng Venetsiya respublikasi o‘zida Krit oroli va Ioniy orollarini saqlab qolgani holda Egey dengizidagi Arxipelag orolini qo‘lida tutib qololmadi. Genuya ham qator mag‘lubiyatlarga uchrab, Xios va Lesbos orollarini yo‘qotdi. Biroq Genuya uchun eng katta zarba uning Qrimdagi koloniyalarini Usmoniylar qo‘shini tomonidan istilo qilinishi (1475) bo‘ldi. Ular ichida eng kattasi Kofa (Teodosiya) shahri edi. Italyan respublikalar qudratini uzil-kesil barbod qilishga intilib, Mehmed II xatto harbiy harakatlarni Apenin yarim oroliga ko‘chirishga intilgan, bu yerda turklar uncha katta

bo'lmagan Otranto shaharchasini egallab olishga muvaffaq bo'lganlar. Biroq sultonning o'limi bilan bu operatsiya to'xtatib qo'yilgan.

Turklar Mehmed II unvoniga "Fotih" (Istilochi) so'zini qo'shib qo'yganlar. Uning o'ttiz -yillik boshqaruvi davrida Usmoniylar davlati o'z chegaralarini sezilarli darajada kengaytirgan va barcha qo'shnilariga qo'rquv soluvchi qudratli imperiyaga aylangan.

XV asr ikkinchi yarmida yirik yer egaligi munosabatlari va dehqonlarning ahvoli. Mehmed II ning agrar sohadagi tadbirlari.

Turkiya tarixida Mehmed II nafaqat istilochi sifatida, balki mamlakat ichki hayotida muhim o'zgarishlarni amalga oshirgan davlat arbobi sifatida ham ma'lum.

Turklarning salmoqli harbiy muvaffaqiyatlari va ularning Kichik Osiyo va Bolqonda to'liq hukmronlikni o'rnatishlari Mehmed II ga feodal tizimni yanada rivojlantirish va sulton hokimiyati doirasini kengaytirishga qaratilgan keng ko'lamdagi tadbirlarni amalga oshirish imkonini bergan.

Uning boshqaruv yillarida usmoniylar feodal huquqi qonunlar majmuasi (turkcha qonunnoma) tuzilgan. Qonunnomada yerni shartli qo'lda ushlab tartibi uzil-kesil rasmiylashtirilgan. Albatta, usmoniylar davlatida yirik yer mulklari faqat tumoriylar bilan chegaralanib qolmagan. Ulardan tashqari xususiy mulklar va musulmon ruhoniylar mulkchiligida bo'lgan vaqf yerlari mavjud bo'lgan. Mulklarning katta qismi Janubi-Sharqiy Yevropadagi istilolarning boshlang'ich bosqichida va anatoliya beyliklarining qo'shib olinishi davrida paydo bo'lgan. Ular Bolqon va Kichik Osiyoda katta ta'sirga ega bo'lgan feodal urug'lar vakillariga tegishli bo'lgan.

Mulklar va vaqflarga qaram-qarsh tarzda tumoriylar zeametlar va xassalar davlat yerlarida yuzaga kelgan. Tumori tizimining qaror topishi bilan usmoniylar hukmron doiralarida ikkita asosiy katta guruhlar rasmiylashgan. Sipohilarning asosiy qismi feodal rentaning uncha katta bo'lmagan qismiga va xatlab berilgan dehqonlarga nisbatan cheklangan huquqlarga ega bo'lgan hukmron sinfning kuyi ommaviy qatlamini ifodalagan. Tumoriylarga son jihatidan oz bo'lsa-da, biroq ta'siri va boyliklari jihatidan yirik zamindorlar guruhi-xassa va zeametlar egalari

qarama-qarshi turishgan. Xususan yer mulklarning asosiy qismi ham aynan ularga tegishli bo'lgan. Sipohilar yer maydonlarida bevosita ekin-tekni qilish bilan mashg'ul bo'lmaganlar, ular ziroatchilik uskunalarini yaxshilash va hosildorlikni oshirish to'g'risida emas, faqatgina o'z vaqtida soliq undirib olish to'g'risida qayg'urishgan. Barcha yerlarga qaram dehqonlar-raiyatlar ishlov berishgan, yerdan foydalanganliklari uchun ular o'z xo'jayinlariga hosilning muayyan qismini berishgan.

Mehmed II qonunlari majmuasining bir qator moddalari dehqonlarning sipohlar oldidagi majburiyatlarini belgilab bergan. Sipohi ishlov beriladigan yerning katta-kichikligiga muvofiq tarzda yer solig'i va qishloq xo'jaligi turli mahsulotlaridan ushr (hosilning o'ndan biri miqdoridagi) solig'i olishga haqli bo'lgan. Dehqonlar yer egalariga shuningdek tegirmon solig'i, chorva uchun, nikoh uchun soliqlar yerdan merosiy foydalanish haqidagi xujjat tuzish uchun yig'im va ko'pdan-ko'p jarimalar to'laganlar. Bundan tashqari ular zamindor mulklarida xizmat qilish, qal'alar, yo'llar, ko'priklar va hokazolarni qurish va ta'mirlashda ishtirok etish majburiyatlarini o'tashlari lozim bo'lgan. Musulmon bo'lmagan yunonlar, armanlar, bolgarlar, serblar va boshqa xalqlarning ahvoli yanada og'irroq bo'lgan, zero ulardan rasman harbiy xizmatdan ozod bo'lish uchun to'lanadigan xaq sifatida ko'rsatiladigan, qo'shimcha jon solig'i (juz'ya) olingan. Zamindorlarga to'lanadigan renta pul ko'rinishida, oziq-ovqat va ishlab berish shakllarida namoyon bo'lgan. Izdolshina tizimining ustuvorligi oziq-ovqat solig'ining hukmronligini ham belgilagan. Barshchina aytarli keng tarqalmagan. Fotih kodeksi uni -yilda yetti kun miqdorida cheklab qo'ygan.

Chorakorlik va oziq-ovqat rentasining ustuvorligi dehqonni majburlashning noiqtisodiy shakllariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Mehmed II ning qonunnomasida qishloq aholisining sipohiga shaxsiy qaramligini mustahkamlovchi ayrim qoidalar bo'lgan, ammo umuman olganda usmoniylar davri raiyati nisbiy shaxsiy erkinlikdan foydalangan. Bu holat raiyatning o'z yer uchastkalariga nisbatan ega bo'lgan huquqlar bilan yaqindan bog'liq bo'lgan. Dehqon o'z yer uchaskasini faqatgina unga ishlov bermay qo'ygan taqdirdagina

yo‘qotishi mumkin edi. Dehqonning yerlari otadan meros bo‘yicha o‘g‘ilga o‘tardi.

Davlat extiyojlaridan kelib chiqqan holda, usmoniy hukmdorlar XV asr davomida shartsiz yer mulkchiligini ma‘lum darajada kengaytirishga yo‘l qo‘yishga majbur bo‘lganlar. Chunonchi, Rumeliya (ya‘ni sultonning Yevropa mulklarida)da mulklar va vaqflarning, yo-yila borishi istilo qilingan yerlarni xo‘jalik jihatidan tezlik bilan ko‘tarish zaruriyati Bolqon yarim orolini mustamlakalashtirish extiyojlari bilan izohlanadi.

Zamindorlar orasida separatistik tendensiyalarning kuchayish xavfi va armiyani saqlab turish uchun daromadlarni doimiy ko‘paytirib borish extiyoji Mehmed II ni mulk egalari vaqfni yerlarni vujudga keltiruvchilarga qarshi bir qator choralar ko‘rishga majbur etgan. Mulklar va vaqf yerlarning bir qismini tumorilarga aylantirish maqsadida musodara etish haqidagi sultonning farmoni kurashning eng yuqori nuqtasi bo‘lgan.

Mehmed II ning farmonlari Kichik Osiyo beyliklaridan bo‘lgan zamindor aristokratiyaning qoldiqlariga, ularning ilgarigi davrlardagi mustaqilligining moddiy asosini tugatishi asnosida katta zarba bergan. Shu bilan birga imperiyaning o‘zining ichida shakllanib kelayotgan, endilikda xizmat evaziga yerga egalik qilishning cheklab qo‘yilgan sharoitlaridan qoniqmayotgan zamindorlar yuqori tabaqasini zaiflashtirishga urunib ko‘rilgan.

Bunday islohotni Mehmed II hukumati faqatgina sipohilarning madadiga tayangan holdagina amalga oshirishi mumkin edi. Yer egalari bilan jon-jahdlari bilan qarshilik ko‘rsatishlariga qaramay, sultonga mazkur tadbirlarni amalga oshirish imkonini bergan bunday holat sipohilar ommasi kuch qudratidan va usmoniylar yirik yer egaligining asosiy shakli sifatida tumorining qaror topganligini eng yaqqol ifodasi ekanligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga Mehmed II ning islohoti zamindorlar yuqori qatlamini kuchayib borishi jarayonini to‘xtatib qo‘ya olmas edi. Uning vakillari sulton Boyazid II (1481-1512) boshqaruvi davrida islohotlarga qadar mavjud bo‘lgan mulk va vaqflarni tiklanishiga erishganlar. Buning

ustiga XV asr oxiri XVI asrda xususiy yer egaligi yanada kengroq yo-yila borgan.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Kichik Osiyodagi Saljuqiylar davlatining tashkil topishining shart-sharoitlari nimalardan iborat?
2. Turklarning ijtimoiy tuzumining o'ziga xos jihatlarini izohlang.
3. Usmoniylar davlatining tashkil topishi va rivojlana borishidagi asosiy omillarni izohlang.
4. Turklarning Bolqondagi istilolari qaysi -yillarda olib borilgan va ularning ahamiyati haqida mulohaza yuriting.
5. Vizantiya imperiyasining qulashi sabablari nimalardan iborat?
6. Usmoniylar davlati kuch-qudrati omillarini izohlab bering.

3-§ HINDISTON XIII-XV ASRLARDA

Darsning maqsadi: Hindistoni XIII-XV asrlarda rivojlanishining asosiy tendensiyalari, tarixiy taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari haqida talabalarga ma'lumot berish.

REJA:

- 1. Dehli sultonligining tashkil topishi;**
- 2. Dehli sultonligida yirik yer yegaligi shakllari;**
- 3. Oloviddin Xiljining ichki va tashqi siyosati (1296-1316);**
- 4. Muhammad Tug'luq saltanati;**
- 5. Dehli sultonligi XIV asr ikkinchi yarmida va uning vaqtinchalik parchalanishi.**

Dehli sultonligining tashkil topishi. Tarain yonidagi g'alabadan so'ng musulmon qo'shinlari Muhammad Guriy fikriga ko'ra, bosib olingan mamlakatni talon-taroj qilishlari emas, balki uni Guriylar davlatining bir muzofotiga aylantirishlari lozim edi. Ammo bu ish unchalik oson emasdi. Muhammad Guriy yangidan istilo etilgan hududlar boshqaruvini kelib chiqishi g'ulomlardan bo'lgan tajribali sarkarda Qutbiddin Oybekka beradi. U harbiy noib bo'lib, uning vazifasi shuningdek hind knyazliklarini istilo qilib borish edi. Biroq bu knyazliklar tobora kuchliroq qarshilik ko'rsata borganlari sababli katta muvaffaqiyatlarga erishishning iloji bo'lmagan. XIII asr boshlariga kelib Muhammad Guriyning mulklari Ganga daryosining g'arbiy qismi, asosan Doaba viloyatini, Radjastxan va Audning bir qismini o'z ichiga olgan. Qutbiddin Oybekning qarargohi qulay strategik markaz bo'lgan Dehli shahri edi.

Musulmon qo'shinlari etnik tarkibiga ko'ra ancha xilma-xil bo'lib, biroq uning asosini klan (urug'-qabila) tashkilotini saqlab qolgan turklar tashkil etishgan. Harbiy boshliqlar odatda o'z qo'mondonligi ostiga birinchi navbatda urug'doshlarini yig'ishgan va ularga tayangan klan sardorlari bo'lishgan. Qo'shinning qolgan qismi begona boy yurtda

harbiy hizmatdan baxt topish ishtiyoqida bo'lgan har-xil avantyuristlardan yig'ilgan.

Istilolar jarayonida yirik harbiy boshliqlarga, keyinroq esa bir qadar maydaroqlariga ham boshqaruv uchun butun-butun viloyatlar berilgan. Qo'shinlar yordamida bu harbiy boshliqlar g'animlik kayfiyatidagi aholini itoatda tutishlari, o'lpon yig'ishlari va uni Dehlidagi noibga jo'natishlari lozim bo'lgan. Yangi hukmdorlar soliqlarni ilgarigi hukmdorlar-hindistonliklar singari hosildan hissa ko'rinishida va o'sha miqdorda-bu avvaliga aftidan, hosilning beshdan bir qismini, biroq XIII asr oxirida asosiy yerlardan hosilning to'rtidan bir hissasini olishgan. Vaqti kelib mayda qo'shimcha yig'imlar, masalan chorva uchun, savdo bojlari o'rnatilishi umuman soliqqa tortish ishlari tartibli shaklga ega bo'lgan.

Ko'p mahalliy zamindorlar musulmonlar tomonidan qirib tashlangan, qolganlari qochib ketganlar, ammo ularning bir qismi musulmon sultonning hokimiyatini tan olib va uning foydasiga soliqlarning katta qismini berish majburiyatini olib, o'z yer-mulklarida qolganlar. Dastlabki vaqtlarda hind zamindorlarining bunday vasallarcha bo'ysunishi musulmonlar uchun ko'p xollarda u yoki bu viloyatni tinchlantirish haqidgi masalani eng oson yechimi bo'lgan. Pirovardida hinduslardan bo'lgan yirik vassallar asosan musulmon davlatining chekka qismlari bo'ylab, yetib borish qiyin bo'lgan joylarda, siyosiy mulohazalarga ko'ra yana qayerlardadir qoldirilgan. Saqlanib qolgan hindus zamindorlarining katta qismi musulmonlarga harbiy hokimiyat va jamoa o'rtasida soliq yig'ish va tartibni saqlash ishida vositachi sifatida kerak bo'lgan jamoa sardorlari bo'lishgan. Istilochilar hali soliq yig'ish uchun hech qanday apparatga ega bo'lishmaganligi bois, qo'shimcha mahsulotlarning bir qismini jamoadan begonalashtirishning an'anaviy tizimidan foydalanishgan.

XII-XIII asrlar bo'sag'asida Shimoliy Hindistondagi vaziyat juda beqaror bo'lgan, biroq shu narsa, ya'ni musulmonlarning Gang vodiysida mustahkam o'rnashib olganliklari va bu yerdan ketishni hayollariga ham keltirmayotganliklari aniq edi. Muhammad Guriyning bu mulklaridan janub va G'arbda joylashgan davlatlar qattiq va

muvaffaqiyatli qarshilik ko'rsatishgan. Hindistondagi asosiy musulmon mulk-Dehli sultonligi tarixi 1205-yildan, ya'ni sulton Muhammad Guriy jazo ekepeditsiyasidan qaytayotganida, Hind daryosi bo'yida o'ldirilgandan so'ng boshlanadi. O'sha vaqtda uning merosi uchun kurash boshlangan; unda g'ulomlardan chiqqan harbiy sarkardalar g'alaba qozonishgan. Gang vodiysi va Panjobda hokimiyatni Qutbiddin Oybek qo'lga kiritgan. Bu yerda vujudga kelgan davlatni uning poytaxti nomi bo'yicha Dehli sultonligi deb atashgan. Uning birinchi hukmdori chavgon o'yini vaqtida otdan yiqilib o'lgan. Dehli sultonligi faqatgina ilgari Gang vodiysi viloyati hokimi bo'lgan sulton Shamsiddin Eltutmish davridagina (1211-1236) mustahkamlangan. O'zining o'tmishdoshi kabi u ham turk-g'ulomlardan chiqqan edi. Qattiq kurashlar davomida Eltutmish butun Panjob va Sindni jang bilan olishga, Bengaliyani bo'ysundirishga muvaffaq bo'lgan. 1221-yili Panjobga Chingizxon tomonidan tor-mor keltirilgan Xorazmshohning o'g'li Jaloliddin bostirib kirgan, uning ortidan esa, ta'qib qilib kelayotgan mo'g'ullar bostirib kirishgan. Eltutmish Jaloliddinni o'z mulkida qabul qilishdan bosh tortgan, biroq Panjob va Sind Jaloliddin qo'shinlaridan ham, mug'ullar qo'shinlaridan ham, to ular bu hududni tark etmaguniga qadar (uch -yil o'tib) juda katta jabr ko'rgan. Bu safar yosh Dehli davlati tepasida yuzaga kelgan xavf bartaraf bo'lgan. Mo'g'ullar Hindistonga 1241-yili yangidan xujum qilib kelganlar, biroq bu vaqtda Eltutmish hayotdan ketgan edi.

Dehli sultonligida yirik yer yegaligi shakllari. Ilk musulmon hukmdorlari davrida butun davlat mexanizmi avvalo harbiy tashkilot sifatida namoyon bo'ladi. Istilochilarning hukmronligi xali juda ham mo'rt bo'lgan bir sharoitda alohida jipslashuv zaruriyatini musulmon zamindorlarning o'zlari anglab yetganlar. Shu munosabat bilan davlat bilan zamindorlar o'rtasidagi munosabatlar qat'iy markazlashuv va harbiy boshliqlarning hukmdorga bo'ysinishi, moddiy resurslarni sulton qo'lida to'planishi asosiga qurilgan.

Iqto yer egaligi shakli juda ham cheklangan huquqlarda namoyon bo'lgan. Iqto egasi o'rnatilgan umumdavlat meyorlariga muvofiq g'aznaga soliq yig'ish va uning uncha katta bo'lmagan bir qisminigina

o'zida qoldirishi mumkin bo'lgan. Bu hissa yig'ilgan soliqlarning faqatgina yigirmadan bir qismidan, o'ndan bir qismigacha tashkil etgan. Zamindorlar ega bo'lgan mablag'lardan sulton talab qilgan zahoti urushga kirishi lozim bo'lgan qurolli otliq otryadini saqlab turishda foydalanishi lozim bo'lgan. Qolgan vaqtda zamindor bu otryad yordamida unga egalikka berilgan hududda tartib o'rnatish, soliq yig'ishni ta'minlar edi. Xizmati davomida ko'tarilib borishi bilan harbiy boshliq katta miqdordagi iqtoni qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan, ammo ilgarigisini davlatga topshirgan. Odatda mulk bir qo'lga umrbodga berilsa-da, ammo merosiy bo'lmagan. Ko'pgina harbiy boshliqlar ularga iqto qilib berilgan butun-butun viloyatlar ustidan hokimiyatni qo'lga kiritganlar. Bunday yirik iqto egalarini odatda arab termini bilan "muqto" deb ataganlar, ular amir va malik martabasiga ega bo'lishgan. Shamsiddin Eltutmish boshqaruvining oxirlariga kelib Dehli sultonligida harbiy feodal aristokratiyasining yuqori tabaqasini katta otliq otryadlariga ega bo'lgan, qabiladoshlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan eng yirik muqto "qirq malik" tashkil etgan.

Mayda iqto egalarini odatda iqtodorlar deb atashgan, ularning har biri ba'zan o'nlab qishloqlarni o'z ichiga olgan butun bir qishloq okrugining egasi hisoblangan. Davlat mustahkamlanib borgani sari zamindorlarning sof harbiy jipsligi zaiflasha borgan, maliklar va bir qadar mayda mulkdorlar-iqtodorlar tobora o'z yerlarida o'zlarini hukmdordek his eta borganlar, sultonning qat'iy vasiyligi endilikda ularga malol kela boshlagan. Ular o'zlarini tobora ko'proq zamindor deb, tobora kamroq hukmdorga xizmatchi va janchi deb his eta borganlar. Ravshanki, bu o'zgarishlardan Shamsiddin Eltutmish ham xabar topgani, bois u ikki ming jangchiga juda mayda, o'lchami bitta qishloq, ba'zan esa yarim qishloqdan to'g'ri keladigan miqdorda iqto taqsimlab berishga qaror qilgan. Bu iqtodor-chavandozlar o'z hukmdorining harbiy yurishlarida shaxsan o'zlari, ba'zan bir necha qurollangan xizmatkorlari bilan ishtirok etishlari lozim bo'lgan. Albatta, bunday juda mayda iqto egalari sultonga to'la qaram bo'lishgan, ularning tinch-xotirjamliklari, farovon hayotlari uning mustahkam hokimiyati va davlatdagi tartib-intizom bilan butunlay bog'liq bo'lgan.

Yirik yer egaligining ahamiyati jihatidan ikkinchi shakli xolisa deb atalgan davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri mulk egaligi edi. Xolisaga kiruvchi aholi yashaydigan hududdan asosiy yer solig‘i-xiroj va boshqa soliqlarni soliq idorasi amaldorlari yig‘ishgan va to‘plangan mablag‘larni g‘aznaga yo‘llashgan, u yerdan turli davlat extiyojlariga, birinchi galda bevosita sultonga xizmat qiluvchi qo‘shinlarni saqlab turishga qayta taqsimlangan. Shunday qilib, Dehli sultonligining armiyasi ikki qismdan-sultonning o‘z qo‘shinidan va shuningdek zamindorlar otryadlaridan iborat iqtodorlar qo‘shinidan tarkib topgan. Xolisa yerlariga qanchalik ko‘p hududlar kirsa, hukmdor shunchalik ko‘proq mablag‘larga, o‘zining katta armiyasiga va ko‘proq real kuchga ega bo‘lgan.

Dehli sultonligida hind zamindorlarining turli-tuman mulklari anchagina sezilarli darajada saqlanib qolgan bo‘lib, ularni zamindori degan shartli nom ostida birlashtirish mumkin. Zamindori zamindor mulkchiligi turi sifatida shu bilan xarakterliki, zamindorlar bunda harbiy xizmat qilmaganlar, biroq ular tomonidan o‘zlashtirilgan qo‘shimcha qiymatning anchagina qismini o‘lpon sifatida soliq idoralariga berishlari lozim bo‘lgan. Zamindorlar qatoriga vassal knyazlar, bir qadar mayda mulkdorlar va jamoaning feodallashib borayotgan yuqori tabaqasini kiritish mumkin. Jamoaning yuqori tabaqasi vazifasiga jamoachilardan soliq yig‘ish kirgan, buning uchun bu shaxslarga yig‘ilgan soliqning bir qismi qoldirilgan, ularning o‘z yerlari esa soliqqa tortishdan ozod qilingan; bundan tashqari ular o‘z foydalariga jamoachilardan musulmon hokimiyati tomonidan belgilanmagan soliqlarni yig‘ib olganlar.

Yer egaligining mulk, in‘om, vaqf kabi shakllarini o‘rni uncha katta bo‘lmay, ayniqsa bu Dehli sultonligi mavjudligining boshlang‘ich davrida ko‘proq ko‘zga tashlanadi.

Dehli sultonligi va XIII asrda iqto yer egaligi tizimining evolyutsiyasi. Dehli sultonligida Eltutmish o‘limidan so‘ng alg‘ov-dalg‘ovli davr boshlangan. O‘zaro kurash olib borovchi, hukmdorlarni ag‘darib tashlab taxtga o‘z odamlarini o‘tqazuvchi qirq nafar maliklar o‘z to‘dalarini tashkil eta borganlar. Bu kurashda mamlakatning

g'ayratli va mard hukmdori, maliklarning fitnalariga to'rt yil qarshi turgan, Eltutmishning qizi Roziya halok bo'lgan, keyin yana ikkita sulton o'ldirilgan. 1246-yili maliklar taxtga Eltutmishning nabirasini o'tqazishgan. Ular bu zaif sulton davrida vaziyatni nazorat qilishni o'z qo'llariga olishga intilishgan. Ulardan biri G'iyosiddin Balban asta-sekin amalda hukmdor bo'lib olgan. U o'z mavqeini mustahkamlab olgan va isyonkor zamindorlarga muvaffaqiyatli kurashuvchi mohir va qat'iy siyosatchi bo'lib maydonga chiqqan. Pirovardida G'iyosiddin Balban balog'atga yetmagan sultonni zaharlagan va o'zini sulton deb elon qilgan. U 1265-yildan 1287-yilgacha o'z hokimiyatini mustahkamlash, o'zaro urushlarga chek qo'yish, isyonlarga barham berish va turk zodagonlarini mo'g'ullarning xujumlariga qarshilik ko'rsatish yo'lida birlashtirish uchun kurashlar olib borgani holda hukmronlik qilgan. Aftidan, mo'g'ullar xavfi sultonning birlashtirish siyosati muvaffaqiyatiga imkon bergan omil bo'lgan, ammo mamlakatda o'rnatilgan tartib yetarlicha nisbiy edi. G'iyosiddin o'limidan so'ng yangidan o'zaro urushlar boshlangan.

Dehli sultonligi XIII asrning katta qismi davomida tushkunlik holatida bo'lgan. Siyosiy tartibsizliklar avvalo yirik zamindorlar hokimiyatining kuchayishi oqibati edi.

Oloviddin Xiljining ichki va tashqi siyosati (1296-1316). Mo'g'ullarning tobora xavfli bo'lib borayotgan xujumlari davlatni mavjudligining o'ziga tahdid sola boshlagan. Mo'g'ul o'rdalari poytaxtga yaqinlashib kelganlar, Gang vodiysining ichkarisi tomon kirib borganlar, hamma yoqni obdon talon-taroj qilib, yondirib-kuydirganlar, sulton qo'shinlariga esa qal'alardan chiqmay o'tirishga to'g'ri kelgan. Mo'g'ullarni qaytarish va ayni vaqtda istilochilik yurishlarini davom ettirish uchun favqulodda sayi-harakatlar qilish davlatning barcha resurslarini ishga solish lozim edi. 1296-yili hokimiyatga kelgan Oloviddin Xilji davlatning soliqqa tortishdan oladigan daromadlarini keskin oshirishga va ulkan jangovor armiyasini ta'minlashga va shuningdek zamindorlar ustidan hukmdorning mutloq hukmronligini qaror toptirishga yo'naltirilgan bir qator islohotlar o'tkazgan.

Oloviddinning asosiy iqtisodiy ko‘rgan chorasi jamoachilardan olinadigan soliqni birdaniga ikki barobar ya’ni hosilning to‘rtidan bir qismidan, ikkidan bir qismigacha ko‘tarish bo‘lgan. Bu esa muqarrar suratda qishloqni xonavayron bo‘lishiga olib kelgan.

Bozorlardagi narx-navo sultonning o‘zi tomonidan va nihoyatda past darajada belgilangan. Bu “bozor yo‘l yo‘riqlari” yollangan jangchilarni, jangchi kontingentining katta qismni arzon non bilan ta’minlagan. Majburiy tarzda o‘rnatilgan past narx-navolar savdo faoliyatini foyda bermaydigan holatga olib kelgan va pirovardida shahar savdogarlarini ham, hunarmandlarini ham xonavayron qilgan.

Oloviddin tomonidan o‘rnatilgan tartiblar muqarrar tarzda iqtisodni izdan chiqishiga olib kelgan, ammo bu birmuncha muddat qo‘yilgan maqsadlarni amalga oshirilishiga yordam bergan. Davlat resurslarini safarbar qilinishi shimoli-g‘arbiy chegaradagi armiyani kuchaytirish, mo‘g‘ullarga bir qator muvaffaqiyatli zarbalar berish, Dekanga yurishni boshlash imkoniyatini bergan. Sarkarda Malik Kafur butun Dekan yarim orolini, Malabardan tashqari va ba’zi kam ahamiyatli viloyatlarni egallab, katta dovrug‘ qozonib, qahramonga aylangan. Istilo qilingan davlatlar tovon puli sifatida ulkan boyliklarni, podsho xazinalaridan to‘plangan oltin, kumush, javohirlarni, yuzlab jangovar fillaru, ko‘p minglab otlarni (ehtimol, qo‘shinlarda foydalaniladigan barcha otlarni) berishga va sultonlikning o‘lpon to‘lovchisi bo‘lib qolishga majbur bo‘lishgan. Aytish kerakki, bu harbiy o‘ljalar qandaydir vaqtga xo‘jaliklarning o‘sib borayotgan xonavayronligi tufayli soliqlar tushumining kamayib borishini o‘rnini to‘ldirgan.

Shunday holatga e’tibor qaratish muhimki, soliq va bozorga oid yangiliklar sultonning barcha hududlariga emas, balki faqatgina Dehli rayonigagina dahldor bo‘lgan. Bu viloyat aslida Dehli davlatining asosini, sultonlar hokimiyatining mustahkam tayanchini tashkil etgan, bu yerda xolisa yerlari va iqtining katta qismi joylashgan bo‘lib, buyog‘i markaz bilan aloqalari asosan o‘lpon to‘lash munosabatlari shaklida amalga oshirilgan, sulton ma’muriyati esa asosan harbiy nazorat bilan cheklangan yerlar bilan tutashib ketgan.

Oloviddin Xilji faoliyatining yana bir yo‘nalishi bu xolisa va ikto yerlari hududlarini davlat fondi foydasiga qaytadan taqsimlab chiqilishi bo‘lgan. Ko‘plab in‘om, mulk, vaqf, hindus zamindorlarining mulklari (zamindori) musodara qilingan. Bu, davlat solig‘i olinadigan hududlarni sezilarli darajada ko‘payishiga olib kelgan. Iqtoni ushlab turishning barcha shartlarini zamindorlar tomonidan bajarilishi ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatilgan. Iqtoning katta kichikligiga qarab, iqtodor muntazam ko‘riklarga va sultonning talabi bilan urushga kelishi lozim bo‘lgan otlar otryadining aniq miqdori belgilab berilgan. Iqtodorlar doimo yetarli darajadagi odatda o‘z quroli: kilich, xanjar, o‘qi bilan kamonga ega bo‘lgan jangchilarni yollay olardilar. Himoya quroli ularda odatda oddiy dumaloq qalqon bilan cheklangan, qimmat turadigan temir dubulg‘aga ayrimlarga ega bo‘la olganlar. Iqtodorning otryad uchun qiladigan asosiy xarajati ot sotib olish bo‘lgan. Hindiston sharoitida otlar to‘laqonli zurriyat bermaydi va zoti buzilib ketadi. Shuning uchun harbiy maqsadlar uchun hind hukmdorlariga har -yili Afg‘oniston, O‘rta Osiyo, Eron va Arabistondan ming-minglab otlar olib kelishga to‘g‘ri kelgan. Otlar qo‘shin qadimiyat davrining oxirlaridayoq harbiy muvaffaqiyatni ta‘minlovchi qo‘shinlarning asosiy turi bo‘lib qolgan. Armiyaning jangovor qobiliyati va kuchi avvalo, kavaleriya soniga bog‘liq bo‘lgan. Biroq otlar chetdan olib kelinadigan qimmatbaxo tavar bo‘lgani bois, iqtodorlar nazorat haddan tashqari qattiq bo‘lmagan xollarda harbiy idorani aldashga va kerakli miqdordagi otni sotib olmaslikka urinishgan.

Bu suiste‘molliklarga qarshi kurashish uchun Hindistonda birinchi marta otlarni tamg‘alash joriy etilgan. Ko‘riklarda endilikda iqtodor otryadining nafaqat soni, balki otlarning kimga tegishliligi ham tekshirilgan, har bir ot terisiga mazkur iqtodorning shaxsiy belgisi tamg‘a qilib tushirilgan. Umuman olganda, Oloviddin boshqaruvi davrida iqto harbiy feodal tizimi gullab yashnagan. Bu dahshatli sulton davrida zamindorlar markaziy hokimiyatga to‘la qaram qilib qo‘yilgan, ularni o‘zbilarmonlik bilan ish tutishiga chek qo‘yilgan.

Umuman Oloviddin mutlaqo shafqatsiz qatag‘on rejimini yaratgan. Sulton o‘limidan so‘ng qamoqlardan qariyb 17 ming kishi

chiqarilgan. Siyosiy gʻanimlarni esa sulton davrida ayovsiz qatl qilishgan. Murakkab mirshablik apparati tuzilgan, xufiya xizmati va amaldorlarning bir-biridan mustaqil uch tomonlama nazorati joriy etilgan. Bu xizmatlar yordamida sulton “bozor tartiblari” ga katʻiy rioya qilinishini nazorat qilib borgan. Oloviddin ayniqsa fitna va isyonlardan xavotirlangan. Uning shubhakorligi shunchalikka borganki, kibor odamlarga bir-birlarining uyiga tashrif buyurish gap-gaptaklar oʻtkazish taʻqiqlangan. Manbalarning xabar berishicha, xatto maliklar saroyda bir-birlari bilan muloqotga kirishishdan qoʻrqar ekanlar.

Oloviddinning oʻlimidan soʻng “u oʻrnatgan tartiblarining birortasini izi ham qolmagan “deb yozadi Barani. Biroq xatto bir necha -yil oʻtib, yangi sulolaga asos solgan sulton Gʻiyosiddin Tugʻloq davrida davlatning moddiy asosi-dehqonchilik soliq xoʻjaligini tiklash toʻgʻrisida har tomonlama gʻamxoʻrlik qilishga toʻgʻri kelgan. Baranining bergan malumotiga koʻra, sulton muqto va viloyat xokimlarini hindus jamoachilarni qambagʻallik tufayli yerga ishlov berishni tashlab ketishlarigacha xolatga olib bormay, aksincha xirojni shunday miqdorda olish kerakki, toki ularga ekinni kengaytirish va mahsulot miqtori -yildan--yilga koʻpayib borish imkoniyatini qoldirish haqida ogoxlantirgan. Moliya idorasiga iqtodan va viloyatlardan xosilning oʻndan bir, oʻn birdan bir qismidan ortiq olmaslik haqida farmon berilgan. Davlat shu tariqa iqtodorlar foydasiga ilgari ulardan olib qoʻyilgan soliqlarning bir xissasini katta qismidan voz kechishga majbur boʻlgan.

Muhammad Tugʻluq saltanati. Sultonlikning iqtisodiy taraqqiyoti jarayoni u yoki bu darajada Muhammad Tugʻluq (1325-1351) hukmronligining boshlanishi davriga kelganda tiklangan. U hokimiyatga otasiga nisbatan uyushtirgan mohirona qotillikdan soʻng kelgan: Gʻiyosiddin Tugʻluqning Bengaliyaga muvaffaqiyatli yurishlaridan soʻng qoʻshinlarning paradi vaqtida jangovor fillar hukmdor oʻtirgan taxtiravonni ezib abgor qilgan.

Bu vaqtga kelganda Muhammad Tugʻluq endi tajribali sarkarda boʻlib yetishgan edi va u buyuk fotih Ikki shohli Iskandar yaʼni Aleksandr Makedonskiydek boʻlishni orzu qilgan. Darhaqiqat unga

omad kulib boqqan. Uning yurishlari Oloviddin Xilji o‘limidan so‘ng qo‘ldan boy berilgan hududlarni qaytarib olishga qaratilgan. Bu vaqtda itoat ettirilgan davlatlarning deyarli barchasi o‘lpon to‘lamay ko‘yishgan, musulmon qo‘shinlarini xaydab chiqarishgan edi. Muhammad Tug‘luq ularga qarshi yurishlarini otasi tirikligidayoq boshlab yuborgan. Endilikda u qisqa vaqt ichida butun Dekan yarim orolini yangidan istilo etgan va hamma joyda hukmron sulolalarni tugatgan, ularning hududida harbiy ma‘muriyatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqaruvini tashkil etgan. Shunday qilib, amalda butun Hindiston Dehli sultonligi hokimiyati ostiga o‘tgan. Bu Dehli davlatining hududiy jihatdan eng kengaygan davri edi.

Tobora ko‘p mablag‘ nafaqat harbiy harakatlar uchun, balki Hindistonning cheksiz kengliklarini okkupatsiya qilish uchun ko‘plab qo‘shinlarni talab qiladigan bu g‘olibona yurishlar -yillarida Muhammad Tug‘luq aslida Oloviddin Xiljining soliq siyosatiga qaytgan. Jamoachilar xosilidagi davlatning hissasini ochiqchasiga yarmigacha ko‘tarishga qaror qilmay, u soliqni birmuncha oshirgan, ya‘ni uning xissasini to‘rtdan bir qismga, xatto uchdan bir qismga yetkazgan, shuningdek bir qator qo‘shimcha yig‘imlarni joriy etgan. Natijada xonavayron bo‘lgan jamaochilar achchiq ustida o‘z xo‘jaliklarini tashlab, soliq yig‘uvchilar otryadlaridan o‘rmonga yashiringanlar. Zamondoshlarning guvoxlik berishicha, boy raiyatlar ham qo‘zg‘alon ko‘tarishgan, ya‘ni jamoalarda hukmronlik qiluvchi qatlamlar yetakchi kastalaridan bo‘lgan to‘la hukukli jamaochilar, jamoaning feodallashgan yuqori tabaqasi qo‘zg‘alon ko‘targan. Muhammad Tug‘luq jamaochilarga qarshi o‘ziga xos shafqatsizlikni namoyon etib, bir qator jazo ekspeditsiyalarini uyushtirgan, biroq bu tabiiyki, qishloq xo‘jaligining tushkunlikka uchrashini to‘xtatib qola olmagan. Bunga baxtga qarshi ketma-ket kelgan daxshatli qurg‘oqchilik qo‘shilgan. Bu mamlakatni butkul xonavayron qilgan. Boshlangan ocharchilik aholini ommaviy nobud bo‘lishini keltirib chiqargan. Yo‘llarda o‘lganiga ancha bo‘lgan otning terisini qizg‘angan xolda bo‘laklarga ajratayotgan, sillamadori qurigan ayollarni ko‘rish mumkin edi, shuningdek odamxo‘rlik holatlari ham kuzatilgan.

Soliqqa tortishni ko‘tarish bilan parallel tarzda Muhammad Tug‘luq iqto instituti-davlatning harbiy qudrati asoslarini mustahkamlash uchun ham charalar ko‘rgan. Iqtodorlar qaytadan qat‘iy nazorat ostiga olinishgan, ularga mulklaridan olinadigan soliqning kichik bir hissasi-o‘ndan bir qismini o‘zlashtirishga ruxsat berilgan, muntazam ko‘riklar, otlarni tamg‘alash tartibi qayta tiklangan. Bu talablarga sulton qudrati oshgan, uning harbiy muvaffaqiyatlari davrida aftidan amal qilib turilgan, biroq istilolar tugagandan va iqtisodiy ahvol yomonlasha boshlagandan keyin zamindorlar bu talablarga rioya qilmay qo‘ya borganlar, qolaversa qishloklarni xonavayron bo‘lishi tufayli ularni ado etishga shunchaki imkoniyatga ega bo‘lmaganlar. Bu hol albatta armiyaning soni va jangovor qobiliyatiga ta’sir etmay qolmas edi.

Muhammad Tug‘luq hokimiyatining inqiroziga uzoqni ko‘rmasdan qilingan ikkita ish sabab bo‘lgan. Sultonga poytaxtni o‘z mulklarining barcha qismlaridan teng masofada uzoqlikda bo‘lgan shaharga ko‘chirish maqsadga muvofiqdek ko‘ringan. Shunday geometrik markaz etib, u Yadavlarning sobiq poytaxti Devagirini tanlagan va uni Dauliyatabad “G‘alaba shahri” etib qayta nomlashni ixtiyor etgan. U yerga oliy tabaqa ko‘chirilgan, Dehli aholisining kattagina qismi- savdogarlar va hunarmandlar haydab kelingan, ulug‘vor binolar qurilishi boshlangan. Biroq, ko‘p o‘tmay sulton yangi poytaxtni davlatning siyosiy markazi bo‘la olmaganligini va birin-ketin boshqaruv ishlarini qo‘ldan chiqarayotganligini bilib qolgan. Davlatning xaqiqiy markazi esa shimolda qolgan edi. Bir necha -yildan so‘ng Muhammad Tug‘luqning Dehliga qaytishiga to‘g‘ri kelgan.

Muhammadning yana bir omad keltirmagan tadbiri, bu pul islohoti bo‘lgan. Islohot davomida muomaladagi kumush va oltin tanga pullar o‘rniga rasman shu pullar qiymatini ifodalovchi, aslida esa hech qanday qiymatga ega bo‘lmagan pullar chiqarilgan. Oqibatda esa hech kim olishni xohlamaydigan, bir chaqachalik qimmati yo‘k tanga pullar ko‘payib ketgan. Pul islohoti g‘aznaning so‘nggi resurslarini ham quritib, mavjud tuzum obro‘-e’tiboriga putur yetkazib batamom barbod bo‘lgan.

Muhammad Tug‘luq saltanati qancha tez tuzilgan bo‘lsa, shuncha tez parchalanib borgan. 1335-yili poytaxti Madurai shahri bo‘lgan mustaqil davlat-madur sultonligini tuzilgan. Tamilnaddagi musulmon noib qo‘zg‘alon ko‘targan. Bir -yildan so‘ng Dekan yarim orolining isyoni natijasida Hindistonning janubida, Krishna daryosi ortida qudratli davlat Vidjayanagarning tashkil topishiga asos solingan. Sultonlikdan Bengaliya va Orissa ajralib chiqqan. Muhammad Tug‘luq o‘z podshohligining so‘nggida katta zarbani boshidan kechirishiga to‘g‘ri kelgan: 1347-yili Dekan armiyasida qo‘zg‘alon ko‘tarilgan va uning harbiy rahnamolari davlat tuzishgan, ulardan biri bu davlatga hukmdor bo‘lgan, uning taxallusi-Baxman nomidan sulolani va davlatning nomini Baxmani deb atay boshlaganlar. Shu tariqa butun Dekan yarim oroli boy berilgan. Shimoliy Hindistonda ham notinchliklar boshlangan, goh aholi qo‘zg‘alonlari, goh zamindorlarning isyonlari bo‘lib turgan.

Muhammad Tug‘luq siyosati butunlay inqirozga yuz tutgan. Buni anglagach, barchani hiyonatda shubha qilgan sulton hayotini oxirida qonxo‘rlik dardiga muhtalo bo‘lgan, qatllar va azob-qiynoqqa solishlar uning doimiy mashg‘uloti bo‘lib qolgan, shu bois u “Qonxo‘r” laqabini olgan. Bu vaqtda sulton o‘z atrofiga kelib chiqishi past tabaqalardan bo‘lgan kishilarni to‘play borgan, u kiborlikdan begona, o‘zlarining ko‘tarilishlari uchun undan qarzdorliklari tufayli ularning o‘z hokimiyatini tayanchiga aylanishlariga umidvor bo‘lgan. Biroq Sinddagi isyonkorlarga qarshi yurishlar vaqtida Muhammad Tug‘luq kutilmaganda bezgakdan vafot etgan.

Dehli sultonligi XIV asr ikkinchi yarmida va uning vaqtinchalik parchalanishi. Yangi sulton Feruz shoh Tug‘luqqa (1351-1388) xonavayron bo‘lgan mamlakat meros qolgan. Garchi uning o‘tmishdoshi ham, nihoyat jamoalar ular uchun o‘rnatilgan miqdordagi soliq yukini ko‘tarish holatida emasligini tushuna boshlagan va soliqlarni birmuncha qisqartirgan bo‘lsa-da, davlatning iqtisodiy asoslari-qishloq xo‘jaligini tiklash uchun qat’iy va keng qamrovli choratadbirlar zarurligi yaqqol ravshan bo‘lib qolgan edi.

Feruz shoh jamoachilarning soliqlarini sezilarli darajada kamaytirgan va tashlab qo‘yilgan ekin maydonlarini tiklash choralari

ko‘rgan. Ma‘lumki, ko‘plab qishloqlarning yo‘qolishi va aholisini qirilib bitishi bilan davlat ijarasining paydo bo‘lishi kelib chiqqan, bunda ziroatchilarni imtiyozli shartlarda taklif qilishgan va ular xatto ularga g‘aznadan qarzga mablag‘lar berilgan. Feruz shoh shimoliy Hindiston hukmdorlari ichida umumdavlat ahamiyatiga ega bo‘lgan sug‘orish inshootlari Dehlidan shimolga va shimoli-g‘arbga-butun viloyatga suv bergan ikkita kanal qurgan bizga ma‘lum birinchi hukmdor bo‘lgan. Rekonstruksiya qilingan ko‘rinishda bu irigatsion kanallar hozirgi vaqtda ham mavjud. Bu kanallardan birining uzunligi 200 km dan ortadi. Mo‘tadil tarzda soliqqa tortishning natijasi asta-sekin qishloq xo‘jaligining tiklanishi va axoli sonining ortishi bo‘lgan. Soliq yig‘uvchilar va jazo otryadlaridan yashiringan, epidemiya va ochliklarga qaramay, yashab qolgan odamlar o‘z tug‘ilib o‘sgan joylariga qaytib kelishgan va eski jamoalar o‘zining barcha tartiblari bilan o‘sha nomlari ostida eski joylarida qayta tiklangan.

Feruz shoh, shuningdek shahar hunarmanchilik ishlab chiqarishi va savdosining tiklanishi va rivojlanishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilgan. “Feruz shoh g‘alabalari” nomli bizgacha yetib kelgan manbada bekor qilingan shahar aholisidan olinadigan ko‘plab soliq va yig‘imlar ro‘yxati keltirilgan.

Bunday iqtisodiy siyosat Feruz shohga shon-shuhrat keltrgan. Darhaqiqat hayot aniq-ravshan normal iziga tushgan. Sultonning “fuqorolar otasi” sifatida xizmatiga kelsak, ular shundan iboratki, avvalo u yuzaga kelgan zaruriyatga bo‘ysungan zero, uning aholi xo‘jalik faoliyatini rag‘batlantirish siyosati majburlikdan ham kelib chiqqan edi.

Feruz shohning obro‘-etibori davlat tartiblari barqarorligining loaqal tashqi ko‘rinishini saqlab qolish imkonini bergan, biroq uning o‘limidan so‘ng sultonlik tezlik bilan parchalana boshlagan.

Musulmon zamindorlari to‘dalari Dehli taxtiga o‘z nomzodlarini ilgari surishgan, da‘vogarlar buyuk sultonlarning merosi uchun kurashganlar, davlat esa shiddat bilan xajm jixatdan kichrayib borgan. Dehli sultonlarining mulklari Dehli viloyati va Sharqiy Panjobning bir qismigacha qisqarib borgan.

Dehli sultonligining eng zaiflashgan, endilikda o‘zaro urushlar bilan unchalik katta davlat bo‘lmay qolgan vaqtda Hindistonga Afg‘oniston orqali Amir Temur qo‘shinlari bostirib kirishgan. Sulton qo‘shinlari sohibqironga qarshilik ko‘rsatishgan, biroq kuchlar teng emasdi. Dehli talon-taroj qilingan. Samarqandga ko‘p miqdorda hind hunarmandlari olib ketilgan.

Dehli sultonligining qayta tiklanishi. 1399-yil boshlarida Amir Temur Hindistondan chiqib ketgan. Ichki alg‘ov-dalg‘ovliklar bilan Dehli davlati vaqtincha parchalangan. O‘n -yildan ortiqroq o‘tib, siyosiy maydonga yangi Sayidlar sulolasini (1414-1451) ilgari surgan birlashish jarayoni yangidan boshlangan. Yangidan tiklangan sultonlik bor yo‘g‘i Dehli viloyati va sharqiy Panjobnigina birlashtirgan. Biroq, bu hududning strategik va iqtisodiy holatining, tashqi dunyo bilan kommunikatsiyaviy qulayligi Dehli sultonligining ahamiyatini o‘shiga imkon bergan. Xususan, u Hindiston ichki rayonlarining O‘rta va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan karvon yo‘llari orqali sovdo aloqalarida vositachilik rolini bajargan.

Musulmon mamlakatlariga yaqinlik yana shu jixatdan ham katta ahamiyatga ega ediki, hukmron siyosiy harbiy zamindor qatlamda o‘z saflarini Hindistonda o‘z omadli qismatini topishni istovchi jangchilar, guruhlar va ko‘chib keluvchilarning butun-butun qabilalari hisobiga to‘ldirib borish imkoniyati mavjud edi.

Bu vaqtda immigrantlar oqimi Afg‘onistondan ayniqsa kuchaygan. Oddiy jangchilarga bu yerda harbiy xizmat topilardi, ularning sardorlari, ko‘p avlodlari osha hindistonlik bo‘lib ketgan eski musulmon ko‘chib keluvchilari bilan raqobot qilishardi. XV asr o‘rtalarida Dehlidagi hokimiyatni bu shahardan shimolda joylashib olgan afg‘on qabilasi sardori Lo‘di Baxlul egallab olgan. Uning ajdodlari Hindistonga XIV asr oxirida ko‘chib kelishgan. Baxlul egaligiga Satledj daryosi va Dehli, Laxor oralig‘idagi katta viloyat o‘tgan. Uning qo‘shinlari 20 ming kishidan ortiq bo‘lib, afg‘onlardan tarkib topgan, ular orasida ko‘plari uning kabiladoshlari va O‘rta Osiyolik turklar bo‘lishgan.

Baxlul Lo‘di (1451-1489) o‘z hokimiyatining ijtimoiy tayanchini yaratishga intilib, Hindistonga harbiy xizmatga afg‘on qabilalarini taklif etgan, ularga manzilgohlar bergan. Shunday yo‘l bilan ijtimoiy taraqqiyotning past darajasi, urug‘-qabilachilik tartiblarining hukmronligi va shunga muvofiq psixologiyasi bilan ajralib turadigan yangi jamoa ustidan turuvchi zamindorlar yangi qatlami yuzaga kelgan. Bu qabilalarning sardorlari zamindor zodagonlar safiga qo‘shilganlar, ko‘shimcha anchagina miqdorda xizmat maoshlari olganlar va ba’zida esa yirik mulkdorlarga ham aylanishgan. Sulton Baxlul Lo‘di zamindor zodagonlarni o‘z irodasiga bo‘ysundira olgan Jaunpur davlatini istilo qilib, shimoliy Hindistonning eng katta va kuchli davlati sifatida Dehli sultonligini tiklagan. XV asr oxiriga kelib Lo‘dining mulklari Panjob va Bengaliya chegarasigacha bo‘lgan Gang vodiysini o‘z ichiga olgan.

Lo‘diylar sulolasi Dehlida 1526-yilgacha hukmronlik qilgan, bu vaqtga kelib ham sultonlar feodallarning egalik hukuklarini cheklab qo‘yishga, ularning separatistik intilishlarini bostirishga muvaffaq bo‘la olmaganlar. Markaziy hokimiyatni kuchaytirishga bo‘lgan o‘z urinishlarida afg‘on sulolasining oxirgi sultoni Ibrohim Lo‘di barcha ayonlar buyuk hukmdorining itokor xizmatkorlaridir deb ko‘rsatishga chaqiruvchi kat’iy saroy ahloqiy qoidasini o‘rnatgan. Ayniqsa uni katta ta’sirga ega bo‘lgan, ilgarigi hukmdorlar davrida imtiyozli mavqeda bo‘lgan afg‘on zamindorlari g‘ashini keltirgan. Saroydagi kamsitilishlar va ba’zi afg‘on harbiy boshliqlariga qarshi qatag‘onlar hukmron tabaqaning Lo‘di sultonlarini hammadan ko‘proq qo‘llab-quvvatlab kelgan qismining chuqur noroziligini uyg‘otgan. Zodagonlarning boshqa guruhlari ham o‘z mavkellarini itoatkorona berib qo‘yishni istamaganlar. Ibrohim Lo‘di o‘z boshqaruvining so‘nggi -yillarida feodallar bilan ayovsiz kurash olib borishga majbur bo‘lgan. Yangi sulola Boburiylar sulolasiga (1526-1858) asos solgan Bobur tomonidan istilo qilingan vaqtda kuchsizlanib qolgan Dehli sultonligi parchalanish arafasida turar edi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Dehli sultonligi tashkil topishining sabablari va shart-sharoitlari nimalardan iborat?
2. Hindistondan yer egaligining turlarini tasniflang, ularning bir-biridan farqli jihatlarini ko'rsating.
3. Dehli sultonligida XIV asrda qanday islohotlar o'tkazilgan, ularning natijalari qanday bo'lgan?
4. Muhammad Tug'luk boshqaruvi mohiyati nimadan iborat?
5. Feruz shoh Tug'luk, sulton Mahmud boshqaruvlarini qiyosiy taxlil eting.
6. Sayidiylar sulolasining hokimiyatga kelishining eng muxim sabablarining ko'rsating.

4-§. VII-XV ASRLARDA XITOIY

Darsning maqsadi: VII-XV asrlarda Xitoyni rivojlanishining asosiy tendensiyalari, tarixiy taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari haqida talabalarga ma’lumot berish.

REJA:

- 1. Ilk o‘rta asrlarda Xitoy;**
- 2. Tanlar davlatida qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi;**
- 3. O‘zaro urushlar va Sun davlatining tuzilishi;**
- 4. Agrar munosabatlar va dehqonlarning ahvoli;**
- 5. X-XII asrlardagi xalq harakatlari;**
- 6. Chjurchjenlar va mo‘g‘ullar istilosi;**
- 7. Dastlabki Min hukmdorlarining ichki va tashqi siyosati.**

Yer mulklarni qayta taqsimlash uchun zamindorlar o‘rtasidagi kurash. Chek (nadel) tizimini inqirozga uchrashi va Yan Yanning 780-yildagi islohoti. Ilk o‘rta asrlar davrida Xitoy iqtisodiyoti sezilarli muvaffaqiyatlarga erishgan. Mayda yakka ishlab chiqarishning rivojlanishi muayyan darajada nadel tizimini qo‘llanishi bilan rag‘batlangan. Ishlov beriladigan yer maydonlari kengaygan, yetishtiriladigan ekinlarning navlari va hosildorligi ko‘paygan. Mamlakat janubida shakarqamish ko‘proq yetishtirila boshlagan. Shimolda yovvoyi ipak qurti pillasidan ipak to‘qish boshlangan.

Yangi kanallar va suv ko‘targich kanallarning qurilishi ishlov berish uchun ilgari mumkin bo‘lmagan joylardagi maydonlarga ishlov berish imkoniyatini bergan. Xo‘kiz yoki dehqonlarning o‘zlari tomonidan harakatga keltiriladigan suv ko‘targich charxpalak (ko‘pincha banbukdan qilingan sopol ko‘zali) muhim takomillashuvlardan biri bo‘lgan. Ziroatchilar tuproqni oriqlantirib qo‘ymaslik uchun ekinni almashlab ekishni o‘rganib olganlar.

VII asr davomida mamlakat aholisi ko‘paygan. Qishloq chekkalarini kengayib borishi bilan shaharlar va shahar aholisi soni o‘shib borgan. Ijtimoiy mehnat taqsimotining stixiyali o‘shishi hunarmandchilik ishlab chiqarishining rivojlanishiga imkon bergan.

Eng yirik hokimlar ustidan g'alaba qozonish natijasida o'rnatilgan markaziy hokimiyat, yerga bo'lgan oliy mulkchilik va uni tasarruf etish huquqining davlatga tegishli bo'lishi an'anasidan foydalandi.

Markazlashgan imperiya doirasida, rivojlangan va uyushgan davlat apparati yordamida zamindor tabaqasi barcha yerlarga, qisman esa qishloqlar va xonodonlarga xatlab berilgan yer egalari ham bo'lgan huquqlarini mustahkamlashga muvaffaq bo'lgan.

VII-VIII asrlarda ishlab chiqarish kuchlarining o'sib borgan sari agrar munosabatlarda salmoqli o'zgarishlar ro'y bergan. Nazoratning rivojlangan tizimi va ijtimoiy iyerarxiya yirik yer egaligining tiyiqsiz tarzda o'sib borishiga to'sqinlik qilishga qodir bo'lmay qolgan. Katta ta'sirga ega bo'lgan zamindorlar, amaldorlar, savdogarlar turli hiylanayranglar bilan va xatto ochiqcha zo'rovonlik ishlatib davlatga qaram aholi yerlarini egallab olganlar, soliqlar bo'yicha qarzlardan qutulish uchun xomiylik izlagan dehqonlarni o'zlariga og'dirib olganlar. Ba'zan zamindorlar to'g'onlar, kanallar, suv omborlari qurib, suvni burib yuborib, dehqonlar ekin maydonlarini suvsiz qoldirishgan. Oqibatda dehqonlar chek yerlarini tashlab shaxsiy qaram kishilarga aylanganlar. Dehqon yer egaligi shakliga muvofiq bo'lgan chek (nadel) tizimi o'rnini asta-sekin shaxsiy qaram ijarachilar mehnati bilan ishlov beriladigan xususiy zamindorlik pomestiy tizimi egallab borgan. Bu jarayon stixiyali tarzda kechgan va yer mulklarini, boyliklarini, siyosiy ta'sirini ko'paytirish usullarini izlayotgan zamindorlar tomonidan dehqonlar mehnati samaralarini o'zlashtirib olish darajasini oshishiga olib kelgan. Imperatorlarning ko'pincha o'zlari dehqonlari bilan birga yerlarni o'z qarindosh urug'lari va boshqa nufuzli shaxslarga in'om eta borib, bu jarayonga ko'maklashganlar.

Davlatga qaram aholi sonining kamayishi soliq tushumlarining qisqarib borishiga va g'aznani qurishiga olib kelgan. Imperator farmonlari "ekin maydonlarini cheksiz tarzda egallab olinishini va soliq to'lovchilarni yashirishni" ta'qiqлагan va jazo choralari belgilagan. Oldi-sotdiga ta'qiqlovlarini "xususiy mulkchilik"da bo'lgan yerlarga ham tadbiiq qilishga urinishgan. Saroyning maxsus komissiyalari

joylardagi ahvolni o'rganib, soliq to'lovchilarning ro'yxatini tekshirib turishgan, dehqonlarning ekin maydonlarini suvsiz qoldiruvchi inshootlarni yo'q qilishgan. 736-yildagi Edikt qochoqlarga o'zlarining chek yerlariga (nadel) qaytishga ruxsat berib, yerni qaytarib berishga, soliqlar bo'yicha imtiyozlar berishga ba'da bergan. Soliq to'lovchilar sonini ko'paytirish uchun harbiy xizmatdan qaytarilgan jangchilarni ziroatkorlarga aylantirishgan. Biroq bu barcha chora-tadbirlar samarasiz bo'lib chiqqan.

O'z iqtisodiy mavqelarini kuchaytirib borgan zamindorlar siyosiy ta'sirga ega bo'lishga da'vo qilishgan va markaziy hokimiyatni susaytirishga intilishgan. Joylardagi separatistik tendensiyalar bilan kurasha borgan tan rahbariyati fuqaro amaldorlari funksiyalari va huquqlarining bir qismini harbiy boshliqlarga bergan. Muzofotlarda ikki hokimiyatchilik vujudga kelgan, harbiy boshliqlar va harbiy noiblar alohida ta'sirga ega bo'la borganlar.

G'azna mablag'lari shuningdek imperiya tomonidan ilgari istilo etilgan va vassal hududlarni qo'ldan keta borishi munosabati bilan ham qisqarib borgan. Arablar bilan 751-yili Talas yonidagi jangda mag'lubiyatga uchragan Xitoy Buyuk Ipak yo'lidagi har qanday ta'siridan maxrum bo'lgan. Yana ham oldinroq Koreya ozod bo'lib olgan. Shimoli-sharqda Xitoyning ziroatchilik rayonlariga Kidan qabilalari xavf solganlar. Janubi-g'arbda (Yunanda) Nanchjou davlati faollashgan. Tibetliklar va uyg'urlarning xujumlari muttasil davom etib turgan. Imperiyaning chekka hududlarda dehqonlarni qishloq xo'jaligidan ayro qilgan va g'aznani madorini qurituvchi, qimmatga tushadigan mudofaa urushlari olib borishiga to'g'ri kelgan.

Mamlakatdagi vaziyatning keskinlashuvi Chananda siyosiy yo'nalishlar va guruhlarning kurashini ko'zg'agan. Hokimiyat ma'murlari zamindorlar va harbiy noiblarning separatizmini tiyib qo'yishga intilishgan, bu esa kidanlarga qarshi kurash olib borayotgan qo'shinlar boshlig'i, noib An Lushan isyoniga olib kelgan. 755-yili An Lushan kidanlarning qo'llab-quvvatlashiga tayanib, o'z qo'shinini imperatorga qarshi qaratgan. U Kayfinni egallab, daxshatli qirg'in uyushtirgan, keyin Loyan va Chananni egallagan.

Imperator Sichuanga qochgan. Hokimiyat uygʻur suvorilari va boshqa koʻchmanchilarning otliqlarini yollagan. An Lushan tarafdorlari poytaxtdan siqib chiqarilganlar va sharqqa chekinganlar. Biroq harbiy noiblar ittifoqiga qarshi urush uzoqqa choʻzilgan. Uning davomida noiblar, ular bilan esa baʼzi zamindorlar turli imtiyozlarga erishganlar. “Xitoyga chaqirilgan koʻchmanchilar” mamlakatni ayovsiz talaganlar Imperator xonadoni poytaxtga qaytganida gʻazna resurslari tugab borayotgan edi.

Yerlar va dehqonlarni “oʻzlashtirib olish” tobora katta koʻlam kasb etib, bu jarayon bilan kurash tobora qiyinlashib borgan. Soliq reyestrlar ishlarning real holatini ifodalamas edi: xonavayron boʻlgan dehqonlar oʻz qishloqlarini tark etgan boʻlsalar-da, ilgarigidek soliq toʻlovchilar sifatida hisobda turaverganlar. Gʻazna tekshirishlar va egallab olingan yerlarni qayta hisobini oʻtkazishga mablagʻga ega boʻlmagan. Ayni vaqtda u ilgarigi agrar tartibotni saqlab qola olmagan, buning ustiga yer ushlovchilar-zamindorlarning soni keskin oʻsa borgan. Yerdan foydalanuvchi dehqonlarning kamayib borishi chek tizimi xoʻjalik tashabbusining pasayishiga olib kelgan va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga toʻsiq boʻlib qolgan.

Oʻlib borayotgan agrar tizimni saqlab qolishning maqsadga muvofiq emasligi ayon boʻlib qolgan. Yirik yer egalariga qarshi borib, birinchi vazir Yan Yanning taklifiga binoan ilgari chek yerli dehqonlar tomonidan bajarilib kelingan “majburiyatlar triada”sini bekor qiluvchi qonun joriy etilgan. Davlat apparati dala maydonlarini qayta boʻlib chiqishdan voz kechgan, dehqonlarga yer boʻlib berish, yerni “oʻzlashtirib olish” bilan kurashish bilan shugʻullanmay qoʻygan. Bundan buyon soliq bitta mezon-mulk (yer) miqdoriga qarab olinadigan boʻldi. Soliqqa tortiluvchi shaxsning yoshi va mehnatiga layoqatliligi hisobga olinmas edi. Barcha aholi (xonadonlar) yer mulklariga muvofiq tarzda toʻqqizta toifaga boʻlingan.

Islahot soliq toʻlovchilarga qatoriga ilgari soliqqa tortilishdan ozod qilingan yoki undan chetda qolgan shaxslarni kiritgan. Soliq toʻlovchilar doirasi shuningdek shahar aholisi-daromadiga qarab

to'lashlari lozim bo'lgan savdogarlar va hunarmandlar hisobiga kengaygan.

Soliqlarni to'lashning ikki: yozgi va kuzgi muddatlari belgilab qo'yilgan (Soliqlarni ikki marta olish haqida Konun). Bu islohot natijasida g'azna Xitoyning ko'plab muzofotlarida olinadigan ikkinchi hosilni soliqqa tortilishi hisobiga o'z tushumlarini ko'paytirdi. Soliq pul shaklida ham olinishi mumkin edi. Bu tizimning joriy qilinishi "kuchli xonadonlar" va soliq imtiyozlaridan foydalanuvchi zamindorlarning tinchlik-xotirjamligiga zarba bergan. Yan Yanning islohoti chek (nadel) tizimining tushkunlikka uchraganligini rasman e'tirof etilishi va xususiy yer mulkchiligi g'alabasining alomati bo'lib, yerning erkin oldi-sotdisini qonuniylashtirgan.

Tanlar davlatida qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi. Vaqtlar o'tishi bilan ikki martalik soliqlarni joriy qilinishi haqidagi qonun dehqonlar mehnati samaralarini o'zlashtirib olinishini keskin o'sishiga olib kelgan. Qaram yer ushlovchilar (Kexu, dyanxu, dyanke) xo'jayinga rentadan tashqari g'aznaga soliq to'laganlar, ular uchun o'lponni esa ularning xo'jayinlari, ya'ni zamindorlar, amaldorlar, sudxo'rlar ba'zan esa davlat soliq to'lovchilarining o'ziga to'q oilalari ham to'lashgan. Soliqlar yukining ortib ketishi xususiy yeri bo'lgan dehqonlarning ahvolini yomonlashtirgan. Yangi soliqqa tortishning og'irligi ostida ular tobora tez yerlarini yo'qota borib, "xo'jayinlar" qo'lida qaram yer ushlovchilarga aylanganlari holda, zamindorlar va amaldorlar hokimiyati ostiga tushib qola borganlar.

Qochoq dehqonlar tobora ko'payib borgan. Hamma narsadan bebahra, och-yalong'och odamlar-azaliy dehqonlar yerga ishlov berish imkoniyatidan mosuvo bo'lib, o'rmon va tog'larga yashiringanlar. Manbalarda o'sha vaqtlar haqida shunday de-yiladi: "Bir dou guruch 7 ming tanga turardi. Hamma joydagi yo'llarda ochlikdan o'lganlarning murdalari yotardi".

Mamlakatda pomeschiklar mulklari o'sib borgan. Yirik zamindorlar va harbiy boshliqlar o'z mulklarini davlat oldidagi majburiyatlaridan osonlik bilan halos qilishlari mumkin edi. Biroq hukmron tabaqaning o'rta va quyi qatlamlari egallab olgan yoki sotib

olgan yerlari va o'zlarining mayda yerdan foydalanuvchilari uchun soliq to'lashlari lozim ediki, bu esa mazkur qatlamlar orasida norozilikni qo'zg'atgan.

Ikki martalik soliqlarning olinishi endilikda soliq to'lashga va mehnat majburiyatini o'tashga majbur bo'lgan shaharliklar ahvolini yomonlashtirdi.

Mablag'larga muxtoj bo'lgan hukumat budda ibodatxonalari g'aznasini musodara qilish yo'lini tutdi, tanga pullar zarb qilishga kirishdi. Vazni va nominali bo'yicha talablarga javob bermaydigan pullarning chiqarilishi moliyani beqarorlashtirdi, savdo va hunarmandchilikni izdan chiqarib, dehqonlarning gardaniga qo'shimcha yuk bo'ldi. Daromadlarining bir qismi haznaga tuz va choyga bo'lgan monopoliyadan tushgan. Ma'murlar kontrabanda uchun o'lim jazosini muttasil qo'llab turishgan. Ammo markaziy hokimiyatning zaiflashib borishi bilan ularning chora-tadbirlari tobora kam samarali bo'lib borgan.

An Lushan isyonidan so'ng puturdan ketgan Tan sulolasining siyosiy hokimiyati zaiflashishida davom etgan. Harbiy noiblarning mustaqilligi kuchaygan, ular unvon va mulkka bo'lgan huquqning merosiyligiga erishganlar, o'z qo'l ostidagi hududlarda xo'jayinlik qilganlar.

Saroy ichida lavozimlar, daromadlar va ta'sirga ega bo'lish uchun katta-katta guruh va to'dalar o'rtasida o'tkir raqobat yuzaga kelgan. Imperatorlar siyosiy arboblardan, haram og'alari va amaldorlar qo'g'irchog'iga aylanganlar. Chanan hukumatida ta'sirga ega bo'lib olib, ular o'zlariga imtixonlar va amaldorlarni tayinlash tizimini bo'ysundirishga intilganlar. Qarindosh, yaqin tanishlarga yon bosishlik va poraxo'rliklar sinovlarning borishiga ta'sir ko'rsatgan.

Mamlakatdagi ahvol amaldorlar, ma'lumotli kishilar, shaharliklar orasida norozilikni qo'zg'atgan. Hokimiyat ma'murlari o'zgacha fikrlovchilarni ta'qib qilganlar.

IX asrdagi dehqonlar urushi. IX asr oxirlarida mamlakatda tobora tez-tez dehqonlarning tarqoq qo'zg'alonlari, harbiylar isyonlari uy-joysiz kishilar otryadlarining chiqishlari bo'lib turgan. Norozilik

chiqishlari ommaviy harakatga aylana borib, 874-yilga kelib u anchagina hududlarni qamrab oladi.

860-yili Chjetszyan rayonida qo'zg'olonchilar bir necha uyezdni egallaganlar. Ularga dehqonlar qo'shilishgan, hunarmandlar ularni qurol bilan ta'minlaganlar. Hokimiyat ma'murlari kattagina harbiy kuchlarni yetkazib kelib, pirovardida qo'zg'olonchilarni uncha katta bo'lmagan shaharda qurshab olganlar. Uch sutka davomida 83 marta shturm qaytarilgan. Uncha ko'p bo'lmagan kishilargagina qutulib qolish nasib etgan.

Yirik dehqon qo'zg'olonlari Gansu, Shensi, Xenan, Anxuy va Shandun muzofotlarida sodir bo'lgan. Ayrim rayonlarda dehqonlar va qochoq jangchilarning mahalliy chiqishlari katta harakatlarga aylanib ketgan. Qo'zg'olonchilar yetakchilaridan eng ko'zga ko'ringan katta jangoaor layoqatga ega bo'lgan otryadni boshlig'i Van Syanji edi. Manbalarda Van Syanyajining tarjimai holi to'g'risida ma'lumotlar uchramaydi, lekin uning oddiy dehqon bo'lmaganligi ma'lum.

875-yili qo'zg'olonchilarga tez orada asosiy yetakchiga eng yaqin yordamchi bo'lib qolgan Xuan Chao qo'shilgan. U tuz kontrabandasi savdosidan boyigan oiladan chiqqan. U qilichbozlikni yaxshi egallagan ot choptirganda kamondan otishni, oz-moz o'qish va yozishni bilgan.

Qo'zg'olonchilar qo'shini 100 ming kishiga yetgan va bir necha muzofotlarda harakat qilgan Tanlar saroyi har qanday vositalar bilan qo'zg'olonni bostirishga harakat qilgan. Xususan, mahalliy hokimiyatga aholini qurollantirish va uni qo'zg'olonchilar bilan kurashga jalb etish vazifasi yuklangan. Ma'murlar Van Syanjiga, agar u hukumat xizmatiga o'tadigan bo'lsa katta lavozimni taklif etganlar. Garchi Van Syanji nihoyat dushman bilan kelishuvga borishdan bosh tortgan bo'lsada, biroq yetakchilar o'rtasidagi kelishmovchiliklar qo'zg'olonchilar kuchlarini bo'linib ketishiga olib kelgan. Qo'zg'olonchilarning bir qismi Van Syanji ortidan, ularning bir qismi esa Xuan Chao ortidan ketgan.

878-yili Van Syanji o'zining tarafdorlari bilan Loyan yo'nalishi bo'yicha g'arbga katta yurish uyushtirgan. Sharqiy poytaxt ostonalarini hukumat qo'shinlari va hukumat tomonidan yollangan ko'chmanchilarning otliq lashkari qo'riqlagan. Van Syanji qattiq

mag'lubiyatga uchragan, qo'lga olinib qatil etilgan. Zamindorlarning bergan ma'lumotiga ko'ra, bu joyda 50 ming kishi halok bo'lgan. Tez orada Xuan Chao barcha qo'zg'olonchi kuchlarga rahbarlikni qo'lga olgan va Tanlar xonadonini ag'daribtashlashdan iborat o'zining maqsadi to'g'risida bayonat berar ekan, "Osmonni shturum qilayotgan Buyuk sarkarda" maqomini qabul qilgan.

878-yil oxirida Yanszining janubiy qirg'og'iga kechib o'tib Xuan Chao qo'shini hozirgi Chjetszyan, Futszyan va Guandun muzofotlari yerlari bo'ylab harakatlanadi. 879-yili ular Guanchjou ostonalariga yetib kelganlar. Bunday tezlik bilan harakatlanish faqat dehqonlarning qo'llab-quvvatlashi sharoitidagina mumkin edi. Xuan Chao bu shaharlarni shturm bilan qo'lga kiritgan.

Keyinroq, kelgusi asrda yashagan arab tarixchilari Abu Said va Masudilar mahalliy ajnabiy manzilgohlar aholisining qo'zg'olonchilar bilan to'qnashuvi haqida hikoya qiladilar. Guanchjouda haqiqatdan ham aholi hisobiga boyib ketgan arab, fors, yahudiy savdogarlari yashaganlar, shu bois dehqon-qo'zg'olonchilarning ularga xujum qilganliklari ehtimoldan xoli emas edi. Guandunda Xuan Chao o'z kuchlarini "adolatli qo'shin" deb e'lon qilgan. O'rta asrlar tarixchilarining guvohlik berishlaricha, qo'zg'olonchilar "talontarojliklarga barham berishgan", ammo ularning hokimiyat vakillari-yirik zamindorlardan o'ch olishga barham berganlar deb taxmin qilishga asoslar bo'lmasa kerak.

Bir muddat o'tgandan so'ng dehqon yo'l boshchilari janubda, Guanchjouda o'rnashib olish fikridan voz kechganlar va barcha qo'shinlar shimol tomon keta boshlagan. Mahalliy aholi ularni oziq-ovqat bilan ma'minlagan. Xuan Chao qo'shinlari safi kengayib yarim milion kishiga o'sib borgan. Biroq Syangan yaqinidagi Xubeyda bu urush ko'rmagan qo'shin mag'lubiyatga uchragan va Yanszi orqasiga, janubga qochgan.

O'ng qirg'oqda daryoning kuchli oqimi himoyasi ostida qo'zg'olonchilar yetakchilari yana kuch yig'a boshlaganlar. Xuan Chao bayrog'i ostida 300 ming nafar dehqon yig'ilgan. 880-yilning yozida qo'zg'olonchilar bu safar Buyuk kanal rayoni bilan harakatlanib, kuchli

qal'alar va hukumat qo'shinlarining asosiy qismlarini aylanib o'tib yana shimolga kirib boradilar.

O'sha -yilning dekabrda jangsiz Loyan egallangan. Ko'plab odamlar-ayniqsahukmron tabaqa quyi qatlamlari va shaharliklar qo'zg'olonchilarga qo'shilishgan. Buning ustiga ayrim harbiy boshliqlar va fuqaro amaldorlar va imperator hokimiyatining o'jizligini tushunib, ulardan o'rnak olganlar. Xatto Loyan noibi Xuan Chaoni kutib olishga chiqqan.

Asosiy poytaxt-Chananni himoya qilish uchun hukumat gvardiyasi qismlarini Xuanxe daryosining bukilgan joyidagi Tunguanga yuborgan. Bu yerda hukumat qattiq janglarni boshlab yuborgan kattagina qo'shin yig'ishga muvaffaq bo'lgan. Biroq Chananning taqdiri hal bo'lgan edi. Imperator o'z xonadoni bilan janubga qochgan.

881-yilning 10 yanvarida qo'zg'olonchilar poytaxtga kirganlar. Qo'zg'olonchilarning Chanandagi siyosati harakatning tabaqaviy xarakterini ifodalagan. Xuan Chao Imperator xonadoni a'zolarini o'ldirishga va uchta yuqori martabadagi amaldorlarni xizmatdan haydab yuborish haqida buyruq bergan. Qo'zg'olonchilar qo'lga kiritilgan o'ljalarni kambag'allar bilan baham ko'rishgan. Kiborlar va boylarni ta'qib qilib borarkanlar, qo'zg'olon rahbarlari hukmron tabaqaning quyi tabaqalari va oddiy shaharliklarga nisbatan betaraf siyosat yuritganlar.

O'rta asrlarga oid materiallarga asoslanib fikr yuritish mumkinki, qo'zg'olon yetakchilari Tan sulolasi va eng yirik zamindorlar va amaldorlar hokimiyatini ag'darib tashlash vazifasini qo'yganlar. Qo'zg'olon podisholik qilayotgan xonadon a'zolarini va ularning eng yaqin hamtovoqlarini yo'q qilishi bilan yakunlangan. Saroyni egallab, qo'zg'olonchilar Xuan Chaoni imperator deb e'lon qilganlar. Xuan Chaoning eng yaqin safdoshlari va harbiy sarkardalari alohida maslahatchi lavozimlariga va turli-tuman kollegiyalar a'zoliciga tayinlaganlar. Personallar almashtirilsa-da, ammo davlat boshqaruv tizimi o'sha-o'sha qolavergan. Tartib-intizomni yo'lga qo'yishga intilib, yangi hokimiyat ma'murlari jangchilarga aholini o'ldirish va talashni ta'qiqlagan.

Qo'zg'olonchilar harakat qilishning aniq dasturiga ega bo'lishmagan. Qo'zg'olon va yurishlar davrida dehqonlar o'zlariga zulm qilganlardan o'ch olganlar. Manbalarda ularning dushmanlari deb odatda zamindorlarni emas, amaldorlarni ataydilar. Qo'zg'olonlarda diniy shiorlar bo'lmagan. Chananda barcha marosim, rasm-rusumlar konfutsiylik odatlariga ko'ra amalga oshirilgan. Qo'zg'olonning eng zaif tomoni qo'zg'olonchilarning dehqonlar ommasini bilan mustahkam aloqaga ega bo'lmaganlari va yangi tashkilotni yaratish layoqatining bo'lmaganligida edi. Chananda qo'zg'olonchilari boshqa muzofotlardagi harakatlar bilan aloqalarni yo'lga qo'ymaganlar.

Shu orada hukmron doiralari kurashga tayyorlangan. Chendu (Sichuan) tan saroyining chaqirig'iga ko'ra zamindorlar harbiy kuchlarni yig'ganlar. Tanlar ko'chmanchi qabilalar qo'shinini yollaganlar. Dushman otryadlariga qarshi kurashayotgan, shimolda bo'lgan Xuan Chaoning poytaxtda yo'qligidan foydalanib, zamindorlar qo'shinlari shaharga kirganlar. Tun pardasi ostida ular aholini talaganlar va o'ldirganlar. Qo'zg'olonchilarning ahvoli tobora og'irlashib borgan. Qamal xalqasi siqib kelavergan. Oziq-ovqat keltirish tizimi barham topgan va poytaxtda ocharchilik boshlangan. Qo'zg'olonchilarning shahar aholisining mulkdor qatlamlari bilan munosabatlari kundankunga keskinlashib borgan. Xuan Chaoga qo'shilgan harbiy sarkardalar endi unga xiyonat qilganlar.

883-yilning 20 mayida Xuan Chao poytaxtni tark etgan. Shafqatsizligi uchun "qora qarg'a" nomini olgan, shato qabilasining 17 minglik otliq qushini Chananni talon-taroj qilib, tinch aholidan o'ch olgan.

Xenanda qo'zg'olonchilar bir necha marta tor-mor bo'lganlar. Dehqonlar qo'shini asta-sekin kamayib borgan. Biroq xiyonatlar va komandirlarning dushman tomonga o'tib ketishlari asosiy xavf bo'lib qolgan. Qo'zg'olonchilardan shafqatsiz o'ch olishlar boshlangan. Xuan Chao yanada sharqqa chekinishga majbur bo'lgan. 884 -yili shandun muzofotida uning kam sonli otryadi nochor xolatga tushib qolgan. Afsonada keltirilishicha Xuan Chao o'z joniga qasd qilgan ekan.

Dehqonlar urushi qattiq mag'lubiyatga uchragan. Biroq uning ahamiyati katta edi. Zamindorlar tabaqasi katta talofot ko'rgan. Bir necha -yillar butun mamlakat bo'ylab davom etgan qo'zg'olon dehqonlarning vaqtinchalik bo'lsa-da, chidab bo'lmaydigan zulmdan halos qilgan. Soliqqa tortish va uning hisobini olib borishning tanlar davri tizimining buzib tashlanishi ziroatchilar uchun xo'jalik yuritishning qulay sharoitlarni yaratgan. Ayni vaqtda dehqonlar urushi ko'rinishidagi o'n yil davom etgan fuqarolar urushi butun Xitoy jamiyatini larzaga keltirdi, yuz minglab kishilarning hayotiga zomin bo'ldi, beqiyos moddiy va ma'naviy yo'qotishlarga ham sabab bo'ldi, zotan IX asrda bo'lib o'tgan bu dehqonlar urushining o'z keskinligi va qo'lami jihatidan butun asrlar tarixi davomida muqobil ham bo'lmagan edi.

O'zaro urushlar va Sun davlatining tuzilishi. Dehqonlar harakati zamindorlarning davlat tashkilotiga jiddiy zarba berdi. Tanlar xonadoni hokimiyatdan maxrum bo'ldi. Mamlakatda mayda davlatlar va knyazlik yuzaga keldi, ularning hukmdorlari esa bir-birlari yovlashgan holda Osmon o'g'li taxtiga da'vo qilardilar. 906 -yildan 960 -yilgacha bo'lgan davrni Xitoy tarixshunosligi Besh sulola va o'nta podsholik davri deb atagan. Mamlakatning janubiy qismida alohida podsholiklarning ahvoli birmuncha barqaror bo'lgan. Dehqonlar yurishlari vaqtida yirik yer egaligining parchalanishi, kuchli hukmdorlarning o'lib ketishi va mahalliy hokimiyatni qirib yuborilishi hukmron tabaqaning mayda vakillari va qishloq oqsoqollariga ekin maydonlarini egallab olish imkoniyatini bergan. Janubda aksariyati mayda pomeschchik yer egaligi qaror topa boshlagan.

Dastlabki vaqtlarda yer egalari norozilik bo'lishidan xovotirlanib ilgarigi tizimni butunlay tiklay olmaganlar, ularning ekin maydonlariga ishlov beradigan kishilar uchun imtiyozli sharoitlar yaratib berganlar. Yerning yangi egalarining irrigatsiyani yaxshilash, qo'riq ochishdan manfaatdorliklari qishloq xo'jaligini o'sishiga va shahar hunarmandchiligini jonlanishiga olib kelgan. Savdo ayriboshlash ko'paygan daryo va dengizda kema qatnovi kengaygan. Yanszi daryosi vodiysidagi va undan janubdagi viloyatlar mamlakatning iqtisodiy ilg'or

rayonlariga aylana borganlar. Shimolda ahvol og'ir bo'lib qolgan. Hokimiyat uchun kurash uzoqqa cho'zilib ketgan. X asr boshlarida eng boy shaharlardan biri-Chanan yer bilan yakson bo'lgan, 30-yillardagi o'zaro kurashlardan esa ajoyib saroylari va kutubxonalari bilan Loyanning kattagina qismi vayron etilgan. Ko'plab shaharlar talon-tarojliklarga duchor qilingan.

O'zaro yovlashib yurgan harbiy boshliqlar aholiga noqonuniy soliq solganlar. Qishloqlarning xuvillab qolishi irrigatsiya tizimlarining tushkunlikka uchrashi, to'g'onlarning puturdan ketganligi tez-tez Xuanxe daryosidan toshqinlarni keltirib chiqargan. Boshpanasiz qolgan dehqonlar janubga qarab ketganlar. Aholi keskin qisqargan. Chegara oldi harbiy manzilgohlar ham bo'shab qolgan. Barcha harbiy kuchlar ichki mojarolarda band edilar.

Xitoyning ichki og'ir ahvolidan kidanlar foydalanib qolganlar. Ularning imperiya bilan ko'p yillik savdo va siyosiy aloqalari qabilalarning ibtidoiy jamoa tuzumining buzulishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Kidanlar ko'chmanchi turmush tarzidan o'troqlikka o'tishgan, chorvachilikdan tashqari esa dehqonchilik bilan ham shug'ullana boshlaganlar. Kidan zamindorlari qabila oddiy a'zolarini o'zlariga tobora ko'proq bo'ysundira borganlar. Xitoyga xujumlari vaqtida asir qullar va o'ljalarning eng kattasini, o'zlashtirib tobora boyib borganlar. Biroq kidanlarning asosiy tuzumi tabaqalashishgacha bo'lgan tartiblar sarqitlarini yana uzoq vaqt saqlab kelgan. Sakkizta katta urug' tashkiloti (aymoqlar) o'z-o'zini boshqarishdan foydalanishgan va oqsoqollar tomonidan boshqarilgan. 916-yili ko'zga ko'ringan yo'l boshchilardan biri, Yelyuy urug'idan bo'lgan Apoki (Ambigan) o'zini imperator deb e'lon qilgan. 937-yili yangi davlat Lyao deb atala boshlagan. Uning rahbari asirga tushgan xitoy amaldorlarini xitoy davlati namunasi bo'yicha tuzilgan davlat apparati qurilishiga keng jalb etgan. Kidan yozuvi ishlab chiqilgan. Shaharlar qurilgan, bozor ayriboshlashi rag'batlantirilgan, ruda va tuz qazib chiqarish yo'lga qo'yilgan. Kidan hukmdorlari Xitoyning siyosiy hayotiga aralashib, o'zaro urushlarni o't oldirganlar. Xitoy zamindorlari hokimiyat uchun kurasha borib, kidan suvorilaridan ko'mak izlaganlar, ipak bilan o'lpon

to‘laganlar va mamlakatning shimoliy hududlarini boy berganlar. Lyao hokimiyati ostiga hozirgi muzofotlar Xebey va Shansi yerlaridan bo‘lgan 16 ta ziroatchilik okrugi o‘tgan.

Ajnabiylarga o‘zini himoya qilish uchun stixiyali tarzda vujudga kelgan xalq lashkarlari kurolli qarshi zarba bergan. X asrning 40-yillarida Xitoy harbiy boshliqlaridan biri kidanlarga Kayfinni egallashlariga yordam bergan. Xalqning va ayniqsa shaharliklarning qarshilik ko‘rsatishlari kidanlarni shimolga qaytib ketishiga majbur etgan.

Shimoliy Xitoyda dehqonlarning o‘z-o‘zini mudofaa qiluvchi ko‘p sonli otryadlari tuzilgan. Ichki ahvolni barqarorlashtirish zaruriyati Kayfin hukmdorlarini qo‘shinni qayta tashkil etish, terib-terib olingan jangchilardan gvardiya tashkil etishga undagan, undan Lyao davlati bilan kurashda foydalanganlar. Shimolga yurishlar og‘ir bo‘lib, qimmatga tushgan.

Qishloq xo‘jaligi va shaharlarning xonavayron bo‘lishi Xitoy iqtisodiyotining butkul tushkunlikka uchrash xavfini tug‘dirgan. Kidanlar tomonidan tug‘ilgan tashqi xavf ham o‘zaro urushlarga barham berish va mamlakatni birlashtirilishini talab qilardi. Shuning uchun 960-yili qo‘shinlar kidanlarga qarshi yurishga chiqqan vaqtda harbiy sarkarda Chjao Kuaninni Sun sulolasi (960-1279) ning imperatori deb e‘lon qilganlar, u birlashishga intilayotgan Kayfin zamindorlari va shaharliklari tomonidan keng qo‘llab-quvvatlangan. Kidanlar tomonidan bosib olingan hududlarni qaytarib olishga Sun ma‘muriyati muvaffaq bo‘lmagan, hududining xajmi jihatidan yangi imperiya o‘z o‘tmishdoshi Tan imperiyasiga nisbatan kichik bo‘lgan. Avvaliga Kayfin, 1127-yildan esa Xanchjou sunlarning poytaxti bo‘lgan.

Agrar munosabatlar va dehqonlarning ahvoli. Xitoyning qishloq xo‘jaligi rivojlangan o‘rta asrlar davriga kelib salmoqli muvaffaqiyatlarga erishgan. Qishloqda garchi juda oddiy bo‘lsa-da, ayrim yangiliklar: yog‘och charxpalak va sopol ko‘zali suv ko‘targich, shuningdek yassi kovshli suv ko‘tarib beruvchi qurilmalardan foydalanganlar. Birmuncha balandliklarda joylashgan ekin maydonlariga suv chiqarish bilan shu vaqtgacha ishlov berilmasdan

qolib ketayotgan yerlarga ekin ekish mumkin bo‘lib qolgan. Sholi va boshqa ekin donlarini oqlash, uchun shuningdek o‘simlik yog‘larni ezib olish jarayonida juvozxonalarda suv tegirmonlari va suv presslaridan foydalana boshlaganlar.

O‘rta asrlar ilk bosqichidayoq dehqonlar ekish vaqtida ekin navlarini mohirona almashlab va ekin maydoniga bir vaqtda bir necha ekin ekadiga bo‘lganlarki, bu esa bir mavsumda ikki hosil olish imkonini berardi. Sholi urug‘i va ko‘chatini juda ham puxta saralab olganlar. Janubda shakar-qamish ekish sezilarli darajada ko‘paygan, markaziy va shimoliy rayonlarda sanoat maqsadlarida ipak qurti boqilgan. Ziroatchilik sohasida erishilgan barcha yutuqlar dehqonlarning qo‘l mehnatining kengayib borishiga asoslangan edi. Otlarni asosan qo‘shinda saqlashgan, dalalardagi barcha ishlarni dehqonlarni o‘zlari bajarganlar. Yerni so‘qa va motiga bilan qo‘lda haydaganlar, xachir va eshakdan kamdan-kam foydalanilgan. Suv oqimi kuchli bo‘lmagan, joylarda gidravlik charxpalaklar oyoq bilan harakatga keltirilgan, boshqa dehqonlarning ishlari ham qo‘lda bajarilar edi.

Xitoy imperiyasining ijtimoiy hayotida X-XII asrlarda ba’zi o‘zgarishlar ro‘y bergan. Davlat yerlari, imperator qarindoshlari pomestiylari, harbiy manzilgohlar, amaldorlar ixtiyoriga beriladigan “lovozim” yerlari, shuningdek ibodatxonalar va o‘quv muassasalari yerlari maydonlari qisqargan. Xususiy yer egaligi ustunlikka ega bo‘lishi yirik yer egaligi rivojlanishining yetakchi tendensiyasi bo‘lib qoldi.

Mulkchilikning bu toifasini kengayishi qo‘riq va bo‘sh yerlarni o‘zlashtirilishi, borish qiyin bo‘lgan tog‘lik rayonlardagi uchastkalarini shudgorlash, egallab olinishlar va sotib olishlar hisobiga ro‘y bergan. Yirik yer mulk egalari o‘z mulklarini erkin tasaruf etganlar meros qoldirganlar, garovga berganlar va sotib yuborar edilar. Ba’zi xususiy shaxslar zo‘rluk bilan yerlarni egallab olganlarki, shu bois ularni “yutib yuboruvchilar” deb ataganlar.

Yer mulklarni qayta taqsimlashda barcha toifadagi amaldorlar, savdogarlar, boy shaharliklar va o‘ziga to‘q dehqonlar, harbiylar va sudho‘rlar ishtirok etganlar. Biroq bunda yirik zamindorlar yetakchi rol o‘ynaganlar. Yirik yer maydonlariga “qudratli xonadonlar”-katta

ta'sirga ega bo'lgan mansabdorlar va yirik amaldorlar ega bo'lganlar. Ularning xususiy mulkchiligidagi pomestiylarini kengayishining manbaini imperatorning in'omlari, shuningdek davlat yerlarini va mayda mulkdorlar uchastkalarini egallab olishlar tashkil etgan. Zamondoshlarning guvohlik berishicha, 1022-yilga kelib ularning mulklari mamlakatdagi barcha ishlov beriladigan maydonlarning yarmini egallagan.

Siyosiy va iqtisodiy imtiyozlarga ega bo'lmagan qishloq boylari (unvonsiz zamindorlar), ilmiy unvonsiz o'ziga to'q yer egalari ham mahalliy hokimiyat vakillariga zulum o'tkazib yerni egallab olganlar. Yerni o'zlashtirib olish agar yer egasi boz ustiga sudho'r bo'lsa ayniqsa intensiv tarzda kechgan; binobarin olingan qarzni qaytarmaganlik uchun mol-mulk va yer bilan hisob-kitob qilishga to'g'ri kelgan.

Davlat fondidagi va mayda xususiy mulklarning yerlariga daxl qilganlari holda, yangi xo'jayinlar soliqlardan bo'yin tovlaganlar va ko'p hollarda ulardan rasman ozod bo'lishga astoydil harakat qilganlar. Yerning qayta taqsimlanishi soliq ro'yxatlarida o'z ifodasini topmagan va g'aznaga tushumlar keskin kamayib ketgan. Manbalarning bergan ma'lumotlariga qaraganda mamlakatdagi ekin ekiladigan maydonlarning 60-70 foizidan soliqlar g'aznaga tushmagan.

Hokimiyat ma'murlari dehqonlar ahvolda halokatli namoyon bo'layotgan yirik yer-mulklarning o'sishini cheklashga bexuda intilishgan. 30 dan 40 mugacha miqdordagi davlat yer uchastkalarini ushlovchi, mustaqil xo'jayinlardan iborat dehqonlarning yerarlicha salmoqli qategoriyasi ham kamaygan. Bu dehqonlar renta munosabatlari bilan bevosita g'azna bilan aloqador bo'lib, soliq to'lovchilarning quyi mulkdor qatlamini tashkil yetganlar. Ular mkhnati samaralarini o'zlashtirib olishning asosiy shakli "qonun bo'yicha" va an'analarga ko'ra olinadigan ko'p sonli soliqlar va majburiyatlar bo'lgan. Soliq to'lovchi xonadonlar yer solig'ini davlatga -yiliga ikki marta to'laganlar, u ko'pincha natural holida (sholi, tariq, bug'doy, kanop, ipak matolar bilan) olingan, soliq olish meyorlari esa joyiga bog'liq bo'lgan.

Muzofotlar amaldorlari soliqqa tortishni eng nozik usullar bilan ko'paytirganlar. Bundan tashqari hokimiyat ma'murlari "to'kilib-

sochilib kamayishlar” uchun qo‘shimcha mablag‘larni va soliq tushumlarini undirib olganlar. Soliqlarning natural shaklini pul shakliga o‘tkazilishi va bir mahsulotni boshqasi bilan o‘zboshimchalik bilan almashtirilishi dehqonlar uchun eng xonavayronlik keltiruvchi holat bo‘lgan.

Dehqonlarning ahvoliga harbiy extiyojlar tabiiy ofatlar bilan kurash uchun olinadigan favqulodda yig‘imlar ham og‘ir ta’sir ko‘rsatardi. Qishloq xo‘jalik asbob-uskunalari, charva moli, yer sotib olish, uy-joylarni ta’mirlash vaqtida egri soliqlarni to‘laganlar. Sholi va pul bilan to‘lanadigan jon soliqlari ham ko‘p sonli bo‘lgan. Tuz, sharob, xamirturush, sirka va ayniqsa choyga bo‘lgan monopoliya ham halqning gardaniga yuk bo‘lgan. Davlta muassasalariga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha majburiyatlar haddan tashqari og‘ir bo‘lgan, chunonchi dehqonni habarchi, soqchi transportni kuzatib boruvchi qorovul, xizmatkor bo‘lishga majbur qilishgan. Xalqning talash usullarida ustamonlik bo‘yicha sun hukmdorlari o‘z o‘tmishdoshlaridan o‘tib ketganlar.

Sobiq ziroatchilar yohud daydilarga, yohud asoratli sharoitlarda yirik zamindorlar va qo‘rg‘on egalari yerlarida ishlovchilarga aylanganlar. Xususiy mulklarning o‘sib borishi bilan bunday toifadagi yerda ishlovchilar-korandalar tobora ko‘payib borgan. Ular orasida eng ko‘p sonlisini mol-mulki, uy joyi bo‘lmagan kexu guruhi tashkil etgan.

Qishloq kexusining aksariyat katta qismi ularning xo‘jayinlari-soliq to‘lovchilarning ro‘yxatiga kiritilgan. Ular yer egalariga to‘liq qaram bo‘lishgan, davlat esa faqatgina soliqlar to‘g‘risida qayg‘urib, ularning o‘zaro munosabatlariga aralashmagan. Korandalar (kexu) zamindorlarning yeriga hosilning bir qismi evaziga ishlov berishgan. Yer egasi foydasiga qoldirilgan hissa odatda hosilning 50 foizidan ortiqni tashkil etgan. Xo‘jayinlar yer ushlovchilarni qonunga qaramay g‘aznaga yana soliqlar to‘lashga va majburiyatlar o‘tashga majbur qilganlar. Huquqsiz kexu amalda krepostnoylardan farq qilmagan. Ishchi kuchiga bo‘lgan extiyoj ayniqsa katta bo‘lgan, aholisi kam bo‘lgan rayonlarda kexuning bir joydan ikkinchi joyga o‘tishi qat’iy ravishda cheklab qo‘yilgan. Janubda ularning huquqiy qaramligi

birmuncha bo'shroq bo'lgan. Rasmiy manbalarning bergan ma'lumotlariga ko'ra bu toifa mamlakatning qishloq aholisini 35-45 foizini tashkil etgan, biroq aslida bu ko'rsatkich aftidan yuqoriroq bo'lgan. Zotan, ko'p hollarda reyestr kitoblarida yeridan mahrum bo'lib kexuga aylangan qishloq mehnatkashlari ilgari gidek soliq to'lovchilar sifatida hisobda turganlar. Chorakorlik va bevosita ishlab chiqaruvchilarning sudho'rlik ekspluatatsiyasini og'irligi yirik yer egaligiga asoslangan tuzumning qaram dehqonlar va zamindorlar o'rtasidagi asosiy ziddiyatini keskin kuchaytirgan edi.

Shaharlar, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi. X-XII asrlarda Xitoyda shaharlarni qishloqlardan ajralib chiqish jarayoni davom etgan. Hamma joyda yangi shaharlar paydo bo'la borgan, ko'xna manzilgohlar kengaygan. Kayfin, Xanchjou, Chendu va Uchan eng yirik ma'muriy va savdo-hunarmandchilik markazlari bo'lib qolganlar. Chjen yoki shi deb atalgan yangi savdo-hunarmandchilik punktlari ham yuzaga kela boshlagan.

Shaharlar devorlari ortida savdo-hunarmandchilik rabotlari o'sa borgan, ularning atrofini ham devor bilan o'rab olinishi bilan tashqi shahar tashkil etilgan. Ko'p shaharlar hududlarini transport kanallari kesib o'tgan.

XI asrga kelib qurilish san'ati anchayin yuqori darajaga yetgan. Saroyga tegishli imoratlar va zodagonlarning uylari ikki-uch qavat qilib quriladigan bo'ldi. Yirik shaharlar yaxshi yo'lga qo'yilgan xo'jalikka ega bo'lganlar, chunonchi sexlar suv yetkazib berganlar, shaharni chiqindilar, ivirsiqlardan tozalaganlar, o't o'chirish xizmatini ko'rsatganlar.

Poytaxtlar Kayfin va Xanchjouda bir necha yuz minglab aholi yashagan. Shaharliklarning tabaqalarga bo'linishi bo'lmagan. Savdo-sotiq amaldor uchun past yumush hisoblanmagan, xatto imperator xonadoning a'zolari savdo uylariga ega bo'lishdan daromad olganlar. Boyib ketgansavdogar va hunarmandlar lavozim sotib olishlari va bu bilan ijtimoiy jihatidan amaldorlar bilan tenglashishlari, yer sotib olishlari mumkin edi.

Shaharlarning rivojlanishi bilan hunarmandchilik ishlab chiqarishining asosan hukmron tabaqaga xizmat ko'rsatish sohalari kengayib borgan. Metallarning qazib olish va qayta ishlash ko'paygan. XI asrda mis qazib chiqarish IX asrga nisbatan 30 barobar, temir rudasi esa 12 marta o'sgan. Qo'rg'oshin, qalayi, simob, oltin, kumush qazib chiqarish kengaygan; metallarni eritish va qayta ishlash texnikasi takomillashtirilgan; toshko'mir va ximiyaviy reaktivlardan foydalana boshlaganlar; shuningdek misni quyib olishning gidrometallurgik usuli qo'llana boshlagan. Temirchilik ishi va metal buyumlar-qurollar, pichoqlar, mixlar, qozonlar, chambaraklar, idish-tovoqlar tay.y. orlash keng yo-yilgan.

Janubda ipak matolarning o'nlab turlari tay.y. orlangan; dekorativ panno (ipak gazlama) to'qish kashf etilgan. XI asrda Xitoyga O'rta Osiyo va Hind okeani orollaridan paxta olib kelingan, paxta tozalash uchun dastgoh va ko'p urchuqli charxning kashf etilishi XII-XIII asrlardayoq paxta tolasidan zig'ir yoki kanop tolasini qo'shmay gazlama tay.y. orlash imkonini bergan.

Sopol va chinni buyumlar tayyorlash takomillashgan, och yashil yoki kulrang-ko'k idishlar (seladonlar) paydo bo'lgan.

Shahar ko'chalarida son-sanoqsiz, ko'plab kiyim-kechak, poyafzal, mebellar, uy ro'zg'or buyumlari, yelpig'ichlar, soyabonlar, qurbonlikka atalgan buyumlar, zargarlik buyumlari va hokazolar tay.y. orlash bo'yicha ustaxonalar joylashgan edi. X-XIII asrlarda shaharlar hunarmandchilik ustaxonalarida mehnat tabaqalashtirilmagan, turli-tuman ustaxonalar o'rtasidagi mehnat taqsimoti esa anchayin intensiv tarzda ro'y bergan va hunarmandchilik kasblari sonining ko'payishi bilan kechgan, chunonchi to'qimachilik ishlab chiqarish sohasida ip yigiruv, to'quvchilik va bo'yash sohalari ajralib chiqqan.

Ustaxona-do'kon hunarmandchilik korxonasi asosiy turi bo'lib, hunarmand bu yerda o'z oila a'zolari, xalfalari va shogirdlari bilan birga mehnat qilgan va tovarlarini o'zi sotgan. XII-XIII asrlarda hunarmandchilik kvartallarida ko'zga ko'rinarli kattalikdagi ustaxonalar va do'konlar vujudga kelgan. XIII asr oxirida Xitoyga tashrif buyurgan

Venetsiyalik savdogar Marko Polo o'ntalab xatto qiriqtalab odam ishlaydigan ustaxonalar haqida yozadi.

Hunarmandlarni sexlar (xanlar va tuanlar)ga birlashishi majburiy bo'lib qolgan. Davlat hokimiyati ma'murlari bu institutdan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishgan, xatto folbinlarni, suv bilan savdo qiluvchilarni, xammomchilar va hokazolani sehlarga birlashishga majbur qilishgan. Xanchjouda XIII asrda 414 ta sex bo'lgan. Sexlarning iyerarxiyasi mavjud bo'lgan. Odatda, xanlar aralash-savdo hunarmandchilik tipida bo'lganlar. Faqatgina sholi va chorva moli ulgurji savdosi sohalarida katta ta'sirga ega bo'lgan sof savdogarlik birlashmalari vujudga kelgan. Sex a'zosi odatda oila boshlig'i bo'lib, hunar bilan esa butun oila shug'ullangan. Sex huquqi bir xo'jalikka xalfalar va shogirdlar sonini, sexga kirish to'lovi, ish shartnomalari va unga haq to'lash, tay.y.or mahsulotlarni sotish sharoitlarini belgilab bergan, sex sirlarini chetga tarqatishni ta'qiqlagan.

G'arbiy Yevropadan farqli o'laroq Xitoyda savod-hunarmandchilik mavzellarida savdo birmuncha gavjum kechgan, xatto tunggi bozorlar ham bo'lgan. Sex o'zining bayramlari va diniy marosimlariga ega bo'lgan, ustalar manfaatlarini himoya qilgan, o'z a'zolariga kasal bo'lib qolish, ular orasida judoliklar bo'lgan holatlarda yordam ko'rsatgan. Oqsoqollar va g'aznachilar jarimalar olganlar, hokimiyatga soliq to'lash, buyurtmalar va mehnat majburiyatlarini bajarilishi uchun javob berganlar.

Xanlar va tuonlar faqatgina ichki o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega bo'lganlar, biroq davlatning kuchli zulmini boshdan kechirganlari holda, hech qanday siyosiy ta'sirga ega bo'lmaganlar.

Hunarmandchilikning rivojlanishi va savdoning kengayishiga metal ruda, tuz qazib chiqarish va sotishga, tanga zarb etish, pista ko'mir qilish va sotish, choy, sharob, xamirturush, sirka ishlab chiqarish va sotishga bo'lgan monopoliya to'sqinlik qilardi. Davlat ustaxonalari yirik hunarmandchilik punktlarida, foydali qazilma boyliklarini qazib chiqarish joylarida, shuningdek ikkala poytaxt-Kayfin va Xanchjouda jam bo'lgan. Qurol-yarog', kemasozlik, ipak to'qish ustaxonalari, bosmaxona, pul zarbxonalari ular ichida yiriklari edi. Bu ustaxonalarga

xizmat qiluvchi hunarmandlar majburiyatlarini bajarish yoki majburiy yollash asosida ishlaganlar.

Ustaxonalarning mahsulotlari imperator va yuqori zodagonlar extiyojlarini qondirishga, armiyani aslahalashga, chjurchjenlar va kidanlarga o‘lpon to‘lashga va qisman tashqi bozorga ketardi.

Qishloq xo‘jaligi va shahar hunarmandchiligining rivojlanishi bilan savdo-sotiq ham jonlangan. Yirik shaharlardagi maydonlarda yoki darvoza oldida shahar aholisi uchun zarur bo‘lgan turli-tuman assartimentdagi tovarlari bo‘lgan kundalik bozorlar ishlab turgan. Ayrim kunlari dori-darmonlar, ko‘mir, sholi, otlar, zargarlik buyumlari, tay.y.or kiyim-kechaklar, kanop kalavalariga ixtisoslashgan bozorlar tashkil qilingan.

Katta bayramlarda, avvalo xram va ibodatxonalar hududlarida yarmarkalar ochilgan. Bundan tashqari, ichki savdo yo‘llari va qishloq aholisi ko‘p yig‘ilgan joylarda shahar tipidagi ko‘plab manzilgohlar paydo bo‘lgan. U yerlardagi bozorlar va yarmarkalarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini hunarmandchilik buyumlariga ayriboshlangan. Hunarmandlarning buyumlarini va ziroatchilik mahsulotlarini sotilishida sayoq savdogarlar muhim rol o‘ynaganlar. Biroq viloyatlararo aloqalar hali sust bo‘lib, tovarlar massasining viloyatdan-viloyatga harakati esa salmoqli bo‘lmagan.

Hunarmandchilik va savdo-sotiqning o‘sishi mamlakatda pul massasini ko‘paytirgan. Temir va mis tangalardan tashqari muomalaga oltin va kumush pullar kiritilgan. Xususiy shaxslarni tanga pullarni chetga olib chiqqanlik uchun jazolovchi shafqatsiz qonunlarga qaramasdan, chegaradosh mamlakatlarda muomalada asosan Xitoy tanga pullari bo‘lgan. Metall tangalar bilan bir qatorda xitoyda qog‘oz pullar qo‘llangan. Bozorlarda pul almashtiradigan kontora va do‘konlar faoliyat ko‘rsatgan. Maklerlar ishchi kuchini yollash, shuningdek ulgurji sotuvchilarning do‘konchilar bilan savdo bitim tuzish vaqtida vositachilik (dallollik) qilishgan.

Ichki savdo g‘azna daromadlarining manbai bo‘lib, u tomonidan qattiq nazorat qilingan. Kayfin bozori Xitoy bozorlari ichida birinchisi bo‘lgan. Ichki bojxonalaridagi yig‘imlar ko‘p hollarda tovar qiymatining

yarmiga yetgan. Hunarmandlar va tijoratchilar daromaddan soliqdan tashqari do‘kon ostidagi ijaraga olingan yer uchun to‘lashlari va tovarlarning bir qismini hokimiyat tomonidan belgilangan past baholarda sotishlari lozim edi. Davlatning iqtisodiy zulmi va amaldorlarning suiste‘molliklari savdoning rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan, pul mablag‘larini xususiy shaxslar qo‘lida to‘planishiga olib kelgan.

Tashqi savdo Xitoyda turli mamlakatlar bilan bog‘lagan. Janubda tor tog‘ so‘qmog‘i bo‘ylab tijoratchilar Birma va Vyetnamga kirib borganlar. Shimoldagi ko‘chmanchi qabilalar bilan savdo davlat chegaraoldi bozorlarida yo‘lga qo‘yilgan va ko‘proq almashuv xarakteri kasb etgan. Dengiz savdosi dengiz bo‘yi bandargoh shaharlar-Syuanchjou, Ninbo va Xanchjou orqali olib borilgan. Guanchjou eng yirik bandargoh bo‘lib qolgan, u yerda Hindiston, Eron va arab mamlakatlaridan kelgan ajnabiy savdogarlar istiqomat qilganlar. Ba‘zan ularning soni 200 mingga yetgan. Xitoy kemalari Hindixitoy qirg‘oqlari bo‘ylab janubiy dengiz mamlakatlariga, Yaponiyaga va Tinch okeani orollariga suzib borganlar. Ular bu yurtlarga ipak matolar, chinni, metal buyumlar, oltin va kumush olib chiqishgan. Xitoyga esa ziravor, qimmatbaho buyumlar, fil suyagi, hushbo‘y moddalar, qimmat yog‘och materialli olib kelishgan.

XII asrda Shimolni boy berilishi va iqtisodiy hayot markazining janubi-sharqqa uzil-kesil almashinuvi bilan tashqi savdo aylanmasida dengiz savdosining salmog‘i sezilarli darajada o‘sgan. Mustahkam va pishiq-puxta xitoy kemalari o‘z bortiga 600-700 kishini va katta yukni sig‘dira olganlar.

Shaharlarning iqtisodiy ko‘tarilishi uning mustaqil qiyofasining shakllanishi bilan kechmagan edi. Hunarmandchilik va savdogarlik tashkilotlarining hokimiyatlarga bo‘ysunishi, ularning qaramlik holati, siyosiy huquqsizligi shaharliklarni qishloq aholisi ahvoliga deyarli teng holatga solib qo‘yardi.

Sun imperiyasining davlat tuzumi. Sun imperiyasining davlat tuzilishi ilgari despotiyalardan meros bo‘lib qolgan siyosiy poydevor ustiga qurilgan.

Agrar tuzumdagi o'zgarishlar, shaharlarning rivojlanishi, yangi ijtimoiy qatlamlarning o'sishi siyosiy yangilanishlar uchun shart-sharoitlar yaratgan, biroq ular imperiya strukturasiiga deyarli daxl qilmagan. Siyosat umumxitoy markaziy hokimiyatini mustahkalashga va separatistik tendensiyalarni barxab berishga qaratilgan edi.

Sun xonadonining birinchi hukmdorlariyoq cheksiz hukmron bo'lgan harbiy noiblar boshchiligidagi ilgarigi ma'muriy birliklarni bekor qilib, markazlashtirish uchun choralar ko'rganlar, ma'muriy bo'linishning yangi tizimini joriy qilganlar: barcha rayonlar bevosita imperatorga bo'ysunganlar. Viloyatlar okruglar va uyezdlarga bo'lingan, yirik shaharlarni o'z ichiga olgan muzofotlar yuqori ma'muriy organlar edi. Bundan tashqari harbiy hokimiyat va inspeksiyalar joylashgan harbiy okruglar, tuz ishlab chiqaruvchi va metall erituvchi rayonlar ajralib chiqqan.

Poytaxtdan muzofotga mahalliy hokimiyat bilan bir qatorda okrug va uyezd boshliqlarini tayinlaganlar. Joylardagi hokimiyat huquqda mahalliy amaldorlar bilan tenglashtirilgan poytaxt xizmatchilari tomonidan nazorat qilingan. Uch -yildan so'ng muzofot amaldorlariga xizmat joyini o'zgartirishga buyruq berilgan. 991-yili markazdan prokuror nazorati joriy qilingan. Mahalliy organlar muhim fuqaro ishlari bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish huquqidan maxrum etilgan. Markaziy organlar ichida huquq va majburiyatlari, ayniqsa imperatorning eng yaqin maslahatchilari-szaysanlar vakolatlarini kamaytirish hisobiga qayta taqsimlanishi ham yakka hokimlikka asoslangan hokimiyatni kuchayishiga xizmat qilgan. Qaram kishilar ustidan yaxshiroq nazoratni yo'lga qo'yish uchun amaldorlarni nazorat qilishni amalga oshiruvchi, nazorat organlari-inspeksion palata va senzoratning ahamiyatini ko'targanlar.

Monarxiya hokimiyatining ustunligini rasman tasdiqlagan mafkurani singdirishga chorlovchi va tanlar davridayoq tanlab olingan va sharhlab berilgan tegishli qadimiy qonun-qoidalarni o'rganishga asoslangan ta'lim tizimi ham ko'llab-quvvatlardi.

Amaldorlarni tavsiya etish va ularning attestatsiya qilish huquqi mutloqo markazga tegishli bo'lgan. Uch -yilda bir marta o'tkaziladigan

navbatdagi saroy imtihonlari vaqtida 700 nafar da'vogarlardan bor yo'g'i bir necha o'n nafari sinovlardan o'ta olganlar. U yerda szinshi oliy ilmiy darajani olganlar (buning uchun she'rlar va qasidalar bitishni bilish lozim bo'lgan) muhim amaldorlik lavozimlarini egallashga nomzod bo'lardilar. Birmuncha quyi daraja olish uchun klassiklarga sharh yozish malakasi talab qilinardi.

Davlat apparatining ko'plab bo'g'inlarini takrorlanishi xizmatchilar shtatini o'sib borishga olib kelgan. Sunlar saroyi haddan tashqari kattalashib ketgan byurokratik apparatni qisqartirishga muvaffaqiyatsiz uringan.

Hokimiyat aholini qurollantirishdan qo'rqar edi, shu bosni armiya asosan yollanmalardan iborat bo'lgan. Armiya qismlari butun mamlakat bo'yicha taqsimlangan bo'lib, bevosita imperatorga bo'ysunganlar. Poytaxtda "ta'qiqlangan shahar qo'shini"-imperator gvardiyasi saqlangan. Kayfin Osmon o'g'lini qo'riqlash uchun yig'ilgan, gvardiyaning tanbal jangchilari bilan to'lib ketgan edi.

Muzofotlar, okruglarda gornizonlar shakllantirilgan, ularning tepasida mahalliy zamindorlar turishgan. Qo'shinlar past intizomlilik, bo'sh tay.y.orlantirilginligi bilan ajralib turgan, qurol-aslahalar yetishmagan. Imperiya chegaralarini uncha katta bo'lmagan qo'shinlar qismlari qo'riqlashgan.

Armiyaning jangovor qobiliyatini susayishi komandirlar qatlamini kamsitilishga, fuqaro shaxslarning harbiylarga nafratomuz munosabatiga olib kelgan. Mamlakat birlashtirilgan vaqtdan boshlab 80-yildan ortiq vaqt davomida qo'shinlar 6 marta ko'paygan, biroq uni saqlab turish uchun barcha davlat tushumlarining oltidan besh qismi ketsa-da, harbiy ish yomon yo'lga qo'yilgan.

Byurokratik apparat va armiyani saqlab turish uchun, shuningdek ulkan o'lpon to'lash uchun yangidan-yangi yig'imlar joriy qilingan. Soliq tushumlarining umumiy massasi 40-yil ichida (1004-yildan) 3.6 marta o'sgan.

Markazlashtirish uchun kurash joylardagi hokimiyatning zaiflashuvi bilan bir qatorda saroyning amaldorlarni keng doirasiga tayanishga urinishi bilan birga kechgan. Jamiyatdagi mavqe ko'p

jihatdan boylikka nisbatan amal va lavozim bilan belgilangan. O‘zining imtiyozli holati bilan oliy amaldor zodagonlar ayniqsa keskin ajralib turgan. Imperator hokimiyati yirik mansabdor shaxslarga ko‘plab imtiyozlar bergan.

Yirik zamindorlar, ularning o‘g‘illari va ko‘p sonli qarindoshlari poytaxtda eng yuqori haq to‘lanadigan lavozimlarni egallaganlar. XI asrga kelib amaldorlarning alohida imtiyozli qatlami tashkil topgan, ularning lavozimlari merosiy bo‘lib qolgan. Bunga Sunlar davrida amalda bo‘lgan amaldorlarning avtomatik tarzda ko‘tarilishi imkon berganki, unga muvofiq fuqaro amaldorlari xizmat bo‘yicha har uch yil o‘tib, harbiylar esa besh yil o‘tib ko‘tarilib borganlar.

Muhim davlat lavozimlariga hukmron tabaqaning o‘rta qatlamlari uchun yo‘l yopiq bo‘lgan. Vaholanki, aynan shu qatlam oddiy amaldorlar doirasini to‘ldirib borishning manbai bo‘lgan. Poytaxt muassasalaridagi xizmatchilardek ular ham moyana ko‘rinishida feodal rentasidan o‘z hissalarini olsalar-da, lekin odatda o‘z daromadlarini ta‘magirlik va poralar bilan to‘ldirib borganlar. Iqtisodiy ahvolning beqarorligi va biror bir siyosiy huquqlarning yo‘qligi hukmron tabaqaning o‘rta va mayda qatlamlari, boy yer egalari oilalari, oddiy odamlar va shaharliklardan chiqqan mayda amaldorlarning muxolifchilik kayfiyatlarini oziqlantirar edi.

Shu bilan birga konfutsiylik ahloqining hukmronligi, mustabidlikning o‘zgarmasligiga aminlik, mutelik va kattalarga va Osmon o‘g‘liga so‘zsiz itoat etish ruhi sharoitida feodal tabaqaning turli qatlamlarining ruhiyati ko‘p jihatdan bir-biriga o‘xshash bo‘lgan. Turli mayda qatlamlar ijtimoiy institutlarning rivojlanmaganligidan o‘zlarining sotsial uyushishdan manfaatdorliklarni anglab yetmaganlar. Ular mahalliychilik, etnik, kon-qarindoshlik va boshqa aloqalar bilan shakllanadigan umumiylikni ko‘proq qabul qilganlar. Janubiy-sharqiy rayonlarning iqtisodiy hayotida kuzatilayotgan tez rivojlanish tendensiyasi Janub va Shimolning qarama-qarshiligini kuchaytirgan. Hukmron tabaqaning guruhlar mahalliychilik rishtalariga ko‘ra shakllanib borgan.

Uzoq vaqtlar sunlar xonadoni asoschisining eng yaqin odamlarini Xitoyning shimoli va markaziy rayonlaridan chiqqan kishilar tashkil etganlar. Hukmron katta guruh saroydagi yuqori lavozimlarga “daryoning narigi tomonidan bo‘lgan kishilar” o‘tirmasligi uchun jonjahdi bilan kuzatib borgan. Aynan o‘sha vaqtda janubliklar va shimolliklarning raqobatchiligi kuchaygan, poytaht zodagonlarini tashkil etgan Shimolning yirik zamindorlari bilan, yuqori lavozimlarga o‘ta olmaydigan Janubning mahalliy amaldorlar ommasi o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar keskinlashgan. Bu kurash imperator saroyida siyosiy ta’sirga ega bo‘lish uchun raqobatda o‘z ifodasini topgan. Biroq XI asr boshlariga kelib shaysanlar orasida Shimol zamindorlari guruhlarini nomzodlaridan ustun kelgan janubiy rayonlardan bo‘lgan kishilar paydo bo‘lganlar.

Siyosiy hayotdagi yangiliklar Sunlar sulolasini hokimiyatni mafkuraviy jihatdan mustahkamlash to‘g‘risida doimiy g‘amxo‘rlik qilishga undagan. Zamindorlik monarxiyasining mafkuraviy tayanchi bo‘lib xizmat qilishga chorlovchi davlat doktrinasini izlagan holda, sunlar xonadoni konfutsiylikka murojaat qilgan. Imperator farmoni bilan Konfutsiy avliyolashtirilgan, uning sharafiga ibodatxonalar bunyod etilgan, uning avlodlariga esa turli-tuman imtiyozlar berilgan.

Sun imperiyasining tashqi ahvoli. Sunlar hukumati sust tashqi siyosat yuritgan, chegaralar mudofaasini qiyinchilik bilan ta’minlagan. Birinchi sun imperatori kidanlardek xavfli dushman bilan tinch munosabatlarni o‘rnatishni asosiy maqsadi deb bilgan. Osmon o‘g‘li xonadoni Lyao hukmdorlariga muzokaralar uchun tinimsiz ravishda o‘z vakillarini yuboraverib, barcha choralar bilan tinchlik bitimini tuzilishiga erishgan. 1004-yilgi shartnomaga ko‘ra, Sun imperiyasi har yili ulkan miqdorda ipak matolar va kumush bilan o‘lpon to‘lab turish majburiyatini olgan.

XI asr birinchi choragida kidanlar hozirgi Xebey muzofotining shimolini egallashga, Xitoyning Koreya bilan aloqasini uzib qo‘yib, Lyao dun yarim orolida o‘rnashib olishga muvaffaq bo‘lganlar. Lyao hokimiyati ostiga Xitoyning 16 okrugi tushib qolgan. 1042-yili yangishartnoma tuzilgan. Sunlar o‘zlarini hududiy yo‘qotishlarini e’tirof

etganlar va 300 ming dona ipak mato va 200 ming lyan kumush miqdorida o'lon to'lash majburiyatini olganlar.

Ayni vaqtda shimoli-g'arbda yangi xavfli dushman-Si Sya (G'arbiy Sya 1032-1227) tangutlar davlati paydo bo'lgan. Xitoy zamindorlari tengutlarni xatto shimoli-g'aryudagi hozirgi ichki Mo'g'ulistonning kattagina qismini, Gan'su muzofotini va Shensi muzofotining shimoliy qismini egallagan vaqtda ham imperiyaning vassali deb hisoblaganlar.

Tangutlar iadaniyati Xitoy, Tibet va uyg'ur madaniyati ta'siriga uchragan bo'lsa-da, o'ziga xos jihatlariga ham ega bo'lgan.

XI asrning 20-yillarida Si Sya davlati kuchli davlatga aylangan, uning hukmdori Yuan Xao esa 1038-yili imperator unvonini qabul qilgan. Otliq qo'shin yosh davlat qo'shinidagi zarbdor kuch bo'lgan. Og'ir Xitoy-Tangut urushlari butun XI asr davomida olib borilgan. Ular orasidagi tanaffuslarda muttasil tarzda chegara mojarolari bo'lib turgan. Tangutlarning bostirib kirishlari bir zamonlar gullab-yashnagan rayonlarni cho'lu-biyobonga aylantirgan va qishloq xo'jaligiga jiddiy talofat yetkazib, Xitoy iqtisodiyotiga halokatli ta'sir ko'rsatgan.

Tangutlar davlatining kuchayishi Xitoydan Hindistonga, O'rta Osiyoga boradigan qadimiy savdo yo'llarini kesib qo'ygan. Xitoyliklarning shimoli-sharqiy Tibet va Nanshan orqali yangi karvon yo'llarini ochishga bo'lgan bir qancha urinishlari muvaffaqiyatsiz chiqqan. Tashqi savdoni dengiz yo'llariga o'tkazishga to'g'ri kelgan.

Anchagina hududlarni yo'qotib Sunlar saroyi tinchlik shartnomalarining tuzilishiga erishgan. Si Sya bilan 1043 -yilgi sulh shartlariga ko'ra Xitoy imperiyasi har yili 100 mingta ipak mato va 30 ming szin choy bilan o'lon to'lashi lozim edi. Imperator saroyining siyosati mamlakatdagi vaziyatni keskinlashtirgan. Si Sya bilan Sun imperiyasining o'zaro aloqalari shuningdek tangutlarning boshqa, yana ham xavfli dushman-Lyao (907-1125) kidanlar davlati bilan ko'p hollarda Xitoyga qarshi ittifoqda harakat qilishlari bilan murakkablashgan.

X-XII asrlardagi xalq harakatlari. Zamindorlar va sudxo'rlik zulmining o'sishi, o'lon to'lash, yollanma armiyaga ulkan harajatlar,

kattalashib ketgan amaldorlik apparati va saroy ahli dehqon xo‘jaligining honavayron bo‘lishini kuchaytirgan.

Zamindorlarga sust qarshilik ko‘rsatish (soliq to‘lashdan bosh tortish, qochib ketish, o‘z xo‘jayinlari mulkiga zarar yetkazish va x.)dan dehqonlar tobora tezlik bilan oshkora chiqishlarga o‘ta berganlar. Qo‘zg‘olonlar lokal xarakterda bo‘lsa-da, uzoqqa cho‘zilishi va shiddatliligi bilan ajralib turgan.

X asrning 90-yillarida ommaviy qo‘zg‘olon yer boylklari hukmron tabaqa qo‘lida ayniqsa intensiv tarzda konsentratsiyalashgan Sichuanda ro‘y bergan. Van Syanbo, Li Shun va Chjan YUye boshchiligidagi g‘alayonlarning asosiy ommasini qishloq aholisining eng qaram qismi tashkil etgan. Mahalliy xususiy yerlarda ishlab tirikchilik qiluvchi bu odamlar yer egasiga hosilning 50-70 foizini topshiribgina qolmay, balki mehnat majburiyatlarini ham o‘taganlar. Qo‘zg‘olonchilar “boy va kambag‘allarning tengligi” shiorini ilgari surganlar. O‘z ideallarini amalga oshirishga intilib, dehqonlar zamindorlar qo‘rg‘onlarini vayron qilganlar, mahalliy amaldorlar uylarini yakson qilganlar, boylarning don zahiralarini, pullarini, oziq-ovqatlarini, kiyim-kechaklarini tortib olganlar va ularning barchasini kambag‘allarga ulashib berganlar. Qo‘zg‘olonchilar Buyuk Shu davlatini e‘lon qilganlar, 994 -yilning yoziga kelib esa o‘z hokimiyatlarini Sichuanning katta qismiga yoyganlar. Biroq hukumat 995-yilning oxiriga keliboq qo‘zg‘olonning asosiy o‘choqlarini bostirgan. Alohida otryadlar 997-yilgacha qarshilik ko‘rsatganlar.

XI asrning ikkinchi choragida qo‘zg‘olon o‘chog‘i shimolga ko‘chib o‘tgan. Shaharliklarning qo‘zg‘olonlari Xitoy ijtimoiy hayotidagi yangi hodisa bo‘lib, ular ba‘zan dehqonlar va jangchi ommasi harakati bilan qo‘shilib ketgan. 1043-yili Shandun muzofotida dehqon qo‘zg‘oloni ko‘tarilgan. Unga bostirishga yuborilgan qismlardan jangchilar va mayda shaharlar aholisi qo‘shilgan. Bu harakatlar jangchi Van Lun boshchilik qilgan. Qo‘zg‘olonchilar ikki oy davomida bir necha uyezdlarni egallaganlar. Mahalliy hokimiyat ularga qarshilik ko‘rsata olmagan. Shaharliklar darvozalarni ochib berishgan va ko‘p

muzofot amaldorlari uyezdlar qo‘shinlari bilan birga isyonchilar tomoniga o‘tganlar. Katta sayi-harakatlar bilan qo‘zg‘olon bostirilgan.

XII asrning 20-30-yillarida qo‘zg‘olonchilik harakati Janub va Xitoy Markazini qamrab olgan. 1120-1122-yillarda Chjetszyan muzofotida xalq qo‘zg‘oloni ko‘tarilgan, unda zamindorlar yozganlaridek, milliondan ortiq odam qatnashgan. Imperiyaning shafqatsiz tartiblaridan norozilik tobora o‘sa borgan. G‘azna tomonidan ilgari nazarda tutilmagan, kasb-hunarlarni soliqqa tortish haqidagi farmon qo‘zg‘olonga bevosita bahona bo‘lib xizmat qilgan. Janubi-sharqning aholisi tog‘larda marmar ishlab chiqarishgan, yog‘och va tosh o‘ymakorligi bilan shug‘ullanishgan, daraxtlarning qimmatli navlarini yetishtirishgan.

Harakatda dehqonlar, hunarmandlar va qishloqning o‘ziga to‘q aholisi qatnashgan. Lak daraxtlari bog‘ining egasi, badavlat xo‘jayin Fan La ularning yetakchisi edi. Fan Laning chaqirig‘ida xalqning og‘ir ahvoli haqida gapirilib, hokimiyatdagilarning adolatsizligi va sotqinligi qoralanadi. Qo‘zg‘olonchilar yetakchisi sunlar hukumatining kidanlar va tangutlarga o‘lpon to‘laganligini qoralaydi. Qo‘zg‘olonchilar Chjetszyan, Anxuy va Szyansi muzofotlarining 14 okrugi qishloq va shaharlarida qo‘llab-quvvatlanishga ega bo‘lganlar. 1121-yili ular Xanchjou shahrini egallaganlar. Sunlar hukumati uzoq davom etgan ayovsiz kurashlarda qo‘zg‘olonni bostirgan.

Fan La qo‘zg‘oloni bilan bir vaqtda Xebey, Xenan, Shandun muzofotlarida, Szyansu va Anxuy muzofotlari shimolida Sun Szyan va uning 36 nafar maslakdoshlari boshchiligida qo‘zg‘olonchi armiyalar harakat qilgan. Qo‘zg‘olonchilar orasida dehqonlar-mayda mulkdorlar va korandalar, baliqchilar, matroslar, daydilar, mayda amaldorlar, monaxlar, tijoratchilar va xatto zamindorlar bo‘lgan. Qo‘zg‘olon ayniqsa ma‘muriyatlar uchun xavfli tus olib, poytaxt muzofoti Xenanni qamrab olgan. Ko‘llar va botqoqliklar orasidagi yashirin orolchalar g‘alayonchilar uchun maxfiy boshpana bo‘lib qolgan “Barcha odamlar birodarlari” iborasi ularga parol bo‘lib xizmat qilgan.

Yangi qo‘zg‘olon 1130-1135-yillarda hozirgi Xenan va Xubey muzofotlari hududlarida ro‘y bergan. Bu qo‘zg‘olonni 20 -yildan ortiq

dao sektasi tay.y.orlagan. Uning ta'limoti (Yangi qonun) jamiyatdagi tengsizlikni qoralagan. Qo'zg'olon ko'taruvchilar avvaliga asosiy maqsad sifatida "daydi bezorilar" va chjurchjen galalaridan himoyalaniş e'lon qilgan bo'lsalar, ammo keyinchalik birmuncha aniq maqsadlarni ilgari surganlar. Dehqonlar muzofotlar devonxonalariga, ibodatxonalariga, boylarning uylariga o't qo'yganlar, o'zlari nafratlangan amaldorlar, savdogarlar, monaxlarni o'ldirganlar. Qo'zg'olon 21 uyezdni qamrab olgan, qo'zg'olonchilar armiyasi esa 400 ming kishidan oshib ketgan. Yetakchilaridan biri sunlar qonunchiligini iblisona deb atab, uning noto'g'ri ekanligi haqidagi fikrini davom ettirib chuqurlashtirdi va "zodagonlar va oddiy odamlarning tengligi, kambag'allar va boylarni tenglashtirish" shiorini e'lon qilgan. Isyonchilar Chu podsholigini tuzganlar va unda dehqonlarning tenglik g'oyalarini hyotga tadbiiq etishga harakat qilganlar. Qo'zg'olon ko'taruvchilar zamindorlar foydasiga odatiy majburiyatlar o'tashdan va soliq to'lashdan ozod etilganlar. Barcha mulklar teng taqsimlangan. Chjurchjen to'dalariga qarshi ayovsiz kurashda dehqonlar yetakchilari Vatan himoyasiga otlanganlar.

Siyosiy kurash va islohot uchun harakat. Ziroatchilik va kasb-hunarlarining rivojlanishi, bilimlar va shahar madaniyatining kengayishi, tashqi dengiz aloqalari va keng ichki savdo qotib qolgan tartiblarni bekor qilish zaruriyatini keltirib chiqargan. Iqtisodiy, siyosiy va xalqaro ahvolning yomonlashuvi hukmron tabaqa turli qatlamlari orasidagi qarama-qarshiliklarni keskinlashtirgan va turli ijtimoiy katlamlar va guruhlarini harakatga keltirgan.

Muxolifatchilik kayfiyatlarini imperator saroyidan, uning kechayukunduz nazorati unchalik sezilmaydigan uzoq joylarda paydo bo'lgan. Mayda muzofotlik amaldorlar-Intyan (Xenan muzofoti) shahridagi o'ziga xos "iqtidorlar pitomnigi" bo'lgan mahalliy akademiya olimlarining aksariyati Janubliklar bo'lishgan. Aynan shu yerda islohotchilik harakati tug'ilgan. Akademiya o'qituvchisi Fan Chjun'yan (989-1052) uning mafkurachisi bo'lib qolgan.

Saroy guruhi bilan davlat apparatidagi lavozimlar uchun ketgan ayovsiz kurashlardan so'ng Fan Chjun'yan va uning tarafdorlari

ma'muriya apparatda bir necha mansablarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lganlar. Islohotlar loyihalari mazmunini davlatning moliyaviy va harbiy qudratini mustahkamlashga oid tavsiyalar tashkil etgan imperatorga yo'llangan dokladda berilgan.

Islohotchilar davlatning iqtisodiy rivojlanganlik holatini ziroatchilikning rivojlanish darajasi bilan bog'laganlar, savdo va hunarmandchilikdan farqli o'laroq, g'aznaga moliyaviy tushumlarning manbai ziroatchilik ekanligi haqidagi qadimiy ta'limotni tiklaganlar. Iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun Fan Chjun'yan g'azna nazorati ostida amalga oshiriladigan irrigatsiya va milioratsiya ishlari dasturini ishlab chiqqan, dehqonchilikni rivojlantirish uchun esa mehnat majburiyatlarini kamaytirishni tavsiya qilgan. Qishloq xo'jaligiga qo'shimcha ishchi kuchlarini berish uchun Fan Chjunyan davlat muassasalarida majburiyatlarini taqsimlashni tartibga solishni taklif etadi. Qimmatga tushadigan qo'shinning xarajatlarini qisqartirishga intilgani holda, u janchi-ziroatchilar jamoa hisobidan ta'minlanadigan va qurollantiraladigan qadimiy tizimni tiklash uchun kurashgan. Ma'muriy apparatni qisqartirishni islohotchi muhim tadbir deb hisoblaydi. U layoqatiga qarab emas, balki faqat muddatigagina qarab lovozimni oshirish tamo-yilini tanqid qiladi, amaldor zodagonlarning asossiz imtiyozlarini cheklab qo'yishni taklif qiladi, zero ularning ko'psonli avlodlari har -yili imtihonlarni chetlab o'tib lavozimlarni egallardilar, xizmat pillapoyalaridan ko'tarilib borardilar. Fan Chjun'yan shuningdek qadimiy qonun-qoidalarni shunchaki mexanik tarzda yodlab olishga yo'naltirilgan ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi, u nafaqat imtihonlarda namoyon bo'lgan bilimlarnigina emas, balki xizmat natijalarini ham hisobga olish lozim deb hisoblaydi. Fan Chjun'yan ziroatchilik, sug'orish tizimlarini, moliya tizimini yaxshi tushunadigan amaldorlarni katta-katta rag'batlantirish; xizmat pillapoyalari bo'yicha ko'tarib borishni taklif qiladi.

Amaldor zodagonlarning merosiylik huquqiga asoslangan imtiyozlarini cheklanishi va iqtidoriga qarab tanlab olish tamo-yilini ilgari surilishi jamiyatda ijtimoiy harakatchanlik istiqbollari ochishi, markazda va joylarda davlat apparatini zamindorlar va shaharliklarning

keng qatlamlaridan chiqqan kishilar hisobiga yangilash mumkin bo'lardi.

Islohotlar loyihasi hukmron tabaqaning o'rta qatlamlarining iqtisodiy huquqlarini ham himoya qilgan: mayda muzofot amaldorlarining daromadlarini kafolatlash uchun xususiy shaxslar tomonidan egallab olingan "amaldorlik" yerlarini qayta tiklash taklif qilingan edi.

Fan Chjun'yan uning tarafdorlari tomonidan 1043-1044-yillarda bir qancha dokladlarda faol qo'llab-quvvatlangan takliflari zamindorlar yuqori doiralari tomonidan qattiq qarshilikka uchragan. Ma'muriy apparatni qayta tashkil etilishi vaqtida mag'lubiyatga uchragan islohotlar mafkurachilari xatto unga kirisha olmay qolganlar. Islohotlar dushmanlarining qattiq qarshilik ko'rsatishlari Fan Chjun'yan va uning maslakdoshlarining iste'foga chiqishini keltirib chiqarada. Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va siyosiy vaziyat tabaqaviy vakillik monarxiya tushunchasini ishlab chiqish imkonini bermagan: islohotchilarning siyosiy va ijtimoiy talablarini jur'atsizligi, mujmalligi zamindorlar tabaqasi, shuningdek shaharliklar o'rta qatlamining zaifligi va rivojlanmaganligi bilan belgilanar edi.

Islohotchilik harakatining yangi bosqichi Van Anshi (1021-186) bilan bog'liq bo'lib, u 1069-yili katta ta'sirga ega bo'lgan amaldorlar yordami bilan imperatorning eng yaqin yordamchisi bo'lib qolgan Fan Chjun'yan kabi Van Anshi ham Osmon o'g'lini o'z niyatlarini amalga oshirishning eng muhim tayanchi deb hisoblagan, islohotlarni esa qadimiy konfutsiylik ta'limotidan kelib chiqib asoslagan. Shu bilan birga Van Anshiga kuchli va boy markazlashgan davlat tuzishning legistik g'oyalari ham anchayin ta'sir ko'rsatgan. Ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatishga intilib Van Anshi g'aznaning dehqonlarga maqbul sharoitlarda kelgusi hosil garovi ostida pul ssudasi berilishini taklif etganki, bu shubxasiz sudxo'rlar manfaatlarini kamsitgan bo'lur edi.

Mehnat majburiyatlarini o'tashning ilgarigi tartiblari o'zgartirilgan: ularni pul solig'i bilan almashtirilganki, uni ilgari majburiyatlardan ozod etilgan hukmron tabaqaning ba'zi vakillari ham to'lashlari lozim edi. Soliqqa tortishni tartibga solish uchun yirik xususiy

mulkdorlarning g'aznadan yashirib yurgan yerlari o'lchab chiqilgan. Dehqonlar bilan bir qatorda mayda tijoratchilarga ham yirik tijoratchilar raqobatiga dosh ber olishlari uchun pul ssudalarining ajratilishi savdo sohasida yangilik bo'lib qolgan. Mamlakatdagi barcha savdo ishlari maxsus davlat boshqarmalari tomonidan tuzilgan g'azna nazorati ostida olib borilishi lozim edi. Hunarmandlarning mehnat majburiyatlari pul to'lovi bilan almashtiriladi.

Garchi sudxo'rlar, yirik savdogarlar, yirik yer egalariining manfaatlari kamsitilgan bo'lsa-da, xalq ommasi bundan hech narsa yutmagan, binobarin hammaning bir-biriga kafilligini o'rnatgan islohotlar davlat nazoratini yirik yer egalari, savdogarlar va sudxo'rlar ustidan qanchalik kuchaytirgan bo'lsa, dehqonlar, savdo-hunarmand aholi quyi qatlamlari ustidan ham shunchalik qattiq lashtirgan. Islohotlarning mohiyati g'azna daromadlarini dehqonchilikdan soliqlarni, xususiy savdo va xususiy tadbirkorlikni kamsitishi yo'li bilan davlat savdosi va hunarmandchilikdan olinadigan mablag'larni uzluksiz oqib turishi hisobiga to'ldirishga intilishdan iborat bo'lgan. Bu esa islohotlarning barbod bo'lishiga olib kelgan. Uning dushmanlari sudxo'rlar, yirik yer egalari va yirik savdogarlar orasida qanchalik xaddan tashqari ko'p bo'lgan bo'lsa, shahar va qishloq aholisining keng qatlamlari orasida ham shunchalik ko'p bo'lgan.

Muxolifatga tarixchi Sima Guan, shoir Su Shilar boshchilik qilishgan. Mustabid davlat sharoitida siyosiy kurash u yoki bu yetakchining guruhlarini o'rtasidagi to'qnashuvlar sifatida avj olib ketgan. Uning borishida konfutsiylik ta'limotidan kelib chiqqan siyosiy munozaraning an'anaviy shaklidan keng foydalanilgan. 1077-yili Van Anshi islohotchilik guruhi orasida chuqur kelishmovchiliklar vaziyatida istefoga chiqishga majbur bo'lgan, biroq islohotlarni o'tkazish bir necha o'n -yillar davom ettirilgan.

Bilimlarning rivojlanishi. X-XII asrlarda Xitoy jamiyatida ilmiy bilimlarning sezilarli darajada rivojlanishi kuzatildi. Inson tabiati va fiziologiyasi haqidagi fanlar ayniqsa yuqori cho'qqiga chiqdi. Bilimlarning tarqalishida o'yama doska (ksilografiya)dan kitob bosish katta rol o'ynaydi. Ksilografiyaning paydo bo'lishi ta'limini

arzonlashtirgan va savodxonlikning kengayishiga imkoniyat yaratgan. 1041-1048-yillarda harakatlanuvchi shrift kashf etilgan, biroq iyeroglif yozuvi tufayli u urfga kirmagan, o‘yima doskalarda bosish ko‘proq qulay bo‘lgan. Siyosiy traktatlar, publitsistik asarlar va geografik tavsiflar keng nashr etila borgan. Ularni o‘quvchilar doirasi kengaygan. Davlat va xususiy bosmaxonalar, kitob do‘konlari ochilgan, xususiy va davlat kutbxonalari bunyod etilgan, maktab ta‘limi rivojlangan. Saroy kutbxonalari qadimiyatga doir mumtoz asarlar va tarixiy asarlarni sharhlab berish, nashr etish bo‘yicha turli ishlar olib borilgan.

Qog‘oz ishlab chiqarishning o‘sishi, ksilografiyaning gullab-yashnashi, nihoyat, komunikatsiyalarning rivojlanishi Kayfin va Xanchjouda “Poytaxt axboroti” tipidagi markazlashgan gazeta organini tuzish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Ushbu nashr saroy hayoti hodisalari haqida axborat bergan, imperator farmonlari, joylardan ma‘ruzalarni e‘lon qilgan.

Ensiklopedist-olimlarning faoliyati shu davrga ta‘luqlidir. Mashhur olim Shen Ko (1030-1093) ilmiy izlanishlarini amaliy faoliyat bilan muvaffaqiyatli qo‘shib olib borgan. XII asr boshlarida Chjen Syao rahbarligi ostida bilimlarning turli-tuman sohalari bo‘yicha ma‘lumot beruvchi “Umumiy sharh” asari yaratilgan. Szya Syan hisob san‘ati to‘g‘risida asar yaratgan. Shao Yun butun olam rivojlanishi nazariyasini ilgari surgan va kasalliklarni davolashning yangi metodlarini taklif qilgan.

Dipolmatik, madaniy va savdo missiyalari bilan elchiliklarning kelishlar xitoyliklarning o‘zga mamlakatlar va Xitoyning eng yaqin qo‘shnilari haqidagi tasavvurlarini kengaytirdi. Geografik asarlarning yangi janri-imperiyaning alohida joylarini tavsifi paydo bo‘ldi. Bir qancha yangiliklar: xususan harbiy ishda porox, magnitli strelka dengiz ishida, suv soatlari qo‘llana boshladi. Tibbiyotning alohida sohalari bo‘yicha ko‘plab asarlar paydo bo‘ldi. Ularni nashr etish uchun alohida qo‘mita tuzildi. Astronomiya, matematika, botanika, geologiya bo‘yicha ko‘p jildli asarlar yaratiladi. Biroq gumanitar sohadagi bilimlar ilgarigidek ustun bo‘lib qolavergan.

O‘tkir ijtimoiy qarama-qarshiliklar, jamiyat kuchlarining kurashi adabiyot, publitsistika, poeziyada o‘z aksini topgan. Badiiy asarlarda yirik yer egaligi bilan bog‘liq tartiblar tanqid qilingan, jabr-zulmga qarshi ijtimoiy sabablar va noroziliklar ifodalangan. Inson shaxsiga katta qiziqish namoyon bo‘la boshlagan. Xitoy poeziyasini yangilash uchun harakatga taniqli olim va shoir Xan Yuuning izdoshi Ouyan Syu boshchilik qilgan. Van Anshi, shoir Su Shi, Mey Yaochen va boshqalar Ouyan Syuning shogirdlari bo‘lishgan. Adabiyotning demokratik janrlari rivojlangan. O‘rta asr shahar povestlari shahar hayotini aks ettirgan. Ma’lumotga ega bo‘lgan shaharliklar, savdogarlar, hunarmandlar, quyi tabaqadan chiqqan kishilar povestlar qahramonlari bo‘lishgan.

Chjurchjenlar va mo‘g‘ullar istilosi. Iqtisoliy va siyosiy islohotlarining barbod bo‘lishi ichki qarama-qarshiliklarni keskinlashtirib sun imperiyasini zaiflashishiga olib kelgan. Hokimiyat tepasida eng konservativ va korrupsiyalashgan guruhlarning vakillari turganlar. Bevosita ishlab-chiqaruvchilarga zulm o‘tkazish kuchaygan. Dehqon xo‘jaligi butkul xonavayron bo‘lish arafasida edi. Bu mushkulotlarga yangilari qo‘shilgan, chunonchi, hukmorn tabaqa qo‘shni “varvarlar” bilan tinchlikka xalq hisobidan ulkan o‘lpon to‘lash bilan erishishni afzal ko‘rgan. Xitoy hukumati katta qiyinchiliklarni boshidan kechirgani holda o‘lpon to‘lashdan qutilish usullarini izlashga majbur bo‘lib, chjurchjenlar bilan muzokaralarni boshlagan. Xitoyning hozirgi shimoli-sharqiy muzofotlari hududlarining bir qismida yashovchi qabilalar chorvachilik, ovchilik bilan shug‘ullanishgan va azaldan Xitoy bilan ipak, temir va qurollar evaziga otlar, teri, suvsar, jenshen ildizi va daryo marvaridi yetkazib berib savdo qilishgan. Biroq kidanlarning Lyao davlati chjurchjenlarni bo‘ysundirishi bilan ularning Xitoy bilan aloqalari qiyinlashgan. Chjurchjenlarda ibtidoiy-jamoa tuzumining buzulishi uzoqqa cho‘zilgan ichki kurashlar keltirib chiqargan. Ularda hokimiyatni qabila zodagonlari egallab olgan. Uning yo‘lboshchisi Aguda 1115-yili Szin (oltin) davlatining imperatori deb e‘lon qilingan. Chjurchjenlar bu vaqtga kelib zaiflashib qolgan Lyao

imperiyaiga qarshi istilochilik urushlarini boshlaganlar. 1120 -yili sunlar Lyaoga qarshi chjurchjenlar bilan harbiy bitim tuzgan.

1115-1125-yillarda chjurchjenlar Lyao imperiyasini tor-mor keltirganlar. Kidanlarning katta qismi jismonan qirib tashlanishiga duchor qilingan. Istilochilardan omon qolgan kidanlarning va ularga ilgari itoatda bo'lgan qabilalarning alohida otryadlari g'arb tomon ketadilar va Issiq Ko'l rayonida G'arbiy Lyao kara kidanlar (qoraxitoylar) davlatiga asos solganlar.

Urushda sunlar xonadonining notavonligi va uning qo'shinlarini zaifligi ayon bo'lgan. Bundan foydalangan chjurchjenlar shimoliy xitoy yerlariga kirganlar. 1126-yilning baxorida ularning otliq qo'shini Xuanxega yaqinlashib kelib, Kayfinga xavf sola boshlaganlar.

Imperator hokimiyatida szinlar bilan Xuanxedan shimoldagi yerlarni ularga berish evaziga sulh tuzish tarafdorlari ustunlikka erishganlar. Bu esa ko'zga ko'ringan shaharliklar va amaldorlarning noroziligini qo'zg'agan, ularni oddiy hunarmandlar va tijoratchilar, xalfalar hamda atrofdagi qishloqlar aholisi qo'llab-quvvatlagan. Yetakchi lavozimlarga chjurchjenlarga qarshi zarba berishni yoqlovchilar chiqqanlar. Biroq ko'p o'tmay vaziyat o'zgargan. Sunlar saroyi chjurchjenlar bilan kurash uchun harbiy tay.y.orgarliklarni to'xtatib, szin sarkardalari bilan muzokaralar boshlagan. 1127-yili chjurchjenlar Kayfinga yangidan yaqinlashib kelganlar va uni egallaganlar. Imperator dushman qoshiga sulh so'rab borgan, ammo asirga olingan. Chjurchjenlar janubga yopirilganlar. Kanal bo'ylab harakatlana borib, ular Yanchjou shahrini yondirganlar. Keyinroq chjurchjenlar otliq qo'shinlari qayiqlarda Yanszi daryosining janubiy qirg'og'iga o'tganlar va xitoy imperatorini qochib qutulishga majbur etganlar.

Kayfinni egallanishi bilan szinlar yuqori doiralari xanslarni boshqarishning siyosiy tajribasining yetishmasligini va o'z harbiy qudratining zaifligini hisobga olib, shimoliy Xuanxeda mustahkamlanib olishga qaror qilganlar, undan janubda esa 1127-yili sobiq sun amaldori boshchiligida vaqtinchalik qo'g'irchoq qaram davlatni tuzganlar. Biroq Xitoyning janubini istilo etish uchun asos bo'lish lozim bo'lgan davlat

chekka hududlarning qo‘llab-quvvatlashiga ega bo‘lmagan. Shu -yiliyoq janubda Sunlar xonadoni hokimiyati qayta tiklangan. Uzoq davom etgan sargardonlikdan so‘ng imperator xonadoni sulolaning janubiy poytaxti bo‘lib qolgan Xanchjouda o‘rnashib olgan.

Xenan, Shan’dun, Shansi muzofotlarida chjurchjenlar xitoy xalqining kuchli qarshi zarbasiga uchraganlar va shimolga qaytib ketishga majbur bo‘lganlar.

1130-1137-yillarda sunlar bilan kurashish uchun chjurchjenlar hozirgi Shan’dun, Shansi, Xenan muzofotlarida, shuningdek Anxoy va Szinsi muzofotlari shimoliy qismida Si bufur davlatini tuzganlar va Sunlarning asosiy tayanchi bo‘lgan Yanszi quyi oqimi rayoniga asosiy zarbani yo‘naltirganlar. Bu vaqtda janubiy sun saroyi vazirlari o‘rtasida Szinlar tomonidan bosib olingan Xitoy yerlarini urush bilan qaytarib olish usullari yuzasidan kurash ketgan. Keng omma va hukmron tabaqa ayrim vakillari istilochilarga qarshilik ko‘rsatgan. 30-yillarda Xenandan chiqqan Yue Fey (1103-1141) eng mashhur sarkarda bo‘lib qolgan.

1136-yili Szinlar davlati sunlar bilan aloqa bog‘lagan. Xitoy tomoni bu taklifga xayrixohlik ko‘rsatgan. 1135-1136-yillarda birinchi vazir etib tinch muzokaralar tarafdori bo‘lgan, kuchlarning real nisbatini hisobga oluvchi Szin Guy tayinlangan. Sunlar harbiy kompaniyalarni davom ettirish holatida bo‘lmaganlar. G‘azna harajatlarning og‘ir yukini bazo‘r ko‘tarib turgan edi. Bundan tashqari imperator nazdida ayrim harbiy sarkardalar, shu jumladan Yue Fey haddan tashqari o‘zboshimchalikni namoyon eta boshlagan va keyinchalik saroy nazoratidan chiqib ketishlari mumkin edi. Yue Fey qo‘shini Shimoliy Xitoyda chjurchjenlarga bir qator jiddiy zarbalar bergan, biroq Yue Feyga poytaxtga yetib va armiyani olib ketish buyrug‘i kelgan. 1141-yili Xanchjouga kelgan Yue Fey qamoqqa olingan va xufiyonona qatl qilingan.

1142-yili uzoq davom etgan urushlar va murakkab diplomatik muzokaralardan so‘ng tinchlik shartnomasi tuzilgan. Xitoy imperatori o‘zini szinlar hukmdorining vassali deb tan olgan va har -yili 300 ming ipak va 300 ming kumush yombisi bilan o‘lpon to‘lab turishi lozim bo‘lgan. Ikki imperiya o‘rtasidagi chegara Xuayshuy daryosi bo‘ylab

ketgan. Sunlar saroyi chjurchjenlarning ular tomonidan bosib olingan yerlariga bo‘lgan huquqlarini e‘tirof etishgan. Bunday shartnomalar 1164-1168-yillarda va 1208-yilda ham tuzilgan.

Yue Fey haqidagi xotiralar xalq qalbida yashashda davom etgan. Uning qatlidan 60-yildan so‘ng unga yuqori unvon berishgan va uning sharafiga ibodatxona bunyod etishgan. Sun va Szin davlatlari o‘rtasidagi real kuchlar nisbatini hisobga oluvchi siyosatchi Sin Guyga kelsak, u xalq ommasi ongi-shururida shafqatsiz va sotqin amaldor ramzi bo‘lib qoldi. Unga berilgan bunday baho “varvarlar bilan sharmandali sulh” tuzganligi uchun uning aybdorligi haqidagi ortodoksal tarixshunoslik tasavvurlaridan kelib chiqqan desak xato bo‘lmaydi.

XII asrda hozirgi Xitoy hududida to‘rtta davlat, xususan shimolda Szin-chjurchjenlar imperiyasi, shimoli-g‘arbda Si Sya-tangutlar davlati, janubda Sunlar imperiyasi va Yunnandagi Nanchjao (Dali) davlat birlashmalari mavjud bo‘lgan.

XIII asrda ko‘chmanchilarning yangi bostirib kirishlari sodir bo‘ladi. 1211-yili Chingizxon qo‘shinlari Shansiga kiradilar. Bungacha mo‘g‘ul zamindorlari G‘arbiy Sya tangut davlatiga qarshi urush boshlagan edilar, biroq katta qarshilikka uchraydilar.

XII asr oxiri XIII asr boshlariga kelib Szin imperiyasida katta o‘zgarishlar ro‘y bergan. Chjurchjenlarning salmoqli qismi o‘troq turmush tarziga o‘tib, ziroatchilik bilan shug‘ulana boshlagan. Chjurchjen elatida feodallashuv jarayoni yuz bergan va uning ichidagi qarama-qarshiliklar keskinlashgan. Chjurchjenlar yagon birdamlik va ilgarigi jangavor layoqatlarini yo‘qotganlar. Mo‘g‘ullar bilan urushdagi ularning mag‘lubiyatlari sabablaridan biri shunda edi.

Sunlar hukumati mo‘g‘ullardan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga intilib, Chingizxon bilan bitim tuzgan va chjurchjenlarga o‘lpon to‘lashni to‘xtatgan. Urush uzoqqa cho‘zilgan. 1215-yili Chingizxon uzoq qamaldan so‘ng Pekin shahrini egallagan. Uning sarkardalari o‘z qo‘shinlarini Shandunga olib ketganlar. Qo‘shinlarning qismlari shimoli-sharq, Koreya yo‘nalishida harakat qilganlar. biroq mo‘g‘ul qo‘shinlarining asosiy kuchlari o‘z yurtlariga qaytganlar, shu yerdan 1218-yili G‘arbga yurish boshlaganlar.

Mo'g'ullar tomonidan G'arbiy Sya tangut davlatining istilo qilinishi 1227-yili yakuniga yetgan, tangutlar deyarli yoppasiga qilichdan o'tkazilgan. G'arbiy Syani yo'q qilinishida Chingizxonning o'zi qatnashgan va bu yurishdan uyga qaytayotganida vafot etgan.

Shimoliy Xitoydagi urush 1234-yilgacha davom etgan va chjurchjenlar podsholigini tor-mor qilinishi bilan tugagan. Mamlakat daxshatli darajada ship-shiydon qilingan.

Muay.y.an vaqt o'tib ko'chmanchi-mo'g'ullar avvaliga yaylovlarga aylantirishni mo'ljallagan istilo qilingan hududlar aholisini yoppasiga qirib tashlashdan voz kechganlar.

Chingizxonning maslahatchisi kidanlik Yelyuy Chutsay va mo'g'ul imperiyasi asoschisi vorislarining xitoylik maslahatchilari o'z homiylariga aholini ekspluatatsiya qilishning sinalgan shakllarini taklif qilganlar. Imperator Xitoydagi barcha ma'lum bo'lgan ekspluatatsiya tizimlaridan foydalanganlar.

Chjurchjenlar bilan urushni tugatganlaridan so'ng xonlar mo'g'ullar istilosi xavfini xisobga olib Chingizxon bilan bir vaqtlar tuzilgan bitimni allaqachon buzib bo'lgan janubiy sunlarga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yuborganlar.

Janubiy Xitoyda XII-XIII asrlarda ekin maydonlari kengaygan va dalalarga ishlov berish yaxshilangan. Eng yaxshi yerlar zamindorlar tomonidan egallab olgan. Bundan tashqari hukumat xususiy shaxslarni davlat yerlarini sotib olishga majbur qilgan. Dehqonlarning davlat qo'lida bo'lishi tizimi deyarli tugatilgan. Dehqonlar zamindorlardan asoratli shartlar bilan yer olib ekanlar, shu bois qashshoqlikda kun kechirganlar.

Garchi feodal cheklovlar va katta miqdorla qog'oz pullarning chiqarilishi shahar xo'jaligini gullab-yashnashiga to'sqinlik qilsa-da, Sun imperiyasida shahar hunarmadchiligi va savdosi (ayniqsa tashqi savdo) keng rivoj topgan. Mo'g'ul qo'shinlari sun imperiyasi sarhadlariga bostirib kira boshlashlari bilanoq, shaharliklarning qattiq qarshiligiga uchranganlar. Qamal qilingan shaharlar o'zlarini astoydil himoya qilganlar. Jangchilarning ko'p otryadlari ko'ngillilardan iborat bo'lgan. Mo'g'ul xonlar Sun davlatiga qarshi janubda 1235-yili harbiy

harakatlarni boshlaganlar, biroq muvaffaqiyat qozonmaganlar. 1251-yili Xitoyga Xubilay boshchiligida katta qo‘shin yuborishga qaror qilganlar. Biroq Xubilay ham janubiy Xitoyda Sunlarning kattiq qarshiligiga uchrab, katta muvaffaqiyatga erishmagan. Yurishlardan birida xon Munqa ishtirok etgan va Sichuandagi janglardan birida halok bo‘lgan. Mo‘g‘ullar uch tomondan: shimol, g‘arb va janubdan xujum harakatlarini olib yuorganlar. Ular o‘zlariga Tibetni va Nanchjao davlatini itoat ettirganlar. Biroq ular janubiy sunlar poytaxti Xanchjouni 1279-yilga kelibgina egallashga muvaffaq bo‘lganlar, urush bu bilan tugamagan, ko‘ngilliylar otryadlari kurashni davom ettirganlar. Ular ichida yirik amaldor Ven Tyansyan boshchiligidagi qo‘shin ayniqsa nom qozongan. Uzoq davom etgan Szyansining muvaffaqiyatli mudofasidan so‘ng bu qo‘shin nihoyat mag‘lubiyatga uchragan, Ven Tyansyaning o‘zi asirga olingan, ammo Xubilay xizmatiga o‘tishga rozi bo‘lmay o‘limni afzal ko‘rgan. Ven Tyansyan tomonidan qamoqdaligida ijod qilingan vatanparvarlik ruxidagi she‘r va qo‘shiqlar keng ovoza bo‘lgan.

Xitoyning barcha hududi Mo‘g‘uliston bilan birga yangi Mo‘g‘ul imperiyasi tarkibiga kirgan, uning hukmdori Xubilay poytaxtni Qoraqurumdan Pekinga ko‘chirgan. Xubilay sulolasi Yuan nomini olgan.

Xitoy mo‘g‘ullar zulmi ostida. Itoat ettirilgan xitoyda mo‘g‘ullar turli imtiyozlardan foydalanganlar, butun aholining “hayot yoki mamoti” ularning qo‘lida bo‘lgan. Xizmat uchun jalb etilgan ajnabiylar bir pog‘ona pastda turishgan. Shimoliy xitoyliklar, chjurchjenlar va kidanlar itoat ettirilgan huquqsiz holatda bo‘lganlar. Bu zinapoyaning eng quyi qismida yanada mazlum Xitoyning Janub aholisi turgan.

Istilochilar ulkan yer maydonlarini egallab olganlar. Ekin ekiladigan ko‘p yerlar unga birlashtirilgan dehqonlari bilan birga, yer-mulklar, butun-butun qishloqlarni buyuk xon mo‘g‘ul zamindorlariga, ular xizmatiga o‘tgan xitoyliklarga, mo‘g‘ul va budda ibodatxonalariga taqsimlab bergan.

Mo‘g‘ul zamindor-no‘yonlari udel mulklaridan renta soliq olganlar. Hukmron tabaqaning bir qismi “amaldorlik” yerlaridan

daromad olganlar. Unga katta bo‘lmagan, asosan Shimoldagi yer maydonlarigina davlatniki hisoblangan.

Sun imperiyasida ko‘pchilik yerlar oldi-sotdi va meros qoldirish huquqi bilan xitoy mulkdorlariga qoldirilgan, biroq Janubda soliqlar Shimolga nisbatan ancha og‘ir bo‘lgan.

Istilochilarning bunday siyosati zaif xo‘jaliklarning xonavayron bo‘lishiga va dehqonlarning ham yerlarini ibodatxonalar va katta ta’sirga ega bo‘lgan oilalar tomonidan egallab olinishiga imkon yaratgan.

Mo‘g‘ullar tomonidan Xitoyni zabt etilishi asnosida ko‘plab odamlar tutqun holatiga tushib qolganlar. Ulardan qishloq va uy xo‘jaligida, hunarmandchilik ishlarida foydalanganlar. Dyanxu va Kexu ya’ni xususiy yer tutuvchilarning ahvoli biroz yengilroq bo‘lgan. Ular hosilning katta qismini yer egalar-zamindorlar, amaldorlar, ibodatxonalar xitoylik pomeschchiklarga berishgan, ular uchun shoyi to‘qiganlar va boshqa majburiyatlar o‘tashgan. Dehqonlarning faqat juda kichik bir guruhigina davlat yeridan foydalanuvchilar, soliq to‘lovchilar va mustaqil dehqonchilik qiluvchilar sifatida saqlanib qolgan. Dehqonlar to‘g‘onlar qurganlar, kanallar qaziganlar, yo‘lni to‘g‘irlaganlar, qo‘shinda xizmat qilganlar uchun soliq to‘laganlar, jangchilarni boqqanlar. Mo‘g‘ul zamindorlari qishloqni tashkil etishda Xitoy tizimidan keng foydalanganlar. Hammaning bir-biriga kafilligi kuchaygan. Og‘irlik markazi jamoa-xonadon ustiga o‘tkazilgan, oqsoqollar saylovi tayinlov bilan almashtirilgan. Oqsoqol va mingboshilarning politsiyaviy funksiyalari kengaytirilgan. Bu barcha chora-tadbirlar mayda va o‘rta yer egallari hayotini teng hvolga solgan, ularni xo‘jalik tashabbuskorligidan maxrum etgan. Ziroatchilarning mushkul ahvollari mo‘g‘ullar tomonidan soliqlarni otkup tizimini choriy etilishi va hokimiyatda otkupshik-sudho‘rlarning bo‘lishlari munosabati bilan ham kuchaygan.

Shaharliklarning ahvoli ayniqsa og‘ir bo‘lib qolgan. Chingizxon Xitoydan ketar ekan, ko‘plab hunarmandlarni Mo‘g‘ulistonga olib ketgan. Hunarmandlar ko‘p hollarda o‘zlarining an’anaviy hunarlarini tashlab, mo‘g‘ul otliqlari uchun yarog‘-aslaha, egar va ularga kumush

bezaklar tay.y.orlab berishlari lozim bo'lgan. Ko'p hunarmandlar bandilarga aylanib, zodagonlar yoki budda ibodatxonalariga tegishli bo'lgan ustaxonalarda ishlashgan. Sex hunarmandlari og'ir soliqlarga tortilganlar. Bundan tashqari ularni o'z mahsulotlarining bir qismini berishga, garnizonga bepul ishlashga majbur etganlar. Savdogarlar va ularning tashkilotlari ham og'ir soliqlarga tortilishgan, maxsus bojlar to'lashgan. Xitoy savdogarlari maxsus ruxsatsiz tovarlarini birjoydan boshqa joyga olib borish imkoniyatidan maxrum bo'lganlar.

Mo'g'ullar hokimiyatining moliya siyosati dehqon, hunarmand va savdogarlarning ahvolini yanada yomonlashtirgan. Qog'oz pullarni tiyiqsiz tarzda chiqarilishi XIV asrda misli ko'rilmagan darajaga yetgan va pulning qadsizlanishiga olib kelgan, natijada tovarlarning bahosi keskin ko'tarilib ketgan.

Boshqaruvning Xitoy tizimini qabul qilgan holda Xubilay ayni vaqtda avval boshdanoq Xitoyning hukmron tabaqasini boshqaruv ishidan chetlashtirgan. Chunonchi, moliya ishlarini Ahmad ismli o'zbek boshqargan; harbiy boshliqlar bo'lib Nosiriddin, Masargiyalar xizmat qilishgan. Pekinga 5 ming nafar xristian ko'chib kelgan. Savdo maqsadlari bilan Uzoq Sharqqa kelgan, Venetsiyalik savdogarning o'g'li Marko Polo saroyda katta lavozimlarni egallagan. U Xitoy va uning qo'shnilari to'g'risida ulkan ma'lumot to'plashga muvaffaq bo'lgan. Mazkur qimmatli ma'lumotlar uning "Marko Polo" kitobi nomli asarida o'z ifodasini topgan.

Xitoy tilini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga uchragan mo'g'ullar "kvadrat yozuv"ni kashf etganlar, biroq ular irogliflarni almashtirishga muvaffaq bo'lmaganlar.

Xubilayga xizmat qilgan xitoyliklar, uning boshqaruvidan norozi bo'lganlar isyonlar ko'targanlar. 1282-yili poytaxtda Xubilayning yo'qligida kuch qudratda cheksiz Ahmadni o'ldirishgan. Chet elliklar asta-sekin mamlakatni tark eta boradilar. Yuan sulolasi hukmdorlari-Xubilay vorislari Xitoyning hukmron tabaqasi bilan hamkorlik yo'liga o'tishga va davlat muassasalarini xitoylik amaldorlar bilan to'ldirishga majbur bo'lganlar. 1317-yili an'anaviy imtixon qilish tizimini

tiklaganlar. Biroq mo'g'ul zamindorlari faqatgina yuqori lavozimlarni egallaganlar.

Davlat vujudga kelishi davrida mo'g'ullar shamanlik diniga e'tiqod qilganlar va barcha diniy e'tiqodlarga murosasozlik bilan munosabatda bo'lganlar. Chingizxon xatto dao donishmandlarini o'z huzuriga taklif qilgan. Ammo keyinroq xonlar budda cherkovining qo'llab-quvvatlashiga tayanganlar va ibodatxonalarga katta-katta yerlarni bo'lib berganlar. Mo'g'ullar daoslarni ta'qib qilganlar va ularning ko'p kitoblarini yondirib yuborganlar.

Xubilay janubiy xitoyliklar bilan urushni davom ettirgani holda o'z bosqinchiligini sharqqa yo'naltirgan. 1274-yili, keyin esa 1281-yilda u yaponiyani itoat ettirish uchun harbiy dengiz ekspeditsiyalariga otlantirgan. Biroq uning flotiyalari yapon orollariga yetib bormayoq bo'ronda xalok bo'lganlar. Yuan imperatorlarining istilochilik intilishlari janubga qaratilgan. XIII asrning 50-yillaridanoq Xubilay qo'shinlari Dayvatga bostirib kirib, qarshi zarbaga uchrashgan edilar. 80-yillarda xon yana mamlakatni istilo etish choralari ko'radi, biroq u yerda bu -yillarda shiddatli partizanlar urushi boshlanib ketgan. Janubdagi dandargohlarni qo'lga kiritish uchun yuborilgan Xitoy floti Qizil daryo deltasida cho'ktirilib yuborilgan. Mo'g'ul harbiy boshliqlari o'z qo'shinlarining qolgan qutganlarini shimolga olib ketganlar. 1289 -yili ikki mamlakat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar tiklangan.

Xubilay vorislari birmuncha vaqt yana faol tashqi siyosat yuritishni davom ettirganlar. XIII asr 90-yillarida Yava oroliga harbiy dengiz ekspeditsiyasi uyushtirilgan. Mo'g'ul qo'shinlarining zaiflashishi bilan yuan imperatorlari istilolardan voz kechganlar.

Xalq qo'zg'olonlari va mo'g'ullar zulmiga barham berilishi. XIV asr o'rtalariga kelib Yuan imperiyasining iqtisodiyoti tushkunlikka uchragan. Hokimiyat ma'murlarining siyosati ayniqsa shaharlar hayoti va Shimoliy Xitoy qishloq xo'jaligiga vayronkor ta'sir ko'rsatgan. Tabiiy ofatlar, daryolar toshqinlari, Xuanxe o'zanining o'zgarishi, ulkan tekisliklarni suv ostida qolishi ekin maydonlarini qisqartirgan va ziroatchilarni butkul halokatga, xonavayron bo'lishga olib kelgan. Shahar bozorlari xuvillab qolgan, hunarmandlarning ustaxonalari va

do'konlari yopilgan. G'azna natural tushumlarning qisqarishi o'rnini yangi qog'oz pullar chiqarish bilan to'ldirgan, bu esa hunarmandlar, savdo kompaniyalari va sudho'rlarning xonavayron bo'lishiga olib kelgan.

Mamlakatdagi vaziyat favqulodda keskinlashgan. Yuan hokimiyati xalq qaxr-g'azabini ommaviy portlashidan xovotirlanib, raiyatga qurol saqlashni ta'qiqлагan. Saroyda xatto xitoyliklarning katta qismi-beshta eng ko'p tarqalgan familiyaga ega bo'lgan kishilarni qirib yuborish loyihasini ishlab chiqqanlar. Xalq ommasi zulmning kuchayishiga ko'plab chiqishlari bilan javob qaytargan, ular ayniqsa XIV asrning 30 -yillarida tez-tez sodir bo'lib turgan.

Hamma joyda dehqonlar qo'lga qurol olganlar. Ularni shaharliklar va janubiy rayonlar elatlari qo'llab-quvvatlaganlar. Bosqinchilarga bo'lgan nafrat xalq ichida kuylanadigan qo'shiqlarda ham, daydi baxshilar hikoyalarida ham ifodasini topgan. Yengib bo'lmas qahramonlar, shuhrat qozongan sarkardalar, dovyurak pahlavonlar va odil kishilar haqidagi hikoyalar ayniqsa keng yoyilgan edi. Shu mavzularda teatr tomoshalari qo'yilgan. Aynan o'sha vaqtlarda Xitoy sarkardalarining harbiy jasorati, yengish malakalari va mislsiz mahoratlari ifodalangan "Uch podshohlik" romani paydo bo'lgan. Astrolog-olimlar samodagi mudxish alomatlardan xabar qilganlar, folbinlar esa ajnabiy hokimiyatining halokatini bashorat qilganlar.

Turli oqim va yo'nalishdagi maxfiy diniy ta'limotlar orasida "kelajak buddasi"-Maytreyn (Milefo)ning kelishi va yangi baxtli eraning boshlanishi haqidagi messianlik g'oyasi ayniqsa keng yoyilgan edi. Maxfiy buddaviylik tariqatidagi "Oq nilufar jamiyati" o'zining diniy aqidalarini bosqinchilarga qarshi kurashga chaqirishlar bilan to'ldirgan va "qizil qo'shinlar" (qizil rang Maytreynning ramzi edi)-dehqonlar otryadlarini shakllantirgan. 1351-yili hokimiyat ma'murlari Xuanxe daryosidagi to'g'on qurilishiga minglab dehqonlarni haydab kelish bilan qo'zg'olon boshlanib, ommaviy xarakter kasb etgan, unga ziroatchilar, tuz tayorlovchilar, shaharlar aholisi, baqqollar, hukmron tabaqa quyiqatlamlari vakillari qo'shilganlar. Harakat Yuan sulolasi hokimiyatini ag'darib tashlab, mo'g'ullar zulmiga barham berish

maqsadini, “Oq ilufar jamiyati” Xitoy davlatini qayta yaratish va Sun sulolasi hokimiyatini qayta tiklash g‘oyasini ilgari surgan. Xan Shantun degan odam bir vaqtlar podshohlik xonadoni avlodi va sun imperatori deb e’lon qilingan. Harbiy harakat rahbarligini maxfiy birodarlar tashkiloti yo‘lboshchilaridan biri Lyu Futun o‘z qo‘liga olgan.

“Qizil qo‘shinlar” qo‘zg‘oloni Maytreynning kelishini targ‘ib qilish joyi Markaziy Xitoyni ham qamrab olgan. Stixiyali tarzda vujudga kelgan otryadlar asosiy ommasini dehqonlar tashkil etgan. Biroq mamlakatning bu iqtisodiy rivojlangan rayonida shaharliklar ham, qisman esa hukmron tabaqaning quyi qatlamlari ham sezilarli rol o‘ynaganlar. Qo‘zg‘olon ko‘taruvchilar Yuan hokimiyatiga va yirik mahalliy yer egalariga qarshi faoliyat ko‘rsatib Yanszi vodiysi bo‘ylab Chjeetszyan, Szyansi va Xubey muzofotlariga muvaffaqiyatli yurishlar uyushtirganlar. Anxuy muzofotida qo‘zg‘olonchilar otasi bashoratchi bo‘lgan Go Szyasin boshchilik qilgan. Unga Chju Yuanchjanning uncha katta bo‘lmagan otryadi kelib qo‘shilgan. 1355-yili Go Szyasin o‘limidan so‘ng otryadga qo‘mondonlikni Chju Yuanchjan o‘z zimmasiga olgan. Bu muzofotning qo‘zg‘olonchilari “qizil qo‘shinlar” harakati bilan aloqador bo‘lib, sunlar taxtiga da’vogarni e’tirof etganlar.

“Qizil qo‘shinlar” va dehqonlarning zamindorlarga qarshi boshqa qo‘zg‘olonlarining yirik muvaffaqiyatlari mo‘g‘ullar va xitoyliklarning hukmron tabaqalari kuchlarini birlashtirishga undagan. Ular yirik harbiy otryadlar tuzib, yuqori lavozimlarga Xitoy zamindorlarini tayinlaganlar, qo‘zg‘olonchilarga qarshi saralangan imperator qo‘shinlarini yuborganlar. “Qizil qo‘shinlar” otryadlari jiddiy talofatlar ko‘rganlar. 1363-yili Lyu Futunning asosiy kuchlari tor-mor qilingan, uning o‘zi halok bo‘lgan. Uning otryadini bir qismi Shensi orqali Sichuanga o‘tib ketgan, qolganlari

Chju Yuanchjanga qo‘shilishgan, ko‘p qo‘zg‘olonchilar jangda halok bo‘lishgan. Shu orada Markaziy Xitoyda mo‘g‘ullarga qarshi harakat mustahkamlanishda davom etgan. Chju Yuanchjan Nankinda o‘rnashib olgan. Zero, bu o‘lkada zamindorlar Yuanlar hokimiyatini qo‘lamaganlar va mo‘g‘ullarga qarshi tomonga o‘tganlar. Shimolda

bo'lgani kabi, Chju Yuanchjan ulardan ko'plarini maslahatchi va yordamchilar sifatida qabul qilgan.

Raqiblari ustidan g'alaba qozongan Chju Yuanchjan qo'shinni Shimolga yuborgan va 1368-yili Pekin egallangan. Xitoyda hukmronlik qilgan so'nggi Chingizxon avlodi Shimolga qochgan. Nankinda yangi Min sulolasining imperatori deb e'lon qilingan Chju Yuanchjan mamlakat hududlarini yana qariyb 20-yil davomida zabt etgan.

Dastlabki Min hukmdorlarining ichki siyosati. Mo'g'ullar zulmi mamlakat xo'jaligining xonavayron qilgan. Boy shaharlar talon-taroj qilingan, ekin maydonlari qarovsiz qolib ketgan. Mehnat ahlining qashshoqligi misli ko'rilmagan ko'lam kasb etgan. Yersiz dehqonlar tog'larda, suvdagi qayiqlarda yashaganlar, har yerda sang'ib yurganlar. Chju Yuanchjanning olib borgan siyosati ikki yoqlama xarakterga ega bo'lgan, chunonchi uning amalga oshirgan chora-tadbirlari ziroatchilar va shaharliklarning ahvolini qisman yaxshilagan bo'lsa-da, ayni vaqtda davlat hokimiyatini va yirik yer egaligiga asoslangan tuzumni mustahkamlashga imkon yaratgan.

Konfutsiylik olimlarning maslahatlariga e'tibor berib Chju Yuanchjan nadel (chek) tizimini eslatuvchi agrar chora-tadbirlarni amalga oshirishga harakat qilgan. Bu agrar tuzumning ideallashtirgan konfutsiylik konsepsiyasi yerga nisbatan davlat mulkchiligi asosida ziroatchilar, soliq to'lovchilar va davlat o'rtasida bevosita munosabatlarni o'rnatishni ko'zda tutgan. Urushdan keyingi sharoitlarda ko'p yerlarni davlat yeri deb e'lon qilish nisbatan oson kechgan.

Hokimiyat tepasiga kelish vaqtida Chju Yuanchjanga tayanch bo'lgan Janubiy Xitoy zamindorlari o'z yerlarini xususiy mulkchilikda saqlab qolganlar. G'azna faqatgina Chju Yuanchjan raqiblari va uning qo'shnilariga qarshi kurashlarning xususiy mulklarinigina musodara etgan. Biroq bu choralar ham mulkdorlarni almashishini ko'zda tutmay, balki ularni bir qadar og'ir soliqlarga tortishni bildirar edi. Shimolda davlat yerlari ustuvor bo'lgan bo'lsa, Janubda xususiy yerlar ko'pchilikni tashkil etgan.

Davlat yerlarining asosiy qismi ekin maydonlariga ishlov berish, davlatga soliq to'lash va majburiyat o'tashlari lozim bo'lgan dehqonlarga umrbod foydalanishga berilgan. Ziroatchilar tut daraxtini yetishtirishlari va paxta ekishlari kerak edi. Tashlandiq, qarovsiz qolib ketgan yoki Buyuk tekislikda ilgari suv ostida qolgan yerlarga ishlov berish yoki chekka hududlarda qo'riq ochuvchi dehqonlar ayrim imtiyozlar olishgan, muay.y.an muddatga soliqlardan ozod qilinganlar. Chegarada va mamlakatning markazida harbiy va fuqoro manzilgohlar bunyod etilgan. Ularda ziroatchilar chek yer olib, davlatdan qarzga qishloq xo'jalik uskunalari, urug', ba'zan esa hosilning bir qismi yoki qo'shinda xizmat evaziga ish hayvoni olishlari mumkin eid.

To'g'onlar va sug'orish tarmoqlarini tiklash bo'yicha olib borilgan ishlar, ziroatchilarni rag'batlantirilishi, qullarni ozod qilinishi va dehqonlar ahvolini yengillashuvi qishloq xo'jaligi va butun iqtisodiyotning ko'tarilishiga imkon bergan. Minlar hukumati soliq apparatini tashkil etish to'g'risida har tomonlama g'amxo'rlik qilgan. Ro'yxatlar to'rtta nusxada uyezd boshqarmalarida va moliya idoralaridan tortib yuqori instansiyalarda saqlangan. Har tomonlama hisobni olib borilishi natijasida dehqonlar o'z turar joylariga biriktirib qo'yilganlar. Ularni ko'p sonli majburiyatlar tarmog'i chirmab olgan. Dehqonlar -yiliga ikki marta soliqlarni natural holida-guruch, tariq, bg'doy va tay.y.or gazlamalar bilan to'laganlar, bundan tashqari -yilda belgilangan miqdorda davlatga barshchina majburiyatini o'taganlar.

XIV asr oxiri va XV asr boshlarida qishloq xo'jaligining o'sishi, ekin maydonlarining kengayishi, aholi sonining ko'payishi kuzatilgan.

Biroq yerlarning egallab olishning boshlanishi bilan hukmron tabaqa tobora o'z pozitsiyalarini mustahkamlashi lozim bo'lgan. Hayoliy konfutsiylik formulasi (davlat-dehqon) bunday sharoitda hayotiy bo'lmay qolgan. Bevosita ishlab chiqaruvchilar chek yerlarini yo'qota borib, yangi xo'jayinlariga ishlashga majbur bo'lishgan, bunda barcha davlat soliqlari ularning zimmasida qolavergan. Bundan tashqari XV asrning 20-30-yillarida ma'murlar ilgari soliq to'lashdan ozod etilgan qo'riq yerlar va bo'sh yotgan yerlarni soliqqa tortganlar.

Mo'g'ullarga qarshi qo'zg'olonlar vaqtida erishilgan yonbosishlar asta-sekin yo'qqa chiqa borgan.

Yuan hakimiyati ma'murlari o'zboshimchaliklaridan ozod bo'lgan shaharliklar ayrim imtiyozlar olganlar. Biroq shaharlar ilgarigidek huquqsiz bo'lib qolavergan. Shaharliklarning ahvoli va shaharning butun faoliyati qishloq tartiblariga tenglashtirilgan edi. Ularni yashash joylariga ro'yxatga qo'yib, soliqqa tortganlar, sex-gildiya tashkilotlari byurokratik instansiyalarga bo'ysunganlar. Hunarmandlar og'ir mehnat majburiyatlari bilan bog'lab qo'yilganlar. Shaharlarda o'z oqsoqollari, zimdan habar tashuvchilar, mayda narsalargacha nazoratga ega bo'lgan ko'cha yohud mavze tashkilotlari tuzila borgan. Bojxona punktlarida boj to'lashlar savdo ahli daromadlarini keskin kamaytirgan. Chju Yuanchjan ayrim xususiy korxonalarini musodara etib, davlat korxonalariga aylantirgan. Davlat qazilma boyliklari qazib chiqarish va kayta ishlash va tuz ishlab chiqarishga monopoliyani saqlab qolgan, bu esa metallarni qimmatlashib ketishiga olib kelib, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Hokimiyat pulning qadrsizlanishiga qarshi kurashish maqsadida qohoz pullar chiqarishdan voz kechgan: muomalada bronza tangalar va kumush bo'lgan. Ammo keyinroq yana qog'oz pullar chiqara boshlaganlar. Pul muomalasining bir qadar barqarorlashishi iqtisodiyotning o'sishiga, tashqi va ichki savdoning rivojlanishiga imkon bergan.

Minlar imperiyasining siyosiy tuzumi byurokratik apparatli eski mustabid tuzumlardan nusxa ko'chirilgan. Markazlashtirishni kuchaytirish va separatistik intilishlarni susaytirish maqsadida butun hokimiyat impeator qo'lida to'plangan, muzofotlarda esa fuqoro, harbiy va sud funksiyalari turli shaxslarga berilgan. Nazorat va kuzatuvning maxsus organlari tuzilgan.

Chju Si tomonidan isloh qilingan konfutsiylik Minlar davrida hukmron mafkura va din bo'lgan. Xitoyda buddaviylik, daosiylik va shuningdek musulmonlik dinlari o'z faoliyatlarini davom ettirgan. Biroq konfutsiylik marosimlari va ahloqi barcha uchun majburiy bo'lib, ta'limning konfutsiycha tizimi daxlsizligicha qolavergan.

O‘z shaxsiy hokimiyati va boshqaruvni markazlashtirishni kuchaytira borgani holda Chju Yuanchjan o‘zining yakka hokimligi uchun tayanch izlab ko‘p sonli avlodlariga udel mulklar taqsimlab bergan. Ularni tasarruf etuvchilar muayyan harbiy va siyosiy hokimiyatga va shuningdek anchayin moddiy imkoniyatlarga ega bo‘lganlar. XV asr arafasidagi, Chju Yuanchjanning o‘limidan so‘ng taxt uchun kurashga qo‘shilib ketgan o‘zaro urushlarda taxt qonuniy vorisi ustidan udel hukmdorlardan biri, Chju Yuanchjanning o‘g‘li Chju Di (1402-1424) g‘alabaga erishgan. Uning boshqaruvi davri mamlakatning iqtisodiy va madaniy jihatdan ko‘tarilishi va shuningdek xalqaro aloqalarni kengayishi davriga to‘g‘ri keladi. Lekin 1421-yil poytaxtni Nankindan Pekinga ko‘chirilishi mamlakatning iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan rayonlariga zarba bergan va konservativ tartiblarning mustahkamlanishiga imkon yaratgan.

XIV asr oxiri-XV asrlarda tashqi siyosat. XIV asrda mo‘g‘ul bosqinchilari bilan kurash jarayonida qayta yuzaga kelgan Xitoy davlati o‘zining xalqaro obro‘-e‘tiborini tiklashga harakat qilgan. An‘anaviy tashqi siyosat doktrinasini yo‘lida “ajnabiylar” ustidan oliy hokimiyatga ega bo‘lishlik e‘lon qilingan. Yangi hokimiyatning kuch-g‘ayratlari mo‘g‘ullardan Xitoyning barcha hududlarini urushib qaytarib olishga va chet elliklarning bostirib kirishlarini qaytarishga yo‘naltirildi. 1337-1338-yillarda xitoy qo‘shinlari mo‘g‘ullarni ikki marta mag‘lubiyatga uchratib, Lyaodunni qo‘shib oldilar. Shimoli-g‘arbiy chegaralarni mustahkamlashga intilib, harbiylar garnizonlari va harbiy manzilgohlardan iborat mudofaa tizimini yaratdilar. Shuningdek Buyuk Xitoy devorini qayta qurish bo‘yicha ishlar boshlangan.

Ayni vaqtda Minlar imperiyasi janubiy Yaponiya knyazlari tomonidan shaylangan flotlarning bostirib kirishlaridan o‘zining dengiz chegaralarini himoya qilishga majbur bo‘lgan. 1374-yili Xitoy floti Ryukyu orolidagi “yapon qaroqchilari” kemalarini cho‘ktirib yuboradi va bir qismini qo‘lga kiritadi. 1388 -yili Koreya bilan harbiy mojaro koreys qirollari tomonidan o‘z vassalligini nomiga e‘tirof etish sharti bilan bartaraf etilgan.

Alohida mamlakatlar bilan minlar hukumati elchilik almashish yo‘li bilan diplomatik aloqalarni qo‘llab-quvvatlashga harakat qilgan. Chet el elchilarini jalb etish uchun faqatgina 1369-1370-yillarda Xitoy missiyalari Tampuga, Yava, Sumatra, Yaponiyaga, Kampuchiya va Janubi Sharqiy Osiyoning boshqa mamlakatlariga yuborilgan. Elchilar hukmdorlarga ko‘rlab sovg‘alar olib borganlar, Xitoy savdo imtiyozlariga ega bo‘lish haqida va‘dalar berganlar. Shu bilan birga ular Osmon o‘g‘lining “qudrati” bilan tahdid qilganlar.

XV asr boshlarida Minlar imperiyasining ulkan Temuriylar davlati bilan munosabatlari murakkablashgan. Biroq 1405-yili Amir Temurning to‘satdan vafoti munosabati bilan Xitoy qo‘shinlarining Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab yurishi qoldirilgan, Temuriylar davlati ichidagi o‘zaro kurashlar Xitoy bilan urushning oldini olgan. Minlar xonadoni faol tashqi siyosatni rivojlantirgan. Ekspansiyaning birinchi obyektlaridan biri bo‘lgan Vyetnam Xitoyga shimoliy rayonlarining bir qismini boy berishga majbur bo‘lgan. Bu mamlakatdagi o‘zaro urushlardan foydalanib, xitoyliklar 1406-yili Vyetnamni bo‘ysundirganlar va mamlakatni Xitoyning muzofotlaridan biriga aylantirganlar.

Xitoy o‘shinlari bu vaqtga kelib o‘z harbiy kuchlarini tiklab olgan Mo‘g‘ulistonga ham qarshi xujumga o‘tganlar. Imperator Chju Di boshchiligidagi yarim millionli armiya Mo‘g‘ulistonga bostirib kirgan va 1410-yili uning otliq qo‘shinlarini Onon daryosi bo‘yida tor-mor qilgan. Undan so‘ng xitoyliklar mo‘g‘ul xonlarini Tola daryosi bo‘yida mag‘lubiyatga uchratganlar. Mo‘g‘ulistonga yurishlar 1424-yilgacha davom etgan. 1419-yili Lyaodun bo‘ylarida xitoyliklar “yapon qaroqchilari”ni tor-mor etganlar.

Min hukumatining tashqi siyosiy faolligi kengaygan. 1402-1404-yillarda elchilik missiyalari ko‘plab dengiz orti o‘lkalar, shu jumladan Hindistonga yuborilgan. Mashhur dengiz say.y.ohi va diplomat Chjan Xe boshchiligidagi Xitoy flotining ekspeditsiyalari ayniqsa dovrug‘ qozongan. Uning qo‘mondonligi ostida 48-62 ta katta kema va kuzatib boruvchi ko‘plab mayda kemalardan iborat eskadra bo‘lgan. Eskadra bortida 27-30 ming jangchi, dengizchi, mirza, kotiblar, savdogarlar, turli

kaspdagi hunarmandlar bo‘lishgan. Flot qurol-aslahalar zahiralari bilan ta‘minlangan bo‘lib, ajnabiy hukmdorlarga ko‘plab tovarlar va qimmatbaho sovg‘alar eltgan. Chjan Xe bilan birga elchilar yuborilgan. Uning 1405-1433-yillardagi yetti marta kema safarida Chjan Xe floti Hindixitoy yarim oroli, Zond arxipelagining ko‘p mamlakatlarida bo‘lgan, Shri Lankaga, Hindistonning Malbar qirg‘og‘idagi shaharlarga tashrif buyurgan. Uning kemalari Fors ko‘rfazidagi Ormuz shahriga, Sharqiy Afrika qirg‘oqlariga yetib borganlar.

XV asr boshlaridagi ekspeditsiyalar siyosiy va tashqi savdo maqsadlariga ega edi. Imperator xonadoni mumkin qadar kengroq o‘z mustaqilligini yoyishga va Xitoyga chet el elchiliklarini muntazam oqimini yo‘lga qo‘yishga intilgan. Xitoy dengiz ekspeditssiyalari savdo-sotiqni yo‘lga qo‘yganlar, chet el savdogarlarini Xitoyga taklif etganlar, uzoq o‘lkalar tovarlari bilan tanishganlar, savdo yo‘llarini qaroqchilardan tozalaganlar. Madomiki, Buyuk ipak yo‘li Xitoy nazoratidan tashqarida qolayotgan ekan, janubiy dengiz yo‘llariga Yaqin Sharq mamlakatlariga alohida ahamiyat berila borgan. Xitoy dengiz ekspeditsiyalari Xitoyning dengiz orti mamlakatlaridagi ta‘sirini kuchaytirgan, xitoy dengiz savdosini jonlantirgan, bunga qadar oldinroq Janubiy dengizlar mamlakatlarida paydo bo‘lgan Xitoy ko‘chib keluvchilarining koloniyalarini mustahkamlagan.

Dengiz mamlakatlaridan elchiliklar XV asr birinchi o‘ttiz -yilida Xitoyga tez-tez kelib turgan. Ayniqsa yaqin aloqalar Palenbang, Malakka sultonligi va Boni mamlakati (Sulavesi orolida) bilan o‘rnatilgan. Malakka sultonlari 1411-yildan 1433-yilgacha to‘rt marta Xitoyga tashrif buyurganlar.

Xitoy diplomatlarining dengiz orti mamlakatlarida XV asr boshlarida faol savdo va mustamlaka siyosatini o‘tkazishga urinishi izolyatsiya xitoytsentrizm pozitsiyasida bo‘lgan va tashqi savdoning yo‘lga qo‘yilishidan manfaatdor bo‘lmagan hukmron zamindor yuqori qatlamining adovatini qo‘zg‘atgan.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining Xitoy bilan munosabatlari sof nomigagina vassalitet doirasidan chiqmagan va ko‘p o‘tmay XV asr o‘rtalaridayoq bu rayonda Min imperiyasining

pozitsiyalari boy berilgan. Bu ekspeditsiyalarning natijalari Xitoy dengiz savdosi va janubiy mamlakatlarda savdo koloniyalariga asos solinishida anchagina samarali ifodalangan.

XV asr boshlarida Xitoy hukumati materik yo'llari bo'ylab o'zining vazifalari va xarakteriga ko'ra dengiz ekspeditsiyalariga mos missiyalarini yuborib turishga harakat qilgan. Taxminan 1415-yili yirik elchilik O'rta Osiyoga Amir Temur vorislari huzuriga yo'llangan. 1420-yili u yana Samarqandga tashrif buyurgan. 1411-yili Manchjuriyaga missiya uyushtirilgan. 1412-yili Xitoy elchilari Hindistondagi Jaunapur va Dehli sultonliklariga tashrif buyurganlar. 1415-yili missiya anchagina harbiylar otryadi bilan tibetga kelgan, 1420-yilda esa Xitoy orqali u shimoli-sharqiy Hindistonga kirib borgan.

Ammo bu barcha missiyalar dengiz missiyalariga nisbatan kamroq muvaffaqiyatli bo'lgan. Yetarlicha kuchli bo'lib qolayotgan Temuriylar davlati o'zini Xitoyning vassali deb e'tirof etmagan. Manchjuriyada Minlar imperiyasi hozirgi Lyaonin muzofoti rayonidagina o'rtnashib olishga va o'z ta'siri doirasida uning chegaralari yaqinida yashaydigan chjurchjenlarning janubiy manchjur qabilalarini ushlab turishga muvaffaq bo'lgan. Shimoliy Hindiston sultonlari Xitoy saroyiga elchilar yuborishni istamaganlar.

XV asr ikkinchi choragida mamlakatdagi iqtisodiy ko'tarilishning barham topishi bilan Min imperiyasining xalqaro maydondagi mavqei susaya boradi. XV asr o'rtalarida Xitoyda moliyaviy inqiroz boshlanib ketgan. Poytaxtni Pekinga ko'chirilishi g'am tashqi aloqalar holatiga yomon ta'sir ko'rsatgan.

Vyetnam xalqining xitoylik istilochilarga qattiq qarshilik ko'rsatishi 1418-yildan keyin butun xalq kurashiga aylanadi. 1428-yili Xitoy ma'murlari va qo'shinlari Vyetnamni tark etishga va uning mustaqilligini tan olishga majbur bo'lganlar. 1436-yili Xitoydan barcha ajnabiy elchilar chiqarib yuborilgan va ayni vaqtda uzoq mamlakatlarga flotning ekspeditsiyalari to'xtatilgan. Chet mamlakatlar bilan elchilik aloqalari tezlikda kamaya borgan. 1452-yili flotga barcha orol bazalarini tashlab chiqib, Xitoyning qirg'oq bo'yi rayonlari govonlari tomon yo'lga tushishga buyruq berilgan. Imperator qo'shinlarining Tumudagi

magʻlubiyati Xitoyning tashqi siyosiy zaifligining eng katta ifodasi boʻlgan. 1449-yili gʻarbiy moʻgʻul-oyrotlarning yoʻlboshchisi Esen Xitoyga yurish uyushtirgan. Unga qarshi imperator va katta taʻsirga ega boʻlgan vaqtinchalik hokimlar boshchiligidagi xitoyning ulkan armiyasi peshvoz ildamlab borgan. Hali dushman bilan toʻqnash kelmasdan oq armiya tartibsiz ravishda chekina boshlagan. Xitoyliklarga Tumuda (Xebey muzofotidagi Xuaylay shahri yaqinida) yetib olgan oyrotlar ularni tor-mor qilganlar. Imperator asirga tushgan, harbiy qoʻmondon oʻldirilgan. Esen uchun poytaxt tomon yoʻl ochilgan edi. Pekindagi hukmron guruh janubga qochishga taraddudlangan. Faqat sarkarda Yuy Syan tomonidan yangidan shakllantirilgan armiyalar va Pekin aholisining qarshiligi qamal qilingan shaharni qutqarib qolgan. 1450-yili Esen qamalni toʻxtatgan va soʻng moʻgʻul choʻllariga siqib chiqarilgan.

Xitoyning butun harbiy kuchlarini shimoli-gʻarbda toʻplanishi va boshqa yoʻnalishlardagi tashqi siyosiy ekspansiyadan majburan voz kechilishi “Tumu halakati”ning oqibati edi. Tadqiqotchilarning obrazli ifodalashiga koʻra “Xitoy yuzi bilan shimoli-gʻarbga, orqasi bilan dengizga burildi”. Shimoliy Birmadagi shan qirolliklariga qarshi harbiy harakatlar bosqinchilik rejalarini amalga oshirishga boʻlgan soʻnggi urinishlar edi. 1441-1445-yillardagi harbiy kompaniya xitoyliklar uchun omadsiz yakunlangan. Biroq 1446-yili Birma hukmdori mamlakatdagi separatistik qoʻzgʻolonlarni bostirishda xitoyning harbiy yordam koʻrsatishi haqidagi vaʼdasi evaziga oʻzini Xitoyning vassali deb eʼtirof etgan. 1465-yilga kelib xitoyliklar oʻz gornizonlarini Shimoliy Birmaning ayrim shan yerlaridagina saqlab qolganlar.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Zamindorlarning yer mulklarni qayta taqsimlanishi uchun kurashining oqibatlari nimadan iborat boʻlgan?
2. IX asrda dehqonlar urushining sabablari haqida chuqurroq fikr yuriting.
3. Sun davlati tuzilishining shart-sharoitlari nimalardan iborat?
4. Sun imperiyasining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va davlat tuzilishiga tavsif bering.

5. Xitoyda chjurchjenlar va mo'g'ullar istilosi oqibatlarini qiyoslab tahlil eting.
6. Ilk min hukmdorlari ichki siyosatining asosiy jihatlarini ko'rsating.
7. XIV asr oxiri va XV asrda minlarning tashqi siyosati va uning natijalarini izohlab bering.

5-§. MO‘G‘UL DAVLATINING TASHKIL TOPISHI

Darsning maqsadi: Mo‘g‘ul davlatining tashkil topishi va rivojlanishining asosiy tendensiyalari, tarixiy taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari haqida talabalarga ma’lumot berish.

REJA:

- XI-XIII asr boshlarida mo‘g‘ul qabilalari;**
- Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ul davlatining vujudga kelishi;**
- Chingizxonning istilochilik yurishlari;**
- Chingizxon vorislari davrida (1227-1259) Mo‘g‘ullar imperiyasi;**
- Yuan mo‘g‘ul imperiyasi (1271-1368).**

XI-XIII asr boshlarida mo‘g‘ul qabilalari. Mo‘g‘ulistonning tabiiy sharoitlari qadimgi davrlardan oq mo‘g‘ullarning asosiy mashg‘uloti-ko‘chmanchi chorvadorlikka sharoit yaratgan. Mamlakatning deyarli butun hududini, beshdan to‘rt qismini quruq cho‘llar va tog‘ yaylovlari tashkil etgan. Mamlakatning tog‘li relyefi, dengiz va okeanlardan uzoqdaligi, atrofini baland tog‘lar bilan o‘ralganligini, havosining quruqligi, yog‘ingarchilikning kam bo‘lishi, yil, mavsum va xatto sutka damomida xaroratning keskin o‘zgaruvchanligi-bularning barchasi ko‘proq chorvadorlikni rivojlanishiga sharoit yaratgan edi. Ko‘chmanchi chorvachilik xo‘jalik yuritish xarakterini ham tabiiy muhit belgilagan. Quruq kuz va deyarli qorsiz qish yaylovlardan butun -yil bo‘yi foydalanish imkoniyatini beradi.

Manbalar Mo‘g‘uliston hududida eramizdan avvalgi II ming yilliklardayoq yashagan ko‘chmanchi-chorvador qabilalar to‘g‘risida ma’lumotlar beradi. Ma’lumki, bu yerda birinchi davlat tuzilmasi miloddan avvalgi III asrda paydo bo‘lgan. Bu-ilk feodal tipidagi xunlar davlati edi. U tor-mor bo‘lgandan so‘ng mo‘g‘ul cho‘llarida Syanbi davlati (I-III asrlar), Jujan xoqonligi (IV-VI asrlar), Turk xoqonligi (VI-

VIII asrlar), Uygʻur xoqonligi (745-840-yillar), Lyao kidan imperiya (X-XI asrlar)lari bir-birlarini almashtirdilar.

Bular yetarlicha kuchli koʻchmanchi davlat uyushmalari boʻlib, tadqiqotchilar ularda yirik yer egaligi munosabatlari qaror topib, rivojlanganligini qayd etadilar. Bu davlatlar xoʻjaligida koʻchmanchi chorvachilik yetakchi oʻrinni egallagan. Biroq, shuningdek ziroatchilik ham boʻlgan, hunarmandchilikning ayrim turlari va savdo rivojlanib borgan, shahar tipidagi manzilgohlar paydo boʻlgan. Bu davlatlarning etnik tarkibi ham xilma-xil boʻlib, ulardagi turli-tuman tilda gaplashuvchi, turk tilli va tungus manjur qabilalarini ajratib koʻrsatish mumkin.

Moʻgʻul choʻllari hozirgi bizga maʼlum Osiyoning turk tilli va moʻgʻul tilli xalqlari va shuningdek Yevropaning ayrim xalqlari paydo boʻlib, rivoj topib borgan oʻchogʻi boʻlgan.

Moʻgʻuliston hududida hozirgi moʻgʻullarning ajdodlari tarix maydoniga chiqqunlariga qadar ilk koʻchmanchi davlat uyushmalarining navbatma-navbat koʻtarilish jarayoni 1000-yildan ortiq davom etgan.

Manbalarning koʻrsatishicha, moʻgʻul qabilalari XI-XII asrlarda Buyuk Xitoy devoridan Selenga daryosining yuqori oqimigacha boʻlgan hududlarda yashaganlar. Ular umumiy hududdan tashqari koʻchmanchi chorvachilik koʻrinishidagi umumiy xoʻjalik asosiga ham ega edilar. Ularda asosan umumiy til boʻlgan, diniy-falsafiy qarashlarning yagona tizimi-shamanizm rivojlanib borgan. Biroq siyosiy jihatdan ularda hali birlik boʻlmay, ular oʻz qabilaviy nomi bilan atalgan koʻplab mayda, oʻrta va yirik qabilaviy, qabilalararo uyushmalarga boʻlinganlar.

Shimoliy Xitoy chegaralari atrofidagi hududlarda koʻchib yurgan moʻgʻul qabilalari Xitoy manbalarida “oq tatarlar” deb, shimoliy moʻgʻul qabilalari esa, “qora tatarlar” deb atalgan. Ayrim mualliflar “qora tatarlar” bu XIII asrda “moʻgʻul” umumiy nomini olgan, qabilaviy birlashmaning yadrosi boʻlib qolgan qabilalardir deb hisoblaydilar.

“Moʻgʻul” etnonimi yagona talqinga ega emas. Ayrim maʼlumotlarga qaraganda bu Moʻgʻulistonda yashagan kuchli qadimiy qabilalardan birining nomi boʻlgan.

Qo‘y-qo‘zilar, echkilar, yirik qoramollar, otlar mo‘g‘ul ko‘chmanchi qabilalarining asosiy boyligini tashkil etgan. Ba‘zi xo‘jaliklarda, ayniqsa naymanlarda unchalik ko‘p bo‘lmagan miqdorda tuyalar bo‘lgan.

Mol podalari mo‘g‘ullarni oziq-ovqat, jun (undan o‘tov uchun asosiy qurilish materialini namat tay.y.orlangan), po‘stin va kiyim-kechak, poyafzal va uy-ro‘zg‘or buyumlar tay.y.orlash uchun teri xomashyosi bilan ta‘milangan. Chorva qo‘shni Xitoy va O‘rta Osiyo bilan ayriboshlash uchun asosiy tovar fondi sifatida ham xizmat qilgan.

Mo‘g‘ullar namatdan qilinadigan yig‘ma o‘tovlarda yashaganlar. Mo‘g‘ul chorvadorlari o‘t-o‘larga boy yaylovlar va suv izlab cho‘l bo‘ylab ko‘chib yurganlar, bunda u yoki bu qabilalarning yozdagi va qishlovni o‘tkazadigan hududlari odatda aniq belgilangan bo‘lgan.

Mo‘g‘ul jamiyati XI-XII asrlarda urug‘-jamoat tuzumining yanada buzilishi va ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarining tobora kuchayib borishi bilan tavsiflanadi. Bu vaqtga kelib Mo‘g‘ulistonning qabilaviy birlashmalari nafaqat etnik birlikni, balki tabaqaviy jihatlari yaqqol ifodalangan siyosiy birlikni namoyon etganlar.

Bu uyushmalardan har biri o‘zining yetakchisi-xoniga ega bo‘lgan. Odatda bu vaqtga kelganda xonlar merosiy xukmdorlarga aylanib bo‘lgan edi, biroq ayrim joylarda harbiy demokratiya davridagi saylov tizimi mavjud bo‘lishda davom etgan.

Rashid ad-Dinning -yilnomasi va “Ko‘ngildagi rivoyat”ida XI-XII asrlarda mo‘g‘ul jamiyatida saxro ayonlari-no‘yonlar, “oq suyak” odamlar ajralib chiqqanligini ko‘rsatuvchi ko‘plab faktlarni keltiradi. Ular bahodir, donishmand, mergan, polvon va boshqa martabalarga ega bo‘lishgan.

Zamindorlar tabaqasining shakllanishi yerni-o‘tloq yaylovlarni zodagonlarning yakka mulkchiligiga aylantirish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq edi. Qadimda, ibtidoiy-jamoat tuzumida chorva mollari ham, o‘tloq yaylovlar ham urug‘ jamoasining umumiy mulki bo‘lgan.

Urug‘ jamoasi ichida asts-sekin patriarxal oila-aylning roli o‘sa boradi, chorva mollari uning mulkchiligiga o‘ta borgan, shu asosda

mulkiy tengsizlik kelib chiqqan va o'sa borgan. Urug' jamoasi buzila boshlagan. Unda uyur-uyur mollari bo'lgan boy oilalar va kambag'al jamoachilar paydo bo'lgan. XII asr oxirida garchi o'tloq yaylovlar jamoa mulki bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, ayl-oilaviy ko'chmanchilik uning ustuvor shakli bo'lib qolgan. Biroq, zodagon oilalarning iqtisodiy va siyosiy mavqelarini mustahkamlanib borgani sari urug' jamoalari asta-sekin o'tlov yaylovlarga egalik huquqini to'la yo'qota borganlari holda, ularni boshqarishdan chetlasha boshlaydilar. Bu jarayon Chingizxon boshchiligidagi yagona Mo'g'ul davlati tuzilishi asnosida yakuniga yetgan.

Yirik chorvachilik xo'jaligini yuritish uchun uning egalari ishchi kuchiga muxtoj bo'lganlar. Avvaliga uni harbiylar orasida ajratib olganlar, zotan yagona Mo'g'ul davlati tuzilishidan oldingi davrda yetakchilik uchun qabilalar o'rtasida muttasil ayovsiz kurash borgan.

Tor-mor etilgan, zaiflashib qolgan qabila g'olib-qabilaga to'liq qaram bo'lib qolgan, uning a'zolari unagan-bogollarga aylangan. Ular o'z mehnatlari bilan yirik ko'chmanchi chorvador xo'jalik ishlab chiqarish kuchlarini ta'minlaganlari holda, o'zlarining egalari bilan ko'chib yurishlari lozim edi. "Unagan-bogollar" (merosiy xizmatkor) shunday qilib, mo'g'ul jamiyatidagi bo'lajak feodal qaram sinf krepostnoy aratlar ommasining ajdodlari edilar.

Mo'g'ulistonda yirik yer egaligiga asoslangan jamiyatning qaror topishi navkarlik tizimini keltirib chiqargan. Navkarlar- "do'stlar", drujinliklar, no'yonlarning yaqin safdoshlari edi. Navkarlar no'yonlik hokimiyatini mustahkamlashlari, uning raqib va drujinalarini zaiflashtirishlari, mehnat ahli qarshiligini bostirishlari, o'z no'yonlarini kuchaytirish uchun kurashishlari lozim bo'lgan. Navkarlar asosan urug'-qabila zodagonlari orasidan yig'ilgan. Drujinada xizmat qilib, ular no'yondan hududlar va qaram oilalar olishgan. Bunday in'om "xuv" (ulush, qism) deb nomlangan.

XII asr ikkinchi yarmidan alohida zodagon urug'larning hokimiyat va mamlakat ustidan hukmronlik uchun raqobatchiligi keskinlashgan. Rashid ad-Dinning habar berishicha: "Har bir qabilaning o'z hukmdori va amiri bo'lgan. Ular vaqtning ko'p qismini bir-birlari

bilan yovlashib, jangu-jadal bilan o‘tkazganlar, o‘zaro janjallashganlar, bir-birlarini talaganlar”.

Bu kurashning asosida butun mamlakat miqyosida ishlab chiqarishning yirik yer egaligi usulining qaror topish va mo‘g‘ullarning yagona elatga birlashish jarayoni yotardi. Zodagonlarning muttasil boyib borishi, uning hokimiyatini bevosita ishlab chiqaruvchilar ustidan mustahkamlash yangi ijtimoiy tartiblarni talab etardi, ulardan stixiyali yuzaga kelgan yirik yer egaligi ishlab chiqarish munosabatlari no‘yonlik tomonidan, uning manfaatlari yo‘lida tuzilgan davlvt hokimiyati tomonidan mo‘g‘ul qo‘llab-quvvatlanishi va ishonchli himoyalaniishi mumkin bo‘lgan. Yagona ilk feodal mo‘g‘ul davlatining tashkil topishi uchun zamin shunday tay.y.orlangan edi.

Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ul davlatining vujudga kelishi. Yagona mo‘g‘ul davlvtining barpo etilishi tarixga Chingizxon (1162-1227) nomi ostida kirgan Temuchin faoliyati bilan bog‘liq.

Temuchin zodagon va badavlat urug‘dan kelib chiqqan. Uning katta bobosi Xabulxon “Umummo‘g‘ul ulusi” deb atalgan qabilalar birlashmasining tepasida turgan, unda chuqur mulkiy tengsizlik, toifaviy tabaqalanishning keskinlashuvi bilan tavsiflanadigan, xonning mutloq hokimiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan va boshqariladigan ilk feodal davlatning alohida jihatlari yaqqol namoyon bo‘lgan. Xonni saxro no‘yonlari tomonidan saylash tamoyili hokimiyati merosiya olingan xonning o‘zini yakkaboshchilik irodasiga o‘z o‘rnini bo‘shatib bergan.

Temuchinning otasi Yesugey botir Xabulxonga uning ikkinchi o‘g‘li Bartan-botir orqali nevara bo‘lgan. U xon taxtini meros qilib olmagan bo‘lsa-da, biroq eng kuchli qabilaviy uyushmalardan bir-tayjnutlarning yetarlicha ta’sirga ega bo‘lgan yo‘lboshchisi bo‘lgan. Uning tasarrufida ko‘p sonli navkarlar, ko‘plab podalardan iborat mulklari bo‘lgan. Biroq, Yesugey botirning o‘limi bilan ulus tarqalib ketgan, xon qaramog‘idagilarning katta qismi boshqa joyga ko‘chib ketganlar.

Shunday qilib, yosh Temuchinga bolaligidanoq avvalo yashab qolish uchun, so‘ng esa boshqa joyga ko‘chib ketgan navkarlar va fuqarolarni itoat ettirish uchun kurashga kirishga to‘g‘ri keladi. Bu

kurash natijasida Temuchin nafaqat o'z otasi-Yesugey botirning ulusinigina o'ziga qaratibgina qolmay, balki qo'shni qabilalarning ko'pchiligini o'z tomoniga og'dirgan. U 1190-yili navkarlari va no'yonlarining qo'llab-quvvatlashi bilan Umummo'g'ul ulusining xoni bo'lib qoladi. In'omlar berish va turli xilda taqdirlash yo'li bilan o'z atrofida tobora ko'p sonli navkarlar va no'yonlarni birlashtirish va jipslashtirishga intiladi. Ulardan eng sodiqlarini asosiy harbiy tashkiliy bo'linmalar (minglik, yuzlik, o'nlik)ga boshliq qilib tayinlaydi. Badavlat va o'ziga to'q chorvadorlarni qo'llab-quvvatlagan xolda, Temuchin imtiyozli tabaqani ta'sis etgan, uni manbalarda "darxon" deb ataladi. Darxonlar soliq va majburiyatlardan ozod etilganlar, harbiy yurishlarda ular o'ljani boshqalar bilan bo'lishishmagan, xonning oldiga bemalol kirish huquqiga ega bo'lishgan, birinchi to'qqizta qilmishi yoki qonunni buzganlik uchun jazolanmaganlar.

Temuchin shuningdek o'z xos soqchilarining imtiyozli otryadini ta'sis etgan, ulardan keyin o'ziga xos gvardiya "keshik" o'sib chiqqan. Avvaliga keshik tungi qo'riqlov uchun 80 kishi va kunduzgi qo'riqlov uchun 70 kishidan iborat bo'lgan. "Keshik"ka avvalo no'yonlar, mingboshilar, yuzboshilarni o'g'illaridan terib olingan.

Barcha mo'g'ul qabilalarini birlashtirish uchun kurashga kirishib, Temuchin qabilalararo ziddiyatlardan muvaffaqiyatli foydalangan, bir qabilaning harbiy kuchini ikkinchisiga qarshi qo'ygan va pirovardida unisini ham, bunisini ham o'ziga bo'ysundirgan. Shu zaylda 1190-yildan 1206-yilgacha Temuchin tatarlar, kereitlarni tor-mor qilgan, merkit, nayman va boshqa qabila guruhlarini itoat ettirgan.

1206-yili Onon daryosi bo'yida bo'lgan qurultoyda mo'g'ul no'yonlari Temuchinni "Chingizxon" tituli bilan buyuk xon deb e'lon qilganlar.

Yangi mo'g'ul davlati ilgarigi uyushmalarga nisbatan yaqqol ifodalangan ilk feodal xarakteriga ega bo'lgan. Uning ichki va tashqi siyosati no'yonlarning manfaatlarini himoya qilishga, uning tabaqaviy mavqeini mustahkamlashga qaratilgan. Chingizxon davrida tuzilgan ma'muriy tizim ham shu maqsadlarga xizmat qilgan.

Mo'g'ul davlatini tuzar ekan Chingizxon butun Mo'g'ulistonni ikki qismga bo'lgan: so'l qanot va o'ng qanot, shuningdek uch daryo-Kerulan, Onon, To'la daryolari havzalaridagi o'zining shaxsiy hududlarini ajratadi.

Davlatning harbiy ma'muriy tuzilishi asosiga Chingizxon o'nlik tizimini qo'yadi. Qanotlar tumanlardan iborat bo'lgan, tuman 10 ming kishidan, minglik o'nta yuzlikdan, yuzlik esa o'nta o'nlikdan iborat bo'lgan. Shunday qilib, Mo'g'ulistonda o'nta jangchini yetkazib berishi lozim bo'lgan oilalar guruhi quyi harbiy-ma'muriy birlik o'n ming kishini safarbar qilish imkoniyatini xonga beradigan mulk eng yirik harbiy-ma'muriy birlik edi. "Minglik", "yuzlik" va b.larning tuzilishi eski qon-qarindoshlik aloqalarini ma'muriy-hududiy aloqalar bilan almashish jarayonini aks ettirardi, ilgari urug' jamoalarining a'zolari esa tuman, harbiy boshliqlari, mingboshilar, yuzboshilarga qaram kishilarga, buyuk hoqon vassallariga aylanganlar. Urug'-qabila uyushmalarining yerlari no'yonlarning shartli mulklariga aylanib, ko'proq yoki kamroq darajada buyuk hoqonning mulki sifatida qolgani holda, ularning tasarrufiga o'tgan. "Oltin urug'" vakillari va boshqa cho'l zodagonlari bilan taqqoslaganda no'yon-mingboshilar iyerarxik zinapoyaning anchagina quyi qismida turganlar. No'yon-tumanboshilik, mingboshilik lavozimlari merosiy bo'lgan, ammo ularga belgilab berilgan hudud va unda yashayotgan aholiga ular egalik huquqlaridan foydalana olmaganlar (uni o'z xohishiga ko'ra bo'lish, kimgadir berib yuborish yoki sotish huquqiga ega bo'lmaganlar). No'yonlarning majburiyatlariga tumanga, minglik, yuzlik va b.ga kiruvchi fuqarolar ustidan ma'muriy hokimiyatni amalga oshirish, hoqonning talabi bilan jangchilarning muay.y.an sonini xizmatga ajratib berish, davlat g'aznasi uchun itoat ettirilganlardan o'lpon yig'ish va ular tomonidan boshqa majburiyatlarni bajarilishi ustidan nazorat qilish kirgan.

No'yon-mingboshilardan farqli o'laroq, Chingizxonning qarindoshlari va eng yaqin safdoshlari shaxsiy foydalanishiga katta-katta mulklar olishgan, ular faqat o'z xo'jayinlari foydasigagina majburiyat o'taganlar. Cho'l zodagonlarining aynan shu qismi mo'g'ul zamindorlari tabaqasiga asos solgan. No'yon-mingboshilar saflaridan

ba'zi bir hollari istisno etganda, Yuan imperiyasi davrida saydlar ya'ni kalandimog' manasabdorlar yoki yuqori tabaqa amaldorlar ahli yetishib chiqqan. Yaylov yerlarga va shaxsiy qaram kishilarga mulkchilik huquqiga ega bo'lmagan holda no'yon-mingboshilar o'rta asr jamiyatining xizmatchi tabaqasining yuqori qatlamini tashkil etganlar.

Aratlarni yerga biriktirib qo'yish maqsadida Chingizxon ularni bir o'nlikdan boshqasiga, bir yuzlikdan boshqa bir yuzlikka o'zboshimchalik bilan o'tishini ta'qiqlash to'g'risida qonun chiqaradi. O'zboshimchalik bilan ko'chib yurishlik "oltin urug'" a'zolariga va Chingizxonning safdoshlariga in'om qilib berilgan aratlarga ham ta'qiqlangan.

Chingizxon qilgan o'zgartirishlarga muvofiq oddiy arat-chorvadorlar ikki guruhga: uls-irgen chorvadorlar, amalda davlat krepostnoylariga va shuningdek xaryaat irgen yoki omch irgen-bo'ysundirilgan kishilar yoki Chingizxon o'z qarindoshlari yoki alohida yaqin kishilariga biriktirib qo'yilgan shaxsiy mulk bo'lgan kishilar-aratlarga bo'linib qolganlar.

Fuqarolar hoqonning qarindoshlari va drujiniklar o'rtasida taqsimlangan. Bu o'tloq maydonlarining o'zini rivojlanishini talab etadigan ko'chmanchi chorvachilikning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan. Biroq, ko'chmanchilarga mo'jazgina yer uchastkalari bilan qanoatlana oladigan o'troq dehqonlardan farqli o'laroq, butun yil davomida suv va o't o'lan ko'p bo'lgan joyni tanlab ko'chib yura olishlari uchun bepoyon hududlar kerak edi.

Davlat krepostnoylari-aratlarning asosiy majburiyatlari harbiy va qarovulik xizmati, pochta majburiyatlarni o'tash va davlat soliqlarini o'z vaqtida to'lash bo'lgan. Zamindorlarga tegishli bo'lgan krepostnoy-aratlar barcha soliq va majburiyatlarni o'z egalari foydasiga o'taganlar.

"Buyuk Yaso" nomi ostida ma'lum bo'lgan, davlat va ijtimoiy tuzumning turli-tuman masalalari bo'yicha Chingizxonning pand-nasihatlari, yo'l-yo'riqlari qaydnomalari XIII asr boshlariga taaluqlidir. Bu yodgorlik mo'g'ul ilk feodal davlatida hokimiyatning despotik xarakterini yaqqol aks ettiradi. Yasoning bizgacha yetib kelgan 36 ta

parchasidan 13 tasida o‘lim bilan jazolanadigan qonunbuzarliklar haqida gap boradi.

Yagona davlatning tashkil topishi mo‘g‘ul xalqining tarixida ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan. U muttasil davom etib kelgan o‘zaro urushlarga barham berib, davlat birligining mustahkamlanishiga yordam bergan. Turli nom bilan atalib kelgan mo‘g‘ul qabilalari yagona nom mo‘g‘ullar deb, shimolda Selenga daryosi yuqori oqimigacha, janubda Buyuk Xitoy devori, sharqda Xingan xrebtiga, g‘arbda Oltoy tog‘larigacha bo‘lgan hududlar bilan chegaralanadigan davlat Buyuk mo‘g‘ul davlati deb nomlana boshlangan. Yagona davlatning tashkil topishi mo‘g‘ul elatining yuzaga kelishiga, ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘shishiga va milliy madaniyatning rivojlanishiga imkoniyat yaratgan.

Chingizxonning istilochilik yurishlari. Mo‘g‘ul qabilalarini bo‘ysindirib, Chingizxon va uning atrofida qilar o‘z istilolarini Mo‘g‘ulistondan tashqariga, qo‘shni ziroatchi mamlakatlarga yo‘naltirgan.

Chingizxon 1205-yildayoq G‘arbiy Sya tangut davlatiga qarshi harakatlar boshlagan, biroq aytarli muvaffaqiyat qozonmagan. 1207 va 1210-yillarda G‘arbiy Syaga bostirib kirish qayta takrorlangan, ammo mo‘g‘ullar hal qiluvchi muvaffaqiyatga erishmaganlar va ikki o‘rtada sulh tuzilgan.

1207-yili Chingizxon katta o‘g‘li Jo‘ji qo‘mondonligi ostidagi qo‘shinni Selenga daryosi shimolida va Yenisey vodiysida yashaydigan o‘rman qabilalari va elatlarini bo‘ysundirish uchun yuborgan.

Jo‘ji oyralar, ureutlar, tubaslar va boshqa ko‘plab qabilalar va elatlarni itoat ettirib, bu topshiriqni katta qiyinchiliksiz ado etgan.

1208-yilning qishida Chingizxon qo‘shinlari ilgari g‘arbgacha ketgan naymanlarni bo‘ysundirishni ko‘zlab Oltoy orqali oshib o‘tganlar. Mo‘g‘ullar bu maqsadni amalga oshirishga muvaffaq bo‘lmasalar-da, Yenisey qirg‘izlari tomonidan uyg‘urlarni siqib chiqarilgandan so‘ng IX asr o‘rtalarida Turkistonda tashkil topgan Uyg‘ur xonligini qo‘lga kiritganlar.

1211-yil Chingizxon, uning o'g'illari va eng yaxshi sarkardalari Muxali va Jebelar boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari Shimoliy Xitoyda tashkil topgan chjurchjenlar davlati-Szinga kirib borganlar. Szinga saltanatining ichki zaifligi istilochilarga qo'l kelgan. Mo'g'ullarga chjurchjenlarga qarshi qo'zg'alon ko'targan kidanlar va xitoyliklar ham ko'mak berganlar. 1215-yili uzoq davom etgan janglardan so'ng mo'g'ul qo'shinlari Pekinni egallaganlar, shahar taon-taroj qilinib yondirilgan. Chingizxon bu yerdan ulkan o'lja bilan Mo'g'ulistonga qaytgan. U Shimoliy Xitoyda o'z lashkarboshilaridan Muxalini qoldirib, kidan va boshqa mo'g'ul bo'lmagan otryadlarni hisobga olmaganda uning tasarrufida 23 ming kishilik mo'g'ul qo'shinini qoldirgan va undan tashqari Muxaliga mahalliy aholidan qo'shin tuzishga ijozat berganki, binobarin u istilolarni davom ettirishi lozim edi.

Qo'lga kiritilgan g'alabalarga qaramay, Chingizxonga mamlakatdagi ichki ahvolni sinchiklab kuzatib borishga to'g'ri kelgan. Manbalar mo'g'ul qabilalarining g'alayonlaridan guvohlik beradi. 1214-yilda g'alayonlar merkitlar orasida ro'y bergan, 1215-yili tumetlar, qo'zg'alon ko'targanlar. Chingizxon bu chiqishlarni ayovsiz bostirgan.

Mo'g'ullarning Shimoliy Xitoyga yurishi ular uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan, zotan ular Xitoy toshotar va devorbuzar og'ir qurollari bilan tanishganlar. Ularning ahamiyatini to'g'ri baholagan mo'g'ullar ularni yasaydigan mutaxassis ustalarni Xitoydan olib ketib, bunday qurollarni o'zlarida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yganlar. Shuningdek, Xitoydan ko'plab hunarmandlarni haydab ketganlar.

Chingizxon Mo'g'ulistonga qaytib kelgandan so'ng g'arb tomon yangi yurishga tay.y.orlana boshlagan. Bu yurishdan ko'zlangan birinchi maqsad, bu vaqtga kelganda Yettisuvda mustahkamlanib olgan naymanlar kuchlarini uzil-kesil tor-mor keltirish bo'lgan. 1218-yili mo'g'ullar bu maqsadga erishganlar. G'arbga yurishda tajribali sarkardalar Jebe va Subutay, shuningdek Chingizxon o'g'illari-Jo'ji, Chig'atoy, O'qtoy, Tuluylar boshchiligidagi yirik kuchlar ishtirok etganlar. Istilochilar qo'shini asosan otliq qo'shnlardan iborat bo'lib, biroq unda piyoda qismlar ham, shuningdek toshotar, devorbuzuvchilar

ham bo‘lgan. Bu safar mo‘g‘ullar porox va suyuq yoqilg‘i to‘ldirilgan idishlarni dushman tomonga uloqtirib otadigan qurollarga ega edilar.

Istilochilar qo‘shini favqulodda tez harakat qilishi bilan ajralib turgan. Terror dushmanning irodasi va qarshiligini juda qisqa vaqt ichida sindirishga intiladigan istilochilarning asosiy usullaridan biri bo‘lgan. Shaharlar ahlining qarshilik ko‘rsatishga har qanday urinishlari, uning butun aholisini shafqatsizlik bilan qirib tashlanishiga olib kelgan. Aholi qullarga aylantirilib, mo‘g‘ul zamindorlari ishi uchun haydab olib ketilgan faqat hunarmand va mutaxassislargina bundan mustasno bo‘lishlari mumkin edi.

Mo‘g‘uliston hukmron doiralari qo‘l ostidagi oddiy jangchilarning har biri qo‘lga kiritilgan o‘ljadan ulush olish huquqiga ega bo‘lgan. Chunonchi, ba‘zi manbalarning xabar berishicha Urganchni qo‘lga kiritilishi har mo‘g‘ul janchisiga 24 nafardan qulga ega bo‘lish imkonini bergan. Aytish mumkinki, bu usul mo‘g‘ul zodagonlarining istilochilik siyosatida ma‘lum darajada va ma‘lum vaqtgacha muvaffaqiyat keltirgan. Biroq mo‘g‘ullar harbiy zafarlarining asosiy sababi asoratga solingan xalqlar yurtlaridagi nisbiy zaifliklari va ichki ziddiyatlar, shuningdek yaxshi tashkil etilgan mo‘g‘ul otliq qo‘shini va o‘sha vaqt uchun nisbatan yuqori harbiy texnikaning mohirona qo‘llanilishi qolaversa, Chingizxon va uning sarkardalari tomonidan harbiy ishda favqulodda layoqatlarining namayon etilishida edi.

O‘rta Osiyoga kirib borar ekan, mo‘g‘ul armiyasi O‘trorda uch qismga bo‘linadi. Jo‘ji boshchiligidagi uning bir qismi Sirdaryo bo‘ylab quyiga, boshqa bir qismi shu daryo bo‘ylab yuqoriga, uchinchi qismi Chingizxonning o‘zi qo‘mondonligi ostida Xorazmshohlar davlati markazi Buxoro tomon yo‘naltiriladi. 1220 -yilning fevralida mo‘g‘ullar Samarqandni qamal qilishni boshlaganlar. Shahar zodagonlari qarshilik ko‘rsatishdan ko‘ra dushmanga taslim bo‘lishni afzal ko‘rganlar.

Samarqand aholisining katta qismi qirib tashlangan, faqat keyinroq Mo‘g‘ulistonga ko‘chirilgan hunarmandlargina tirik qolganlar. Lekin Urganch shahri bosqinchilarga qattiq qarshilik ko‘rsatgan, uning qamali to‘rt oydan ortiq davom etgan. Mo‘g‘ul qo‘shinlari nihoyatda og‘ir talofatlar ko‘rib, pirovardida shaharni qo‘lga kiritganlaridan so‘ng

uning himoyachilaridan o'zining shafqatsizligi bo'yicha dahshatli o'ch olganlar.

1221-yili mo'g'ullarga jiddiy qarshilik ko'rsatgan, O'rta Osiyodagi so'nggi yirik shahar Marv bosqinchi mo'g'ullar tomonidan egallangan. Marvliklar qirg'in qilingan, ulardan o'ch olish ishtiyoqi so'nmagan Chingizxon butun Marv vodiysini suv bilan ta'minlovchi irrigatsiya inshootlarni buzib tashlashga buyruq bergan. Oqibatda butun oazis cho'lu-biyobonga aylangan. O'rta Osiyoni istilo etish 1221-yilga kelib yakuniga yetgan. Istiloga qadar gullab-yashnab turgan yurt xonavayron bo'lgan, shaharlar vayronalarga, oazislar odamsiz cho'l-saxroga aylantirilgan.

Shu orada Jebe va Subutoy mo'g'ullardan qochib yurgan xorazm shoxni ta'qib qilganlar. Kaspiy dengizi janubidan aylanib o'tib ular yo'lidagi barcha hududlarni talab va ship-shiydon qilib, 1221-yili Ozarbayjon va Gruziyaga suqilib kirganlar. So'ng Shimoliy Kavkazga bostirib kirganlar. Ular bu yerda birgalikda harakat qilayotgan qipchoqlar va alanlar bilan to'qnashgan. Avvaliga mo'g'ullar qipchoqlar bilan sulh tuzib turib, alanlarni tor-mor keltirganlar, so'ng qipchoqlar ustiga yopirilganlar. Qochib borayotgan qipchoqlarni ta'qib qilib borib, Jebe va Subutoy qo'shinlari janubiy rus cho'llariga kirib borganlar. Qipchoq xonlari yordam so'rab rus knyazlariga murojat qilganlar. Ushbu murojaatga Chernigov, Volin, Kiyev va boshqa janubiy knyazliklarning knyazlari rus yerlari uchun ham qanday daxshag'li xavf yuzaga kelganligini anglab aks sado berganlar. 1223-yilning yozi boshlarida Kalka daryosi bo'yida mo'g'ul istilochilari va rus kinyazlari qo'shinlari o'rtasida jang bo'lib o'tgan. Rus qo'shinlari o'rtasida birlik va kelishilgan holda harakat qilish bo'lmagani sababli mag'lubiyatga uchragan. Cho'llardan Qrimga kirib borgan istilochilar Suroj (Sudok)ni egallagan. Bu yurishlar vaqtida mo'g'ullar ko'p talofat ko'rganlar. Tez orada ular sharqqa-Volga-dagi bulg'orlarga qarshi yo'l olganlar. Bu yerda mag'lubiyatga uchrab O'rta Osiyoga qaytganlar, bu yerda-Chirchiq daryosi vodiysida Afg'oniston va Shimoliy Hindiston yurishidan qaytgan Chingizxon kutib turgan. 1225-yilning kuzida mo'g'ul qo'shinlari yurtiga qaytib kelgan. 1226-yili Chingizxon

mo'g'ullarga qarshilik qo'rsatishni davom ettirayotgan G'arbiy Sya davlatiga yangidan istilochilik yurishini boshlagan va 1227-yili uni uzil-kesil tor-mor keltirgan. Tangutlarning ko'pchilik qismi qirib tashlangan, tirik qolganlari qullarga aylantirilgan.

1227-yili Mo'g'ulistonga qaytish yo'lida Chingizxon vafot etgan. Birinchi umummo'g'ul xoni vafotiga vaqtiga kelib mo'g'ul zamindorlarining mulklari Shimoliy Xitoyning bir qismi, Janubiy Sibir va Sharqiy Turkistonning bir qismi, butun O'rta Osiyo va Eronning bir qismini qamrab olgan edi. Istilochilarning ulkan armiyasi nafaqat mo'g'ullardan, balki ko'p sonli itoat ettirilgan xalqlar otryadlaridan iborat bo'lgan.

Chingizxon vorislari davrida (1227-1259) Mo'g'ullar imperiyasi. Chingizxon vafotidan so'ng uning o'g'illari o'rtasida taxt uchun kurash boshlangan. 1229-yilning sentyabrda Kerulan daryosi bo'yida qurultoy bo'lib, unda Chingizning uchinchi o'g'li O'qtoy ulug' xon etib saylangan. Bu qurultoy Shimoliy Xitoyning chjurchjenlar hokimiyati ostida qolayotgan qismini istilo obyekti sifatida belgilab bergan. Qurultoyda "kambag'allarga yordam ko'rsatish" to'g'risidagi masala muhokama qilingan. Bundan hukmron tabaqaning istilochilik siyosatidan hech qanday naf ko'rmagan oddiy mo'g'ullar o'z xo'jayinlaridan norozilikni namoyon etganlar degan xulosa chiqarish mumkin.

1231-yili mo'g'ul qo'shinlari O'qtoy va Tuluy qo'mondonligi ostida Shimoliy Xitoyga bostirib kirganlar va mo'g'ullar tomonidan Pekin egallangandan so'ng chjurchjenlar poytaxti ko'chirilgan Byan (Kayfin)ni qamal qilganlar. Dushmanni bitta-bitta mahv etish taktikasiga sodiq mo'g'ul lashkarboshilari Janubiy Xitoyning Sun sulolasidan bo'lgan hukmdorlarga chjurchjenlarga qarshi kurashda yordam so'rab murojat qilganlar. Sunlar avvaliga istilochilarga yordam ko'rsatishgan, so'ng esa bundan bosh tortganlar. Biroq chjurchjenlarning tayanch punktlari birin-ketin mo'g'ullar qo'lga o'ta boradi. 1234-yili Shimoliy Xitoyni istilo etish yakuniga yetgan va chjurchjenlar davlati yo'q qilingan.

1235-yili navbatdagi qurultoyda mo'g'ul zamindorlari g'arbga yangi yurishni boshlashga qaror qilganlar. Botu va Subetoy boshchiligidagi qo'shinlar 1237/1238-yilning qishida rus yerlari chegaralariga bostirib kirganlar. Ular Ryazan va Vladimiri egallab, talon-taroj qilganlar, yondirganlar. 1238-yilning bahorida mo'g'ullar Novgorodga yetib borishgan, ammo ularning otliq qo'shinlari muvaffaqiyatli harakat qila olmaydigan o'rmon va botqoqliklardan qo'rqib janubga qaytganlar. Unchalik katta bo'lmagan rus shahri Kozelskning qattiq mudofaa etilishi bosqinchilarga katta talofat yetkazib, ularni ikki oyga ushlab turgan.

1239-yili istilochilar o'rdalari o'z yo'lida bor tirik jonni yo'q qilib, Rusning janubiga yo'l olganlar. Dnepr daryosini kechib o'tib, ular 1240-yili Kiyevni egallaganlar. Shundan so'ng mo'g'ul qo'shinlarining bir qismi Vengriyaga yo'l olgan, boshqa qismi esa Polshaga bostirib kirgan. Polsha va Sileziyani ship-shiydam etib, mo'g'ullar Moroviya tomon yo'nalgan. Biroq ahvollari mustahkam emasligicha qolayotgan Rusga qarshi janglarda mo'g'ullar tomonidan berilgan ulkan talofatlar istilochilarni bu vaqtda g'arbga tomon yo'lni to'sib turgan birlashgan chex-avstriya armiyasiga qarshi jangdan voz kechishga undagan. G'arbiy Yevropada erishilgan yutuqlarni ushlab turishga ko'zi yetmagan mo'g'ullar 1241-yili chekina boshlaganlar.

Ulug' xon O'qtoy taxtda bo'lgan -yillar (1229-1241)da ulkan imperiyaning ichki boshqaruvini yo'lga qo'yishga urinib ko'rilgan. O'qtoy moliya ishlarini idora etishni kelib chiqishi kidanlardan bo'lgan, o'zining maslahatchisi Yelyuy Chutsayga topshirgan, boshqa harbiy va fuqorolar ishlarini yuritish rahbarligini uch nafar tumanboshisiga yuklagan. Pochta xizmatini yo'lga qo'yishga katta e'tibor berilgan, zero istilochilar bundan haddan tashqari manfaaddor bo'lishgan. O'z hokimiyati qo'l ostidagi aholidan soliqlar yig'ish, majburiyatlar bajariliishni normallashtirish bo'yicha choralar ko'rilgan. O'qtoy tomonidan chiqarilgan qonun g'arbiy mamlakatlar uchun jon solig'ini balog'atga yetgan erkaklardan olinishini ko'zda tutgan. Ko'chmanchilardan har yuz qo'ydan bitta qo'y soliq sifatida olingan. Bu tizim har bir aholi punkti mo'g'ul no'yonlaridan kimningdir hokimiyati

ostiga berilgan bir sharoitda imperiyada hukm surgan anarxiya va o'zboshimchaliklarning o'rnini almashtirishi lozim edi. Xon farmoni qanday soliqlar ulug' xon g'aznasiga tushishini, qaysilari mahalliy hukmdorlar tasarrufida qoldirilishini belgilab bergan. Aholini ro'yxatga olish amalga oshirilgan. Barcha aholi muayan ma'muriy hududga biriktirib qo'yilgan.

Istilo etilgan mamlakatlar va viloyatlar mahalliy zamindorlar boshqaruviga berilgan, ular ustidan maxsus qo'yilgan no'yon esa o'lpon yig'ilishi uchun javobgar bo'lgan. Shu bilan birga o'lpon yig'ishni boy savdogarlarga otkup (o'lponni oldindan to'lab, keyin ortig'i bilan yig'ib olish tizimi)ga berish amaliyoti qo'llangan.

Mo'g'ul saltanatining poytaxti bo'lib qolgan, Chingizxon tomonidan boshlangan Qoraqurum qurilishi nihoyasiga yetkazilgan. Unda ko'p sonli hunarmandlar, shu jumladan istiol qilingan mamlakatlardan haydab kelingan hunarmand ustalar, mutaxassislar istiqomat qilganlar.

Imperiyada xalq ommasining ahvoli nihoyatda og'ir bo'lgan. Yelyuy Chutsayning so'zlariga qaraganda, yuqori amaldorlar odil sudlov va mansabu-lavozimlar bilan savdo qilishgan, qamoqxonalar tamagirlar zo'ravonligiga qarshilik ko'rsatishga jur'at etganliklari uchun jazoga tortilgan beayb kishilar bilan to'lib ketgan. Xalq ommasining noroziliklari ochiq bosh ko'tarishlarga aylangan. Chunonchi, O'qtoy o'limidan uch -yil oldin O'rta Osiyoda dehqon va hunarmandlarning Mahmud Tarobiy boshchiligidagi ommaviy qo'zg'aloni ko'tarilgan.

O'qtoyning o'limi taxt uchun kurashning yangi uchqunini keltirib chiqargan. Bu kurash qariyb besh -yil davom etgan. 1245-yilda O'qtoyning o'g'li Guyukni xon etib saylagan qurultoy bo'lib o'tgan. Guyukning saylanishiga buyuk xon qarorgohiga papa Innokentiy IV tomonidan yuborilgan monax Plano Karpini, gruzin podshosining ikki o'g'li, rus knyazi Yaroslav Vsevolodovich (Aleksandr Nevskiyning otasi), Bog'dod xalifasi Mustasimning elchisi, xitoy amaldorlari va boshqalar guvoh bo'lishgan.

Guyukning boshqaruvi uzoqqa cho'zilmadi: 1248-yili uning hokimiyatini tan olishdan bosh tortgan Botuga qarshi yurishga qizg'in

tay.y.organlik ko‘rilayotgan bir vaqtda vafot etgan. Boshlanib ketgan o‘zaro urushlardan Jo‘ji va Tuluy avlodlari bilan O‘qtoy va Chig‘atoy avlodlari kurash olib borganlar. Botu tarafdorlari ustunlik qilgan 1251-yilgi qurultoyda Tuluyning o‘g‘li Munqa ulug‘ xon etib saylangan. Yangi xon O‘qtoy va Chig‘atoy avlodlariga qarshi kurash boshlagan, pirovardida ular mulklarining anchagina qismi tortib, keyinroq bu mulklar Botu va Munqa mulklariga qo‘shib olingan.

O‘tmishdoshlarining siyosatini davom ettirgan holda, Munqa ukasi Xulaguni qo‘shin bilan, unga Eronni bo‘ysundirish vazifasini yuklab g‘arbga jo‘natadi. Boshqa ukasi Xubilayni Xitoyni uzil-kesil bo‘ysundirish uchun mo‘ljallangan qo‘shinga boshliq qiladi.

Xulagu yurushga otlar ekan, bo‘ysundirilgan xalqdarning hukmdorlaridan yurishda ishtirok etish uchun otryadlar yuborishni talab etgani asnosida mo‘g‘ul qo‘shinlarini kuchaytirish chora-tadbirlarini qo‘rgan. 1256-yilning oxiriga kelib u Eronni bo‘ysundirgan va ismoiliylarning qalalarini egallab olgan. U 1258-yilning fevralida Bag‘dodni qo‘lga kiritgan. Xulagu Misrga istilochilik yurshini uyushtiradi, biroq 1260-yili mo‘g‘ullar Ayn-Jalutda og‘ir mag‘lubiyatga uchraganlar va chekinishga majbur bo‘lganlar. Mo‘g‘ullar tomonidan istilo etilgan Eronda Xulaguiylar sulolasi boshchiligida davlat vujudga kelgan.

Xuloguning g‘arbga yurishi bilan bir vaqtda Xubilay qo‘shinlari Sun davlati qo‘shinlarini siqib borib, Janubiy Xitoyga bostirib kirganlar. Biroq Xubilayning yurishi 1259-yili Munqaning vafoti bilan to‘xtab qolgan. Bundan keyin sodir bo‘lgan hodisalar mo‘g‘ullar imperiyasining ichki zaifligi va berqarorligini namoyon qildi.

Bu vaqtga kelib Mo‘g‘ul imperiyasi o‘z tarkibiga turli-tuman tillarda so‘zlashuvchi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning turli bosqichlarida bo‘lgan ko‘plab xalqlar va elatlar, qabilalar yashaydigan ulkan hududlarni o‘z ichiga olgan edi. Na iqtisodiy na madaniy manfaatlar imperiyaning turli urug‘li, har-xil tilli qismlarini o‘zaro bog‘lamasdi. Bu imperiyani shu bois tipik harbiy-ma‘muriy birlashma deyish mumkin.

Ulug' xonlarning domeni bo'lgan Mo'g'uliston va Shimoliy Xitoy imperiyaning markaziy qismini tashkil etgan. O'qtoy avlodlari ulusi g'arb tomon yoyilgan bo'lib, unga Oltoy tog'laridan sharqda va g'arbdagi yerlar kirgan. Hozirgi Chuguchak shahri rayoni ulusning markazi bo'lgan. Imperiyaning uchinchi qismini O'rta O'siyoning Amudaryogacha bo'lgan sharqiy viloyatlarini o'z ichiga olgan Chig'atoy valodlarining ulusi tashkil etgan. Ili daryosi bo'yidagi (hozirgi G'ulja atrofida) Olmaliq shahri bu ulusning markazi bo'lgan. Eron, Iroq va Kavkazorti (Zakavkazye) Xulagu ulusiga kirgan, uning markazi Tabriz shahri bo'lgan. Imperiyaning beshinchi qismi Jo'ju valodlariga tegishli bo'lgan va uni "mo'g'ul otlarining tuyoqlari yetib borgan" barcha yerlar, ya'ni mo'g'ullarning barcha Sharqiy Yevropadagi mulklari tashkil etgan. Volga quyi oqimidagi, hozirgi Astraxan yaqinidagi Saroy shahri jo'jiylarning poytaxti bo'lgan.

Munqa bu imperiyaning mo'g'ul no'yonliklari tomonidan tan olingan so'nggi hukmdori edi. Uning o'limidan so'ng imperiya parchalanib ketgan.

Yuan mo'g'ul imperiyasi (1271-1368). Munqa o'limidan so'ng ulug' xon taxtiga birdaniga ikki da'vogar-Xubilay va uning ukasi Arig'-bug'alar maydonga chiqqanlar. 1260-yili Xubilay o'zining harbiy sarkardalari va safdoshlarini yig'gan va ular uni ulug' xon deb e'lon qilganlar. ayni vaqtda Qoraqurumda qurultoy bo'lib o'tgan, unda Arig'-bug'a ulug' xon deb e'lon qilingan. Ikki ulug' xon o'rtasida to'rt -yilga cho'zilgan urush boshlangan va u Arig'-bug'aning mag'lubiyati bilan tugagan. Biroq bu urushda boshqa uluslar hukmdorlari, hususan xuloguiylar va jo'jiylar qatnashmaganlar. Bu uluslarning hukmdorlarini o'z yumushlari va ular o'rtasida yetilib kelayotgan urush ko'proq qiziqtirar edi, o'z navbatida unga ulug' xon aralashmagan. G'arbiy uluslar amalda mo'g'ul saltanatidan ajralib chiqib mustaqil davlatlarga aylanganlar. Endilikda imperiya o'z ichiga Mo'g'ulistonni va istilosi hali uzoq vaqt yakuniga yetkazilmagan Xitoyni olgan.

Xubilay Arig'-bug'a ustidan g'alaba qozonganidan so'ng Xitoyning Janubiy rayonlarini itoat ettirishga kirishgan. Istilochilar Yanszi daryosi o'rta oqimi rayonida qattiq qarshilikka uchraganlar. Ular

katta rayonning mudofaa markazi Uchan shahrini egallashga muvaffaq bo‘lishgan. Faqat shundan so‘nggina ular sharqqa tomon, so‘ng esa janubga harakatlana olganlar. Sun sulolasi xalqni dushmanga qarshi kurashga butun mamlakat miqyosida ko‘tara olmagan. Mo‘g‘ul qo‘shinlari 1276-yili poytaxt-Xanchjou shahrini egallaganlar. Garchi muvaffaqiyatsiz bo‘lsa-da alohida xitoy otryadlari yana bir qancha vaqt kurashni davom ettirganlar. Butun Xitoy mo‘g‘ul istilochilari tomonidan 1279-yili bosib olingan.

Hali Janubiy Xitoyni batamom istilo etguniga qadar Xubilay 1267-yili Szin sulolasi sobiq qarorgohi Chjundu shahrida yangi poytaht qurilishini amalga oshirgan. Shahar Buyuk poytaxt (hozirgi Pekin) deb nomlangan.

1271-yili Xubilay o‘z sulolasi uchun xitoycha nom Yuan ya’ni “boshlanish” nomini olgan. Bunga qadar ikki -yil avval Xubilay xitoylik amaldorlar Lyu Binchjun va Syuy Xenga xitoyni mo‘g‘ullar tomonidan idora etilishi uchun zarur bo‘lgan ma’muriy va davlat tuzilishi loyihasini ishlab chiqishni buyurgan. U 1269-1270-yillar davomida tay.y.orlangan va 1271-yili kuchga kiritilgan.

Yuan imperiyasini mo‘g‘ul xoni boshqargan. Iyerarxik zinapoyada undan keyin imperatritsa-xansha, taxt vorisi valiaxd va xon qarindoshlari turgan. Tashqi munosabatlarda ham, imperiya ichida barcha to‘laqonli hokimiyat xoqon qo‘lida to‘plangan. Xondan keyin ma’muriy hokimiyatga ba’zan davlat ishlari ustidan umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi uch nafar davlat maslahatchilari ega bo‘lganlar. Ularni “uch gun” deb ataganlar.

Xonga bevosita qarashli bo‘lgan viloyat va okruglarni hisobga olmaganda Xitoyning barcha hududi o‘nta muzofotga bo‘lingan. Muzofot boshqarmalari boshliqligiga, shuningdek muzofotlardagi muhim ma’muriy lavozimlarga, yirik shaharlar hokimi lavozimlariga 25 yoshdan katta bo‘lgan mo‘g‘ullar tayinlanishgan. Yuzboshilik, ellikboshilik kabi mahalliy ma’muriy organlardagi ma’muriy lavozimlarga xitoyliklar jalb etilgan.

Mo‘g‘ulistonni o‘zining ma’muriy tizimiga o‘zgarish kiritib Xubilay xon taxt vorisini butun Mo‘g‘ulistonni boshqarishga tayinlagan.

Boshqacha aytganda, Xubilay xon boshqaruvidan boshlab shaxzodaning hokimiyati kengaytirilib, uning funksiyalari aniq belgilab qo'yilgan. Taxt vorisini oldindan tayinlab qo'yish xon hokimiyatini yanada ko'proq quchaytirilishini, zamindorlarning o'z hukmdorlari nomzodini saylashdagi ishtirokini cheklanishini va bu bilan feodal separatizmi namoyon bo'lishi uchun asoslarni tugatilishini bildirar edi. Xubilay tomonidan o'rnatilgan bu tadbir Yuan sulolasi davri ohirigacha saqlanib qolgan. Armiya va gvardiyani tashkil qilish Chingizxon mo'g'ul davlati mavjud bo'lgan davrdan aytarli o'zgarishlarga uchramagan. Xon saroylarini qo'riqlaydigan gvardiya 12 ming kishiga yetkazilgan, ulardan 3 ming nafari har uch sutkada almashtirilgan.

Xubilay xon 1294-yilda vafot etgan. 1295-yili xon taxtini O'ljoytu Temur egallagan. U hokimiyat tepasida 12-yil turgan. Manbalarning xabar berishicha Temurxon Mo'g'ulistondagi ishlarining ahvoriga alohida e'tibor qaratishga harakat qilgan. U yerda XIII asr oxiriga kelib vaziyat uzoq davom etgan ketma-ket alg'ov-dalg'ovliklar tufayli murakkablashgan. Ayniqsa og'ir sharoitlar mamlakatning markaziy viloyatlarida, Qoraqurum rayonida vujudga kelgan. Chorva mollari soni keskin kamayib ketgan, binobarin, mol-podalari va uyurlarni qo'riqlovchi, yaylovlarda mol boqish bilan band bo'lgan asosiy ishchi kuchi urushlar va qurolli to'qnashuvlardan talofatlar tufayli sezilarli darajada qisqarib ketgan edi. Aftidan, mo'g'ullar orasida turmush sharoitlaridan norozilik o'sa borgan, shu bois Temurxon ham, uning vorislari ham mo'g'ul manzilgohlarining turmush farovonligini ko'tarish bo'yicha bir qator choralar ko'rganlar. Jumladan, Temurxon Mo'g'ulistonga ko'p miqtorda tovarlar va qog'oz pullar yuborib turgan.

Uning vorisi Xayson-Xulugxon (1307-1311) mazkur siyosatni davom ettirgan. Mo'g'ulistonni boshqarish ishlarida uning davrida no'yon Xaraxasun katta rol o'ynagan. Uni Mo'g'ulistonga "Yuan sulolasi tarixi"da xabar qilinishicha "tartib va osoyishtalikni o'rnatish uchun" yuborishgan. Xitoy manbalarining ma'lumotlariga ko'ra, Xaraxasun qog'oz pul va ipak matolarga Mo'g'ulistonda yirik qoramol va otlar sotib olib, ularni xonavayron bo'lgan mo'g'ullarga tarqatgan, tashlab qo'yilgan sug'orish kanallarini tiklagan, ziroatchilikni

rivojlantirishga harakat qilgan, ovchilik va boshqa hunarlarni qo‘llab-quvvatlagan. Bu chora-tadbirlar natijasida “Yuan sulolasi tarixi”ning xabar berishicha tartib va tinchlik-xotirjamlikka erishilgan.

Ayurbaribad xon davri (1311-1320)da Mo‘g‘uliston aholisi ikki yilga soliq va majburiyatlardan ozod etilgan. Bundan tashqari manbalarning guvohlik berishicha, “uning farmoniga ko‘ra Mo‘g‘uliston xalqiga tuyalar, otlar, sigir va qo‘ylar o‘z chorvasiga ega bo‘lib xalq xotirjam bo‘lishi uchun tarqatilgan”.

Biroq Yuan sulolasi boshqaruvi davrida Mo‘g‘uliston gullab-yashnash va farog‘atga erishgan deb o‘ylash xato bo‘lar edi. B.Y.Vladimirsevning ta‘kidlashicha, “Mo‘g‘uliston va mo‘g‘ullarning farovonligi tez orada chippakka chiqqan. Harbiy o‘lja, istilo qilingan mamlakatlarning boyligi xon va no‘yonlarning extiyojlarini qondtrishga ketgan, harbiy qiyinchiliklar esa mo‘g‘ul mehnat ahlining gardaniga tushgan. Yuan sulolasi imperatorlarining mo‘g‘ul xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘rgan choralari yaqqol majburlikdan qilingan choralar bo‘lib, mo‘g‘ul zodagonlarining istilochilik siyosatlari mamlakat iqtisodiyotini qanchalik xoldan toydirganligining bilvosita dalolati hisoblanadi. O‘z davlatining barcha kuchlarini boshqa xalqlarni istilo etishga safarbar etgan xonlar va no‘yonlar mamlakat xo‘jaligini rivojlantirish haqida qayg‘urmaganlar”.

Mo‘g‘ulistonni boshqargan dastlabki yillarda Chingizxon shaharlar qurilishiga, hunarmandchilikni rivojlantirishga, avvalo qurol-yarog‘ va harbiy aslahalar tay.y.orlashga va shuningdek mahsulotlari o‘sib borayotgan armiyani ta‘minoti uchun zarur bo‘lgan ziroatchilikka jiddiy e‘tibor qaratgan. S.V.Kiselevning arxeologik ekspeditsiyasining qazishmalari bergan ma‘lumotiga ko‘ra Chingizxon davrida Xirxira daryosi (Argunga quyuluvchi Urulyunguy daryosi irmog‘i) bo‘yida shahar qurilgan. Bu shahar Chingizxonning akasi Jo‘ji-Xasar mulklarining ma‘muriy va iqtisodiy markazi bo‘lib qolgan. 1220-yili Chingizxon O‘rxun daryosi bo‘yida o‘z davlatining poytaxti Qoraqurum shahrini, shu nom bilan atalgan qadimgi shahar o‘rnida bunyod etgan. Qoraqurum qurilishi 1235-yili nihoyasiga yetgan. Munqaxon davrida uni kengaytirish va qayta qurish davom ettirilgan. Ko‘plab manbalarning

xabar berishicha, mo'g'ul shaharlarida, avvalo Qoraqurumda hunarmandchilik va savdo keng rivojlangan. U yerda dunyoning ko'plab mamlakatlarning savdogarlari to'plangan. Chingizxon davrida davlatga qarashli ekin ekiladigan manzilgohlarda g'alla yetishtirish boshlangan. Chinxay-balgasun (hozirgi MXRning Gobi-Oltoy aymoqi hududi) chingiziylar davridayoq don yetkazib berishning yirik punktiga aylangan. Xayson-xulugxon (1307-1311) davrida bu yerda yiliga 200 ming qop don olingan.

Mo'g'ullar tomonidan xo'jalik va madaniy jihatidan bir qadar yuqori darajada bo'lgan mamlakatlarni istilo etilib, ulkan mo'g'ul imperiyasi tashkil etila borishi bilan azaliy mo'g'ul yerlari xo'jaligi su'niy ravishda mehnat taqsimotining uning uchun zararli ta'sir doirasiga tushib qolgan. Mo'g'ul xonlari va no'yonlari istilo etilgan yerlarda o'rnashib qolganlari holda, begona yurt hunarmandchilik va dehqonchilik mahsulotlarini o'zlashtirib olganlar, "muqaddas" mo'g'ul hududiga esa tobora chorvachilikning asosiy bazasi, imperator va eng yirik zamindorlarning chorva mollarini boqib ko'paytirish va o'tlatish uchun yaylov zonasi sifatida qaraganlar. Bunday uzoqni ko'zlamaydigan siyosat natijasida Mo'g'ulistonda hunarmandchilik va shaharsozlik tushkunlikka uchray boshladi. Xonlar va no'yonlar boyliklarini ishlab chiqarish kuchlarini ichki rivojlanishi hisobiga emas o'zga yurtlarni talash hisobiga ko'paytirishga intilganlar. Mo'g'uliston xo'jaligi past suratlar bilan rivojlana borgan va ayni vaqtda mehnat ahlini ekspluatatsiya qilish kuchaygan, hokimiyat tomonidan o'zboshimchaliklar va suiste'molliklar ko'paygan, ko'plab insonlar hayotiga zomin bo'ladigan ocharchiliklar tez-tez bo'lib turgan. 1337-yili Xitoyda xalq qo'zg'olonlari boshlangan. 1368-yili xitoy xalqining qo'zg'olonchilik harakatlari imperator To'g'on-Temurning Pekindan quvg'in qilinishi va Yuan sulolasining qulashi bilan yakunlangan.

Siyosiy tarqoqlik. Yuan imperiyasining qulashi bilan umummo'g'ul xonining hokimiyati sezilarli darajada zaiflashgan va nomigagina qolgan. Mo'g'ul no'yonlari urushlar davrida mustahkamlanib, boyib borganliklari holda, o'zlari egaliklaridagi mulklari doirasida siyosiy mustaqillikka intilishgan. Shartli in'omlar

bo‘lgan xubi (ulush, qism) XIV asrda asta-sekin merosiy mulklar omch (mulk) bilan almashgan.

Mo‘g‘ul jamiyatida ko‘rilayotgan davrda asosan ikki tabaqa: bir tomondan zamindorlardan aborot hukmron tabaqa, boshqa tomondan mazlum tabaqa-qaram aratlar ommasi ajralib turgan.

Zamindorlar tabaqasiga chingiziylarning “oltin urug‘i” vakillari mansub bo‘lganlar. Ularga xizmatchi ayonlar-sobiq tumanboshi va mingboshilarning avlodlari bo‘ysunganlar. Yirik zamindorlar xonning vassallari hisoblanishgan. Ularning majburiyatlari o‘z syuzerenlariga nisbatan harbiy va ma‘muriy masalalarni hal etish uchun syezdlarda albatta ishtirok etish, sud va ma‘muriy organlarda xizmatni o‘tashdan iborat bo‘lgan. Xonning talabi bilan ular jangchilari bilan to‘la qurollangan holda, yurishlarga chiqishlari lozim bo‘lgan. Biroq o‘z yer-mulklariga tayangan holda zamindorlar mustaqillikka intilganlar, xatto ko‘pincha o‘z syuzerenlari ko‘rsatmalarini bajarishdan bosh tortganlar va nihoyat ba‘zan xon hokimiyatini o‘zlari egallab olganlar. Bularning barchasi zamindorlar o‘rtasidagi o‘zaro kurashlarni o‘shishiga olib kelgan va mamlakat tarqoqligini kuchaytirgan.

Aratlar ommasining Mo‘g‘ulistonda ilk o‘rta asrlardayoq ko‘zga tashlangan zamindorlarga qaramligi va ular mehnati samaralarini zodagon yer-mulk egalari tomonidan o‘zlashtirish jarayoni tobora rivojlanib borgan. Qaram aratlar asta-sekin albatu deb atala borganlar, ya‘ni feodal majburiyatlar (alba) o‘tashga va o‘z egalariga bo‘ysunishi lozim bo‘lgan kishilarga aylanganlar.

Aratlar o‘z xo‘jayinlarining ijozatisiz bolalariga mulk ajratib berishlari, o‘g‘illarini uylantirishlari, qizlarini erga berishlari, qarz olishlari va berishlari mumkin bo‘lmagan.

Asosiy ishlab chiqaruvchi tabaqa bo‘lib, o‘zning mehnati bilan butun mo‘g‘ul jamiyatini ko‘tarib turgan aratlar ommasi bir xilda bo‘lmagan. Aratlar ommasiga avvalo o‘ziga to‘q amaldor oilalari kirgan “yaxshi odamlar” mansub bo‘lishgan. Undan so‘ng o‘ziga to‘q, ammo mansabga ega bo‘lmagan kishilardan iborat “o‘rta hollar” kirgan. Uning oxirgi guruhini kambag‘allar “qora xalq” tashkil etgan.

Yuan davridan keyingi manbalarda barcha sharqiy mo'g'ullar bo'lingan oltita tuman haqida va oyratlarning to'rtta tumani haqida eslatiladi.

XIV asrda "tuman" (10 ming) termini nafaqat harbiy bo'linmaning tarkibiy qisminigina emas, balki yirik mulklar-uluslarni ifodalash uchun ishlatila borgan.

Har bir ayllarning bir qadar yirik va unchalik katta bo'lmagan guruhlariga bo'linib ketgan, ular yuanlardan keyingi davrda otok deb atala boshlagan. Harbiy nuqtai nazardan otok shuningdek muayan birlikni namoyon etgan chunki uning lashkari alohida harbiy qismni tashkil etgan. Otoklar nafaqat qon-qarindosh guruhlaridan iborat bo'libgina qolmay, ularga qachonlardir "minglik"larda bo'lganidek turli urug'lar birlashmalarining vakillari kirishlari mumkin edi.

Bir-birlaridan ulkan kengliklar, ko'pincha esa o'tish qiyin bo'lgan tabiiy to'siqlar bilan ajratilgan bir-birlari bilan iqtisodiy jihatidan bog'lanmagan Mo'g'uliston knyazliklari Yuan sulolasi ag'darilgandan so'ng tezlik bilan mustaqil mayda davlat uyushmalarilarga aylana borganlar. Xonlik taxti tobora ko'proq turli zamindor yirik guruhlar o'rtasidagi muttasil kurash quroliga aylangan. Mo'g'ul zamindorlari Xitoy ustidan o'z hokimiyatlarini tiklashga bo'lgan umidlaridan birdaniga voz kechmaganlar. Pekindan qochib ketgan To'g'on Temur Xitoyning shimoli-g'arbida jang qilgan o'z sarkardasi Kuku-Temur, shuningdek Pekindan shimoli-sharqdagi Szinshan tog'larida o'z otryadi bilan yashiringan Nagachu bilan aloqalarni quvvatlagan xolda, o'z qo'shini bilan Dalay-nor ko'li yonida mustahkamlanib olgan. Bu kuchlarga tayanib, To'g'on Temur Yuan sulolasini tiklash uchun kurashga tay.y.orlangan. Biroq 1370-yili To'g'on Temur lageri Xitoy qo'shinlari tomonidan tor-mor qilingan. Faqat To'g'on Temurning o'g'li Ayushridaragina qutulib qolgan va Qoraqurumga qochgan. Qoraqurum yana Mo'g'ulistonning siyosiy markazi bo'lib qolgan. Bu yerda 1370-yili Ayushridara Biliktuxon nomi bilan xon deb e'lon qilingan. Qoraqurumda qurolli kuchlar shakllantirilgan, ular yordamida Biliktuxon xitoydagi hokimiyatni qaytarib olishni mo'ljallagan.

Biroq 1372-yili Mo'g'ulistonga Min sulolasi qo'shinlari bostirib kirganlar va ular bilan bo'lgan janglarda Biliktuxon qo'shinlari tor-mor qilingan. Biroq bir -yildan so'ng mo'g'ul zamindorlarining o'zlari Xitoyning chegara viloyatlariga bir necha xujumlar uyushtirganlar.

Mo'g'ul xoni bilan tinchlik to'g'risida shartnomaga erishishni istab, min hukumati 1374-yili Biliktuxonning o'g'li Maydoralni asrligidan ozod etib, u bilan sulh takliflarini yo'llagan. Ikki o'rtada tinchlik 1378-yili Biliktuxon vafotiga qadar saqlab turilgan. Uning vorisi To'g'us-Temur (1378-1388) Xitoyga qarshi urush harakatlarini yangidan boshlagan. 1380-yilning bahorida Xitoy armiyasi Mo'g'uliston sarhadlariga bostirib kirgan, Qoraqurumni egallab, uni vayron qilgan. Urush 1388-yilgacha davom etgan. Shu -yili To'g'us-Temur mag'lubiyatga uchragan va o'ldirilgan.

Manbalar 1388-yildan so'ng 12-yil ichida Mo'g'ulistonda beshta xon almashganligidan darak beradi. Zamindorlar o'z syuzerenlariga itoat etmay qo'yganlar. Ular o'z tashqi siyosatlarini yuritganlar, alohida feodallar bilan boshqalariga qarshi ittifoqlar tuzganlar.

XIV asr oxiridan Mo'g'ulistonning g'arbiy va sharqiy zamindorlari o'rtasida uzoq davom etgan ichki urushlar boshlangan. Bu kurashlarning asosiy sabablaridan biri mo'g'ul knyazliklarining Xitoy bilan savdo aloqalarini uzilib qolishi bo'lgan. Bu oyrat zamindorlarining ular manzilgohlarini Xitoyni G'arb mamlakatlari bilan bog'lovchi savdo yo'llari bo'ylab qulay joylashuvi bilan bog'liq ustunlik va daromadlardan maxrum etgan. Xitoy bilan iqtisodiy aloqalarni tiklashga intilib, oyrat zamindorlari sharqiy Mo'g'uliston orqali o'tadigan savdo yo'llari ustidan hukmronlik qilish uchun ichki urushlarni boshlaganlar. Bu kurashlar davomida oyrat knyazlari qarorgohi sharqda bo'lgan umummo'g'ul xoniga bo'ysunishdan chiqqanlar. Mamlakat amalda ikki qismga parchalangan ularning har birini o'z hukmdori boshqargan.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Mo'g'ul qabilalari qadimdan yashab kelgan hududlarni yozuvsiz xaritaga tushiring
2. Mo'g'ullarning mashg'ulotlari nimalardan iborat bo'lgan?

3. Chingizxon davlati qay tariqa vujudga kelganligini izohlab bering.
4. Mo'g'ullar qo'shinining tuzilishining o'ziga xos jihatlari to'g'risida fikr yuriting.
5. Bosqinchi mo'g'ul qo'shinlariga g'alaba keltirgan asosiy omillarni izohlang.

6-§. YAPONIYA X-XV ASRLARDA

Darsning maqsadi: X-XV asrlarda Yaponiyani rivojlanishining asosiy tendensiyalari, tarixiy taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari haqida talabalarga ma'lumot berish.

REJA:

- 1. X-XV asrlarda Yaponiyada Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar;**
- 2. Sobiq (eks)-imperatorlar boshqaruvi va ular hokimiyatining ijtimoiy-iqtisodiy asosi;**
- 3. Yaponiyaga mo'g'ullar istilosi xavfi va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari.**

X-XV asrlarda Yaponiyada Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Yaponiyada yirik yer egaligi munosabatlarining rivojlanishi mamlakatni chetdan ajratib qo'yilishi vaziyatida ro'y bergan va avvalo chek yer (nadel) tizimining parchalanishi va xususiy yer egaligi votchina (syoen) ning o'sib borishida namoyon bo'lgan.

Syoen novini o'zlashtirish natijasida VIII asr ikkinchi yarmida vujudga kelgan. Votchinaning bundan keyingi rivojlanishi barshchinadan foydalanishga bo'lgan huquqni qo'lga kiritilishi bilan bog'lik, bunda zamindorlar va cherkov vaqt o'tishi bilan dehqonlarning birgina barshchina mehnati bilan kifoyalanmay, bu dehqonlar tomonidan ishlov berilayotgan yerlarga ham o'z yer-mulklarini ko'paytirish uchun da'vo qila borganlar. Bu tipdagi syoenlar XI-XII asrlarda niyebatan iqtisodiy taraqqiy etgan Kinay markaziy rayonida, hozirgi Osaka shahri atrofida tarqalgan.

X asrda shuningdek kommendatsion tipdagi syoen vujudga kelgan. U XII asrda keng rivojlangan. Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi va muzofot ma'muriyatining o'zboshimchaliklari kuchayishi bilan mahalliy ziroatkorlar o'z mulklarining xavfsizligini kafolatlash uchun o'z yerlarini gubernatorga "olib borib" (kommendatsiya) bergan. Gubernator o'z navbatida bu yerni ko'pincha yo saroy zodagoniga,

avvalo Fudzivara xonadoni vakiliga yohud imperatorning o'ziga taqdim etgan. Bunday ikki yoqlama kommandatsiya xolatida gubernator mulk egasi, yuqori turuvchi shaxs esa patron, votchina xomiysi bo'lib qolgan. Syoenning bu tipi uchun kommandator quyi zveno bo'ladigan, xomiy-zodagon yoki imperatorning o'zi yuqori zveno bo'luvchi piramida tuzilishi xarakterlidir. Bu ijtimoiy-iqtisodiy zinapoyaning har bir bo'g'ini o'z huquqi va majburiyatlariga ega bo'lgan. Syoen ma'muriyati sholi solig'ining to'g'ri to'lanishi va barshchinaning ustidan nazorat qilib borishi lozim bo'lgan.

Asosiy soliqning miqdori qayta ro'yxatga olish asosida belgilangan. Aslida syoen egalarining har bir yangi avlodi sholi ekiladigan hududlar maydonlarini iloji boricha to'la hisobga olish va soliqqa tortishning yangi meyorlarini o'rnatish maqsadida ro'yxatga olishni amalga oshirgan. Mahalliy aholi ishlov beriladigan yerlarni yashirishga intilgan va bu tendensiya kuchayib borgan. Syoen egalari provinsiya ma'muriyati kabi davlatga qarashli maydonlar hisobidan o'z yerlarini kengaytirishga intilganlar, biroq xatto syoenlarning ko'p eng ko'p rivojlangan davrida (XI asr ikkinchi yarmidan va XII asr davomida) davlat yerlari garchi qicqargan bo'lsa-da, ammo mavjud bo'lishda davom etgan, birmuncha qoloq rayonlarda esa 50% dan ortiq yerlar davlat tasarufida bo'lgan.

Vasiyning asosiy majburiyati yerga bo'lgan boshqa da'vogarlarning daxl qilishidan syoenni o'rab olish bo'lgan. Agar u bu ishni qilmasa votchina egasi syoenni boshqa xomiyga qayta kommandatsiya qilishi mumkin edi. Vasiylar vasiyat qilish, meros qilib qoldirishi, to'la va qisman sotish huquqiga ega bo'lganlar, biroq barcha bu kabi huquqiy operatsiyalar dehqonlarning ishlab chiqarish faoliyatiga daxl qilmagan. Dehqonlar tomonidan tark etilgan va syoenga qo'shilgan chek yerlarning tashlab qo'yilgan uchastkalarida daydilar, qochoq dehqonlar va hunarmandlarning alohida manzilgohlari yuzaga kelgan. Ular yerga egalik bilan bog'liq soliq, yig'im, majburiyatlardan ozod etilganlar, ammo zamindorlarning xo'jalik ehtiyojlarini qondirish uchun majburiyatlarni o'tashlari lozim bo'lgan. Bu votchinalarda zamindorning iqtisodiy hokimiyati boshqa tipdagi votchinalarga

nisbatan bo'shroq bo'lib, bu esa bunday "tashlandiq maydon" da yashovchilar uchun iste'moldan birmuncha oshiqcha o'z mahsulotlarini jamg'arish va ularni poytaxtda sotish imkoniyatini yaratgan.

Votchina parchalana boshlagan vaqtda, ayniqsa zamindorlar o'z dushmanlaridan jang bilan tortib olgan yerlarni o'z vasallariga bo'lib berganlar XIV-XV asrlarda in'om ko'rinishidagi syoen vujudga kelgan.

Syoenni tuzish va mahalliy yer egasini tasdiqlatish uchun yo markaziy hukumatning yozma guvohnomasi yoki gubernatorning ruxsati talab etilgan. Syoenni tuzish vaqtida olingan guvohnomalar "muassasa guvohnomasi" degan umumiy nomlanishga ega bo'lgan va votchina qonunligini tasdiqlovchi asosiy xujjat hisoblangan. Agar bunday xujjat bo'lmagan taqdirda syoen musodara qilishgan.

Vatchina, avvalo kommandatsiya tipidagi regent va kanslerlarning ular siyosiy hukmronligining yakunlovchi bosqichi (X asr-1068-yil) da boshqaruvining iqtisodiy asosi bo'lgan.

Fudzivara xonadoninig vakillari nafaqat markazda, balki provinsiyada ham yetakchi mavqeda bo'lishgan. O'zining iqtisodiy ahvolini mustahkamlash maqsadida Fudzivaralar X asr davomida, 902-yildan boshlab syoenlarni "tartibga keltirish" to'g'risida bir necha martalab farmonlar chiqarganlar. Egalik huquqini tasdiqlovchi, gubernatorlar (Fudzivaralar) tomonidan berilgan xujjatlari bor votchinalargina tan olingan. Bu farmonlar imperator xonadoniga qarshi qaratilgan bo'lib, zero ular imperator farmoniga ko'ra soliq immunitetiga ega bo'lgan feodal yer egaligini bekor qilgan. Bunday "tartibga solish" regent-kanslerlik boshqaruvi davrida 402 vatchinaga ega bo'lgan Fudzivaralar manfaatlarini yo'lida o'tkazilgan.

Fudzivaralar o'zboshimchaligi, amaldorlik apparatining poraxo'rliklari va budda ruhoniyaatining ma'naviy buzilishlari X asr uchun xarakterli xodisalar bo'lganki, bu o'sha davr manbalarida o'z ifodasini topgan.

Samuraylikning kelib chiqishi, shakllanish manbalari, tashkiliy tuzulishi va mafkurasi. Dvoryan samuraylar tabaqasi regentlar va kanslerlarning ijtimoiy tayanchi bo'lgan.

Samuraylar tabaqasi shakllanishining uchta manbai bor edi. Samuraylarning asosiy ommasi ijtimoiy tabaqalanish jarayonining chuqurlashuvi natijasida dehqonlar yuqori qatlami, o'ziga to'q dehqonlar ommasi orasidan kelib chiqqan.

Ikkinchi yo'l-yirik oila guruhlarida uy xizmatlari uchun yer berish. Oila guruhiga tegishli bo'lgani xolda, biroq uning boshlig'i bilan qarindoshlik yoki yaqin munosabatlarda bo'lmagani holda, ular avvaliga bir parcha guruch noniga ishlaganlar va harbiy zaruriyat tug'ulgan hollarda qo'lga qurol olib oilaning yer mulklarini himoya qilganlar. Harbiy harakatlar olib borishning moddiy rag'batlari bo'lmagani tufayli ularning jangovor qobiliyatlari yetarli bo'lmagan, bu hozirgi aynlarning ajdodlari uzluksiz tarzda xujumlar qilib turadigan shimoli-sharqda ayniqsa o'z ta'sirini ko'rsatgan, shu vaqtda oila guruhlari boshliqlari xizmat evaziga yer bera boshlaganlar. Bunday rag'bat esa darhol ularning jangovorlik qobiliyatlarini keskin ko'tarilishiga olib kelgan.

Uchinchidan, samuraylar tabaqasi yuqori qatlami yirik feodal mulkdorlarga aylanib borgan gubernatorlar hisobiga to'lib borgan.

Samuraylar otryadlar (to) ga va birmuncha yirik guruh (dan) larga birlashganlar. Bu tuzilmalar qon-qarindoshlardan, xesh-aqrabolardan, ularning vassallaridan iborat bo'lib, oila guruhi boshliqlari yoki okrukdaagi ko'proq ta'sirga ega bo'lgan samuray oila kattasi tomonidan boshqarilgan. Samuraylik bo'linmalari ko'proq sonli samuraylarning qo'llab-quvvatlashiga tayanishga intilayotgan o'zaro yovlashayotgan zamindorlar guruhi tomonida turib maydonga chiqqanlar, o'zaro ichki urushlardagi muvaffaqiyat yoki mag'lubiyat ularning jangovor qobiliyatlari va soniga bog'lik bo'lgan.

Samuraylar odatda o'z dushmanlarini yomon obryad (akuto) deb ataganlar, bu ayniqsa ijtimoiy qarama-qarshiliklar keskinlashgan davr XIII-XIV asrlar uchun xarakterlidir.

Samuraylar orasida ikkita asosiy o'zaro raqobatlashuvchi Tayra va Minamoto guruhlari ajralib chiqqan.

Samuray guruhlari ichida mustahkam birlik bo'lmagan, bu xolat isyonlarda namoyon bo'lgan va hukmron lageri tomonidan harbiy muxolifatni bostirishda ustalik bilan foydalanilgan. Bu jihatdan 936-

yilida sodir bo'lgan Fudzivara Sumitomoning Kyusyu orolidagi isyoni va Tayra Masakadoning taxtni qo'lga qiritish uchun ko'tarilgan sharqdagi 938-946-yillardagi isyonini misol qilib keltirish mumkin. Masakado o'zini imperator deb e'lon qilgan va o'z gubernatorlarini sharqiy muzofotlarga tayinlagan. Biroq bu isyonni bostirishga aynan o'sha oila guruhining vakili-Tayra Sadamori yuborilgan.

X asrning ikkinchi yarmida samuraylarning bunday chiqishlari yanada ko'p bo'lgan.

Samuraylar tabaqasining mafkurasi harbiy epopeyalarda o'z ifodasini topgan, ular ichida eng yiriklari "Tayra xonadoni haqida povest" va "Buyuk dunyo haqida povest", lardir. Birinchi povestda Tayra va Minamoto o'rtasidagi raqobat haqida hikoya qilingan, ikkinchisida g'arbiy va sharqiy feodallar o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash ifoda etilgan.

Bu asarlarda samuraylar tabaqasining dunyokarashi - "Jangchi yo'li" ("Busido") aks etgan uning asosida buddaviylikning takdiri azal (karmya), foniyluk g'oyasi, butun kurrai zaminning nobopligi, fatalizm ta'limoti yotar edi.

Axloq normasi sifatida vassalning o'z xo'jayiniga sodiqligi, mardligi, kamtarligi, o'zini qurbon qilishi ulug'langan.

Yapon shaharlarining rivojlanishi. Hunarmandchilik ishlab chiqarishining muayyan darajada ko'tarilishi hunarmandchilikni qishloq xo'jaligidan ajralishiga va shaharlarning tobora rivojlanishiga olib keldi.

Yapon shaharlari o'zining kelib chiqishiga ko'ra to'rtta guruhga bo'linadi: budda ibodatxonalari atrofida yuzaga kelgan shaharlar (Nara va Xeyan); asosiy yo'llarda yuzaga kelgan pochta shaharlari (Otsu); bandargoh shaharlar (Xyogo, Sakai) va qasrlar qoshida Nagaya yuzaga kelgan shaharlarga bo'lingan.

1177-yilning aprelida Xeyan butunlay yonib ketgan. Biroq u tez orada qaytadan tiklanib, Kioto deb qayta nomlangan va o'zining ma'muriy, siyosiy, iqtisodiy va diniy ahamiyatini yo'qotmagan.

Jamiyatda ro'y bergan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar Kiotoning yangi stratifikatsiyasida namoyon bo'lgan, uning shimoliy umumiy

qismi zodagonlar mavzesi va janubiy qismi shaharliklar yashaydigan qismlarga ajratilgan. Hunarmand-savdo ahlining bunday bir hududda joylashuvi ijtimoiy chegaralanish va bozorni o'sib borayotgan iqtisodiy rolini aks ettirgan.

Poytaxt bozorida XI asrlardayoq hunarmandlarning maxsus birlashmalari (dza) vujudga kelgan. Yapon dzasida hunarmand va sotuvchi bir shaxs bo'lgan. Zero, bu vaqtda hali savdo hunarmandchilik ishlab chiqarishidan ajralmagan edi. Dza atamasi avvaliga bir kasbdagi hunarmandlarning o'z mahsulotlarini sotadigan bozordagi joyni aytishgan, keyin o'z mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish monopol huquqiga ega bo'lgan bir kasbdagi kishilarning birlashmasini dza deb atashgan. Yakka hukmronlik zaruriyatini hunarmandchilik buyumlariga nisbatan kam talab bo'lgan sharoitda katta raqobatning bo'lganligi taqazo etgan. Monopoliyani feodal-vasiy kafolatlagan, u saroy zodagoni ham, ibodatxona ham bo'lishi mumkin edi. Hunarmandlar homiylik uchun o'z hunarmandchilik buyumlari bilan xaq to'laganlar.

Birinchi dza 1092-yili Yamasiro muzofotida (hozirgi Kioto shahri rayoni) da vujudga kelgan, undan so'ng artistlar va rassomlar dzasi, Narya shahrida Todaydzi ibodatxonasi qoshida temirchilar dzasi tashkil topa borgan. Bu dzalar ham dunyoviy, ham diniy feodallarga xizmat ko'rsatuvchi hunarmandchilik birlashmalarining ilk ko'rinishlari edi. Ular qatoriga saroy va cherkovning o'z syuzeranlarini oziq-ovqat va hunarmandchilik bilan monopol tarzida ta'minlovchi yetkazib beruvchilarining maxsus birlashmalari ham kirgan.

Shaharlarning iqtisodiy taraqqiyot darajasi bir xil bo'lmagan: g'arb shaharlari sharqdagilardan ustun turgan. XIII asrda Kiotodagi soni 44 ta bo'lgan hunarmandchilik-savdo birlashmasi dza o'zining iqtisodiy taraqqiyoti bo'yicha Kamakurani sezilarli darajada quvib o'tgan, u yerda bor yo'g'i 27 ta dza faoliyat yuritgan. Kioto dzalari bundan tashqari iqtisodiy jihatdan ham kuchliroq bo'lishgan.

Tovarlar nafaqat ixtisoslashish kuchaygan shahar bozorlaridagina emas, hunarmand-sotuvchilar yashaydigan joylarda ham sotilgan. Mahsulotlarni xatto shimoli sharqning chekka rayonlariga olib chiqa boshlaganlar.

Pochta stansiyalari, katta yo‘llar chekkalari, bandargohlarda, daryolar bo‘ylarida, muzofotlar shaharlarida taxminan XI asrlardan boshlab oyiga uch marta ochiladigan viloyat bozorlari vujudga kelgan. Bu esa rayonlar bo‘yicha ixtisoslashishning ko‘zga tashlanayotganligidan darak berardi. Biroq muzofotlarda ishlab chiqarilgan buyumlar poytaxtda ishlab chiqarilgan buyumlar assortiment jihatidan ham, sifati jihatidan ham teng kelolmasdi. Bozorlarda tovar almashinuvi ustun turgan. Gazlama, guruch almashuv vositasi bo‘lgan. Muomalada asosan Xitoyda ishlab chiqarilgan tangalar bo‘lgan, zero Yaponiyada 958-yildan 1587-yillargacha tanga pullar zarb etilmagan.

Tavar-pul munosabatlarining rivojlanishi 1226-yili pul ekvivalenti sifatida gazlamadan foydalanishni ta’qiqlanishida namoyon bo‘lgan, Xitoyga oltinga mis pullar sotib olish uchun maxsus elchilik yuborilgan, zero muomalada o‘sha vaqtda Yaponiyada tayyorlanmaydigan mis tanga pullar bo‘lgan.

Xonsyu markaziy rayoni daryo bo‘yida ulgurji savdo yo‘lga qo‘yilgan. Avvaliga uni votchinalarning donni tashish va omborga to‘kish bilan boshqaruv funksiyalarini uyg‘unlashtirgan mansabdor shaxslari olib borganlar, biroq keyinroq ular hunarmandchilik buyumlarini, ba’zan yetarlicha katta masofalarga tashib berishga ham ixtisoslasha borganlar. Bu ulgurji savdo qiluvchilar katta miqdordagi guruch bilan ish qilib, guruchdan aroq tay.y. orlash, sudxo‘rlik bilan shug‘ullana boshlaganlar.

Tavar-pul munosabatlarining rivojlanishi barshchina va natural soliqni pul bilan qisman almashtirilishiga (kommutatsiya) olib kelgan, bu XIII asr ikkinchi yarmida tez rivojlana borgan. Kommutatsiya o‘z mahsulotini bozorda sotish imkoniyatiga ega bo‘lmagan dehqonlarning asosiy ommasi moddiy ahvolini keskin yomonlashtirgan. Ular uchun yagona yo‘l puldan yordam berib turish uchun savdogar-sudxo‘rlarga va qishloq boylariga murojaat qilish bo‘lgan. Qishloq boylari pul-tovar munosabatlariga tortilib sezilarli darajada boyiganlar, kambag‘allar ommasi esa muqarrar tarzda asoratli qaramlikka tushgan. Dehqonlarning ijtimoiy tabaqalanishi kuchaya borgan.

Sobiq (eks)-imperatorlar boshqaruvi va ular hokimiyatining ijtimoiy-iqtisodiy asosi. Imperator xonadoning yer mulklarini regentlar va Fudzivara kanslerlarining “antsiyogun” siyosati imperatorlarning siyosiy ta’sirini yo‘qotilishiga olib kelgan.

Imperator o‘zini kichik yoshli o‘g‘li foydasiga taxtdan tushgan va sochini oldirib monaxlikka ketgan. Mamlakat tarixining bu davri eks-imperatorlar boshqaruvi (insey) deb nomlangan va odatda 1068-1167-yillarni o‘z ichiga olgan, garchi imperatorlarning monaxlikka soch oldirish amaliyoti keyinroq ham mavjud bo‘lishda davom etgan bo‘lsa-da, o‘sha vaqtlarda eks-imperatorlar samuraylarning boshqaruviga qarshi turganlar va butun hokimiyatni to‘laqonli o‘zlariga qaytarib olishga intilishgan.

Eks-imperatorlarning ijtimoiy tayanchi samuraylar ommasi va avvalo gubernatorlarning yirik zamindor mulkdorlarga aylanishi natijasida vujudga kelgan muzofotlar samuraylar ommasi bo‘lgan.

Taxtdan tushirilgan imperator imperator xonadonining boshlig‘i bo‘lib qolgan, lekin bu vaqtda ilgargidek real hokimiyat imperatorning Fudzivara xonadonidan bo‘lgan onasi va xotinida bo‘lgan. Endi eks-imperator hech qanday cheklanishlar bilan qiynalmagan samuraylar ommasi, muzofotlar mansabdor shaxslari va cherkovning qo‘llab-quvvatlashidan foydalanib imperator xonadonining yer mulklarini real tarzda tiklashi va knchaytirishi, raqobatlashuvchi saroy guruxlari, avvalo Fudzivaralar va imperator xonadoni o‘rtasidagi hokimiyat uchun kurashda g‘olib chiqishi mumkin edi. 1069 -yili votchinalarni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi idora ta’sis etilgan. Bu idora tegishli tarzda xujjatli rasmiylashtirilmagan va 1045-yildan so‘ng tuzilgan, avvalo Fudzivaralarga tegishli syoenlarni qonuniy deb tan olmagan. Garchi bu idora bor yo‘g‘i to‘rt -yil mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, imperator xonadoni yer mulklarini Fudzivaralarga tegishli musodara qilingan yerlar hisobiga sezilarli darajada ko‘paytirishga imkon bergan. XII asrga kelib imperator xonadonining mitti “karlik” mulklarini hayratlanarli o‘shishi kuzatilgan, ulardan 60 ta muzofotning minglab rayonlarida joylashgan ulkan votchina vujudga kelgan. Imperator xonadoni yana eng yirik yer

egasiga aylangan, unga yerlar ayniqsa samuray guruhi Tayra tomonidan in'om etila boshlashgan.

Votchinada XII asrda asosiy soliq to'lovchi birlik yerga bo'lgan huquqini mustahkamlagan o'ziga to'q dehqon bo'lib kelgan. Yerga bo'lgan dehqon mulkchiligining qaror topishi qishloq xo'jaligida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga imkon bergan. Turli xildagi o'g'itlardan katta miqdorda foydalana borganlar, almashlab ekish joriy qilinganki, bu qulay ob-xavo sharoitida -yiliga ayniqsa janubi-g'arbda 2-3 marta hosil olish imkonini bergan. Qishloq boylarida muayyan miqdorda iste'moldan ortiq mahsulotlar ishlab chiqarilgan, ularni bozorga yo'llash mumkin bo'lgan.

Barshchina va ko'p sonli soliqlar dehqonlarni ekspluatatsiya qilishning asosiy shakli bo'lib qolishda davom etgan. Majburiyatlarni bajarmaganlik uchun nafaqat yerdan haydab yuborishgan, uy-joylarni buzib tashlashgan, balki Styuartlar davrida Angliyada qilinganidek quloqlarni ham kesishgan. Zulmning kuchayishiga dehqonlar ko'p sonli qo'zg'alonlar bilan javob qaytarishgan. Mamlakat markazida ular shu qadar kuch va ko'lam kasb etganki, poytaxtni o'ziga xavf solganlar. Qo'zg'alon ko'targanlar hukumat binolari va zodagonlar saroylarini vayron etib yondirganlar, qamoqlarga xujum qilib xukm qilinganlarni ozod etganlar. Hukumat harakatni bir yoqlik qilolmay, yirik zamindorlarning ularning drujinalari bilan va qurolli monaxlarni yordamga chaqirgan.

Toifaviy kurashning keskinlashuvi bilan bir qatorda samuraylar qatlami alohida guruhlari o'rtasida hokimiyat uchun raqobat ham kuchaygan.

Minamoto samuray guruhi 1185-yili Dannoura (Simonosekidan sharqdagi buxta) yonidagi jangda Tayrani batamom tor-mor keltirishga muvaffiq bo'lgan. 1192 -yili o'zlariga bosh qo'mondon (syogun) unvonini berib ular Kamakura shahrida o'z shtab-kvartiralarini ta'sis etganlar. Kamakurada karorgohning tuzilishi Minamatoning imperator xonadoni hokimiyatini zaiflashtirishga intilishi va o'zining mustaqil hukumatini tuzish niyati bilan kelib chiqqan. Shtab kvartira joylashgan

joy nomi bo'yicha yapon tarixshunosligida Kamakura syogunligi davri (1192-1333) ajratib ko'rsatiladi.

XIII va XIV asr boshlari uchun eks-imperator va syogunning ikki hokimiyatchiligi xarakterlidir. Garchi Kamakura shahri syogunlikning poytaxti bo'lsa-da, u nisbatan qoloq rayonda joylashgan, aslo mamlakatning iqtisodiy markazi emasdi, amalda yirik diniy markaz Kioto bu rolni o'ynashda davom etmoqda edi. Imperator saroyi samuray qatlamining syogun siyomosida siyosiy hokimiyatini sanksiyalashga majbur edi, biroq imperator saroy zodagonlari ustidan o'z yurisdiksiyasini amalga oshirishni davom ettirgan.

Ikki hokimiyatchilikning iqtisodiy asosini parchalanib, maydalasha boshlagan votchina tashkil etgan, zero syogun dushmanlarining yerlari uning vassallari o'rtasida taqsimlanib borgan va ular mayda pomestyeli dvoryan, samuraylarga aylanishgan. Syogunlik o'z vassallarini xushyorlik bilan kuzatib borgan va ularning yer-mulklarini miqdorini cheklab borgan.

XIII asrda dehqonlar va dvoryanlar (samuray) qatlamining ijtimoiy chegaralanish jarayonlarining tobora rivojlanishi kuzatildi.

Mayda dehhonlar o'ziga to'q dehqonlarga nisbatan ko'proq darajada o'z manfaatlarini jamoaviy himoyalashga muxtoj bo'lishgan, bu "yig'ilgan" tipdagi qishloqni, qishloq jamoasini mustahkamlanishiga olib borgan, u XIV asr qonunchiligida to'rt qishloqdan iborat qilib belgilangan va o'z-o'zini boshqarishga ega bo'lgan. Oldingi bosqichda "votchina" tomonidan nomlangan qishloqda o'z-o'zini boshqarish bo'lmagan, dehqonlardan soliq yig'ish uchun mansabdor shaxslar asosan markazdan tayinlanishgan. Bunday qishloqlar aslida bir-biridan ajralib qolgan alohida xutorlarga parchalanib ketishgan, ular "nomdor xo'jayinlar" hukmroligi davrida nomigagina birlashganlar.

Qishloq jamoasida garchi, aftidan o'ziga to'q qishloq yuqori tabaqasining ta'siri jamoani boshqarish masalalarida kamayish emas, balki kuchaygan bo'lsa-da, u dehqonlarning asosiy ommasini birlashtirishga ko'maklashgan.

XIII asrda yoyilgan feodal yer rastasining pul shakli vatchina bozorlarining paydo bo'lishini rag'batlantirgan. Feodallar ularni o'z

mulklaridek ko‘rishgan. Markaziy Yaponiyada bu bozorlardan ayrimlari bir necha muzofotlar hududlariga xizmat ko‘rsatishgan.

Votchina bozorida vositachilar orqali savdo qilish, boj olish zamindorga daromadning yangi manbaini bergan va ishlab berish majburiyatini qisqartirish, oziq-ovqat solig‘ini ko‘paytirishga, savdo va sudxo‘rlikdan daromadni oshirishga intilgan yangi tipdagi yer egalarining paydo bo‘lishi bilan nishonlangan.

XII asr oxiri va ayniqsa XIII asrda qishloqqa tovar-pul munosabatlarining kirib kelishini, qishloq boylarini mahalliy, lokal bozorga tortilishini taqozo etgan qishloq dzalari paydo bo‘lgan.

Tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi ijtimoiy va toifaviy ziddiyatlarning keskinlashuvining iqtisodiy asosi bo‘ldi.

Samuraylar qatlami hokimiyatning ma‘muriy strukturasi zamindorlar uyllarini boshqarish amaliyotining yo-yilib borishi asosida yuzaga kelgan. Dala stavkasi deb nomlangan mamlakatda yangidan tuzilgan syogunlikning harbiy boshqaruvi ikkita asosiy guruxga: tarkibida Ma‘muriy palata va Oliy sud palatalari bo‘lgan Ma‘muriy va Sud palatalariga ajratilgan. Bundan tashqari maxsus samuray boshqaruvi mavjud bo‘lgan. XII asr 80-yillari boshlarida Minamotolar o‘z hokimiyatiga mamlakatning butun aholisini qamrab olishga intilishgan, biroq ijtimoiy xaos hukm surgan sharoitda buni bajarishning iloji yo‘q edi. Shuning uchun 80-yillarning ikkinchi yarmidayoq samuraylar imperator xonadonini boshqaruvni syogun vassallarisiz o‘zlariga olishga undaganlar. Yuridik jihatdan bu 1205-yilda maxsus farmonda mustahkamlangan.

Ma‘muriy-politsiya funksiyalarini amalga oshirish uchun syogunlik dzito (pomestye nazorati) va syugo (qo‘riqlash) institutlarini ta‘sis etgan. Manbalarning ko‘rsatishicha, birinchi lavozim 1180-yillarda vujudga kelgan. Biroq u avvaliga Minamoto vassallari ichidan hali muntazam tayinlanmagan. 1185-yilning noyabridan dzitoni qo‘shinlarni oziq-ovqat bilan ta‘minlash uchun 36 ta g‘arbiy muzofotlarga yubora yubora boshlaganlar, ammo bu funktsiya keyingi - yildayoq yo‘qqa chiqqan.

Kamakura bilan kelishuvga muvofiq soliqlarni muntazam yetkazib berish evaziga dzitoga joylardagi boshqaruv uchun to‘la huquq berilgan. 1221-yildan so‘ng dzito xususiy zamindor votchinalarida arida syogunning vakolatli vakillari bo‘lib qolganlar, u yerda ularning ma‘muriy va politsiya faoliyatini votchina egalari tomonidan tayinlagan boshqaruvchilarning funksiyalari takrorlangan. Dzitolar noqonuniy ishlarni qilishgan, Kamakura syogunining sud qarorlarini mensimaganlar, mahalliy aholini o‘zlari uchun qulay bo‘lgan yozma ko‘rsatmalarni imzolashga majbur qilganlar. Dzitolar yaxshi yerlardan olmasdan, ammo votchinalar -yillik soliqlarining bir qismini o‘zlashtirishni keng xaddini olganlar. Dzitolar boshqaruvda cheklanmagan huquqlarga ega bo‘lgan sharqda, mahalliy mansabdor shaxslar bilan kelishib ishlashgan g‘arbdagiga nisbatan katta daromadga ega bo‘lishgan. XIII asrning ikkinchi yarmidan votchina egalari va dzitolar o‘rtasida daromadni bo‘lish amaliyoti boshlangan. Votchina egalarining real hokimiyati va daromadlarining qisqarishi hisobiga dzitolarning huquqlari mustahkamlangan.

Syugo (qo‘riqchilar, himoyachilar) 1190-yildan syogun tomonidan provinsiyalarga tartib o‘rnatish va syogunning vassallari bilan aloqalarni qo‘llab-quvvatlash uchun politsiya kuchlarining rahbarlari sifatida tayinlana borganlar syugo qurolli kuchlarga ega bo‘lganlari xolda gubernatorlarni siqib chiqara borishgan, ularning asosiy funksiyalarini o‘zlashtirib, muzofotdagi asosiy ma‘muriy kuch bo‘lib olishgan.

Syogun butun ma‘muriy va politsiya hokimiyatiga da‘vo qilgani xolda o‘zini “syugo va dzito boshlig‘i” deb e‘lon qilgan. Biroq uning ko‘rsatmalari xatto samuraylar qatlami orasida ham muxolifatga uchragan. Itoatsizlarni qurolli bostirishni “majburlov bo‘yicha vakolatli shaxs” - syogunning eng kuchli vassalaridan biri amalga ashirgan.

Katta oila guruhlari boshliqlarining cheksiz hukmronligi xarakterli xususiyati bo‘lgan. U o‘sha vaqtning barcha guruhlaida mavjud bo‘lgan, ammo samuraylar orasida yahshi o‘rganilmagan.

Oila ichida oila boshlig‘i oila mulkining saqlanishi, oilaning timsoli sifatida familiyani, an‘anaviy oila kasb-korini saqlanishi, oila

a'zolari ustidan nazorat haqida g'amxorlik qilishi lozim bo'lgan. O'rnatilgan tartibni buzuvchilarni u yerdan mahrum eta olgan.

Kamakuralar davrida oila boshlig'ining funksiyalari ayol kishi qo'lida mujassam bo'lishi mumkin bo'lgan. Oila boshlig'ining obro'-e'tibori daxlsiz hisoblangan, uning qarorlariga xatto syogun ham aralashmagan.

Ichki oilaviy munosabatlarga rahbarlikdan tashqari patriarx ijtimoiy funksiyalarni o'tagan, uning bevosita vassali bo'lgani xolda bu jixatdan syogunga bo'ysungan. Huquqiy jihatdan bu, in'om yorlig'i bilan belgilangan, bunga ko'ra u berilgan yer uchun soliq to'lanishini ta'minlash, mahnat va harbiy majburiyatlarni bajarilishini ta'minlashi lozim bo'lgan.

Syogun vassalarining yerlari merosiy va xizmati uchun olingan yerlarga bo'lingan. To'kilgan qonlar evaziga in'om etilgan yerlar samuraylar uchun faxr predmeti bo'lgan. Bunday yerlar ular tomonidan ayniqsa qadrlangan.

Eks-imperatorning vassallari syogun vassallariga qaraganda birmuncha past ijtimoiy holatga qo'yilgan. Katta oila guruhlarini tabiiy o'sishi va parchalanishi asnosida syogunlik o'z vassallari sonini ko'paytirishdan tobora manfaatdor bo'lib borgan. XIV asr boshlarida katta oila guruhlarining parchalanishi va patriarxlar tomonidan "cheksiz hukmronlik"ni boy berilishi ro'y bergan.

Oilalari boshliqlari ta'sirini bo'shish jarayoni va ayni vaqtda mayda oilalarning kuchayishi samuray birlashmalari (to) tarkibidan isyonchi guruhlarining (ikki) ajralib chiqishiga olib kelgan. Ular kichik o'g'illardan iborat bo'lib, goh bir, goh boshqa zamindorga yollanishgan.

Tomonlarning yer uchun, hokimiyat uchun, zamindorlarning dehqonning ekspluatatsiya qilishga tanxo huquqi uchun uzluksiz o'zaro urushlaridagi muvaffaqiyati yoki mag'lubiyatlari, bunday "isyonchi guruhlar" ning qo'llab-quvvatlashlariga ko'pincha bog'lik bo'lgan.

1199-yili syogun Minamoto Yoritomonning vafotidan eks-imperator Gotoba ham foydalanib qolishga uringan, u g'arbiy samuraylarga, xususan Miura guruhiga tayanib, 1219-1221-yillardagi

alg'ov dalg'ovli davrda hokimiyatni o'ziga qaytarishga urinib ko'rgan, biroq fitnachilar mag'lubiyatga uchranganlar. Shu vaqtdan boshlab Xodzyolar ikki inspektorni otryadlar bilan imperator va uning atrofida gilar hatti-harakatlarini nazorat qilish uchun rasmiy muassasalar joylashgan Kiotoga, Rokuxara rayoniga muntazam tarzda yubora boshlaganlar.

Yaponiyaga mo'g'ullar istilosi xavfi va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari. XIII asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan mo'g'ul istilosi xavfi mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy ahvolni keskinlashtirgan. 1266-yili Xubilay Yaponiya ustidan uning hokimiyatini tan olish talabi bilan elchilarni yuborgan. Bu surbetlarcha qilingan talab javobsiz qoldirilgan, ana shundan keyingi da'volarga esa yaponlar rad javobini berishgan.

1247-yilning noyabr Yaponiyaning g'arbiy qirg'oqlariga Susima va Iki orollarini egallab olgan mo'g'ul floti yetib kelgan, keyin esa Tukudzen muzofotidagi Kyusyu orolini shimoli-g'arbida qo'shinlarni tushirish boshlangan. Samuray bo'linmalari qaqshatqich janglar olib borganlar, biroq ular bunday kuchli dushmanning siquvini qaytarishga tay.y.orlanmagan edilar. Dengizda to'satdan ko'tarilgan dovul dushmanning 200 dan ortiq kemasini cho'ktirib yuborgan, shu tariqa bu safar mo'g'ullarning bostirib kirish rejasi barbod bo'lgan.

Oradan bir -yil o'tib Xubilay yangi elchilik yuborganda uning a'zolari qatl etilganlar. Kyusyu oroliga qo'shinlarni yangidan tushirishga qayta urinish muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlangan.

1278-yili Xubilay yana qayta unga itoat etish va o'lpon to'lashni talab qilgan, biroq bu gal ham yaponlar elchining boshini tanasidan judo qilishgan.

1281-yil iyun-avgustida Yaponiya qirg'oqlariga yangi yurish uyushtirilgan: umumiy soni 3500 ta kema va qayiqdan tarkib topgan ikki armiya yapon qirg'oqlariga yetib kelishgan. Bu vaqtga kelib qirg'oq bo'ylari mustahkamlanib bo'lingan, jangovor kemalar ham tay.y.orlab qo'yilgan edi, biroq dengizda ko'tarilgan dovul g'anim flotini cho'ktirib yuborgan, qolgan kemalar esa yaponlar tomonidan yo'q qilingan. Shu vaqtdan boshlab dovul "ilohiy shamol" (kamikadze) deb nomlana

boshlagan. Kamikadze deb ikkinchi jahon urushi -yillarida dushman tomonga bombalashga va g‘anim kemalarini cho‘ktirishga yuboriladigan, o‘zini qurbon qilishga tay.y.orlangan uchuvchilarni atashgan.

Mo‘g‘ullar bilan kurashda yapon samuray durujinalari yangi taktikalarni (turli bo‘linmalarni o‘zaro muvofiq harakatlari, aylanib o‘tish va o‘rab olish manevrlari, flanglarda harakatlanish, o‘q otar qurollardan foydalanish) qo‘llaganlar.

Mo‘g‘ullarning bostirib kirish xavfidan janubi-g‘arbiy zamindorlar naf ko‘rganlar, ular g‘azna hisobidan o‘z mulklarini mustahkamlab olganlar, shuningdek bundan harbiy tay.y.orgarliklarni moliyalashtirgan savdo-sudxo‘rlik sarmoyasi foyda ko‘rgan. Biroq safarbarlik natijasida samuraylar ommasining umumiy axvolini yomonlashuvi mo‘g‘ul istilosining ijtimoiy-iqtisodiy oqibati edi. Syogun vassalarining zaiflashuvi o‘zining ilgarigi mavqeini yo‘qotgan syogunlik hukumatining ahvolidagi aks etgan. Bu, samuraylar qatlami ichida kurashning keskinlashishiga olib kelgan. Xodzyo boshqaruvi despotik xarakterga ega bo‘lgan, u XIII asrning 80-yillarida kuchaygan, bu esa Xodzyo uyi tomonidan hukumatdagi asosiy lavozimlarni egallab olinishi, shuningdek samuraylar tabaqasini tushkunlikka ketishini, uning savdo-sudxo‘rlik sarmoyasi tomonidan asoratga solinishini oldini olish maqsadi bo‘lgan qonunchilikda namoyon bo‘ladi. Samuraylar ommasining yer fondini saqlab qolish maqsadini ko‘zlagan qonunlardan biri bu, 1297-yilgi farmon bo‘lgan. Biroq bu qonunchilik tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi sharoitida savdo-sudxo‘rlik sarmoyasi mavqeini aytarli zaiflashtirish holatida emasdi.

Bozor bilan bog‘lik zamindorlar, hunarmandchilik-savdo ahli va o‘ziga to‘q dehqonlar ommasi uchun Kamakura syogunligi ularning faoliyati uchun to‘siq bo‘lib qolgan, shuning uchun ular bu rejim bilan kurash yo‘liga o‘tishgan. Kyusyu orolidagi syogunga qarshi bo‘lgan kuchlar mo‘g‘ul istilosidan so‘ng kuchayib ketgan. Xodzyolar zulmini uloqtirib tashlashga intilganlar. Markaziy Yaponiyada, Kinay rayoni va uning atroflarida muxolifat avvalo saroy aristokratiyasi-votchina

egaligiga qarshi chiqqanlar. Ularga shuningdek budda ibodatxonalarining monaxlari ham qo‘shilishgan.

Dehqonlar samuraylar qo‘shinlari tarkibida piyodalar va xizmatchilar sifatida ham, o‘z manfaatlarini qishloq jamoalari harbiy otryadlari tarkibida jamoaviy kuch-g‘ayratlari bilan himoya qilib mustaqil tarzda ham syogunlikka qarshi chiqqanlar. Dehqonlar noqonuniy votchina va markaziy ma‘muriyatga qarshi, barshchinaga qarshi, ishlab berish rentasiga qarshi kurash olib borganlar.

Muxolifatchi kuchlarning xilma-xilligi ularning konsolidatsiyasi zaruriyatini keltirib chiqargan, bu o‘sha vaqtda faqatgina diniy asosda imperator obro‘-etibori bilan amalga oshirilishi mumkin edi. Uning diniy obro‘idan foydalanib, eks-imperator Todaygo 1318-yili taxtni meros qoldirib, imperator xonadoniga siyosiy hokimiyatni qaytarish maqsadida fitna tay.y.orlay boshlagan. Markaziy rayonlar samuraylari va sharqiy muzofotlarning syogunlik vassallariga, budda ibodatxonalarining harbiy kuchiga tayanib, Todaygo 1324-yili Kiotoga o‘z tarafdorlarini to‘play borgan, biroq fitna fosh etilgan, samuray guruhlarining rahbarlari esa o‘z jonlariga qasd qilishgan.

1332-yili martida Todaygo hokimiyatni egallab olishga yangi urinishi uchun samuraylar tomonidan taxtdan tushirilgan va Oki oroliga surgun qilingan, keyingi -yilning fevralida u yerdan qochgan va kamakuralarga qarshi kuchlarga ochiqchasiga qo‘shilgan.

Janubi-g‘arbdagi katta ta’sirga ega bo‘lgan feodal Asikaga Takaudzi 1333-yilning mayi boshlarida Kiotoni egallagan bu vaqtda esa sharqlik feodal Nitta Yosisada Kamakuraga bostirib kirgan va barcha Xodzyolarni bittama-bitta qirib tashlagan. Kyusyu oroli feodallarning birlashgan armiyasi mahalliy harbiy boshqarma syogunlik inspektori ag‘darib tashlagan va deyarli bir vaqtda boshqa muzofotlarda syogunlik ma‘muriyati hokimiyatdan chetlatilgan.

Kamakura syogunligi hokimiyatdan tushirilgan. G‘oliblar Asikaga va Nitta o‘rtasida kurash boshlangan. Ular ikki tipdagi xo‘jalik rayonlarini: ilg‘or g‘arbiy va qoloq sharqiy rayonlarini namoyon etganlar. Agar g‘arbdagi sug‘oriladigan sholi maydonlari ko‘p, yaxshi suv inshootlari, rivojlangan hunarmandchilik va gullab yashnayotgan savdo

mavjud bo‘lgan bo‘lsa, sharqda esa ship-shiydonlik hukm surgan, ko‘p yerlar egallab qo‘yilgan yoki umuman ishlov berilmagan, transport tizimi ayanchli holatda bo‘lgan, hunarmandchilik va savdoning keng rivojlanishi uchun sharoitlar bo‘lmagan.

Kamakura syogunligi ag‘darilgandan so‘ng 1333-yilning iyunida eks-imperator Todaygo Kiotoga qaytgan, 1332-yili taxtga o‘tkazilgan imperator Kogenni taxtdan tushirib, o‘z hokimiyatini tiklagan. Yangi tartibning siyosiy formulasi - “saroy zodagonlari va samuraylar birligi” e‘lon qilingan. Biroq aslida bu imperator xonadoni siyosiy hokimiyatini to‘laqonli tarzda tiklashga urinish bo‘lgan.

Todaygo kommandatsiya tipidagi ulkan votchinani meros qilib olgan, yerlarning bir qismini u budda ibodatxonalariga in‘om etgan, saroy amaldorlariga xususiy feodal yer egaligini yaratishni rag‘batlantirgani holda katta yer mulklarni taqsimlab bergan, bu bilan o‘z hokimiyatining iqtisodiy asoslarini mustahkamlashni ko‘zlagan.

Mablag‘larning o‘tkir yetishmovchiligi Todaygoni muzofot gubernatorlarining mulkiga 5 foizli soliq solishga undagan, ammo bu muzofotlar ma‘murlari qo‘llab-quvvatlashidan maxrum bo‘lgan hukumatning ahvoliga xalokatli ta‘sir ko‘rsatgan. Moliyaviy ahvolni yaxshilash uchun mamlakat tarixida birinchi bor kog‘oz pullar chiqariladi. Biroq bunday pullarni ko‘plab miqdorda chiqarilishi narxnavolarni o‘shishiga, iqtisodiyotni izdan chiqarishga, mulkdorlar qatlamining savdo-sudxo‘rlik qatlamiga qarzdorligining o‘shishiga olib kelgan. Bu qarzdorlikni qisqartirishga intilib, hukumat Xodzyo singari qarzdorlikni bekor qilish to‘g‘risida farmon chiqaradi. Bu tadbir eks-imperatorni ta‘siri kuchayib borishi davom etayotgan sudxo‘rlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishdan maxrum kildi.

Hukumatning yo‘l qo‘ygan xatolaridan Asikaga foydalanib qolgan, u Todaygoga hiyonat qilib, 1336-yili yanvarda Kiotoni egallagan va Shimol tarmog‘i deb atalgan imperator xonadonining boshqa vakilini taxtga o‘tqazgan. Todaygo imperator hokimiyati regalisini qo‘lga olib, janubga janubiy imperator xonadonini markazi bo‘lib qolgan Yosinoning shaxsiy qarargohiga kelgan. Shu vaqtdan boshlab yarim asrdan ko‘p vaqtga imperator xonadoni ichida uning

shimoliy va janubiy tarmoqlari o'rtasida qurolli kurashi boshlangan. Bu kurashga yapon o'rta asr jamiyatining barcha qatlamlari tortilgan.

1336-yilning noyabrida Asikaga mamlakatni harbiy boshqaruvining tiklanganligi hakida, hokimiyatni Dala stavkasi (Bakufu) qo'lga o'tishi hakida e'lon qilgan. Asikaga siyosiy hukmronligi davri Kiotodagi rayonning nomlanishi bo'yicha (pirovardida syogunlarning qarorgohi bo'lgan rayon) Muromati (1336-1568) syogunligi deb nomlangan.

Samuray qatlami foydasiga yerlarni qayta taqsimlanishi, Janubiy xonadon votchinalarini bekor qilinishi, kommandatsion tipidagi votchinalarining qisqarishi va Shimoliy xonadon xususiy mulklarining o'sishi XIV asrdagi urushlarning natijasida bo'lgan. In'om tipidagi votchinalar vujudga kelgan, bu yerda yerlar bir joyda to'plangan va bevosita egalari tomonidan yoki ularning ishonchli kishilari-boshqaruvchilar tomonidan nazorat qilingan.

Votchinalarning boshlanib ketgan parchalanishining oqibati saroy zodagonlari tomonidan uning iqtisodiy va siyosiy ahamiyatini yo'qotilishi bo'ldi.

Muzofotlar ma'muriyati, eng avvalo gubernatorlar zodagonlar yerlarini egallay borib, o'z qo'llarida ma'muriy va siyosiy hokimiyatni to'play borganlari xolda asta-sekin manfaatlari Asika tomonidan ifodalangan to'la huquqli feodal-hukmdorlar knyazlarga aylana borishgan.

Dushmandan tortib olingan yerlar, parchalanishi jarayonida bo'lgan, in'om tipidagi votchinalar samuraylar qatlamining iqtisodiy tayanchi bo'lib qolgan.

Qo'shimcha daromad manbalarini izlab, urush olib borish feodallar savdo-sudxo'rlik operatsiyalari bilan shug'ullanganlar, majburiyatlarni amalga oshirganlar, bu esa shunday ham og'ir bo'lgan dehqonlarning ahvolini yanada og'irlashtirib, ularning turli shakldagi zulmlariga, ayniqsa barshchinaga qarshi kurashlarini kuchayishiga olib kelgan.

Dehqonlarning urushlarda ommaviy qatnashishlarini oldini olish uchun ishlab berish rentasi, barshchinadan oziq-ovqat solig'i, obrokka o'tishni amalga oshirganlar.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Yaponiyada XI-XII asrlarda yangi tuzum qanday shakllanib bordi?
2. Samuraylikning kelib chiqishi, shakllanish manbalari va mafkurasini izohlab bering.
3. Yaponiya shaharlari rivojlanishining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
4. Yaponiya boshqaruv tizimining boshqa Osiyo mamlakatlaridan farqli jihatlarga tavsif bering.
5. Yaponiyada imperatorlik boshqaruvi davrini izohlab bering.
6. Yaponiyada mo'g'ullar istilosi xavfining paydo bo'lishi qanday voqealarda namoyon bo'lgan edi?
7. Mo'g'ullar istilosi xavfining mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini chuqur tahlil eting.

7-§. KOREYA X-XV ASRLARDA

Darsning maqsadi: X-XV asrlarda Koreyani rivojlanishining asosiy tendensiyalari, tarixiy taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari haqida talabalarga ma’lumot berish.

REJA:

- 1. Silla davlatining qulashi va Kouryo davlatining tashkil etilishi;**
- 2. XI-XII asrlarda Koryoning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Madaniyat;**
- 3. Koryo xalqining mo‘g‘ul istilosiga qarshi kurashi;**
- 4. Li sulolasi davrida markazlashgan davlatning mustahkamlanishi;**
- 5. XV asr birinchi yarmida iqtisodiy ko‘tarilish.**

IX asr oxiriga kelib ilgarigi ulkan Silla davlatining hududi mustaqil zamindor hukmdorlar tomonidan boshqariladigan udellarga bo‘linib ketgan. Davlat yerlarini amaldorlarga va ruhoniyatga taqsimlab berilishi va shuningdek mustaqil feodal yer egaligining (ianvon) vujudga kelishi markaziy hukumatni asta-sekin zaiflashishiga olib kelgan. In’om yerlariga ega bo‘lgan budda ibodatxonalari ham to‘la mustakillikdan foydalanganlar. Anchagina hududlarda hukmronlik qilgan mahaliy feodallar (yonchju) dehqonlar ustidan hukmronlik qilish va o‘zaro bir-birlari bilan kurashish uchun o‘z qurolli drujinalarini tashkil etganlar va ochiqchasiga o‘zlarini markaziy davlatga qarshi qo‘yganlar. Mahalliy zamindorlar tomonidan asoratga solingan dehqonlarning ham, Silla hukumati hokimiyati ostida qolganlarning ham axvoli tobora yomonlashib borgan.

Kuchayib borayotgan zulm sharoitida dehqonlarning g‘alayonlari boshlangan, ular 819-yilda anchagina ko‘lam kasb etgan. 896-yili poytaxt Kyondjuning yonginasida boshqalardan ajralib turish uchun qizil ishton kiygan qo‘zg‘alonchilar harakat qilganlar. Ko‘p xollarda dehqonlar qo‘zg‘alonlari mahalliy feodallarning hukumatga qarshi separatistik chiqishlari bilan qo‘shilib ketgan. Eng yirik zamindorlar

mustaqil davlat tuzish haqida ochiq e'lon qilganlar. Shu asnoda yarim orolning janubi-g'arbiy qismida 900-yili Xupekche davlati paydo bo'lgan, Koreyaning markaziy qismida (hozirgi Chxol'von rayoni) Txebon davlati vujudga kelgan. Silla mulklari uncha katta bo'lmagan poytaxt rayoni bilan cheklanib qolgan. Dehqon g'alayonlarining ko'lami hukmron tabaqani xavotirga solgan, uni davlat konsolidatsiyasiga intilishga, xalq harakatini bostirishga qodir bo'lgan hukmdorni izlashga majbur etgan. O'zaro urushlar vaqtida yirik zamindor Van katta siyosiy maydonga ajralib chiqqan, u mamlakatni birlashtirgan va 918-yili Koryo deb qayta nomlangan, Txebon davlatiga rahbar bo'lgan. Bu davlatning poytaxti etib Kegyon (hozirgi Keson) shahri belgilangan. Ko'p feodallar ular ichida eng qudratli shaxs sifatida Van Gongga ixtiyoriy ravishda o'z itoatlarini bildirganlar. 936-yili Van Gon Xupekcheni tor-mor keltirgan, Silla davlati unga ixtiyoriy tarzda itoat etgan va shu tariqa u butun Koreyani tan olingan hukmdori bo'lib qolgan.

O'sib borayotgan tashqi xavf ham yagona markazlashgan davlat yuzaga kelishining muhim omili bo'lgan. 926-yili Kidanlar bevosita qo'shni bo'lgan, Koreya yarim orolining bir qismida joylashgan Boxay davlatini egallab, Koryoga xavfli qo'shni bo'lib qolganlar. Shuning uchun shimoliy chegaralarni mustahkamlash yangi davlatning birinchi navbatdagi vazifasi bo'lgan. Hamma joyda qal'alar va mudofaa devorlari qurilgan.

Biroq Van Gon va uning eng yaqin vorislari boshqaruvi davrida siyosiy tarqoqlikka hali to'la barham berilmagan, binobarin Koryo hukmdorining oliy hokimiyatini tan olgan mahalliy feodallar o'z udellarda to'la xo'jayin bo'lib qolaverganlar. Faqatgina X asr oxirlariga kelib markazlashgan feodal davlati yuzaga kelgan, uning moddiy asosi 976-yilgi qonun bilan qayta tiklangan yerga nisbatan oliy mulkchilik bo'lgan. Chek yer umrbodga berilgan. Hukumat oldida katta xizmatlari uchun mukofotga olingan yerlargina merosiy bo'lgan. Biroq qonun yer mulklarining qayta taqsimlanishni ko'zda tutmagan, shuning uchun barcha zamindorlar o'z yerlarini davlat yerlarining egasi sifatida feodal rentani o'zlashtirish hukuki bilan saqlab qolganlar. Davlat oliy mulkdor

sifatida dehqonlar tomonidan bajariladigan soliq va ishlab berishlar ko‘rinishidagi rentaning bir qismiga haqqi bo‘lgan.

Bu qonunning amalga oshirilishi ortidan markaziy davlat apparati strukturasi ham yuzaga kelgan. Qirol Sondjon davrida (982-997) asosiy markaziy hukumat muassasalari tuzilgan, butun mamlakatni 12 ta viloyat va 10 ta muzofotga ma‘muriy bo‘linishi belgilab qo‘yilgan. Pochta stansiyalari va bandargoh xizmatlari davlat tushumlari to‘g‘ri yetkazib berilishini ta‘minlashlari lozim bo‘lgan. Hukmron tabaqayanban fuqoro va harbiy amaldorlarga aniq- ravshan ajratilgan, ma‘muriy boshqaruvni fuqaro amaldorlar olib borganlar, mamlakatning mudofaasi va davlat ishlari harbiylar tasarrufida bo‘lgan. Harbiy tashkilotning asosini davlat dehqonlarining umumiy majburiyati tashkil etgan. Harbiy xizmat yoshi 16 yoshdan 60 yoshgacha qilib belgilangan. Safarbar qilingan dehqonlardan harbiy maqsadlarda ham, saroylar, kal’alar, yo‘llar, kanallar va boshqa turli-tuman ishlarda ham foydalanganlar. Armiyada bo‘lgan dehqonlarning xarajatlarini ularning hamqishloqlari qoplashgan. Odatda 4-5 xonadon bevosita harbiy xizmat qilish uchun bitta jangchi ajratib bergan, qolganlar harbiy xizmatga loyiq deb topilganlar jangchi va uning oilasini boqishni o‘z zimmalariga olishgan. Biroq mamlakatning markazlashuvi unchalik mustahkam bo‘lib chiqmagan, zotan amaldor zodagonlar va budda ruhoniyatining yirik yer mulklari saqlanib qolishi barobarida bundan buyon ham mustahkamlanib borgan.

Markazlashgan davlatning tashkil topishining ijobiy natijalari tashqi bosqinchilarga qarshi muvaffaqiyatli kurashda o‘z tasirini ko‘rsatadi. Bu vaqtda Lyao imperiyasini tuzgan va Xitoy va Koreyani istilo etishga intilayotgan kidanlar katta xavf solganlar. 993-yili kidanlarning ko‘p ming kishilik armiyasi Amnokkan orqali o‘tib, Koryoga bostirib kirgan, biroq katta qarshilikka uchragan va chekinishga majbur bo‘lgan. Ammo shu bilan kidanlarning bosqinlari to‘xtab qolmagan. Koryodagi o‘zaro ichki kurashlardan foydalanib, kidanlar 1010-yili yangidan ko‘p sonli qo‘shinlarini yuborganlar, Koryo poytaxti Kegyonni qo‘lga kiritib, talon-taroj qilganlar. Biroq koreys qo‘shinlarining shimolda, kidanlarning orqa tomonidagi muvaffaqiyatli

harbiy harakatlari bosqinchilarni chekinishga majbur etgan. 1018-yilning qishida 200 ming kishilik kidan armiyasi chegara qal'alarining qattiq qarshiliklarini yengib, tezlik bilan Koryo poytaxti tomon ilgarilab borgan. Biroq bu yerda u sarkarda Kan Gamchxon tomonidan tashkil etilgan qattiq zarbaga uchragan. Koryo qo'shinlari kidan qo'shinlarining chekinish yo'llarini shimoldan kesib qo'yganlar, keyin esa, 1019-yilning boshlarida uni og'ir mag'lubiyatga uchratganlar. Kidanlar istilosi xavfi bartaraf etilgan, biroq tinchlik shartnomasi koreys qiroli tomonidan yosh kidan imperiyasi Lyaoning mustaqilligini rasmiy tan olinishi sharti bilan tuzilgan.

XI-XII asrlarda Koryoning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Madaniyat. Mamlakatning birlashtirilishi va kidanlar bilan tinchlikka erishilishi Koryo iqtisodiyotiga, qishloq xo'jaligiga va hunarmandchilikning rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan. Kidan istilolari natijasida vayron bo'lgan viloyatlar yangidan jonlanib, dehqon xo'jaliklari tiklana borgan. Ekin maydonlarining kengayishiga tashlab ketilgan ekin maydonlariga ishlov berishga talofat ko'rgan hududlar dehqonlariga berilgan, davlat imtiyozlari, ssudalari (urug', chorva mollari va asbob anjomlar) imkon yaratgan.

XII asr boshlarida xitoylik say.y.ox Syuy Szin Koryoda sug'orma dehqonchilikni keng yo-yila borganligidan guvohlik beradi: sholi maydonlari xatto tog'lik hududlarning qiyalik yerlarida ham tashkil etilgan.

Koryo feodal jamiyatining iqtisodiy asosini dehqonlarning natural xo'jaligi tashkil etgan, bunda qishloq xo'jaligi bilan sotishga yoki asosan davlatga topshirishga ketadigan gazlamalar va boshqa buyumlarni uy ishlab chiqarishi uyg'unlashgan.

Dehqonlar o'zlarining huquqiy holatlariga ko'ra ikki toifaga bo'linganlar. Ularning katta qismi yaana-yaxshi odamlar toifasiga mansub bo'lganlar. Ularga shaxsan ozod, odatda davlat yerlaridan o'zining chek yerlariga ega bo'luvchi kishilar kirgan. Ikkinchi qismi chxonin (la'natlangan kishilar) toifasiga kirgan. Erkin bo'lmagan ham xususiy, ham davlat krepostnoylari, shuningdek o'z mashg'uloti va ijtimoiy ahvoriga ko'ra ularga tenglashtirilgan (masalan sobiq

jinoyatchilar, salloklar, akrobatlar va boshqalar), lar chxoninga mansub bo'lganlar.

Asosiy davlat majburiyatlarini yer renta solig'ini to'lashi, mehnat majburiyatini bajarishi, qo'shinlarda xizmat qilishi lozim bo'lgan oddiy kishilar o'tashgan. Yer solig'i qonun bilan hosilning o'ndan biridan to'rtidan bir qismigacha belgilangan, biroq ko'pincha uning miqdori anchagina yuqori bo'lgan. Dehqonlardan turli-tuman qo'shimcha soliqlar: donni poytaxtga yetkazib berish, yo'ldagi "yo'qotishlar"ni qoplash, qirol oilasi a'zolarining to'yi va dafnlari, chet el elchilarining kelishi munosabati bilan va boshqalar uchun olingan. Yer solig'i va boshqa majburiyatlarning miqdori xususiy egalikdagi yerlarda zamindorlarning o'zlari tomonidan belgilangan.

XI-XII asrlarda yirik xususiy yer egaligi o'sa borgan, binobarin qirol xonadoni a'zolari kabi ibodatxonalar va ta'sirga ega bo'lgan mahalliy zamindorlar, u yerda yashayotgan dehqonlari bilan davlat yerlarini egallab olganlar. Ba'zan yirik zamindorlar dastlabki vaqtlarda feodal majburiyatlarni o'tashning imtiyozli shartlarini taqdim etib, davlat dehqonlarini o'zlariga og'dirib olganlar. Biroq shu tariqa yirik zamindorlarning hokimiyati ostiga (xomiyligi) tushgan davlat dehqonlari ko'p o'tmay eng shafqatsiz ekspluatatsiyaga tortilgan, huquqsiz krepostnoylarga aylanib qolganlar. Dehqonlarning davlat feodal majburiyatlari tarkibiga dehqonchilik mahsulotlari, uy hunarmandchilik buyumlari va shuningdek mahalliy kasb-kor mahsulotlari (hayvonlar terisi, baliq va.b) ni yetkazib berish kirgan. Biroq uy hunarmandchiligi va dehqonlarning kasb-korlari hukmron tabaqaning barcha extiyojlari, ayniqsa zebi-ziynat buyumlari, qurollarga va b.ga bo'lgan talablarini qondirishga qodir bo'lmagan. Shuning uchun foydali qazilmalarni qazib chiqarish, tuz tay.y.orlash, metallarga ishlov berish, qurol-yarog', chinni buyumlar, turli taqinchoqlar ishlab chiqarish davlatga tegishli hunarmandchilik sohalari hisoblangan. Paytaxtda va yirik shaharlarda davlat hunarmandchilik ustaxonalari (yetarlicha rivojlangan mehnat taqsimotiga ega bo'lgan) bo'lib, u yerda ularga biriktirib qo'yilgan davlat krepostnoylari ishlashgan. O'zlarining ishlab chiqarish malakalari va toifaviy holatlarini hunarmandlar nasldan-naslga

meros qilib koldirishgan. Davlatga qarashli bo'lgan ustaxonalar ham bo'lgan. Ular dehqon xo'jaliklari bilan birgalikda ichki savdoning asosini tashkil etganlar. Poytaxt Kegyon eng yirik savdo markazi bo'lib, bu yerda savdogarlik gildiyalari tomonidan egallab olingan katta savdo rastalari va ko'plab peshtaxtalar bo'lgan. Ayrim viloyat shaharlarida (Sogyon va b) mahalliy bozor va savdo rastalari faoliyat ko'rsatgan. X-XI asrlarda savdoning rivojlanishi munosabati bilan muomalaga metal pullar-tangalar chiqarishga urinib ko'rilgan, biroq ular ko'pga bormagan, pulning rolini esa ilgarigidek xaridorgir tovar (don, matolar) lar bajargan. Buning barchasi natural xo'jalik hukmronligi sharoitida savdo aylanmasining unchalik katta bo'lmaganligidan darak beradi. Hunarmandchilik (davlatga qarashli) va savdoning shaharlarda rivojlanishiga qaramay, shahar o'rta asr davlatining ko'proq ma'muriy markazi bo'lib qolavergan. Barcha savdo va boshqacha faoliyat shaharlarda hukumat muassasalari tomonidan qattiq nazorat qilingan.

Tashqi savdo (hunarmandchilik buyumlari va va boshqa tovarlarni chetga chiqarish) hukmron tabaqaning daromad manbai bo'lib xizmat qilgan. Koryo Sunlar Xitoyi, chjurchjenlar, Yaponiya bilan gavjum savdoni yo'lga qo'ygan. 1024-1040-yillarda Koryoda xatto arab savdogorlari (koreys manbalari bo'yicha fors davlatidan) bo'lishgan. Ular bu yerga simob, xushbo'y moddalar, dori-darmon va boshqa tavarlarni oltin, kumush va ipakka ayirboshlash uchun olib kelganlar. Koryo uchun Sun Xitoyi bilan savdo qilish katta ahamiyatga ega bo'lgan, u yerdan kitoblar (buddaviylik va konfutsiylik mazmunidagi va shuningdek badiiy adabiyot), yuqori navli ipak, chinni, dori-darmonlar xushbo'y moddalar va boshqa tavarlar keltirilgan. Xanchjouga kelgan koreys savdogarlari o'z yurtlariga jenshen va noyob dori-darmonlar, mis va kumush, qog'oz va boshqa mahsulotlarni olib ketishgan. Chjurchjenlardan koreyslar mo'yna, otlar, teri, kamon va paykonlarni oziq-ovqat, mato va boshqa tavarlarga ayirboshlab olishgan. Yaponiyadan mis va oltingugurt olib kelishgan, yaponlarga esa oziq-ovqat va hunarmandchilik buyumlari sotishgan. Xitoyda ishlab chiqarilgan tavarlarni Yaponiyaga olib chiqib sotish muhim o'rin egallagan.

Ichki va tashqi savdoning anchayin salmoqli ko‘lamiga qaramay, savdogarlar mustaqil ijtimoiy kuch sifatida namoyon bo‘lmagan, balki zamindorlar va budda ibodatxonalarining agentlari sifatida faoliyat ko‘rsatishgan va ularning faoliyatlari feodal hokimiyati tomonidan qattiq nazorat qilingan.

Koryo markazlashgan davlatning tashkil topishi bilan madaniyatning rivojlanishida ham muayyan o‘zgarishlar ro‘y bergan. 958-yili amaldorlik unvonlari uchun davlat imtixonlarining xitoycha tizimi joriy qilingan, 992-yili hukumat amaldorlarini tayyorlash uchun konfutsiylik oliy maktabi ochilgan, XI asrda ko‘plab konfutsiylik adabiyoti keltirilgan, oqibatda saroy kutubxonasidagi Xitoy kitoblari soni bir necha mingtaga yetgan. Xususan maktablarning paydo bo‘lishi konfutsiylik olimlari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan. Ayniqsa buddizmning davlat dini sifatidagi roli o‘sgan. Budda ibodatxonalarining vakillari ko‘pincha davlat ishlariga hal etuvchi ta’sir ko‘rsatganlar. Buddaviylik ruhoniylari zamindor zodagonlarning yuqori tabaqasini ko‘plab vakillari bilan kengayib borgan. Buddizmning Koryodagi mafkuraviy rolini kuchayishi bilan budda adabiyoti ko‘plab miqdorda nashir etilib borgan, budda ibodatxonalarining qurilishi esa me’morchilik, xaykaltaroshlik va amaliy san’atining rivojlanishini muhim jihatlarni belgilab berar edi. Qirol Munjon (1047-1083) ning boshqaruvi davrida “budda diniy adabiyoti” “Techangyon” (Koryo “Tripitaka” si) to‘liq matnlari tushirilgan taxta bosma bloklarini tayyorlash bo‘yicha 60 -yil mobaynida davom etgan ish yakuniga yetkazilgan. 1097-yili Kegyon yonida ulkan budda Xinvon ibodatxonasining qurilishi yakunlangan. Biroq bu me’morchilik durdonasi mo‘g‘ul bosqinchilari tomonidan keyinchalik talon-taroj qilinib, yondirib yuborilgan.

Budda adabiyotining monumental nashrlari kitob nashr etishning rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratgan. O‘yma yog‘och bosma bloklarining beso‘naqayligi, ularni ko‘p miqdorda tayyorlashning kiyinligi boshqa yo‘llarni izlashga va nihoyat metal xarflarni kashf etilishiga olib kelgan.

Koryo davlatining zaiflashuvi. XII asr boshlaridan boshlab Koryo markazlashgan davlatining zaiflashuvi alomatlari yaqqol ko‘rina borgan. Davlat yerlarini va u yerda istiqomat qilayotgan dehqonlarni yuqori tabaqa zodagonlar (ko‘proq qirol qarindoshlari tomonidan), budda ibodatxonalari va yirik amaldorlar tomonidan egallab olinishi buning asosiy sababi bo‘lgan. Davlat yer fondining qisqarishi hukumatni amaldorlarga xizmati uchun yer in‘om etishdan (XI asr ikkinchi yarmida) voz kechishga majbur etgan, biroq zodagonlar yuqori tabaqa vakillariga turli xizmatlar uchun yer taqsimlab berishga chek qo‘yilmagan.

Yirik zamindor udel egalari o‘zlarining qurolli otryadlarini tuza borganlar. Budda manastirlari qurollangan manaxlardan otryadlar shakllantirganlar. Hukmron tabaqa ichida hokimiyat uchun, qirol hokimiyatiga ta‘sir va yer egaligi uchun kurash poytaxt va viloyatlar zodagonlari o‘rtasidagi, dunyoviy va diniy feodallar o‘rtasidagi shuningdek amaldor harbiy dvoryanlar o‘rtasidagi kurashga qo‘shilib ketgan. 1126-yili qurolli kurash yirik zamindor Li Jagyomning (qirol(van) Injonning qayniotasi) hokimiyatni egallab olish uchun va o‘zini vandan yuqori qo‘yishga urinishi munosabati bilan poytaxt Kegyon ko‘chalariga yo-yilib ketgan. Li Jagyomni quvg‘in qilinishiga qaramay, o‘zaro ichki urush susaymagan. Bu kurashni Koryo davlatini o‘z hukmronligiga bo‘ysundirishga intilayotgan, Shimoliy Xitoydagi Szin sulolasiga asos solgan chjurchjenlar tomonidan yuzaga kelgan yangi tashqi xavf ham to‘xtata olmadi. Chujurchjenlar bilan avj olgan kurash bahonasi bilan mamlakatning shimoli-g‘arbiy qismi zamindorlari budda manaxi Myochxon boshchiligida o‘zlari uchun hukmronlik xolatiga erishishni ko‘zlab poytaxtni Sogyon (hozirgi Pxenyan) ga kcho‘irmoqchi bo‘lganlar. Poytaxt (Kegyon) aristokratiyasi qarshiligiga uchrab, ular shimoli-g‘arbiy rayonni alohida davlat-Buyuk ishlar davlatiga ajralganligini oshkora e‘lon qilganlar. Zamindorlarning separastik chiqishlariga norozi dehqonlarning anchagina qismi ham qo‘shilganliklari ehtimoli yo‘q emas. Poytaxt zamindorlari Kim Busik boshchiligida 1136-yili bu chiqishni qurolli kuch bilan bostirishga muvaffaq bo‘lganlarida, hukumat qo‘shinlari qo‘zg‘alon

qatnashchilaridan shafqatsiz o'ch olishgan. Shunday qilib, Koryo amaldor zamindorlarining markaziy hukumatni mustahkamlashga intilgan (konfutsiylik tamo-yillari ruhida), tashqi siyosatda esa chujurchjenlar bilan munosabatlarni tinchlik bilan izga solish yo'lini yoqlagan qismi tantana qilgan.

XII asr ikkinchi yarmida zamindorlarning o'zaro ichki kurashlari kuchaygan. Yuqori amaldor zodagonlar va budda manaxlaridan norozi dvoryanlarning harbiy guruhi 1170-yili qirol Idjonning yaqin kishilarini qirib yuborgan va uni taxtdan ag'darib tashlagan. Harbiy dvoryanlar tomonidan hokimiyatni bosib olinishi yangi ichki kurash va urushlarga yo'l ochgan.

Joylarda yirik yer egaligining o'sishi bilan misli ko'rilmagan feodal zulmning kuchayishi kuzatiladi. Dehqonlarning ahvoli ularga xonavayronlik va kulfatlar keltirgan uzluksiz feodal urushlar bilan yanada og'irlashgan. Dehqonlar o'z xo'jaliklarini tashlab ketganlar, qochib borib qo'zg'alonchilarga qo'shilganlar, 70-yillardan boshlab aloxida dehqon chiqishlari ommaviy qo'zg'alonlarga aylanib ketgan.

1176-yili Myonxvakso (Yangvan muzofoti, Konju viloyati) qishlog'ini davlat krepostnoylari qo'zg'alon ko'tarishgan, tez orada ularga dehqonlarning yangi ommasi qo'shilgan. Mani boshchiligidagi qo'zg'alonchilar viloyat ma'muriy markazi Konjuni qo'lga olganlar va u yerda hukumat aslaxaxonalaridan qurollarni qo'lga kiritganlar. Poytaxtdan yuborilgan hukumat qo'shinlarining uch ming kishilik otryadi mag'lubiyatga uchragan, shuning uchun zamindorlar yon berishga majbur bo'lganlar, Myonxvakso aholisini krepostnoy xolatidan ozod qilganlar. Biroq qo'zg'alon markaziga jazo otryadi yuborilayotganidan xabar topgan Mani hukumat qo'shinlari bilan kurashni yangidan boshlab yuborgan, poytaxtga xavf solgan. Ayni vaqtda mamlakatni janubi va shimolida boshqa qo'zg'alonlar ham boshlangan, biroq qo'zg'alonchilarning kuchlari tarqoq bo'lib qolganligi uchun zamindorlar ularni bittama-bitta bostirganlar. 1177-yili muzokaralar chog'ida Mani qo'lga olingan va qattiq qiynoqlardan so'ng qatl etilgan. Shimolda qo'zg'alon ko'targanlarning (Kim Danning va b ning) otryadlari ham tor-mor keltirilgan.

Qo'zg'alonlarning yangi to'liqini (Kim Sami, Xyo Sim va.b boshchiligida) 1193-1194-yillarda ko'tarilgan. Dehqonlarning qudratli harakatlari yer egalari hukmronligini bo'shashtirgan, zamindor zodagonlar va ibodatxonalar tomonidan yerlarni egallab olinishini tiyib turgan, davlat dehqonlarining xususiy egalikdagi krepastnoylarga aylanishiga to'sqinlik qilgan. Feodal zulmning o'sishini tiyganliklari holda, mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishida ham harakatlari muayyan ijobiy rol ham o'ynagan. Harbiy zamindorlardan biri Chxve Chxunxon 1198-yili hokimiyatga kelgandan so'ng dehqonlarga qarshi qatag'on choralarini ko'ribgina qolmay, balki yer egalari zulmini yumshatish bo'yicha ba'zi bir chora- tadbirlarni ham amalga oshirilgan. U zamindorlarning yerlarni egallab olishlarini cheklab, xaddan tashqari og'ir soliqlarni ta'qiqlagan. Biroq bu siyosat Chxve Chxunxonning o'z ta'sirini kuchaytirishnigina ko'zlagan, zero uning o'zi ulkan yer maydonlari va mamlakatning boshqa boyliklarini egallagan bo'lsin, yirik yer egaligini bundan buyon o'sishini to'xtatishni ham, xalq ommasini tinchlantirishni ham uddalay olmagan. XIII asr boshlaridayoq dehqonlarning yangi qo'zg'alonlari ko'paygan. Chekka hududlarda muxolif kayfiyatdagi zamindorlar markaziy hokimiyatga qarshi bosh ko'targanlar.

Koryo xalqining mo'g'ul istilosiga qarshi kurashi. Koreyada mo'g'ullar zulmi. Mo'g'ul qo'shinlari ilk bor Koryoda 1218-yili paydo bo'lganlar. Ular Koryo hukumatidan shu qadar og'ir o'lponlar talab qilganlarki, bu esa umumiy norozilikni uyg'otgan. 1225-yili Koreyadan qaytayotgan mo'g'ul elchisining o'ldirilishi mo'g'ullar bilan Koryo hukumati o'rtasidagi munosabatlarni uzilishiga olib kelgan, mazkur insident mo'g'ullar tomonidan Koryoga yurish uyushtirish uchun bahona bo'lgan. 1231-yili Koreyaga bostirib kirgan Salitoy boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari xalq ommasining ayovsiz qarshiligiga uchragan. Uncha katta bo'lmagan Kudju (hozirgi Kuson) qal'asining himoyachilari qal'alarni shturm qilish uchun turli-tuman maxsus aslahalardan foydalangan mo'g'ul armiyasining xujumlarini 30 kun davomida qaytarib turishgan. Chxundju shahri himoyachilari mo'g'ul qo'shinlarining mamlakat janubiga harakatlanish yo'lini to'sib

qo‘yganlar. Biroq poytaxt ustida xavf paydo bo‘lganda Chxve U (Chxve Chxunxonning o‘g‘li) boshqaruvidagi hukmron guruh istilochilar bilan muzokaraga kirishgan va mo‘g‘ullar tomonidan majburan qabul qildirilgan shartlarda: kiyim-kechaklar, mo‘yna, otlar bilan katta miqdorda o‘lpon to‘lash sharti bilan sulh tuzgan.

1232-yilning boshlarida katta o‘lja (oltin, kumush, mo‘yna) ni qo‘lga kiritib, mo‘g‘ul qo‘shinlarining katta qismi Mo‘g‘ulustonga qaytgan, Koryoda esa mamlakat butun hayotini o‘z nazoratiga olishga intilayotgan 70 nafar mo‘g‘ul noiblari qolgan. Mo‘g‘ul noiblarining o‘zboshimchaliklaridan, og‘ir o‘lponlardan, ayniqsa mo‘g‘ullarga zodagon oilalardan bo‘lgan ikki ming o‘smir va qizlarni berish talabidan norozi bo‘lgan koreys hukmdorlari mo‘g‘ul noiblarini qirib tashlaganlar va mo‘g‘ullar uchun o‘tib bo‘lmaydigan Kando (Kaxva) oroliga yashiringanlar. Zamindor zodagonlarning kochib ketishi mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashni susaytirgan. To‘g‘ri, o‘zlari turgan xavfsiz joydan turib yer egalari xalqni qarshilik ko‘rsatishga chaqirganlar, ammo ular shuningdek, aholini ularga soliqlarni to‘g‘ri to‘lashga, mehnat majburiyatlarini, shu jumladan Kando orolidagi yangi poytaxtni qurilishi bo‘yicha yumushlarni bajarilishini talab etganlar. 1232-yili Kegyonda davlat krepostnoylari (nobi) va davlat dehqonlarining qo‘zg‘aloni sodir bo‘lgan, ular shaharda qolgan zodagonlarni yo‘q qilib, mol-mulklarini kambag‘allar o‘rtasida taqsimlab berganlar va Kando orolida biqinib olgan zamindorarga qarshi kurashga tayyorlanishgan. Hukumat qo‘shinlarining yirik kuchlari bu qo‘zg‘alonni bostirgan. Krepostnoylar va davlat dehqonlarining qo‘zg‘alonlari keyingi -yillarda Sogyon, Tongyon (Kyondju), Nadju va boshqa joylarda sodir bo‘lgan, biroq ularning barchasi mo‘g‘ullar bilan faol kurash olib bormagan hukumat qo‘shinlari tomonidan bostirilgan.

Mo‘g‘ul noiblarining o‘ldirilishi va Koryo feodallarining Kandoga qochib ketishlariga javoban mo‘g‘ullar 1232-yili Koreyaga yana o‘z qo‘shinlarini yuborganlar va bu yerda daxshatli talon-tarojliklar, kirg‘in-barotlarni sodir etishgan. Keying 20 -yil ichida yana besh marta bundan kam bo‘lmagan mo‘g‘ul armiyalarining hamma joyni vayron qiluvchi yurishlari sodir bo‘lgan.

Butun mamlakat xoldan toygan va xonavayron bo'lgan. 1253-yili amaldorlardan biri qirolga "xalqda har o'n kishidan ikki yoki uch kishi omon qolgan" deya ma'lumot beradi. 1254-yilgi yangi bosqinchilik yurishi oqibatida 207 ming kishi asir olingan va haydab ketilgan. 1257-yili mo'g'ullar so'nggi omon qolgan shaharlarni vayron qilib, yana minglab kishilarni haydab ketganlar.

Mo'g'ullarning mamlakat janubiy rayonlariga bostirib kirishi Kandodagi zamindorlarni ta'minot manбайдan maxrum etgan. Oqibatda Koryo hukumati Kegyonga qaytishga va mamlakatda mo'g'ul hukmronligini tan olish majburiyatini olgan. Koreys zamindorlari mo'g'ul bosqinchilari xohish-irodasining itoatkor ijrochilari bo'lib qolishgan.

Haddan tashqari xonavayron bo'lgan mamlakatda ko'payib borgan yig'imlar norozilikning yangi portlashini keltirib chiqargan. Bunday vaziyatda davlat dehqonlari va krenostnaylardan yig'ilgan "uch maxsus korpus" qo'shinining qo'zg'aloni ko'targan. Maskur qo'shin muntazam tuzilma bo'lib, Chxve urug'idan bo'lgan hukmdorlar tomonidan Kando mudofaasi uchun tuzilgan edi. 1270-yili saroyni Kegyonga ko'chirilishi munosabati bilan mo'g'ullar oroldagi barcha istehkomlarni buzib tashlashni va materikka ketishni taklif etganlarida qo'shinlar hukumat buyruqlariga bo'ysunmaganlar. Qo'zg'alon ko'targanlar hukmron urug' vakillaridan birini qirol deb e'lon qilganlar, so'ng esa Chedjudo orolini egalashgan va bu yerdan turib hukumat qo'shinlariga xujum qilganlar va yarim oroldagi mo'g'ullarga qarshi xalq qo'zg'alonlarini qo'llab-quvvatlaganlar. Ayovsiz kurash uch -yil davom etgan. Mo'g'ullarning faol yordamida Koryo hukumati Chedjudodagi qo'zg'alon ko'targanlarni tor-mor qilishga muvaffak bo'lgan. Bu chiqishlarni bostirilishi bilangina butun mamlakatda mo'g'ullarning hukmronligi qaror topgan.

Mo'g'ul imperatori Xubilay Koreyani Yaponiyani istilo etish uchun tayanch joyga aylantirishga intilgan. Ko'p sonli kemalarni qurilishi, Yaponiyaga tushirilishi mo'ljallangan ulkan armiya uchun oziq-ovqat jamg'arish, mo'g'ul yurishlarida bevosita ishtirok etishga askarlarni safarbar etish xonavayron bo'lgan Koreya aholisi yelkasiga

og'ir yuk bo'lib tushgan. Faqat 1274-yilgi yurishda 8000 koreyalik piyoda askarlar va 6700 nafar dengizchilar ishtirok etgan. Ikkinchi yurish (1281) vaqtida mo'g'ullar 900 ta kema va ulkan miqdordagi oziq-ovqat yetkazib berishni talab etishgan. Koryo qo'shinlarining noroziligi va mo'g'ullarning harbiy ekspeditsiyasida ishtirok etishni xohlamasliklari uning barbod bo'lishida o'z rolini o'ynagan.

Biroq shundan keyin ham mo'g'ullar ilgorigidek Yaponiya hukumatini nazorat qilib turuvchi, ular tomonidan tuzilgan "Sharqiy yurish boshqarmasi"ni saqlab qolganlar. Koryo qiroli bu organning uchta boshqaruvchisidan birigina bo'lib, uning ikki a'zosi mo'g'ullardan tayinlangan. Bu boshqarma mamlakatdagi barcha ma'muriy hokimiyatni egallab olib, alohida sud va politsiya organlarini tasarruf etgan. Koreys aholisini bostirib turish maqsadlariga mamlakatda mo'g'ul harbiy manzilgohlarining joylashtirilishi ham xizmat qilgan.

Mo'g'ul zulmi yer egalari jabru-zulmini ko'p martalab kuchayishiga olib keladi. Odamlarning qullikka haydab ketilishi va o'lpon undirib olishlar insoniy resurslarni holdan toydirgan va mamlakat boyliklarini tinka-madorini quritgan. Ba'zan faqatgina mo'g'ul otliqlarini bokishgagina 150 ming qop don yig'ib olganlar. Koreys aholisidan mo'g'ul harbiy manzilgoxlarini ta'minlash uchun chorva mollari, asbob-uskunalar, urug'larni tortib olishgan. Odatdagi don o'lponidan tashqari mo'g'ullar oltin, mis va boshqa metallar, qurilish materiallarini muntazam yoki favqulodda yetkazib berilishini talab qilganlar, Mo'g'ulistonga ko'plab usta-hunarmandlarni olib ketganlar. Mo'g'ul hukmdorlarining xaramlarini to'ldirib turish uchun ayollar va qizlarni yetkazib berishni ayniqsa tahqirlanarli holat bo'lgan.

Koreys xalqining qarshiligini falajlash uchun mo'g'ul hukmdorlari mamlakatda kamon va paykonlar ishlab chiqarishni ta'qiqlab qo'yganlar. Ular mahalliy zamindorlarning separatistik intilishlarini qo'llab-quvvatlaganlar. Mo'g'ullar Koryo davlatidan ikki viloyat: shimoli-g'arbiy va shimoli-sharqiy viloyatlarini tortib olganlar va ulardan isyonchi zamindorlar hukmdor sifatida foydalanib, ularni o'zlariga bevosita itoat etish ostiga qo'yganlar. Agarda Koryo qirollik hukumati itoatdan chiqishni o'ylab qolsa, mo'g'ullar har doim unga

mo'g'ullar ko'rsatmasi bo'yicha harakat qiladigan, itoatkor zamindorlar separatistlarni qarshi qo'yardilar. Koryoning zamindor hukmdorlari mo'g'ul malikalariga uylanishgan yoki Yuan imperiyasi poytaxti-Pekinda uzoq vaqtlar yashashgan, bu esa mo'g'ul imperiyasiga qaramlikni yanada kuchaytirgan.

Mo'g'ul zulmidan ozod bo'lingandan so'ng siyosiy kurash. Koryo sulolasining ag'darilishi. Mo'g'ullarning yuz -yillik hukmronligi mamlakatni haddan ortiq xonavayron qilgan. Davlat dehqonlarining tobora ko'plab xususiy krepostnoylariga aylantirilishi bilan feodal zulm kuchaygan. Zamindorlarning haddan ortiq soliqlari xalq hayotini chiday bo'lmaydigan xolatga keltirgan. Hamma joyda mo'g'ul bosqinchilari va koreys yer egalariga qarshi qo'zg'olonlar kelib chiqqan.

XIV asr birinchi yarmida Koreya yarim oroliga yapon qaroqchilarining xujumlari boshlangan. Qaroqchilar qirg'oq bo'yi rayonlarini ship-shiydon qilib ketganlar, ularning aholisi unumdor vodiylarni tark etib, tog'larga chiqib ketishga majbur bo'lganlar. 1356-yili yapon qaroqchilari Kyodon orolini egallaganlar va poytaxt Kyogunga xavf solishgan. Mayda va o'rta zamindorlar o'z mulklarini tashqi dushmanlardan himoya qila olmaganlar, balki ulardan yer va dehqonlarini tortib oluvchi yirik zamindorlarning o'zboshimchaliklaridan aziyat chekishgan, ular mo'g'ullar hukmronligini zudlik bilan ag'darib tashlanishi va yirik yer egalarining hokimiyatini cheklash uchun kurashishgan.

Ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi va umumiy xalq g'o'zg'olonining tobora real xavfi vaziyatida van Konminning (1352-1374) zamindorlar hukumati mo'g'ul bosqinchilarining zaiflashib qolgan hokimiyatini ag'darib tashlashga qaror qilgan. Avvaliga saroydagi mo'g'ullar parast to'dani bartaraf etib, Konmin hukumati 1356-yili mo'g'ullarni mamlakatning shimoli-sharqiy va shimoli-g'arbiy rayonlaridan haydab chiqarish uchun qo'shin jo'natgan, mo'g'ullar tomonidan tuzilgan barcha muassasalarni yo'q qilgan va hamma joylardan (1374-yildagina ozod etilgan Chedjudo orolidan tashqari) mo'g'ul manzilgohlari aholisini kuvib yuborgan.

Konmin davrida zodagonlar yuqori tabaqasi va budda ibodatxonalarining yirik yer egaligiga qarshi kurash bo'yicha extiyotkorona urinishlar bo'lgan. Kelib chiqishi zodagon oilasidan bo'lmagan, 1365-yili birinchi vazir lavozimiga tayinlangan monax Sindon zodagonlar tomonidan egallab olingan davlat yerlarini g'aznaga qaytarishga urinib ko'rgan. Sindon qaram dehqonlarning yerlarini qayta taqsimlash bo'yicha maxsus boshqarma tuzganki, u sobiq davlat yerlari va sobiq davlat dehqonlarini aniqlashi va ularni g'aznaga qaytarishi lozim bo'lgan. Bu siyosat yer egasi bo'lgan zodagonlarning juda qattiq qarshiligiga uchragan. Mayda va o'rta xizmatchi dvoryanlar orasida tashkiliy qo'llab-quvvatlanishga ega bo'lmagan Sindon mag'lubiyatga uchragan. U nafaqat ag'darib tashlanibgina qolmay, balki qirolga qarshi fitnada ayblangan va shu -yili, ya'ni 1365-yili qatl etilgan.

1374-yili mo'g'ulparastlik kayfiyatidagi zamindorlar guruhi qirol Konminning ham o'zini o'ldirtirganlar. Shundan so'ng tiyiqsiz tarzda yerlarni egallab olishga kirishganlar. O'z yerlarini saqlab qolishdan va mamlakatning siyosiy tarqoqligidan manfaatdor bo'lgan yirik yer egalari bilan markazlashgan davlatni mustahkamlash tarafdorlari o'rtasidagi kurash o'tkir xarakter kasb etgan. Ular o'rtasidagi kelishmovchiliklar tashqi siyosatga ham dahldor bo'lgan. Hatto oshkora mo'g'ulparast to'da ag'darilganidan so'ng ham eski zodagonlar mo'g'ul xoni bilan aloqalarni saqlab qolishga intilishgan. Ayni vaqtda xitoydagi hokimiyatga kelgan Min sulolasi o'lpon talab qilgan va o'zining hududiy da'volarini bildirgan. Natijada mojaro kelib chiqqan vaqtda hukmron guruh xitoyliklarga xujum qilish uchun qo'shin yuborgan, Koryo harbiy boshliqlaridan Li Songe jangchilarni qo'zg'alonga ko'targan. U jangchilarga o'zini nutqi bilan murojaat qilgan, unda u xalqni barcha kulfatlari va azob-uqubatlarida hukmron zodagonlarni ayblaydi. Qo'zg'alon ko'targan qo'shinlar poytaxt sari yo'l olganlar. Eski Koryo zodagonlari hukumatini ag'darib tashlanishi natijasida hokimiyat Li Songe va islohot tarafdori bo'lgan boshqa dvoryanlar qo'lga o'tadi (1388). Bu guruh Min imperiyasi bilan munosabatlarni tinchlik yo'li bilan tartibga solish va markazlashgan davlatni mustahkamlash yo'lini tutadi.

Li Songe va uning tarafdorlari yirik zamindor zodagonlarning barcha yerga oid imtiyozlarini tugatishga kirishganlar va 1391-yili amaldorlarning chek yerlari haqida qonun (kvadjon pop) chiqarganlar, bunga ko‘ra yerga nisbatan oliy davlat mulkchiligi tiklangan. Bu qonunga ko‘ra barcha yerlar markaziy hukumatning tasarrufiga o‘tgan, faqat ugina yerga bo‘lgan hukukni belgilay olgan. Shunday qilib, udel knyazlarning hokimiyatining tugatish va mamlakatni yangi siyosiy birlashuvi uchun asos yaratilgan. Davlat yer egasi sifatida barcha yerlardan hosilning o‘ndan bir qismi miqdorida soliq yig‘ib olish huquqiga ega bo‘lgan. G‘azna daromadlarining asosiy manbai davlat dehqonlarining to‘laydigan soliqlari bo‘lib, ular shu bilan birga turli-tuman majburiyatlarni o‘tashlari lozim bo‘lgan. Biroq davlat mulki yirik zamindorlarning xususiy mulkchiligini aslo inkor etmagan. To‘g‘ri, separatistik tendensiyalarni cheklash uchun yangi qonun xizmatdagi feodallarga yer bo‘lib berishga poytaxt viloyati doirasidagina izn bergan. Fuqaro va harbiy amaldorlarning yer nedellari ularga berilgan martabalarga muvofiq (ular 18 ta bo‘lgan) belgilangan. Davlat soliqlaridan ozod etilgan mayda nadellar bu qonunga ko‘ra past tabaqa kishilariga harbiy xizmat o‘taganlik uchun, pochta stansiyalari va pristanlarni saqlaganlik uchun, davlat uchun buyumlar ishlab chiqarish bilan mashg‘ul bo‘lgan hunarmandlarga ham berilgan.

Yer nadellari to‘g‘risidagi qonun yer mulklarning zodagonlar qo‘llaridan Li Songe hokimiyatini qo‘llab-quvvatlovchi xizmatdagi dvoryanlarning qo‘liga o‘tishiga olib kelgan, binobarin eski sulola o‘z tayanchini yo‘qotgan. Koryo vakillaridan (vanlardan) oxirgisini badarg‘a qilib, 1392-yili Li Songe o‘zini monarx (van) deb e‘lon qilgan. U yangi sulolaning asoschisi bo‘lib qolgan, uning davrida davlat Choson deb atala boshlangan, poytaxt esa Seulga ko‘chirilgan (Li sulolasi Koreyani 1910-yilgacha boshqargan).

Li sulolasi davrida markazlashgan davlatning mustahkamlanishi, Mamlakat xavfsizligining mustahkamlanishi . Yangi sulola hukmdorlarining siyosati yerga bo‘lgan davlat mulkchiligi asosida mamlakat markazlashishini mustahkamlashga qaratilgan. Barcha yerlar ustidan davlat nazorating ta‘minlash uchun hukumat bir

necha bor haydaladigan yerlarni mavjud fondini tekshiruvini o‘tkazgan. Natijada butun-butun viloyatlar chekka hududlardagi zamindorlarning mustaqilligiga qarshi kurashayotgan davlatning yangidan nazorati ostiga o‘tgan, shuning uchun barcha xususiy harbiy tuzilmalar ham ta’qiqlangan.

Buddaviylik ibodatxonalari separatistik tendensiyalarning tayanchi bo‘lib qolayotgan edi, shuning uchun Li sulolasi hukumati bir necha bor (1392, 1402 va 1424-yillarda) ibodatxonalarga tegishli bo‘lgan yerlar va krepostnoylarni katta ko‘lamdagi musodalarini o‘tkazgan. Buddaviylik buning narijasida mavjud mafkuraviy va siyosiy ahamiyatini yo‘qotgan, markazlashgan davlatni mustahkamlashga va feodal tartiblarni abadiylashtirishga chaqiruvchi neokonfutsiylik (Chju Si ta’limoti) Li sulolasi davrida rasmiy mafkura bo‘lib qolgan.

Li sulolasi birinchi vakillarining siyosati Koryoning so‘nggi - yillarida haddan tashqari keskinlashgan ijtimoiy ziddiyatlarni bir qadar yumshatish maqsadini ko‘zlagan. Aynan shuning uchun ham budda ibodatxonalari va eski Koryo zodagonlariga tegishli bo‘lgan ko‘plab dehqonlar krepostnoylik holatidan ozod qilinganlar. Ularni davlat dehqonlariga aylantirilishi esa markazlashgan davlatni iqtisodiy va harbiy jihatlardan mustahkamlanishida ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Li Songe va uning vorislari davrida markaziy va mahalliy davlat apparati shakllantirilgan. Qonunlar bilan monax (van)ning cheklanmagan hokimiyati tan olingan, u xudoga tenglashtirilgan. Mamlakatni boshqarishni ko‘p sonli poytaxt hukumat muassasalari amalga oshirganlar. Ular ichida eng asosiysi davlat kengashi (Iy jonbu) va olti idora (cho): amaldorlar, moliya, udumlar va shuningdek harbiy, jazolash va jamoat ishlari idoralari bo‘lgan. Ma’muriy jihatdan mamlakat sakkizta muzofot (do) ga bo‘lingan, ularning har biri okrug va uyezdlarga bo‘lingan, uyezdlar esa bir necha qishloqlardan iborat bo‘lgan volostlarga bo‘lingan.

Ma’muriy tuzilishga mamlakatning harbiy tuzilishi ham mos bo‘lgan, bunda uncha katta bo‘lmagan harbiy kuchlar poytaxtda to‘plangan. Markazlashtirilgan harbiy tizim davlat dehqonlarining 16

yoshdan 60 yoshgacha umumiy harbiy majburiyatiga asoslangan. Markazlashgan davlatning tuzilishi yirik zamindorlar tomonidan bo'ladigan o'zboshimchaliklarni cheklagan, lekin shu bilan birga barcha yer egalari dehqonlarni davlatning uyushgan kuchi bilan ushlab turish imkoniyatiga ham ega bo'lganlar.

Mamlakatning tashqi ahvoli ham mustahkamlangan. Li Songening to'ntarishidan so'ng ko'p o'tmay Min sulolasi bilan yuzaga kelgan mojaro Koreyaning Xitoyga vassal qaramligini tan olish sharti bilan bartaraf etilgan. Koreya shimoldagi chjurchjenlar bilan tinchlik munosabatlarini yo'lga qo'ygan.

Yaponiya bilan munosabatlarga kelsak, Li sulolasi hukumati syogunlar bilan tinch munosabatlarni qo'llab-quvvatlashga intilgan va ayni vaqtda yapon qarokchilariga qarshi qat'iy choralarni amalga oshirgan. 1389 va 1419-yillarda dengiz ekspeditsiyalari natijasida yapon qaroqchilarining Susima orolidagi bazalari tugatilgan

XV asrning birinchi yarmida faqat poytaxt va uchta janubiy provinsiyalardagina 50ta harbiy gavan qurol-aslahalar bilan jihozlangan. Harbiy flot 600 ta kema va ming dengizchidan iborat bo'lgan. Koreya harbiy kuchlarining mustahkamlanishi oqibatida yaponlarning qaroqchilik xujumlari to'xtagan. 1443-yilgi shartnomaga ko'ra yapon savdogarlariga kelish va uchta janubiy bandargohlar, shu jumladan Pusanda savdo qilishga ruxsat berilgan, biroq keladigan savdogarlar va kemalarning soni qat'iy chegaralangan. Yaponlar Koreyaga mis, kumush, qalampir va hushbo'y buyumlar olib kirganlar, o'z yurtlariga esa bu yerdan don, paxta gazlamalar, jenshen, kitoblar olib chiqishgan. Garchi Koreyaga boshqa mamlakatlarning savdogorlari kela olsalar ham, Koreya savdogarlariga xorijga chiqish ta'qiqlangan hukumron doiralar ularning iqtisodiy qudrati o'sib ketishi mumkinligidan qo'rqqanlar. Mamlakat ichida hukmdorlar savdo va hunarmandchilikning rivojlanishini cheklab turish uchun mumkin bo'lgan barcha charalarni ko'rganlar.

XV asr birinchi yarmida iqtisodiy ko'tarilish. Markazlashgan davlatning mustahkamlanishi va yirik yer egaligiga asoslangan tizimni

tartibga solish bo'yicha islohotlar ishlab chiqarish kuchlarining, koreys jamiyati madaniyatini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Yangi unumdor rayonlarning o'zlashtirilishi va ziroatchilikni rag'batlantirish bo'yicha hukumat choralari qishloq xo'jaligining rivojlanishiga imkon yaratgan. Agrotexnika madaniyati takomillashgan: don ekinlarining yangi navlari joriy qilingan-yuqori hosilni ta'minlovchi sholi ko'chatlarini qayta ko'chirib o'tkazishni amaliyotda qo'llanilgan; irrigatsiya qurilishi kengaytirilgan, yangi texnika ekin-paxta ekish yo'lga qo'yilgan, tut va lak daraxti ekish kengaytirilgan. Hukumat agronomiya, meteorologiya va astronomiyaga oid bilimlarni tizimga solish bo'yicha choralar ko'rgan. 1429-yili Chon Chxo va boshqa olimlar tomonidan tay.y.orlangan "Qishlok xo'jaligini yuritish bo'yicha kitob" chop etilgan. Yog'ingarchilik miqdorini aniqlash uchun yomg'ir o'lchovchi asbopni qo'llaganlar. Koreys olimlari astronomik kuzatuvlar uchun burchak o'lchagichini yaratishgan, aniq vaqtni aniqlash uchun turli asboblarni yasaganlar.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi hunarmandchilikka ham daxl qilgan. Garchi gazlamalar va boshqa buyumlarni ishlab chiqarishda uy sanoati ustunlik qilsa-da, hunarmandchilik rivojlangan. Krepostnoy ustalar (kond jan) mehnati qo'llaniladigan davlat hunarmanchiligi uning ustun shakli bo'lib qolavergan. Ustaxonalarda zebi-ziynat buyumlari va qurol-yarog' ishlab chiqarilgan. Muzofotlik ustalar ko'prok poytaxt ustaxonalari uchun xomashyoga dastlabki ishlov berish bilan shug'ullanishgan. Poytaxt ustalarining hunarmandchiligi ixtisoslashishning turli-tumanligi (metallar, suyak, yog'och, teriga ishlov berish bilan, shuningdek chinni-sopol buyumlar va gazlamalar ishlab chiqarish bilan bog'lik 130 tagacha sohalar) bilan ajralib turgan. Hukumat ishlab chiqariladigan buyumlarning miqdorini ko'paytirish va sifatini ta'minlashning rag'batlantirish tizimini ham o'rnatgan, zotan ularni sotish davlat daromadlarining muhim manbaini tashkil etgan.

Davlat hunarmanchiligi bilan bir qatorda o'z buyumlarini mahalliy bozorda bevosita o'zlari yoki savdogarlar orqali sotadigan mayda ishlab chiqaruvchilarning xususiy hunarmanchiligi ham rivojlanadi. Biroq savdogarlarning asosiy ommasi yuqori tabaqaga

xizmat qilgan. Poytaxt Seulda asos solingandan ko‘p o‘tmay hukumat ko‘proq zamindorlarga xizmat qiluvchi, monopol savdo huquqiga ega bo‘lgan savdogarlar uchun butun bir ko‘chani (1399-yili 800 ta bino) ajratib bergan. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi, biroq zamindor hokimiyat o‘zboshimchaliklari va Seul gildiyalari “katta oltilik” boshchiligidagi poytaxt savdogarlarining cheklangan doirasi savdo monopoliyasi tomonidan tiyib turilgan. Hukumat savdo-hunarmand ahli ustidan nazorat va savdosini cheklash bo‘yicha maxsus choralar ko‘rgan.

Bu davr korys madaniyatining rivojlanishida van Sedjon (1419-1450) boshqaruvi davrida poytaxt dvoryanlari va amaldorlari iqtidorli vakillarini birlashtiruvchi “Donishmandlar yig‘ilishi pavil’oni” ning faoliyati muhim voqea bo‘lgan. Birinchi navbatda ular tomonidan konfutsiylik qoidalari asosida etika va yurisprudensiya masalalari ishlab chiqilgan. Tarixshunoslik fani ham mavjud tuzumni mustahkamlashning mafkura iy vazifalariga bo‘ysundirilgan. Shunday pozitsiyadan turib saroy olimlari tomonidan “Koryo tarixi” (“Koryo sa”) va o‘tgan davrlar tarixining umumiy obzorlari tay.y.orlangan. Shuningdek, podsholik qilayotgan sulolani abadiylashtirish va uning ishlarini sharaflash uchun “Asl xotiralar” batafsil tarixini yozish bo‘yicha ishlar olib borilgan. Amaliy talablar ilmiy mashg‘ulotlar doirasini kengaytirgan: olimlar tibbiyot, matematika, astronomiya, qishloq xo‘jaligi, geografiya va musiqa nazariyasi bo‘yicha asarlar yaratganlar. O‘sha davr ulug‘ olimlari ayni vaqtda hukumatda yuqori lavozimlarni egallaganlar.

Kitob bosishda harakatlanuvchi metal shriftlarni yanada keng qo‘llanilishi bilan bir qatorda 28 ta harfdan iborat alfavitli yozuvni kashf etilishi o‘sha davr madaniy hayotida yirik voqeya bo‘lib qolgan. 1443-yili saroy olimlari (Chan In Chji va.b) lar tomonidan yaratilgan bu alfavit mutloqo sodaligi bilan ajralib turgan va savodxonlikning keng yo-yilishi uchun imkoniyatlar ochgan. Biroq u diniy-ahloqiy mazmundagi kitoblarni koreys tiliga tarjima qilish uchungina mo‘ljallangan. Alfavitli yozuvning mavjudligiga qaramay, rasmiy kog‘ozlar va ilmiy-adabiy ijod tili keng omma uchun o‘zlashtirish qiyin bo‘lgan, iyeroglif yozuvli xitoy tili bo‘lib qolavergan. Bu esa avvalo amaldor yuqori tabaqaning ta’lim

va madaniyat ustidan o'z monopoliyasini o'rnatishga bo'lgan intilishi bilan izohlanadi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Koryo davlati vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari nimalardan iborat?
2. Qirol Sondjon davrida Koryoda sodir bo'lgan o'zgarishlarni izohlang.
3. XI-XII asrlarda Koryodagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sharoitida yuz bergan madaniy o'zgarishlarga tavsif bering.
4. XII asr boshlarida Koryo davlatida sodir bo'lgan zaiflashib borish jarayonining sabablari va oqibatlarini nimalardan iborat bo'ldi?
5. Koreys xalqining mo'g'ul bosqinchilariga qarshi qaxramonona kurashi nimalarda namoyon bo'lganligini izohlab bering.
6. Koreyada mo'g'ullarning yuz -yillik hukmronligi qanday oqibatlarga ega bo'lganligini chuqur tahlil eting.
7. Li sulolasi davrida Koreya (Choson) da markazlashgan davlatning mustahkamlanishi qanday jarayonlar bilan bog'lik bo'lganligini izohlang.
8. XV asr birinchi yarmida mamlakatdagi iqtisodiy ko'tarilish va madaniy taraqqiyot nimalarda namoyon bo'lgan?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Альфан Л. Великие империи варваров: от великого переселения народов до тюркских завоеваний XI века Москва. Вече. СПб, Евразия. 2006
2. Бадак А. Н. , Войнич И.Е. , Волчѣк Н.М. История средних веков- Минск: Харвест. 2000.
3. Большаков О. Г..История Халифата. Том 2. Эпоха великих завоеваний. 633-656 гг.»: Восточная литература; 2002
4. Большаков О.Г. «История Халифата. В 4 томах. Том 1. Ислам в Аравии (570-633 гг.)»: Восточная литература, 2002. Т.1.
5. Беренстен. В Империя Великих Могол. – М.: АСТ, Астрель. 2005
6. Бауэр С. У. История Средневекового мира. От Константина до первых Крестовых походов / С. У. Бауэр — «АСТ», 2010/
7. Всемирная история. Энциклопедия. Под. общ. ред. В.Макаровича и др. – Москва. : Большая Российская энциклопедия. 2003
8. Делорм.Ж. Цивилизация Возрождения. - Екатеринбург : У-Фактория. 2006 .
9. Доманин А.А. Монгольская империя Чингизидов: Чингизхан и его преемники. Москва. 2007
10. Ислам классический. Энциклопедия Москва.2005
11. История средних веков: В 2 т. Т. 1: Учебник / Под ред. С.П.Карпова. — 5-е издание. — М: Изд-во Моск. ун-та; Изд-во «Высшая школа», 2008.
12. Перну Р. Крестоносцы. – М. 2006.
13. Райс Т.Т. Византия: быт, религия, культура. –М. 2006.
14. Средние веке. Под. ред. В.П Будоновой. М. 2006.
15. Стогов Д. И. Ислам: история и современность: учеб. пособие по дисциплине «Религиоведение». СПб.: Изд-во СПбГЭТУ «ЛЭТИ», 2018.
16. Ревуненкова Н.В. Протестантизм. –СПб: Питер, 2007.
17. Тописон Э.А. Гунны: грозные воины степей. М. 2008.
18. Фильштинский И.М. История арабов и Халифата. (750-1517)-М. 2001.
19. Хитцель Ф. Османская империя. - М.: Вече, 2006.

20. Хорри К. Что такое Ислам: история и действительность-СПб. 2008.
21. Стогов Д. И. Ислам: история и современность: учеб. пособие по дисциплине «Религиоведение». СПб.: Изд-во СПбГЭТУ «ЛЭТИ», 2018.
22. Чориев З. Тарих атамаларининг изохли луғати 2-нашри-Т. 2008.
23. Ходжаев А.Х. Китайский фактор и Центральная Азия. Т. , “Фан” 2004.
24. Хан В.С Корея тарихи Т. , ”Бактрия пресс”. 2013
25. Родригес А.М. Новейшая история стран Азии и Африки. XX век. М. 2005.
26. Бузов В.И. История современного Востока XX-XXI вв страны и правители (Новейшая история стран Азии и Африки). М. 2008.
27. Родригес А.М. Стран Азии и Африки в новейшее время в вопросах “ответах. М. ,” 2008.
28. Салимов Т. Жаҳон тарихи. (Европа мамлакатлари V – XV асрлар) Тошкент: “Университет”, 2014.
29. Jacques Le Goff. Medieval Civilization 400-1500 A.D. Oxford; Cambridge: Blackwell, 2000. 393 p.

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-§. ARAB XALIFALIGI	4
2-§. TURKIYA XI-XV ASRLARDA	26
3-§. HINDISTON XIII-XV ASRLARD	51
4-§. VII-XV ASRLARDA XITOIY	67
5-§. MO‘G‘UL DAVLATINING TASHKIL	120
TOPISHI	
6-§. YAPONIYA X-XV ASRLARDA	145
7-§. KOREYA X-XV ASRLARDA	164
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI	185

RUSTAMBOYEV ISLOMJON DONIYOR O‘G‘LI

JAHON TARIXI

(Osiyo mamlakatlari rivojlangan o‘rta asrlar tarixi)

Uslubiy qo‘llanma

Bosishga ruxsat etildi. 19.12.2025 y.

Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman
garniturasida terildi.

Ofset uslubida oq qog‘ozda chop etildi.

Nashriyot hisob tabog‘i 11.75, Adadi 50. Buyurtma № 08-01

Bahosi kelishuv asosida.

«ZUXRO BARAKA BIZNES» MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahar, Chilonzor tumani,

Bunyodkor shoh ko‘chasi 27 A–uy.